


O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`lim vazirligi  
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti  
«Milliy g`oya, ma`naviyat asoslari va huquq ta`limi» kafedrasи

# «MADANIYATSHUNOSLIK ASOSLARI»

Fani buyicha

## Ma`ruza matnlari

Lektor assistant o`qituvchi K.Alimov



Nukus – 2012

**MA`RUZA MATNLARI MAZMUNI**

1-ma`ruza	<b>MADANIYATSHUNOSLIK FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI.</b>	
	<p>1. Madaniyatshunoslik fanining predmeti. Uning boshqa fanlar bilan aloqadorligi. Uning: a) fanlar bilan, b) ma`naviy fazilatlar bilan bog`liqligi.</p> <p>2. Madaniyat tushunchasi ta`rifi. Bu tushuncha talqiniga turlicha yondashuvlar.</p> <p>3. Madaniyat va faoliyat. Madaniyat va shaxs kamoloti. Madaniyatning inson va jamiyat hayotida tutgan o`rni.</p>	
2-ma`ruza	<b>MADANIY TARAQQIYOTNING ASOSIY QONUNIYATLARI</b>	
	<p>1. Moddiy va ma`naviy madaniyat – madaniyatning ikki sohasi. Ularning o`zaro bog`liqligi.</p> <p>2. Jamiyat hayotida madaniyatning asosiy vazifalari. Madaniyatning asosiy tizimlari.</p> <p>3. Madaniyat taraqqiyotida qadriyatlarning o`rni.</p> <p>4. Vorisiylik, tadrijiylik – madaniy taraqqiyotning asosiy qonuniyati.</p>	
3-ma`ruza	<b>MADANIY TARAQQIYOT VA MA`NAVIY MEROS</b>	
4-ma`ruza	<b> MILLIY MADANIYATLAR RIVOJLANISHINING NAZARIY MASALALARI</b>	
5-ma`ruza	<b>JAHON MADANIYATI BOSQICHLARI</b>	
6-ma`ruza	<b>IBTIDOIY DAVR MADANIYATI</b>	
7-ma`ruza	<b>QADIMGI DAVR MADANIYATI MISR MADANIYATI</b>	
8-ma`ruza	<b>DUNYOVİY VA DINİY MADANIYAT</b>	
9-ma`ruza	<b>TEXNOGEN VA ZAMONAVİY MADANIYAT (XVI-XX ASRLAR)</b>	
10-ma`ruza	<b>MARKAZIY OSIYO XALQLARINING QADIMGI MADANIYATI</b>	
11-ma`ruza	<b>MARKAZIY OSIYO XALQLARINING V-VIII ASRLARDAGI İJTIMOİY, MADANIY HAYOTI</b>	
12-ma`ruza	<b>AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI MADANIYATI</b>	
13-ma`ruza	<b>XVI -XIX ASR BİRİNCHİ YARMIDA O`ZBEK MADANIYATINING HOLATI</b>	
14-ma`ruza	<b>MUSTAMLAKA VA MUSTABID TUZUM SHAROITIDA MADANIYAT</b>	
15-ma`ruza	<b>MUSTAQILLIK VA MADANIY TARAQQIYOT</b>	

## Ma`ruza – 1. MADANIYATSHUNOSLIK FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI.

### ReJA:

4. Madaniyatshunoslik fanining predmeti. Uning boshqa fanlar bilan aloqadorligi. Uning:  
a) fanlar bilan, b) ma`naviy fazilatlar bilan bog`liqligi.
5. Madaniyat tushunchasi ta`rifi. Bu tushuncha talqiniga turlicha yondashuvlar.
6. Madaniyat va faoliyat. Madaniyat va shaxs kamoloti. Madaniyatning inson va jamiyat hayotida tutgan o`rni.

**Madaniyatshunoslik fanining maqsadi.** Vatanimizning kelajagi bo`lgan yosh avlodning ma`naviy olamini boy, har sohada barkamol qilib tarbiyalash uchun butun insoniyat necha ming yillar davomida yaratgan moddiy va ma`naviy madaniyat xazinalaridan bahramand etish, unda barcha xalqlarga hurmat, milliy iftixor, vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg`ularini uyg`otish va shakllantirishdan iborat.

Shu oljanob maqsadga xizmat qilgani uchun madaniyatshunoslik fanining predmeti, ob`ektlari butun insoniyat ko`p asrlar davomida yaratgan moddiy va ma`naviy madaniyat xazinalaridir.

Madaniyatshunoslik turli belgilariga ko`ra, quyidagi sohalarga, shakllarga va ko`rinishlarga bo`linadi:

1. Madaniyat sohalari bo`yicha quyidagicha tasnif qilinadi:

a) **Iqtisodiy madaniyat** (bu soha ishlab chiqarish madaniyati, taqsimot madaniyati, ayirboshlash madaniyati, iste`mol madaniyati, boshqaruv madaniyati, mehnat madaniyati kabi turlarni o`z ichiga oladi).

b) **Siyosiy madaniyat:** jamiyatda siyosiy madaniyat taraqqiyot ko`rsatkichlari – shaxsning fuqarolik va siyosiy huquqlari borligidir. Bu huquqlar xalqaro mezonlarga mosligi, amalda qo`llanishi, partiylar o`rtasidagi kurashlarning usul va shakllari va hokazolar bilan belgilanadi.

Siyosiy madaniyat - insonlarning siyosiy manfaatlari, e`tiqodlari, maqsadlarini ifodalovchi siyosiy - huquqiy g`oyalalar majmuidir. Siyosiy madaniyat ma`naviy qadriyatlarga aloqadordir. Bu madaniyat turi tarixiy taraqqiyot jarayonida jamiyatning ijtimoiy tabaqalari manfaatlariga, jamiyatning T'f1T'e8T'b8T'f1T'e8T'e9 faoliyatiga bog`liq holda vujudga keladi. Siyosiy madaniyat inson faoliyatining bir ko`rinishi bo`lib, uning tabiatida qayta yaratish va uni tarbiyalash jarayonlarini qamrab oladi.

Siyosiy faoliyat amaliy jihatdan ijtimoiy guruhlarning siyosiy hokimiyatga ta`sirida namoyon bo`ladi. Ma`naviy tomondan esa tabaqlashtirilgan ijtimoiy munosabatlarni anglab etish, dasturlar ishlab chiqish, muayyan siyosiy g`oyalarni targ`ib qilishni nazarda tutadi. Mafkura, siyosiy tajriba va an`analar, siyosiy tashkilotlar, siyosiy faoliyat kabilar siyosiy madaniyatni hayotga tatbiq qilish omillaridir.

v) **Kasb mahorati madaniyati** : aniq mehnat turi bilan bog`liq maxsus nazariy bilim va amaliy ko`nikmalar yig`indisidan iborat.

g) **Pedagogik mahorat madaniyati** – ilmiy bilimlarni va axloqiy qadriyatlarni mazkur jamiyatdagi yosh avlodga etkazishdan iborat.

d) **Ekologik madaniyat** – inson va tabiat o`rtasidagi munosabatlarni qamrab oladi. Bu soha madaniyatshunoslikka oid tadqiqotlarda eng faol rivojlanib borayotgan sohadir. Ekologik madaniyatga ayniqsa G`arb olimlari alohida yondashib, atrof muhit omillaridan kelib chiqqan holda madaniyatning turli shakllarini tahlil qiladilar. Bu tahlillarga binoan, madaniyat tabiiy sharoitlarga ko`nikish vositasi sifatida tushuniladi. Xo`jalikning, yashash binolarining, mehnat qurollarining, kiyim va urf–odatlar ma`lum darajada iqlim, geografik joylashuv, o`simliklar va hayvonot olami, temperatura va boshqa ob`ektiv sabablar bilan belgilanadi. Jumladan, Osiyo va Afrikaning sahro va cho`l hududlarida sult mahsulotlari go`sht mahsulotlariga qaraganda muhim o`rin egallaydi. Dunyoning boshqa hududlarida esa o`simlikdan tayyorlangan ovqat go`shtli ovqatlarga nisbatan yuqori o`rinda turadi. Keyingi bir necha yuz ming yil davomida insonlarning oshqozon–ichaklari uzunligi qisqarib ketdi. Olovda pishirilgan ovqatning hazm bo`lishi xomini hazm qilishga nisbatan osonroq bo`lib qoldi, taraqqiyot bu vaziyatni hisobga oldi. Ovqat hazm qilish a`zolarining solishtirma og`irligi qisqarishi esa boshqa a`zolarning rivojlanishiga yaxshi imkoniyat yaratib berdi,

a`zolarning qon bilan ta`minlanishi yaxshilandi. Balki, bu holat inson miyasining taraqqiyotiga ham ta`sir ko`rsatgan bo`lishi mumkin.

Umuman, insoniyat er yuzida olg`a siljishi natijasida uning tabiat bilan yoki ma`lum geografik sharoit bilan bog`liq xo`jalik-madaniy ko`rinishi paydo bo`lgan. Insonlar ma`lum geografik sharoitga mos tarzda yashash tarzini yaratganlar.

Ko`rinishlari bo`yicha madaniyat quyidagicha tasnif qilinadi:

a) **Hukmron madaniyat** – mazkur jamiyat a`zolarining ko`pchiligi istifoda etadigan qadriyatlar, inonch-e`tiqodlar, an`ana va urf-odatlardan iborat.

b) **Qishloq madaniyati** – faqat qishloq joyda doimiy yashab, qishloq xo`jaligi bilan mashg`ul bo`lgan odamlar o`rtasidagi munosabatlar, hayot tarzi va b.lardan iborat.

v) **Shahar madaniyati** – yirik va qishloq xo`jaligi bilan shug`ullanmaydigan sanoat va ma`muriy markazdir. Hamma shahar aholisi uchun yagona madaniyat mavjud emas. Chunki shaharlar faqat geografik va geopolitik (evropa va Yaponiyaga yaqinligi) aholi miqdori, shahar kengligi bilangina emas, balki ishlab chiqarish sohasiga ko`ra ham farq qiladi: to`qimachilik sanoati, konchilik sanoati markazlashgan shaharlar, shaxtyorlar shahri, avtomobil` ishlab chiqarishga ixtisoslashgan shaharlar, ilm-fan markazlari bo`lgan shaharlar, kurort shaharlar, harbiy shaharchalar borki, bularning har birida o`ziga xos madaniyat mavjud.

b) **O`rganish bo`lib qolgan madaniyat** – inson yashab turgan ijtimoiy va milliy muhitda kundalik hayot ko`nikmalarini egallashdan iboratdir. Bu madaniyat ko`rinishi oilada, tengdoshlar, qarindosh urug`lar davrasida yuz beradigan muloqtdan, maktab ta`limidan va ommaviy axborot vositalari orqali olingan ommabop bilimlar va ko`nikmalardan iborat bo`ladi.

v) Ixtisoslashgan madaniyat – fan, san`at, falsafa, huquq, din kabilarga oid bilimlarni to`liq egallagan va o`z sohalari bo`yicha egallagan bilimlari orqali alohida guruhlarni tashkil qiladigan vakillarning kasb mahoratidir.

Madaniyat paydo bo`lishi va darajasiga ko`ra quyidagi shakllarga ega:

a) **Yuksak madaniyat** – oddiy odamlar tushunishi qiyin, jamiyatdagи maxsus ijodkorlar yaratgan madaniyat shaklidir. Bu madaniyat shakli nafis san`atni, mumtoz musiqani va adabiyotni o`z ichiga oladi.

b) **Xalq madaniyati** – ommaviy va xalq og`zaki ijodi madaniyatini o`z ichiga olgan madaniyat shakllari bo`lib, keng ommaning mehnati va turmushiga bog`liq holda yaratilgan qadimiyl jod namunalardir. Xalq madaniyatining bu shakliga bugungi turmush tarzi, urf-odatlari, qo`shiqlar, fol`klor ansamblari, xalq og`zaki ijodi janrlari – afsonalar, ertaklar, eroslar va boshqa janrlar mansub.

v) **Ommaviy madaniyat** – baylanmilal va milliy ko`rinishga ega bo`lib, keng auditoriyaga mo`ljallangan, muallifi mavjud, odamlarning talab va ehtiyojlarini bir zumda qondiradigan har qanday yangi hodisalarga ta`sir bildirib, ularni aks ettiradigan madaniyat shaklidir. Estrada, tsirk, radio, televidenie va boshqa ayrim musiqa turlari shu madaniyatga aloqadordir.

Bulardan tashqari, **badiiy madaniyat** va **jismoniy madaniyat** kabi kompleks ko`rinishlar ham bor. Mutaxassislar va havaskorlar yaratgan ijod namunalari badiiy madaniyatga mansub. San`at ham badiiy madaniyatning bir qismidir. Jismoniy madaniyat keng ma`noda tanani jismoniy mashqlar yordamida tarbiyalash, sportga asosiy mashg`ulot turi sifatida qarash, sog`lom turmush tarzini kechirish, ya`ni chekish, ichkilikbozlikdan voz kechib, jismoniy mashqlar, kul`turizm bilan shug`ullanish, yuzni plastik operatsiya va kosmetika qildirish, ozish, sport va havaskorlik raqslari, raqs bo`yicha o`tkaziladigan xalq sayillari va musobaqalari, tanani har xil illatlardan, jarohatlardan zamonaviy va an`anaviy tibbiyot yordamida xalos qilishdan iborat.

Madaniyatshunoslik fanining o`ziga xos xususiyati – uning keng qamrovligi ekanligi, uning ko`p fanlarga, ayniqsa, gumanitar fanlarga yaqinligidir. Jumladan, madaniyatshunoslik tarix va etnografiya, dinshunoslik, ilohiyot, musiqa, haykaltaroshlik, me`morchilik fanlari bilan zich aloqada, to`g`rirog`i, madaniyatshunoslik shu fanlarning o`rganish ob`ektidan oziqlanadi. Madaniyatshunoslik falsafaga ham yaqindir. Xususan, madaniyatshunoslikning nazariy masalalari madaniyat falsafasiga aloqador.

Madaniyatshunoslik axloqshunoslik fani bilan bog`liqdir, chunki jahon tsivilizatsiyasining ko`p ming yillik tarixiy bosqichlari insonlarning axloqiy, ma`naviy ijtimoiy rivojlanishi bilan bog`liqdir. Shu fikrni, buyuk Sharq mutafakkir Forobiy «**Arou** ahli madinatu-l-fuzalo” (“Fozillar

shahri aholisining qarashlari") asarining 13-bobida madaniyatning kelib chiqishini insonlarning tabiatidagi xislatlar, xususiyatlar bilan jamiyatga qanday ta'sir ko'rsatishi masalasi bilan, ya`ni insonlarning biologik va ijtimoiy mohiyati bilan bog'liq holda ko`rib chiqadi. "Nutqli insonning ma`qulot – aqli qabul qiladigan qismi tuzilishi qanday, ularning turlari qanday: quvvatli aql (aqli qaviy) nima va fe`lli aql (aql bil-fe`l) nima va moddiy aql nima va aqli munfail (passiv intellekt) nima deganiyu, faol aql (aktiv aql) nima degani va aqlning darajalari haqida nega faol aql deb yuritiladiyu, uning fe`lli harakati nima – shular haqida... ma`qulot sifatida tasvirlanadi, hatto fe`lli harakatdagi aql bo`ladi..." Iroda degani nima, ixtiyor degani nima, ular ikkalovi nafs-ruhning qaysi jihatlariga taalluqli; tqla baxt-saodat nima-yu, fazilat, nuqsonlar nima, xayrli ishlar nima-yu, yomon ishlar nima, amallardan nimalar go`zal sanaladiyu, nimalar qabih sanaladi – shular haqida fikr yuritadi<sup>1</sup>.

Abdu Nasr Muhammad Forobiyning fikricha, jamiyatning taraqqiyoti insonlarning aqliy va ruhiy olamidagi quvvatlardan qanday foydalanishga bog`liqdir. U, "Madinatu-l - fuzalo" asarining 15 – bobida "jamiyatda inson ehtiyojlari va o`zaro yordami haqida fikr yuritib, aytadiki, fuqarolariga baxt-saodat keltiradigan shahar (davlat) jamiyati fozil, fazilatli odamlar jamiyatidir. Fozil odamlar shahrining barcha a`zolari solim (sog`-salomat) bo`lgan va damning tirikligini asrab turadigan vujud-tanaga o`xshaydi. Tirik vujud a`zolari markaziy a`zo-yurakka yaqinlikda (bu erda ahamiyati jihatdan yaqinlik aytilmoqda) bir-biridan a`loroq bo`lgani kabi, ... jamiyat fuqarolarini ham (baxt-saodatli jamiyat uchun) bajarayotgan vazifalarga qarab, bir-biridan a`loroq bo`ladilar"<sup>2</sup>.

«Sharq Arastusi » Forobiyning shahar va qishloq fuqarolari tabiiy ehtiyojlarini qondirish uchun bir-birlariga muhtoj bo`lishlari sababli ham jamiyat bo`lib yashashlari haqidagi g`oyalarni keyinchalik Beruniy, Ibn Sino, g`azzoliy, Ibn Rushd, Ibn Holdun kabi mutafakkirlar tomonidan yanada rivojlantirildi.

Falsafada Arastu va Forobiy izdoshi bo`lgan Ibn Sino "Metafizika" asarida olamni bilishga doir, madaniyatning oliy turlaridan hisoblangan falsafaga doir ilmlarni bunday tasniflaydi: 1. Amaliy fanlar. Inson faoliyatiga bog` fanlar. 2. Nazariy fanlar. Insondon tashqaridagi olamni (er, osmon, hayvonot va o`simliklar olamini) o`rganuvchi fanlar<sup>3</sup>.

Ibn Sinoning fikricha, bu fanlarning har biri yana uch turga bo`linadi:

I. Amaliy fanlar: Jamiyatni, xalqni boshqarishga doir fanlar. Bu qismning fanlari yana uchga bo`linadi: 1. Din, shariat ilmlari. 2. Uyni, oilani boshqarishga doir, ota, ona, farzandlar, hoja va xizmatkorlar munosabatini o`rganuvchi ilmlar. 3. Inson o`zining tanasi va ruhini boshqarishga doir ilmlar.

II. Nazariy fanlar. Bu ham uchga bo`linadi: 1. Tabiatdan yuqori turuvchi oliy yoki asosiy fan-metofizika. 2. O`rta darajadagi fanlar – matematika (hisob, geometriya, trigonometriya va hokozo).

III. Quyi darajali, ya`ni tabiat haqidagi (tabiiy) fanlar (Biologiya, geologiya, zoologiya va hokazo).

Ibn Sino inson hayoti davomida ishi tushadigan o`rta darajadagi fanlarga matematika fanlari qatoriga kiruvchi arifmetika, astronomiya, muzika, mexanika, optika (yorug`likka oid), asbob-uskunalar haqidagi fanlarni kiritadi.

Yuqorida Forobiy va Ibn Sinoning fanlar tasnifi va roliga oid qarashlaridan shu narsa ma`lum bo`ladiki, madaniyatshunoslik inson hayoti, ma`rifati, ma`naviyatiga doir bilimlarni o`rganadigan fan sifatida o`sha davrlardayoq shakllana boshlagani ayon bo`ladi.

Hozirgi kunda turli-tuman, katta va kichik fanlarning soni uch mingga yaqin. Bundan ikki-uch ming yillar muqaddam faqat bitta fan – falsafa bor edi. Matematika, meditsina, astronomiya boshqa tabiiy fanlar, mantiq'3f\$ T'fdT'f2T'e8T'eaa, estetika, sotsiologiya, politologiya kabi ijtimoiy fanlar birin - ketin mustaqil bo`lib, falsafadan ajralib chiqdi va o`z navbatida o`nlab fanlarga bo`linib ketdi. Fanlar differentsiatsiyasi (tarmoqlashuvi) hozir ham davom etmoqda. Turli fanlar tutashgan, kesishgan joyda yangi fanlar paydo bo`lishi jarayoni ham davom etmoqda.

<sup>1</sup> Farobi, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri – Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti. 1993, 129–bet.

<sup>2</sup> Farabi. Filosofskie traktaty. Alma-ata. «Nauka», 1972, str. 305.

<sup>3</sup> Donishnama – Dushanbe. Irfon. 1980. 104 –bet.

Barcha fanlarni tasniflash ular uch guruhgaga bo`linadi: 1) tabiiy fanlar; 2) ijtimoiy fanlar; 3) gumanitar fanlar. Madaniyatshunoslik ijtimoiy-gumanitar fanlar jumlasiga kiradi. Aslida dunyodagi jamiki bor narsalarni Ibn Sino “Metafizika” asarida ikkiga bo`lib o`rganishni tavsiya etadi. Birinchisi, insondan tashqarida va unga bog`liq bo`Imagan holda mavjud er, osmon, yulduzlar, tabiat, moddiy olam; ikkinchisi – inson ongi, aql-zakovati bilan yaratilgan jamiki narsalar, ya`ni madaniyat.

Bu holda fanlarni ham yaxlit qilib, ikkiga ajratish mumkin bo`lar edi: 1) tabiatni o`rganadigan fanlar; 2) madaniyatni o`rganadigan fanlar. Bunda barcha ijtimoiy-gumanitar fanlar bitta nom bilan madaniyatshunoslik deb atalgan bo`lar edi.

Madaniyatshunoslik axloqshunoslik, adabiyot va san`at, falsafa, sotsiologiya boshqa tabiiy hamda aniq fanlardan butun insoniyat mana`viyatiga aloqadorligi bilan ajralib turadi. Insoniyat yaratgan moddiy va ma`naviy boyliklar shu qadar behisob va xilma-xilki, bitta fan bularni qamrab ololmaydi. Barcha ijtimoiy-gumanitar fanlar insoniyat madaniyatining muayyan sohasini, u yoki bu jihatini, ma`lum bir xususiyatlarini o`rganadi.

Madaniy tushunchalar ko`pgina fanlarning o`rganish ob`ekti hisoblanadi. Shu boisdan ham madaniyatning mohiyati va mazmuni, tarkibiy qismlari turli fan sohalarida namoyon bo`lib, falsafa, tarix, lingvistika, antropologiya, etnografiya, san`atshunoslik singari fanlarda ham tadqiq etiladi. Bu tabiiy hol. Zero madaniyat juda murakkab, serqirra, doimo rivojlanib bordigan ijtimoiy hodisadir. Zero yuqorida sanab o`tilgan ijtimoiy-gumanitar fanlar madaniyatni konkret hodisa sifatida, uning biror sohasi, yo`nalishi, ko`rinishini o`rganadi.

Madaniyatshunoslik esa, yuqorida sanab o`tilgan fanlardan farqli o`laroq, madaniyatni yaxlit holda, bir butun mezon assosida umumlashgan holda o`rganadi. Masalan, xalq og`zaki ijodini fol`klorshunos o`rganar ekan, fol`klor asarlarining tabiatini, fol`klor janlarining paydo bo`lishi va taraqqiyoti va hokazolarni o`rganadi. Madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan esa xalq og`zaki ijodi janlarining badiiy-estetik ahamiyati va mahalliy xalq turmushidagi roli, ijtimoiy vazifasi ma`naviy meros sifatida o`rganiladi. Yoki adabiyot ham ma`naviy meros sifatida ma`lum bir davrda xalqning madaniy yuksalishiga, jamiyatning ma`naviy hayotini sog`lomlashdirishga qo`shgan hissasi madaniyatshunoslikning ob`ekti hisoblanadi. Xullas, o`sha fanlardan olingen hamma madaniy tushunchalar madaniyatshunoslikning ob`ekti hisoblanadi. Madaniyatshunoslik fani – madaniyatning shakllanishi va taraqqiyoti bosqichlarini, rivojlanish qonuniyatlarini va tamoyillari, bularning amal qilish ichki mexanizmlarini o`rganadi. Bu fan milliy, mintaqaviy, umuminsoniy madaniyatlarning mohiyati, o`ziga xosligi, madaniyat tiplari va turlarini tahlil etadi. Madaniyat rivojidagi vorislik, xalqlararo madaniy meros, ularning bir-birlariga ta`siri, o`zaro aloqadorligi, bog`liqligi kabi hodisalarini tadqiq etadi. Qisqacha qilib aytganda, madaniyatshunoslik ijtimoiy fanlar bilan gumanitar bilimlarning kesishgan nuqtasida paydo bo`ladi.

Madaniyatshunoslik atamasi ingilizchada Culturology, Kulturologie deb yuritiladi. G`arb olimlarining ta`kidlashicha, nemis olimi V.Ostval`d 1913 yilda birinchi bor shu terminni qo`llagan. Amerikalik antropolog Lesli Uayt 1949 yildagi maqolalarida ushbu terminni ilmiy va metodologik jihatlardan asoslab bergen. Faqat XX asrning oxirgi choragiga kelib bu ilm sohasi alohida fan sifatida shakllandi, o`z kategoriyalari va qonuniyatlarini, o`z strukturasini va funktsiyalariga ega bo`ldi.

Ana shulardan kelib chiqqan holda, madaniyatshunoslikni o`tmish va hozirgi madaniyat, uning tuzilishi va vazifasi, kelajakdagagi taraqqiyoti to`g`risidagi bilim deb qarash mumkin<sup>1</sup>. Bunga qo`shimcha ravishda, aniqroq qilib shunday ifodalash mumkin: Madaniyatshunoslik – insoniyat tarixiy hayotining turli bosqichlarida ularning va ular yashayotgan jamiyatning madaniy xulq-atvorini o`rganadigan fanlar majmuini umumlashgan holda ifodalashdir<sup>2</sup>.

O`zbekistonda madaniyatshunoslik fani 90 – yillardan keyin faoliyat ko`rsata boshladi, ta`lim tizimiga kiritildi, adabiyotlar, o`quv-metodik materiallar bilan boyitildi. Lekin bu sohada hali «ochilmagan qo`riqlar», echilmagan muammolar, kashf etilmagan qonuniyatlar bir talay. Ayniqsa, o`zbek xalqi yaratgan moddiy va ma`naviy madaniyatni, ezgulik, insonparvarlik g`oyalari bilan sug`orilgan to`la mentalitetini jahonda keng targ`ib qilish, dunyo xalqlariga etkazish eng xayrli va

<sup>1</sup> Levit S. Ya. Kul`turologiya kak integrativnaya oblast` znaniy. – Kul`turologiya. XX vek. Antologiya. M.: 1995, str. 654–655.

<sup>2</sup> Kul`tura: teorii i problemы. Uchebnoe posobie dlya studentov i aspirantov gumanitarnyx spetsial`nostey. – T.F.Kuznetsova, V.M.Mejuev, I.O. Shaytanov i dr. M.:Nauka, 1995, str.38.

sharaflı ishlardandır.

**Madaniyatshunoslik fanining predmeti** – insoniyat bunyoti etgan “ikkinci olam”, ya`ni madaniyat, uning möhiyati va rivojlanish qonuniylari, asosiy tamoyillari hamda ijtimoiy vazifalaridir. **Binobarin, madaniyatshunoslik fanining asosiy manbai** – insoniyat yaratgan barcha madaniy boyliklar, moddiy va ma`naviy qadriyatlardir.

Madaniyatshunoslikning fan sifatidagi asosiy vazifasi – insonning tabiat, jamiyat bilan birgalikdagi faoliyatini hamda kishilarning moddiy va ma`naviy turmushiga oid barcha madaniy jarayonlarni tadqiq etishdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, madaniyatshunoslik o`rganadigan asosiy sohalarni va uning tadkiqot ob`ektini quyidagicha belgilash mumkin:

- kishilarning muomala vositasi bo`lgan tilning ijtimoiy jamiyatdagi roli;
- jamiyat boyligi va mezoni bo`lgan bilimlar;
- insoniyat yaratgan udumlar, urf–odatlar, xalq og`zaki ijodi, san`at va adabiyot, dinlar;
- ijtimoiy munosabatlar va ular o`rtasidagi aloqalarning usullari, ijtimoiy tashkilotlar;
- marosim, kundalik turmush tarzidan o`rin olgan an`analar, oila, mulk;
- jamiyatda sodir bo`layotgan ijtimoiy–iqtisodiy, siyosiy demografik, etnik jarayonlar va h.k.

Madaniyatshunoslik umumnazariy fan hisoblanib, insoniyat hayotining turli tomonlari bilan bog`lik madaniy tushunchalarni yaxlit holda bir tizim sifatida o`rganadi.

**Madaniyat** – ramzlar, inonch–e`tiqodlar, qadriyatlar, mezonlar, **artefaktlar** yig`indisidir. Madaniyatda mazkur jamiyat, millat, guruhlarning xarakterli xususiyatlari ham o`z ifodasini topadi. Jamiyat, millat, guruhlar aynan o`z madaniyati bilan farqlanadi. Xalq madaniyati – uning hayot tarzi, kiyimlari, yashash maskani, oshxonasi, xalq og`zaki ijodi, diniy tasavvurlari, inonch–e`tiqodlari va boshqalardir.

Madaniyatga ijtimoiy–maishiy asbob–uskunalar, jamiyatda qabul qilingan xushmuomalalik imo–ishoralari va salomlashuv, yurish tarzi, muomala etiketi, gigiena odatlari va hokazolar ham kiradi. Aksariyat madaniy tushunchalar va qarashlar avloddan–avlodga o`tib boraveradi<sup>3</sup>.

Madaniyatshunoslik fanining asosiy tarkibiy tuzilishi quyidagicha:

**1. Madaniyat falsafasi** — madaniyatdagi murakkab va ko`p maqsadli jarayonlarni taxlil qilishda yondashuvning eng umumiyl tamoyillarini namoyon qilib, qiyosiy taxlil, tasniflashga asoslanadi. Madaniyatni falsafiy nuqtai nazardan anglash, madaniy tushunchalarni falsafiy jihatdan asoslash bilan bog`liq qarashlar mavjud. Insoniyat yashaydigan tabiiy va ijtimoiy guruhlar (sotsium) olamida uning jismoniy, ma`naviy va ruhiy hayot faoliyatini shakllanadi. Insonning asha shu hayot faoliyatni rivojlanishini nazariy jihatdan tushuntirish va o`ziga xos tahlil usullari madaniyat falsafasi bilan aloqador.

**3. Madaniyat sotsiologiyasi** — jamiyatning biron tarixiy davrida mavjud madaniy jarayonlarni o`rganish bilan shug`ullanadi; ya`ni har xil sotsiologik axborotlar to`planib qayta ishlanadi va tahlil qilinadi. Xullas, ana shunday jarayonlar bilan bog`liq bo`lgan madaniy jarayonni empirik tadqiq qiladi. Ma`lum madaniy sharoitda kishilarning o`zaro munosabatlari va boshqa ijtimoiy–madaniy hodisalar ham shu sohaning ob`ektidir .

**4. Madaniyat tarixi** — har bir madaniyatni noyob va betakror hodisa sifatida o`rganadi; shuningdek, turli madaniy jarayonlarni o`zaro taqqoslaydi, ularning o`zaro munosabati va o`zaro ta`sirini, zamon va makondagi farqlarini, madaniy taraqqiyotidagi o`ziga xos va umumiyl jihatlarini tadqiq etadi. Areologlar, antropoglarning XX asrda olib borgan bir qator tadqiqotlari “madaniyat” terminiga yangi ma`no yukladi. Antropoglarning kuzatishlariga ko`ra, Avstaraliyaning tub xalqlari yoki Afrika bushmenlari orasida ibtidoiy qonunlar bo`yicha yashaydigan qabilalar bor. Ularda opera teatri ham, suratlar ko`rgazmasi ham yo`q. Lekni bu qabilalarni dunyoning tsivilizatsiyalashgan xalqlari bilan bog`lab turadigan *mezonlar* va *qadriyatlar* tizimi bor. O`sha mezon va qadriyatlar ularning tili, qo`shiqlari, raqslari, urf–odatlari, an`ana va xulq–atvor tarzidir. Shular yordamida hayotiy tajriba tartibga solinadi, odamlar o`rtasidagi munosabat yaxshi tomonga o`zgaradi. Har ikkala jarayon yo butun jamiyatning yoki jamiyatning ma`lum qismi hayot tarzini

<sup>3</sup> Kravchenko A.I. Kul`turologiya. – Uchebnik. “Prospekt”, M.:2005, str.15.

ifoda etadi. Kundalik hayotda odamlarning atrofini o`rab turgan moddiy yodgorliklar o`tmish madaniyatni yoki madaniy merosni tashkil qiladi. Bu xalqlarda urf–odatlar, yodgorliklar muqaddas bir narsa sifatida saqlanadi, avloddan–avlodga o`tkazilib boraveradi. Zotan, tarixiy madaniyatda an`anaviylik kuchli.

**Madaniyatshunoslik** fanining diqqat markazida inson turadi, zero madaniyat - bu inson yaratgan boylikdir. Madaniyatshunoslik insonning olam bilan faol munosabatini va bu munosabatlar uning hayot tarzida namoyon bo`lishini, shaxsning ijtimoiy va madaniy rolini, madaniyatlar tipologiyasini o`rganadi. Madaniyatshunoslik fani madaniyatni ilmiy izohlab, uning umumtarixiy mazmuni va ma`nosini belgilaydi, ijtimoiy-tarixiy bilimlar tizimidagi o`rni va mavqeini asoslaydi.

Madaniyatshunoslik fani tarix, san`atshunoslik, falsafa, sotsiologiya, etnografiya, psixologiya kabi bir qator fanlarning kesishuvida vujudga kelgan, nisbatan yosh ijtimoiy – gumanitar fan hisoblanadi. Uning izlanish ob`ekti ijtimoiy voqelik bo`lgan madaniyat va inson hayoti uslubi hisoblanadi. Unda madaniyatning vujudga kelishi, rivojlanishi, jamiyatda amal qilishi bilan bog`liq masalalar to`g`risida, madaniyat qoidalari, institutlari, qadriyatlarining jamiyat hayoti va rivojlanishidagi o`rni, o`zaro aloqalari jarayonlari o`rganiladi.

**Kursning oldiga qo`yilgan asosiy masala –jamiyat, madaniyat va inson munosabatlaridir.** Darvoqe, bu uch tushuncha yana ko`p fanlarning ob`ekti hisoblanadi. Inson jamiyatdan yashar ekan, o`zining yashash tarzini hamma davrlarda paydo qilib, takomillashtirib boradi, shu tariqa inson o`z imkoniyatlarini ko`rsatib boraveradi.

Tabiatning mavjudlik qonuni xilma - xil bo`lganidek, insonning ichki tabiatni, ya`ni madaniyati ham tabiiy muhit, ijtimoiy borliq va tarixiy davrlar ta`sirida doimiy ravishda o`zgarib turar ekan, bu o`zgarishlar faqat ilgarilab borish, yangi qadriyatlarning vujudga kelishidan iborat. Ammo aksincha o`zgarishlarga – ma`lum bir an`anaviy jarayonlarning yo`qolishiga sabab bo`lishi ham mumkin. Masalan, ma`lum bir davrda ma`naviy hayotga fan–texnika taraqqiyoti ta`sir etib, an`anaviy xalq udumlari, xalq og`zaki ijodining yo`qolishiga sabab bo`ladi.

Madaniyatshunoslik fani madaniy tarixiy davrlarni tahlil qilishda uch bosqichni tabiiy birlikda olib qaraydi:

- a) aniq bir davrning yahlit qiyofasini, ya`ni uning bus–butun tasvirini yaratadi;
- b) ma`lum davrdagi ma`naviy jarayonda insoniyat jamiyatining o`rnini belgilaydi;
- v) aniq bir davrning «mazmuni»ni tahlil qiladi, ya`ni uning hozirgi davr aqliy jarayonida qanday o`ringa ega ekanligini, davr o`zgarishlari bizga qanday ta`sir etishini, bizga qaysi tomonlari bilan yaqinligini, hozirgi vaziyatning qaysi ijtimoiy va individual kamchiliklari biz uchun dolzarb masalaga aylanganini ko`rsatadi.

Xullas, madaniyatning ko`rinishlari tarixiy davrlarga qarab o`zgarib turadi. Davrlarning almashinishi bilan madaniyatda ham sifat o`zgarishlari yuz beradi. Ma`lum bir tarixiy davrda yashagan kishilarning dunyo to`g`risidagi tasavvurlari, bilimi, ma`naviy qadriyatlari to`g`risida atroflicha ma`lumotga ega bo`lishimiz uchun biz shu davrning madaniyatiga murojaat qilamiz. Shuning uchun madaniyatshunoslik fani turli halqlarniig madaniy rivojlanish tarixini jahon madaniy taraqqiyotinint tarkibiy qismi sifatida o`rganadi. Shu bilan birga, konkret tarixiy davrning ijtimoiy taraqqiyotda egallagan madaniy rivojlanish bosqichlarini, umumiy qonuniyatlarini, o`ziga xos xususiyatlarini ham o`rganadi.

Madaniyatshunoslik o`quvchilarni turli tarixiy davrlar madaniyati ayrim ijtimoiy guruhlarning urf–odatlari, turmush tarzi to`g`risidagi bilimlar bilan boyitadi. K tarixiy va gumanitar soha bilimlarini bir tizim holiga keltiradi, ijtimoiy turmush voqealarini yaxlit mazmun asosida anglashga yordam beradi. Yana ko`plab betakror va mustaqil madaniyatdan tashkil topgan jahon tsivilizatsiyasining yaxlit jarayonini, ayni paytda xilma-xilligini ko`rsatadi. Qolaversa, insonlarning ma`naviy etuklikka erishishlarida, fikrlarning xilma-xilligini ko`ra bilishda, fan taraqqiyotini to`g`ri baholash qobiliyatini hosil qilishda ham muhimdir.

Madaniyatshunoslik fani muhim tarbiyaviy vazifani ham bajaradi. Kursning diqqat markazida insonda ziyolilik hissini tarbiyalash turadi. “Kishi qanchalik ziyoli bo`lsa, – degan edi D.S.Lixachev, – u shuncha ko`p tushunadi va o`zlashtiradi, uning dunyoqarashi va qabul qilish doirasi shunchalik kengayib boraveradi. Kishining madaniy saviyasi qanchalik tor bo`lsa, u hamma yangiliklarga va «g`oyat eski»likka nisbatan shuncha befarq bo`ladi. Unday odam o`zining eski

odatlari bilan yashaydi. Bunday odam dunyoqarashi torligidan hamma narsaga shubha bilan qaraydi.

O`tmish madaniy qadriyatlarni, o`zga millatlar madaniyatini bilish, uni saqlash, va hurmat qilish, ommalashtirish, estetik qimmatini qabul qila bilishning rivojlanib borishi madaniy taraqqiyotning eng muhim jarayonlari hisoblanadi. Insoniyat madaniyatining rivojlanishi tarixi – bu nafaqat yangi, balki eski madaniy boyliklarni izlab topish tarixidir. Shuningdek, o`zga xalqlar madaniyatini bilish, ma`lum ma`noda, gumanizm tarixi bilan chambarchas bog`liqidir. Ayni paytda xalqlarga nisbatan hurmat, bag`rikenglik demakdir<sup>4</sup>.

Madaniyatshunoslik fanining yana muhim vazifalaridan biri - bu insonda ijodiy qobiliyatni rivojlantirishdan iboratdir. Madaniyat faqatgina moddiy va ma`naviy boyliklar yig`indisidan iborat emas, balki ijodiy faoliyat hamdir. Madaniyatshunoslik yangi ma`lumotlar berish bilan birga, yoshlarda madaniy hodisalargao`z munosabatitini bildirish malakasini hosil qiladi. Xilma-xil ma`lumotlar berish bilan birga, fikrlash uzliksizligini, mantiqiy fikr qilishni shakkantiradi.

Kursning tarbiyaviy vazifasi uni bilish nazariyasi bilan qo`shib o`rganishni talab etadi. Tarixiy davrlar madaniyatini o`rganishdan maqsad shuki, turli xalqlar madaniyati bir-biriga bir-biriga qarama-qarshi qo`yilib baho berilmaydi, balki har bir madaniyatdagi yangilik o`rganiladi, Bu vazifalarni bajarishda madaniyatshunoslik fani madaniyatga yaxlit dunyoni va hayotni yaxlit idrok etish usuli sifatida qaraydi.

Hozirgi zamon **Madaniyatshunoslik** fanida «madaniyat» tushunchasi qo`llanishiga ko`ra quyidagi ob`ektlarni qamrab oladi va bu kundalik turmush bilan bog`langan:

- a) individual - alohida olingan bir shaxs madaniyati;
- b) ma`lum ijtimoiy tabaqa madaniyati - milliy, tabaqaviy, kasbiy, oilaviy madaniyat;
- v) mintaqaviy – ma`lum bir hudud va zamon bilan chegaralanmagan muayyan jamiyat madaniyati;
- g) umuminsoniy madaniyat.

Madaniyatni qo`llanishi jixatidan turlarga bo`lish munozarali bo`lsa-da, bu turlarning mavjudligini inkor qila olmaymiz. Ijtimoiy taraqqiyot tafovutlarni yo`qotmaydi, balki, aksincha, tafovutlarning xilma-xilligini yanada kengaytiradi. Shuning uchun tafovutlarni tobora chuqurroq o`rganish madaniy taraqqiyot to`g`risidagi tasavvurimizning kengayib borishiga xizmat qiladi.

**“Madaniyat” tushunchasi** turli tillarda turli so`zlar, jumladan ingliz tilida “culture”, rus tilida «kul`tura» so`zleri bilan ataladi. O`zbek tilidagi «madaniyat» so`zi arab tilidagi «madina», ya`ni shahar so`zidan kirib kelgan bo`lib, «shaharga xos», «shaharga oid» degan lug`aviy ma`noni ifodalaydi.

G`arbiy mamlakatlarda keng ishlatiladigan «kul`tura» so`zi asli lotincha so`z bo`lib, qadimgi Rimda dehqonchilikka oid «ishlov berish», «parvarish qilish» degan ma`noni bildirgan. Tuproqqa ishlov berish – qishloq madaniyati – dehqonchilik madaniyati bilan bog`liq tushunchadir.

Sharq faylasuf olimlarining asarlarida madaniyat tushunchasi va madaniy taraqqiyotning aniq ilmiy talqinlarini hamda chegaralarini ko`ramiz. X1V asrda yashagan arab faylasuf olimi Ibn Xaldunning madaniyat bosqichlariga oid ilmiy tahlili diqqatga sazovordir. Uningcha, insoniyat dastlab yovvoyilik holatida bo`ladi. Keyin u tabiiy olamdan ajralib chiqadi va ijtimoiylik kasb etadi. Ibn Xaldunning ko`rsatishicha, insoniyat jamiyati doimo o`zgarib borib, taraqqiyot jarayonida ikki bosqichni bosib o`tadi: **1. Bidava. 2. Xidara.** Bu ikkala bosqich “insonlar yashashi uchun qanday vositalar topishi”ga ko`ra, bir-biridan farq qiladi. Birinchi – **bidava** bosqichida odamlar asosan, dehqonchilik va chorvachilik bilash shug`ullanadi. Ikkinci – **xidara** bosqichida yuqoridaq mashg`ulot turlariga hunarmandchilik, savdo, fan va san`at qo`shiladi. Har ikkala bosqich bir hudud doirasida bo`lishi mumkin.<sup>5</sup> Ibn Xaldunning fikricha, shaharda yo`q, kundalik ehtiyojni qondiradigan hayot tarzi – dehqonchilik va chorvachilik ibridoiy hayotni, hashamatli hayot kechirish va shuning uchun harakat qilish, dabdbabali hayot kechirish uchun intilish, shaharlar barpo qilish tsivilizatsiyani keltirib chiqardi.<sup>6</sup>

XV111 –X1Xasrlarda evropaliklar “kul`tura” so`zini ma`naviy-ruhiy ma`noda ishlata

<sup>4</sup> Lixachev D.S. Poetika drevnerusskoy literatury. – M.Nauka: 1979. str.159.

<sup>5</sup> A.A. Ignaten`ko. Ibn–Xaldun. M.: “Мысл”, 1980, str. 64.

<sup>6</sup> A.A. Ignaten`ko. Yuqoridaq asar, 131–132–betlar.

boshlaganlar. Bu so`z insoniy sifatlarning mukammalligini anglatadigan bo`ldi.

Vaqtlar o`tishi bilan “madaniyat” tushunchasining hajmi kengayib, ta`rifi va tavsifi ko`payib borgan. Amerikalik madaniyatshunos olimlar A. Kreber va K. Klakxonning 1952 yildagi ma`lumotlariga ko`ra, madaniyat tushunchasiga berilgan ta`rif 164 ta bo`lgan, so`nggi adabiyotlarda esa madaniyatning ta`rifi 500 dan ortiq<sup>7</sup> deb ta`kidlanadi.

“Madaniyat” tushunchasini ta`riflash uchun juda ko`p iboralar ishlataladi. Jumladan, qatorida “insoniyatning yashash tarzi”, “insonning jamiyatdagi to`laqonli faoliyati”, «inson o`zining yashashi uchun yaratgan muhit», «yaxlit ijtimoiy organizm», “insoniyat yaratgan moddiy va ma`naviy qadriyatlar majmui”, “ikkilamchi, ya`ni sun`iy tabiat”, “insonning ijodiy faoliyati mahsuli”, “jamiyatning ma`naviy holati”, “shartli belgilar yig`indisi”, “me`yor va andozalar majmui” va hokazo.

Madaniyatga berilgan ta`riflar orasida mashhur ingliz etnografi, antropologiyaning asoschilaridan biri Eduard Taylor (1832–1917) ta`rifi eng mukammal deb hisoblanadi. Uningcha, **madaniyat – insonning axloqi, kuch-qudrati, baxt-saodati taraqqiy etishiga bir vaqtning o`zida ko`maklashish maqsadida alohida shaxsning va butun jamiyatning yuksak darajada tashkil qilinishi yo`li bilan insoniyatning kamol topishidir<sup>8</sup>.**

E.B. Tayloring mazkur ta`rifi mukammal bo`lsa ham, bugungi kunda madaniyatning yangi qirralari kashf qilinmoqda. Shu bois E. Tayloring madaniyatga bergan ta`rifi mohiyatini saqlagan holda, quyidagicha ta`rif berish mumkin:

**Madaniyat – inson jamiyat a`zosi sifatida o`zlashtirgan bilimlarni, inonch-e`tiqodlarni, san`atni, axloq va qonunlarni, urf-odatlarni, shuningdek, uning boshqa qobiliyati va ko`nikmalarini o`z ichiga olgan majmuadir.**

G`arbiy evropada madaniyat tushunchasi XVIII asrning oxiridan e`tiboran yuqoridaagi ta`rifday mazmun kasb etdi. Ammo bu tushuncha faqat XX asrga kelib ijtimoiy va gumanitar fanlar tizimidan mustahkam o`rin oldi. Kishilik jamiyatining beqiyos ko`lamga ega bo`lgan, doimiy ravishda o`zgarib boruvchi ma`lumotlarni tartibga solishga yordam beradigan, umumlashtiruvchi tushunchalarни ifodalashga bo`lgan ehtiyoji madaniyat tushunchasining keng tarqalishiga sabab bo`ldi.

Qadimgi Rimda «madaniyat» tushunchasi bora-bora «hayotni ma`naviy jihatdan yanada yaxshilash va takomillashtirishga qaratilgan g`amxo`rlik» degan ma`noda ishlatala boshlagan edi. Ma`lumotlarga ko`ra, mashhur Rim faylasufi, Tsitseron ham «ruhiy madaniyat» terminini ishlatgan. evropa xalqlarida esa XVIII asrning oxirlarigacha «madaniyat» termini aqliy, axloqiy tushunchalar bilan bir qatorda ishlatalgan. Ko`rinib turibdiki, «madaniyat» tushunchasi turli tushunchalarни ifodalashiga qaramay, qadimdan hozirgi kungacha o`z mohiyatini o`zgartirmagan<sup>9</sup>.

Hozirgi davrda madaniyatga berilgan ilmiy ta`riflar insoniyat tomonidan yaratilgan va yaratilishi davom etayotgan ma`naviy, ruhiy jarayonning o`ziga xosligini anglash natijasida vujudga keldi. Insoniyat «tabiiy» tur mush tarzi asosida yashagan davrda – ov qilish, baliq tutish, ilk chorvachilik va dehqonchilik bilan shug`ullangan davrlarda bugungi singari madaniyat to`g`risida fikr yuritgani gumon, aniqrog`i, ilmiy tahlil bo`lmagan. Oddiy, bir maromda rivojlanuvchi jamiyatda inson o`z madaniyati bilan hamroh bo`lib yashagan. Urf-odatlar, e`tiqodlar, hayotning moddiy va ijtimoiy shakllari madaniyatning alohida ko`rinishi sifatida alohida ajralmagan edi.

**Madaniyat mustaqilligi.** Texnikaning rivojlanishiga va mexnatning ijtimoiy mazmun kasb etishiga erishish natijasida madaniyat mustaqil soha sifatida ajralib chiqdi. Inson o`zi yaratgan madaniyatga tobe bo`lib boraveradi. Hozirgi rivojlangan jamiyatdagi ekologiya, ma`naviyat va axloq sohalaridagi mavjud muammolar fikrimizning dalilidir. Shuning uchun madaniyatni noyob hodisa sifatida idrok etish, uning rivojlanish qonunlarini anglash va shu tushunchalar asosida madaniyatni boshqarishga o`rganish zaruriyat bo`lib qoladi.

Insoniyat jamiyatni doimiy rivojlanishda bo`lib, u o`zgarib takomillashtirib boraveradi. Turli tarixiy davrlarda va xilma-xil madaniyatda odamlar jamiyatdagi o`zgarishlarni o`zgacha anglaydilar

<sup>7</sup> A.I.Kravchenko. Kul`turologiya. Uchebnik. – Moskva, 2005, str.11

<sup>8</sup> E.B.Taylor. Pervobytnaya kul`tura. M.: Izd. “Politicheskoy literatury”, 1989, str.36.

<sup>9</sup> Karang: O`zbek tilining izohli lug`ati, M. 1981 . 1-tom, Entsiklopedik lug`at, T. 1990 yil, 1-tom, falsafa, qomusiy lug`at, T. 2004 yil, 230-bet

va qabul qiladilar, o`ziga xos tasavvur va bilim hosil qiladilar. Biz hozirgi davrdagi mavjud muammolarga o`xshash bo`lgan to`sqliarni o`tmishda odamlar qanday qilib bartaraf qilganlarini o`rgana borib, o`tmishga savollar orqali murojaat qilamiz. O`tmishdan o`zimiz javob topamiz, natijada o`tmish, hozirgi zamon va kelajak o`rtasida doimiy muloqot bo`lib turadi. Albatta, har bir davrdagi madaniy tushunchalar yoki jarayonlarning tarixiy bosqichlar yoki davrlarni bog`lashda roli katta.

**Jamiyat va madaniyat.** Madaniyat — jamiyat mahsuli, ijtimoiy hayotning muhim mulki hisoblanadi. Madaniyatsiz jamiyat bo`limganidek, madaniyat ham jamiyatdan tashqarida mavjud bo`lmaydi. Murakkab ijtimoiy voqelik sifatida madaniyatning o`ziga xos xususiyati shundaki, u insoniyat ajdodlarining mehnati, bilimlari, dunyoqarashini o`zida aks ettridi ularni saqlab muntazam boyitib boradi. Madaniyat ijtimoiy hayotning vorisi sifatida qadriyatlarni to`playdi, ularni kelgusi avlodlarga etkazib beradi.

Madaniyat ijtimoiy hayotning tarkibiy qismi sifatida jamiyatdagi hodisaning mazmun-mohiyatiga va tahlil qilinayotgan ijtimoiy borliqning xususiyatlariga bog`liqdir. Insonlarning xatti-harakati, ya`ni ularning ijtimoiy faoliyati madaniy qadriyatlarni, mezonlarni qaror toptirishda asosiy vosita vazifasini, shuningdek, insonlarning ijtimoiy va shaxsiy munosabatlari, shaxslararo va guruhlararo aloqalari shaklida ham ifodalananadi.

Shu boisdan ham **jamiyat**, **madaniyat** va **shaxs** munosabatlariga kundalik hayotda biz ko`p duch kelamiz, ya`ni madaniyatni murakkab tizim sifatida tasavvur qilamiz. Zotan, ming yillar davomida paydo bo`lgan insoniyat madaniyati shu munosabatlar yo`lini bosib o`tgan va shunday bo`lishi kerak. Garchi madaniyat murakkab tizim bo`lsa ham, albatta, uning ilk “hujayralari” yoki “poydevori” topiladi. Ana shu topilgan “hujayra” yoki “poydevor” madaniyatning *elementlari* yoki *xususiyatlari* deb yuritiladi. Ana shu jihatdan antropologlarning madaniyat xususiyatlariga oid qarashlari muhimdir.

Bir qator antropologlarning dalillariga ko`ra, madaniyat *universal, umumiyy* va *noyob* (o`ziga xos) xususiyatlardan iborat bo`ladi.<sup>10</sup>

*Madaniyatning universal xususiyatlari* shundan iboratki, bu xususiyatlar butun insoniyatga xos bo`lib, insoniyatni boshqa jonzotlardan farqlaydi. Bu xususiyat, avvalo, insoniyatga xos ijtimoiy biologik jarayon, jumladan nasllarni tarbiyalash, bolalarning ota-onalarga bog`langani, guruh bo`lib yashash, oziq-ovqatlarning taqsimlanishi, oila qurishi va hokazolarni qamrab oladi. Shuningdek, yaqin qarindoshlar bilan oila qurish maqsadga muvofiq emasligi ham madaniyatning umumiyy xususiyatlariga kiradi. Zotan, qadimdan er yuzidagi aksariyat xalqlarda ekzogamiya (o`z qabilasidagi, urug`idagi ayolga uylanish yoki erga tegishni man qiluvchi urf-odat), qarindoshlarning qoni aralashuviga yo`l qo`ymaslik qonun singari amal qilgan. Bu urf-odatlarni buzganlar hamma madaniy tizimda jazolangan, albatta, har xil darajada va har xil usul bilan.

*Madaniyatning umumiyy xususiyatlari* bir qator jamiyatga va xalqlarga mansubdir. Bu xususiyatni hududiy madaniyat deb ham atash mumkin.

Hududiy madaniyat o`xshashligining birinchi sababi shuki, ayrim xalqlar boshqalariga qaraganda, madaniy yutuqlarini o`zaro almashadilar. Masalan, O`zbekiston hududida istiqomat qiluvchi boshqa millat vakillari ham, xuddi o`zbeklar singari mehmonni xush qabul qiladilar, mexmondo`stlik fazilatilarini ko`rsatadilar. Yoki O`rta Osiyo hududida istiqomat qiladigan o`zbek va tojik xalqlarida oiladagi o`zaro munosabatlar umumiyy madaniy xususiyatlarga ega. Farzandlarning ota-onaga itoatkorligi yoki ota-onani moddiy va ma`naviy qo`llab-quvvatlashi, shuningdek, o`zbek va tojiklar bilan bir hududda yashaydigan boshqa millatlarga ham shu fazilatlarning o`tganini misol qilib ko`rsatish mumkin.

Ikkinchi sababi – ajdodlarning etnik jihatdan umumiyligidir. Bu sabab tarixiylik kasb etadi. Qadimiy qabilalarning etnik jarayoni bilinmas holga kelgani holda, udumlar va urf-odatlar ularning etnik birligiga ishora qiladigan omillardan biriga aylanadi. Masalan, skiflar va qadimgi turkiylarning dafn odatlarida va dafn marosimi bilan bog`lik udumlarda ko`rish mumkin. Gerodotning yozishicha, skif zodagonlaridan (u “shoh skiflar” deb ataydi) birontasi vafot etganda (miloddan oldingi V asr), aholi marhum uchun aza tutayotganini ko`rsatish uchun quloqlarini, qo`llarini tiladilar, sochlarini oldiradilar, peshonasi va burnini yaralaydilar, chap qo`liga kamon

<sup>10</sup> Kottak Conrad Philip. Anthropology: the Exploration of Human Diversity. New York. 1994, p. 46-47.

o`qini suqadilar, yaxshi ko`rgan otlarini qurbanlik qiladilar. Qadimgi turklarda ham shu udum davom etgan. Turk xoqoni Eltarish xoqon vafot etganda (milodiy 692 yilda) dafnda ishtirok etayotgan odamlar sochlarini qirdirganlar, quloqlarini yuzlarini tilganlar, zotdor otlarini qurban qilganlar<sup>11</sup>.

Uchinchi sababi – er yuzining turli hududlariga istiqomat qiladigan xalqlarda yuz beradigan bir paytdagi va bir–biriga bog`liq bo`lмаган madaniy hodisalardir. Masalan, turli qit`alarda yashovchi insonlarning azaldan shu bugungacha turli buyumlarga, daraxtlarga, toshlarga topinganlar va bu hozirda ham ayrim xalqlarda saqlanib qolgan.

*Madaniyatning noyob xususiyatlari* – g`ayriodatiy (ekzotik), ko`pchilik tomonidan qabul qilinmagan odatlar, udumlardir. Dafn odatlari shunga misol bo`la oladi. Ba`zi xalqlar madaniyatida insonlar tug`ilganda emas, balki dafn marosimlarida saxiylik ko`rsatilishi kerak, deb hisoblaydilar. Masalan, Madagaskarda dafn marosimlari odamlarning jamiyatdagi o`rnini belgilaydigan maqom darajasidadir. Shuning uchun ayrim odamlar vafot etganda, dafn marosimiga minglab odamlar keladi, ayrimlariga kamchilik qatnashadi, aza haftalab davom etadi. AQSh va Rossiyada dafn marosimi bir necha soat davom etadi. Boshqa ayrim xalqlar madaniyatida esa aksincha – inson dunyoga kelib, hayoti davomida boshqalarga oliyhimmatli bo`lishi lozim, deb biladilar.

Xullas, madaniyatni yuzaga keltiruvchi asosiy omil jamiyat va unda yashaydigan odamlardir. Jamiyat mahsuli bo`lgan madaniyat qanchalik mukammallahib, boyib borsa, uning insonga va jamiyatga ta`siri kuchayib, mustaqil bo`la boradi. Masalan, antik jamiyat allaqachon tarixga aylangan bo`lsa–da, o`sha jamiyat yuzaga keltirgan moddiy madaniyat hozirgi kunda ham o`z ahamiyatini saqlab qolgan.

Biz o`tmish davr madaniyatini o`sha vaqtagi odamlarga nisbatan kam bilamiz. Ammo masala bunda emas, balki o`tmish madaniyati uzluksiz ravishda davom etib kelgani va bir davr madaniyati ikkinchi bir davr uchun zamin bo`lib kelgani muhim masaladir. Shuning uchun madaniy taraqqiyot har doim uzluksizlikni talab etgan va shunday bo`lib qoladi. Zotan, madaniyatga jamiyatning mahsuli, faoliyat usuli sifatida qaralgani uchun ham har bir jamiyatni u yoki bu madaniyatni yuzaga keltiruvchi manba sifatida ham qarash lozim bo`ladi.

Jamiyat mahsuli bo`lgan madaniyat davr o`tgan sari takomillashib boyib borsa, uning insonga va jamiyatga ta`siri mukammallahib, nisbiy mustaqilligi kuchayib boradi. Masalan, Antik jamiyat allaqachon o`tmish tarixga aylangan, ammo u davrdagi madaniyat bugungi kun madaniyatiga zamin bo`lgan va shu bois ham o`z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

**Madaniyat va etnos.** Darvoqe, yuqorida jamiyat, madaniyat va inson munosabatlari yaxlit tushuncha ekani, biri ikkinchisini talab qilishi, xalqsiz madaniyat yuzaga kelmasligini aytib o`tdik. Madaniyat yakka shaxsning emas, balki xilqning ijodidir. Shuning uchun bir xalq yoki etnos – bir madaniyatdir, deb aytildi.

Insoniyat olami xalqlardan yoki etnoslardan tashkil topadi. Dunyodagi hamma xalqlarning etnik tarkibini aniqlash qiyin, chunki bu xalqning shakllanishida bir necha etnoslar ishtirok etgan. Faqat minglab etnoslar bor, deb ayta olamiz. Ammo insonlarni yagona etnosga nima birlashtiradi? Boshqacha aytganda, bir xalqni tashkil qilgan odamlarning umumiyl xususiyati nimalardan iborat bo`lish kerak? Aksariyat olimlar umumiyl xususiyatlar sifatida umumiyl til, umumiyl hudud, xo`jalik hayotining va madaniyatning birligi, umumiyl milliy fe`l–atvorni ko`rsatadilar.

Tarixga nazar tashlasak, umumiyl til ma`lum bir etnosning madaniy hayotida muhim rol` o`ynaganiga guvoh bo`lamiz. Masalan, qadimgi Turonzaminning tub etnosidan biri so`g`dlarning tili, hayoti, turmush tarzi, xo`jalik hayoti to`g`risida ma`lumotlarga egamiz. Ular o`troq hayot kechirganlar va o`zlarining tili hamda yozuvidan istifoda etganlar. So`g`d savdogarlaridan bir qanchasi savdo aloqalari munosabati bilan 1X asrda Baykal bo`yi atroflarida o`rnashib, muqim yashab qolganlar. Baykal bo`yi atroflaridagi so`g`dlar qadimiy Turonzamin tuprog`idagi so`g`dlarning hayot tarzini, hunarmandchilagini olib borib, davom ettirganlar. Eng muhimi, so`g`d yozuvi va tili o`sha Baykal atroflarida ham davom etgan.

Ammo bugungi kundagi millatlararo yoki xalqaro til bilan qadimiy til madaniyatini bir xil hodisa sifatida qaramaslik kerak. Masalan, hozirda Buyuk Britaniya, AQSh, Avstraliya, Kanada, Afrika qit`asidagi ko`p davlatlarda turli etnik guruhg`a mansub odamlar ingli tilida gaplashadilar.

<sup>11</sup> Zaur Gasanov. Tsarskie skifы. – N`yu–York, 2002, str. 257–258.

Shunga ko`ra, bu mamlakatlardagi xalqni bir millat yoki bir etnos deb aytish mumkinmi? Albatta, yo`q. Tilning bugungi kundagi ijtimoiy vazifasi bilan ilk davrdagi faqat ma`lum etnik guruhlar doirasida qo`llanishini nazarda tutish kerak. Etnik guruhlar tilni tashuvchilar bo`lib, ularning tili o`zlar uchun madaniy hodisadir. Boshqa etnik guruhlarda ma`lum bir tilning qo`llanishi ham (masalan, ingliz, rus va boshqa tillarning) madaniy taraqqiyotidagi o`zgarishlar sifatida baholanadi. Xullas, har ikki holatda ham til millat va xalqning asosiy etkachi belgisidir.

Insoniyat ibtidoiy yashash tarzidan tsivilizatsiyaga borgan sari, bir etnik guruhning tili keng miqyosda qo`llana boradi. Albatta, bu tilning yoyilish sabablari ko`p (bosqinchilik, texnika taraqqiyotida va madaniy rivojlanishda ustunlik va b.).

Xalq – etnik umumiyligining bosh shaklidir. Bu umumiylik ichida etnik guruhlar til xususiyatlariga, kiyimlari, yashash joyi, oila xususiyatlariga ko`ra ajralib turadi. Ma`lum hududlardi keskin dialektal farqlar (masalan, O`zbekiston hududidagi shevalarning o`zaro va O`zbekistondagi shevalarga nisbatan Afg`oniston o`zbeklari shevasining keskin farqlanishi) bunga bir dalildir. Ammo dialektlardagi farqlar Afg`oniston o`zbeklari bilan O`zbekiston hududidagi tub aholi o`rtasidagi etnik birlik to`g`risida shubha uyg`otmaydi.

Umuman olganda, tilning boshqa etnoslarda yoyilishi ham yuksak madaniy hodisadir. Etnos umumiyligi til va madaniyatni shakllantiradi.

Yana bir belgi – odam o`zining **qaysi bir etnik guruhga mansubligini anglashi** ham madaniy taraqqiyotning muhim belgilardin biridir. Bunday holda til va hudud emas, balki insonlar qaerda va qaysi tilda gaplashuvlaridan qat`iy nazar, o`zlarining kelib chiqishini anglashi muhimdir. Masalan, lo'lilar, qaerda yashmasinlar, o`zlarining an`anlariga sodiq qolganlar va shunday bo`lib qoladi. Ularning kiyinishlari, udumlari va urf–odatlari, kasb–korı hamma mamlakatlarda deyarli bir xildir.

Turkiy xalqlar tirixida etnik guruhlarning o`zini o`zi anglashi xalqning alohida diqqat markazida turgan. Ayniqsa, O`rta Osiyo, Eron hududlarini Chingizzon istilo qilgandan keyin turkiy qavmlar etnik jihatdan o`zlarini anglashga alohida e`tibor qaratdi. Eronda hukmronlik qilgan mo`g`ul elxoniyлari huzurida uzoq yillar bosh tabib vazifasida faoliyat ko`rsatgan Rashididdin Fazlulloh Hamadoniyning “Jome`ut –tavorix” asari bor. Asar X1V asr boshlarida yozilgan bo`lib, uch jildda iborat. Rashididdinga zamondosh bo`lib, uning qo`l ostida xizmat qilgan odamlarning guvoh berishlaricha, Rashiddin uch yil davomida Xitoydan kelgan Po`lod Chjen–Sin degan muarrixidan turkiy qavmlar tarixi bo`yicha saboq olgan. So`ngra Rashididdin turkiy qavmlar tarixiga oid boshqa manbalarni izchil o`rgangan va “Jome`ut–tavorix” asarini yozishga kirishgan. Rashididdin turkiy qavmlarning hammasi O`g`uzdan tarqalgani, o`z navbatida turkiy qavmlardan **suldus, nayman, chinoz, boyovut** kabi qator mo`g`ul qavmlari ajralib chiqqani to`g`risidagi qarashlarni nazariy jihatdan asoslab berdi. Shuning uchun ham keyingi asrlarda “turk–mo`g`ul” degan termin paydo bo`ldi.

Turkiy qavmlar tarixida ma`lum shaxslar emas, balki qavmlar madaniyatni bir avloddan ikkinchisiga olib o`tdilar. Ayni shu xususiyat turkiy qavmlarning hayot tarzida, urf–odatlarida an`anaviylikka sabab bo`ldi. Masalan, miloddan oldingi 1V–III asrlarda turkiy qavmlar ajdodlari qasamyod qilishda, boshqa davlatlar bilan sulh tuzishda o`zlarining azaliy odatlaridan foydalandilar. Bu odatga ko`ra, ular sharobni oq otning qoniga aralashtirib ichganlar. Bu odatni buzganlarning taqdiri fojia bilan tugagan.

Etnos bilan hudud o`rtasida zinchaloqa bor. Madaniy xususiyat – odatlar, an`analar, turmush to`g`risida ham shu gapni aytish mumkin. Ma`lum hududda uzoq zamon yashagan etnosning an`anasi muqim bir holatga keladi. Nafaqat tilda, balki hayot tarzida, xo`jalik yuritishida, muloqotda boshqa etnoslardan, jumladan, ko`chmanchi etnoslardan tamomila farq qiladi. Bunday hodisa etnos bilan madaniy xususiyatlar o`rtasidagi o`ziga xosliklarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham bir hududda yashovchi etnosning madaniy xususiyatlari boshqasiga singishi qiyin kechadi. Bu hodisa tsivilizatsiya rivojlangan davorda oson kechadi. Masalan, bir hududda yashavochi evropaliklar bilan Sharq xalqlari hayotida shuni kuzatish mumkin.

Etnos ma`naviy jihatdan o`zini xalqi bilan bir deb hisoblashi hududiy va til belgilariga qaraganda muhimroq. Bunday holatda til va hududiy birlik to`g`risida emas, balki qon–qardoshlik va ruhiy, ma`naviy jihatdan birlik to`g`risida gapirish o`rinli. Masalan, o`tgan asrning o`rtalarida Frantsiya yoki Amerikaga borib yashab qolgan ruslar bor. Ularning avlodlari ona tilini unutgan,

ammo qon-qardoshligi va ma`naviy jihatdan o`zlarini ruslarmiz, deb hisoblaydilar. Shu jihatdan olib qaralsa, turkiy va mo`g`ul qavmlari tarixiy aloqalaridagi uzilish etnik jarayonda ham uzoqlashishlarga sabab bo`ldi. Chunki bu qavmlarda differentsiatsiya jarayoni keyingi 600–700 yil davomida kuchli kechdi. Shuning uchun ham turkiy va mo`g`ul etnoslari ma`naviy jihatdan birlikni tasavvur qilishlari amri mahol. Faqat tarixiy asarlar, tilning qadimiy holati bu ikki qavmning etnik birligi to`g`risida ma`lumot bera oladi.

Etnosning hayotida ma`lum bir diniy oqimning o`rni ham muhim ahamiyatga ega. Ma`lumki, islomiyatdan oldin turkiy qavmlar shomonlikka e`tiqod qilganlar, ya`ni shomonlik turkiy etnosning azaliy belgilaridan biridir. Shomonlik e`tiqodiga ko`ra, turkiy qavmlar Tangrini – osmonni ilohiyashtirganlar, Umayni onalar va bolalarni himoya qiluvchi xudo sifatida e`tirof etganlar, muqaddas er–suv ruhiga sajda qilib, ulardan madad tilaganlar. Hindistondan kirib kelgan buddaviylik Turk xoqonligi davrida (V1– V111 asrlar) ildiza ota olmadi, chunki turkiy qavmlarning harbiy harakatlariga buddaviylik aqidalari halaqt berishi tabiiy edi. Faqat Uyg`ur xoqonligi davrida (V111 asrning o`rtasi – 1X asrning yarmi) buddaviylik, moniylik oqimi bilan birga, turkiy qavmlar madaniy hayotiga kirib keldi, chunki madaniy muhit, ijtimoiy hayot o`zgardi, turkiy qavmlar an`analarida, dunyoqarashida o`zgarishlar paydo bo`ldi. Ammo til, ma`naviy–ruhiy omillar saqlanib qoldi. Zotan, turkiy etnosning tarixiy taqdirida ma`naviy omillar, vorisiylik, madaniyat va an`ana, o`zini o`zi anglash kabi omillar har doim muhim o`rin egallab kelgan edi.

Ma`lum etnosning hayotini ba`zi omillar tamomila o`zgartirib yuborishi mumkin. Shu o`rinda turkiy etnos hayotidagi yana bir hodisaga e`tibor beraylik–da, keyin bir xulosaga kelaylik.

Migratsiya yoki tarixiy vatanlaridan ko`chish etnosning qon-qardoshlik aloqalariga, tilga, hududiy birlikka, avlodlar orasidagi vorisiylikka, umumiyl madaniyat va an`analarga barham berishi mumkin ekan. Buni bolgar xalqining tarixiy taqdiri misolida ko`rish mumkin. Bugungi kunda Bolgariya hududidagi bir necha million xalq o`zlarini *bolgarlar* deb ataydi. Bir necha asrlar oldin ular *bulg`orlar* deb nomlangan bo`lib, turkiy qavmlardan hisoblanardi. Bu qavm Azov dengizi bo`ylarida ko`chmanchi hayot kechirgan. V111 asrda boshqa bir turkiy qavm – xazarlar ularni siqib chiqardi. Ko`chmanchi bulg`orlar o`rdasi parchalanib ketdi va ularning bir urug`i Dunay daryosidan o`tib, hozirgi Bolgariyaga o`rnashdi. Bu erda slavyan qabilalari yashardilar, ular ham V1 asrda bu erga kelgan edilar. Turkiy bulg`orlar slavyan qavmini bo`ysundirib, slavyan–turk davlatini barpo qildilar. Hokimiyat tepasiga Asparux xon bo`lib keldi. Ikki etnik guruhning bir–biriga ta`siri natijasida turkiy bulg`orlar slavyan tilini o`zlashtirdilar. Endi slavyan guruhiga mansub bo`lgan bolgar tili shakllana boshladi. Bu til hozirgi bolgar tiliga asos bo`ldi. Shu tariqa turkiy etnos slavyan etnosiga aylanib ketdi. Faqat turkiy etnosdan *bulgar* degan nom qoldi, xolos.

Ko`chmanchi bulg`orlarning bir tarmog`i esa Itil (Volga) va Kama daryosi orasiga joylashdilar. Buning natijasida yana bir Bulg`oriya davlati paydo bo`ldi (Bu davlat hozirgi Tatariston hududiga to`g`ri keladi). Ko`chmanchi bulg`orlar bu erda o`troqlashgan mahalliy fin–ugor qabilalari bilan qorishib ketdilar va ular ham o`troq hayot kechira boshladilar. Ko`chmanchi bulg`orlar hozirgi tatar, chuvash, boshqird va Itil daryosi bo`yidagi boshqa xalqlarning shakllanishida muhim rol` o`ynadilar. X–XIV asrlarda ular O`rta va Quyi Itil bo`ylarida kuchli davlat barpo qildilar. Ular Arab xalifaligi, Vizantiya, Sharqiy slavyanlar bilan savdo aloqalari o`rnatgan edilar. Bulg`oriya hatto Kiev Rusiga bas kela oladigan davlat edi. X asrda yosh Bulg`or davlati qudratli Xazar xonligiga qarshi bo`lib qolgan edi. Bulg`or shohi Olmos o`z mavqeini tiklab olish maqsadida Arab xalifaligidan yordam so`radi. Buning natijasida Bulg`oriya islomni qabul qildi. Turkiy–run yozuvi o`rniga arab yozuvi kirib keldi, madrasalar ochildi va h. Xullas, bir etnosning ikki tarmog`i taqdiri tamomila o`zgarishga uchradi.

**Madaniyat va shaxs** nafaqat mazmunan bir–biriga yaqin bo`lgan, balki shaklan va mazmunan o`zaro mos keluvchi tushunchalardir. Shaxs muayyan madaniy muhitda yashaydi va faoliyat ko`rsatadi. Qolaversa, madaniyatning paydo bo`lishi va rivoji shaxsga bog`liq. Ayni paytda shaxsning kamoloti madaniyatni va unga oid tushunchalarni o`ziga qanchalik singdirishi va buning natijasida munosib avlod bo`lib shakllanishiga bog`liq.

Qomusiy olim Abu Nasr Forobiy «Baxt–saodatga erishuv haqida» risolasida inson kamolotida jamoaning roli katta ekanligini ta`kidlab shunday deydi: «Kamolotga bir kishining o`zi yolg`iz (birovning yoki ko`pchilikning yordamisiz) erishuvi mumkin emas. Har bir insonning tug`ma tabiatida va unga lozim bo`lgan har qanday ish va harakat jarayonida boshqa bir inson yoki

ko`pchilik bilan munosabatda bo`lish, o`zaro aloqa qilish hissiyoti bor, odamzod jinsidan bo`lgan har qanday insonning ahvoli shu: u har qanday kamolotga erishuvida boshqalarning ko`maklashuvlariga va ular bilan birlashishga muhtoj yoki majburdir». Uning fikricha, inson o`zo`zidan baxtli bo`lolmaydi, kamolotga ham erisholmaydi. «Bu narsa uning harakatlariga, mehnatiga, kasb-hunar egallashiga, bilimiga va fozil jamiyatda yashashiga bog`liq».

Yakka shaxs ijtimoiy turmush va madaniyatga qay tarzda jalb qilinganligigagina emas, balki uning tabiiy imkoniyatlari, harakatiga, hissiyotiga, aql-idroki muhim ijtimoiy mazmun bilan to`ldirilganligiga va madaniy shakl kasb etganligiga qarab shaxs sifatida qaror topadi.

Madaniyat kishilarga tana a`zolari orqali, tug`ma his-tuyg`u yoki tug`ma iste`dod kabi tabiatan berilmaydi. Har bir shaxs o`zining shaxsiy tajribasi asosida, mustaqil ravishda bevosita tevarak-atrofdagi kishilarining, jamiyatning va o`tgan ajdodlarning to`plagan tajribalarini o`zlashtiradi. Yakka shaxs ijtimoiy amaliyot mahsuli bo`lgan madaniyatni o`zlashtirish bilan birga, unga ta`sir ham etadi. Shaxsnинг shakllanishi jarayonida moddiy va ma`naviy madaniyatni boyitadi. Shuningdek, inson madaniyat normalariga amal qilgan holda nafaqat tabiatni va jamiyatni, balki shaxsiy «tabiat»ni ham o`zgartiradi. Madaniyat shaxsning ichki dunyosi mazmuniga, «ikkinchiliq tabiat»ga aylanadi.

Shaxsning madaniyat bilan o`zaro munosabati hech qachon mukammal va uyg`un bo`la olmaydi. Ijtimoiy va individual hayot bilan umumiyligi madaniy tushunchalar bir-biriga mos kelmasligi mumkin. Ammo madaniyat doimo inson hayoti va faoliyati bilan chambarchas bog`liq bo`ladi, madaniyat shaxssiz yashay olmaydi. Lekin vogelikning murakkab, yaxlit birligi sifatida shaxs o`z rivojlanish qonunlariga ega bo`lib, borliqqa nisbatan mustaqildir. U madaniyatni o`zida mujassamlashtirgan aniq bir ijtimoiy guruhlarning ma`naviy hayotiga nisbatan boyroq va chuqurroqdir. Madaniyat doimo kadriyatlarning eng yirik zahirasi, tajribalar hazinasi bo`lib qoladi. Insoniyat avlodlari undan foydalanadilar va ayni paytda unga o`z hissalarini qo`shib boyitib boradilar.

Shaxs va madaniyat o`rtasidagi munosabat, yuqorida aytib o`tganimizdek, murakkab jarayon hisoblanadi. Shaxsning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishiga imkon yaratuvchi ruhits va ma`naviy dunyoqarashi ijobjiy va salbiy munosabatlari yig`indisidan tashkil topadi. Insonga ishchanlik, fidoiylik, matonat, o`tkir zehn kabi ijobjiy fazilatlar bilan birga kaltafaxmlik, yalqovlik, shafqatsizlik, inson manfaatlarini to`g`ri tushuna olmaslik, haqiqiy qadriyatlarni soxtasidan ajrata bilmaslik illatlari ham xosdir. Shuning uchun madaniyatni nafaqat qadrlash va saqlash, balki unga tanqidiy munosabatda bo`lish ham talab etiladi.

Yuqorida qayd etilgan sabablar ta`sirida muayyan ishlab chiqarish usuli hukmronligi sharoitidagi tarixan tarkib topgan ijtimoiy va madaniy muhitda jamiyat bilan shaxs o`rtasida nisbatan o`zgaruvchan muvozanat bo`ladi. Bu muvozanatni hosil bo`lishida madaniyatning ishtiroki salmoklidir.

Xullas, shaxs bilan madaniyatning o`zaro munosabatlari quyidagi sohalarda namoyon bo`ladi:

**birinchidan**, shaxs muayyan madaniy muhitda shakllanadi va o`sha madaniyatni o`zlashtiradi;

**ikkinchidan**, madaniy qadriyatlarning egasi va ifodalovchisi sifatida konkret madaniy muhitda faoliyat ko`rsatadi;

**uchinchidan**, madaniy ijodiyot sub`ekti sifatida madaniyatni rivojlantiradi.

Madaniyatli jamiyatning asosiy xususiyatlarini, madaniyatning mezon va mazmunini ziylolar qatlami belgilaydi. **Ziyolilik** bu nafaqat keng bilimga ega bo`lishni, balki tashabbuskorlikni, mas`uliyatni, axloqiy-estetik tomonidan shakllanishni bildiradi. Ziyolilar - aqliy mehnatning xilma-xil murakkab turlari bilan shug`ullanuvchi qatlamadir (fan va madaniyat xodimlari, o`qituvchilar, muhandis- texniklar, shifokorlar).

**Madaniyatlichkeit** – kamtarlik, halollik, rostgo`ylik, saxovatpeshalik, insonparvarlik, yaxshilik, saxiylik kabi insoniy fazilatlarga ega bo`lish, axloqiy qoidalarga to`la amal qilish, o`z millati hamda boshqa xalqlarni hurmat qilishni o`zlashtirishdir.

etarli bilimga ega bo`lmagan holda barcha bilimlar va narsalar to`g`risida fikr bildiruvchi kishi yuzaki ishqiboz (diletant)dir. Yuzaki ishqibozlik madaniyatlichkeitning etishmovchiligi belgisi bo`lib, chinakam madaniyatlichkeit va ziylilikka aloqasi yo`qdir.

**Tarbiyalilik** ziyolilikning asosiy belgisi bo`lib, uning umumiy madaniy saviyasi ko`pincha nutqda aks etadi. Madaniy nutq, avvalo, «to`g`ri nutq» demakdir. Madaniyatli kishi ifodali va chiroli nutq orqali o`z fikrini bayon qiladi. Ziyolining estetik didi baland bo`ladi. U san`at asarlarining go`zalligi tug`risidagina emas, balki kishilarning, tabiatning va jamiyatning go`zalligi haqida fikr yuritishga, qo`pollik vaadolatsizlikka qarshi turib, uni bartaraf qilishga qodir bo`ladi. Hamma narsada me`yor va uyg`unlik tuyg`usi ziyolilikniig asosiy hususiyatidir.

**Ziyolilik** bilim va tarbiya orqali kamol topadi. Ziyolilik tushunchasiga, umumiy madaniyatdan tashqari, nozikdidlilik, umuman, hayotga yuksak ong va ijtimoiy faollik bilan munosabatda bo`lish ham kiradi. Demak, «ziyolilik» faqat aqliy mehnat kishisiga taalluqli emas, balki iste`dodi keng qamrovli, oliyanob fazilatlarga ega, ma`naviyati yuksak har bir odamga nisbatan qo`llash mumkin.

Ziyoli - intellektual fikrlash qobiliyati yuksak shaxs, uning madaniyatli odamdan farqi shuki, u jamiyat va millat taqdiriga ma`naviy jihatdan javobgardir.

Shaxsning individual xususiyatlari bilan bog`liq bo`lgan yuqoridagiday ma`naviy, aqliy jarayonlar faqat ma`lum bir xalqqa xos milliy xususiyat emas, balki universal xususiyatdir. Ammo madaniy xususiyatlarning har bir xalqda alohida, o`ziga xos xususiyati ham borki, bu xususiyatlarni boshqa xalq uchun g`ayritabiyy tuyulishi mumkin. Masalan, tarbiyalilik umumiy xususiyat sifatida muomala va nutq jarayonida hosil bo`lsa, tarbiyalilikning turli xalqlarda ayrim ko`rinishlari borki, bunday holda milliy xususiyatlarni e`tiborga olish kerak. Masalan, evropaliklar xuddi o`zbeklar singari salomlashganlarida, qo`l uzatadilar. Xitoyliklar, yaponlar, hindlarning muomala madaniyatida bu alomatlar yo`q. Venada yashaydigan erkaklar ayol kishi bilan tanishganlarida, “qo`lingizni o`pay” deb murojaat qildilar, polyak esa tanishuvda ayolning qo`lini o`padi, o`zbek erkak va ayollar uchun bu singari salomlashuv tarbiyasizlikning bir ko`rinishidir. Yoki ingliz xalqiga mansub odam o`z uncha hurmat qilmaydigan birontasiga xat yozganda, “hurmatli janob” degan murojaat bilan boshlaydi. Ruslar mehmonorchilikka borganlarida, kosada ovqatini qoldirmasligi kerak, qoida shu. Xitoyliklarda esa mehmonga tushlik oxirida guruch bergenlarida, hech kim qo`lini tegizmasligi lozim (bu bilan ular o`zlarining to`q ekanliklarini ko`rsatishlari kerak).

Ko`rinadiki, tarbiyalilik kabi madaniy jarayon yoki tushunchalar to`g`risida so`z yuritilganda, albatta, universal tushunchalar bilan birga, milliy regional xususiyatlarni ham nazarda tutgan holda xulosa chiqarish kerak.

**Madaniyatlichkeit** tushunchasiga qo`shib ishlatiluvchi sifat keng bo`lib, uni qo`llash jamiyatning umumiy madaniy darajasiga va shaxsning sotsial maqomiga bog`liqidir. Hozirgi davrda «ishlab chiqarish madaniyati», «hizmat ko`rsatish madaniyati», «dam olish madaniyati» «boshqarish madaniyati», «nutq madaniyati», «ekologik madaniyati», «huquqiy madaniyati», «tibbiy madaniyati», «turmush madaniyati» va boshqalar to`g`risida ko`p gapirilmoqda. Bu iboralar orqali ijtimoiy institutlarning samarali faoliyat ko`rsatishi tushuniladi. Ba`zan madaniyat to`g`risidagi tasavvurlar shahar turmush tarziga, kinoteatrlar, teatrlar va kutubxonalarga tez-tez borib turish «madaniyatli» kishilar bilan do`splashish va boshqa chiroli narsalarni bezak sifatida ishlatishga bog`liq degan fikr bildiriladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, “madaniyat” termini ikki ma`noda – tor va keng ma`noda qo`llanishini anglash mumkin. Keng ma`noda – hayotiy talab va ehtiyojlar tufayli jamiyatda mustaqam o`rnashgan urf–odatlar, ijtimoiy institutlar, shuningdek, davlat va iqtisod ham madaniyatga taaalluqli deb hisoblanadi. Tor ma`noda madaniyatning chegaralari ma`naviy ijod, san`at, axloq, shaxsiy aqliy faoliyat chegaralari bilan tutashadi.<sup>12</sup>

“Madaniyat”ni tor ma`noda qo`llash tarafdarları ijtimoiy hodisalarining hammasini yoyishni noto`g`ri deb hisoblaydilar. Jamiyatda ko`plab noma`qul, jirkanch odatlar borki, ularni madaniyat deb atab bo`lmaydi. Giyohvandlik, jinoyatchilik, urushlar, ichkilikbozlik va bunga o`xshash hodisalar insoniyat tomonidan sun`iy ravishda yaratilgan, bularning hammasi ijtimoiy hodisalarga mansub. Biz madaniyatni faqat mezon va urf–odatlardangina (ular istalgan ko`rinishda bo`lishi mumkin) iborat emas, balki qadriyatlardan ham iborat deb bilar ekanmiz, giyohvandlik yoki jinoyatchilikni aslo madaniyatga mansub deb bo`lmaydi, chunki bu illatlar jamiyat uchun ijobjiy

<sup>12</sup> Qurang: Sokolov E.V. Kul`turologiya. Ocherki teorii kul`tur: posobie dlya starsheklassnikov, M.: 1994, str.22.

qadriyat emas. Bunday illatlar insoniyat yaratgan ijobiy qadriyatlarni yo`qotishga qaratilgan. Bularni baholashda mezon – inson, uning rivojlanish o`lchovi. Ana shunda madaniyat – taraqqiyotga yordam beradigan ijobiy fazilat va moddiy narsalardir, deb baholay olamiz.

Madaniy voqelikka inson befarq munosabatda bo`la olmaydi. Uning qadriyatlarga munosabati va xissiy emotsiyal tasavvurlari bolalik davrida to`plagan tajribasidan boshlanadi, qolaversa, kishining jamiyatda tutgan o`rniga, yoshiga, mavqeiga ham bog`liqdir. Shu nuqtai nazardan u o`ziga begona bo`lgan urf-odatlarga, madaniy hodisalarga ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo`ladi.

### **«Madaniyat» tushunchasining ayrim talqinlari**

1. **Aksiologik (qadriyat mezoni asosidagi) talqin.** Bu talqinka ko`ra, madaniyat insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma`naviy boyliklarning yig`indisidan iborat. Madaniyat inson faoliyatidan tashqarida mavjud emas. Madaniyat qanday namoyon bo`lishidan qat`iy nazar, qadriyat mezoniaga ega bo`ladi.

Madaniyat tushunchasi rivojlanish, tarix, inson kabi kategoriyalarga bog`liq bo`ladi. Insonning faoliyati natijasi, muayyan qadriyatlarga ega bo`lgan voqelik aksiologik ta`rifning negizini tashkil etadi. U kishilarning ishlab chiqarish, ijtimoiy va aqliy faoliyatini qamrab oladi. Bu talqin kamchiliklardan ham xoli emas. U voqelikni yaxlit idrok etishga, natijalarini mexanik ravishda hisoblashga asoslangan. Bunday yondoshuv voqelikka sub`ektiv baho berishga olib keladi. Aksiologik yondoshuv doirasida madaniyat faoliyati natijasi o`tmishga aylanib qolib, o`tmish va hozirgi zamон bilan tabiiy aloqalar buzilishi mumkin. Kadriyatga yondoshuvning zaif tomonlarini ko`rsatish boshqa davrga xos madaniy boyliklar tizimidan voz kechishni anglatmaydi.

### **2. «Faoliyat» tushunchasi asosida madaniyatni talqin qilish.**

Madaniyatning umumiy tabiatini idrok etishga qilingan harakat tufayli uni kishilarning ijodiy faoliyati jarayoni mahsulidir, degan tushuncha paydo bo`ldi. Jamiyat nafaqat qayta qurishga, balki an`analarni, madaniy yodgorliklarni saqlab qolishga ham mas`uldir. Jamiyatning amaliy va nazariy, moddiy va ma`naviy faoliyati, ijodiy sohalar bilan bir qatorda o`zida faoliyat ko`rsatish va madaniyatni o`zlashtirish jihatlarini mujassamlashtiradi.

Ijodiy faoliyatning ko`lami qancha katta bo`lsa, madaniyatning bir avlod tomonidan qabul qilinishi va kelgusi avlodlarga etkazib berish uchun zarur bo`lgan shart–sharoitlar faollashadi. Faoliyat – maqsadli yo`naltirilgan faollikkadir.

3. **Informatsion talqin** madaniyatni «irsiyatga bog`liq bo`lmagan axborotlar yig`indisi»dan tashkil topgan va saqlanib kelgan hodisa sifatida tushuntiradi. «Madaniyat axborotlar ombori emas», balki u nihoyatda murakkab tashkil topgan mexanizm bo`lib, u axborotni eng foydali va qulay usullar bilan saqlab keladi, yangi axborotlarni qabul qiladi, ularni qayta ma`lumotlarga aylantiradi, ularni belgilarini bir tizimdan boshqasiga o`tkazadi.

«Irsiyatga bog`liq bo`lmagan axborotlar yig`indisi» sifatida xotirani tushunishimiz mumkin. Chunki xotira mexanik jarayon emas, balki ijodiy jarayon hisoblanadi. Xotiraning muhim ma`naviy ahamiyati shundaki, u vaqt to`sig`ini engib, istiqbolga da`vat etadi. Umumiy xususiyatlariga ko`ra, biz madaniyatni xotira bilan qiyoslashimiz mumkin. Bunda biz alohida olingan shaxsning xotirasini emas, balki jamiyat xotirasini nazarda tutamiz.

Adabiyotshunos Yu.M.Lotmanning fikricha, «madaniyatdagi burilish» uni axborotga aylantirishning eng mukammal mexanizmidir. Bu mexanizm axborotni saqlashi va uzatishi bilan birga uning ko`lамини kengaytiradi. “Madaniyatga burilish” qonuniyatiga ko`ra, o`zini doimiy ravishda mukammallashtirib, rivojlantirib boradi. Shuning uchun madaniyat bir vaktda ham statik hamda dinamik xususiyatlarni namoyish qiladi. Shu ma`noda madaniyat tirik a`zo va san`at asarlariga xos bo`lgan hususiyatlarga ega. Madaniyatni xuddi insoniyat tomonidan yaratilgan yaxlit badiiy asar sifatida qabul qilish o`rinli.

Demak, birinchidan, madaniyat - inson ijodiy faoliyatining usullari, shakllari va yo`llari majmui bo`lib, u avloddan–avlodga vorsilik asosida o` tadigan moddiy va ma`naviy boyliklar orqali ifodalananadi. Madaniyat - insoniyat tomonidan yaratilgan «ikkinchchi tabiat, borliqidir»

**Ikkinchidan**, madaniyat mazmun–mohiyati va shakliga ko`ra, moddiy va ma`naviy madaniyatga bo`linadi. Madaniyatning har ikki ko`rinishi bir – biri bilan uzviy bog`liq, biri ikkinchisini to`ldiradi. Ma`naviy madaniyat – moddiy madaniyat ko`rinishida ifodalanganidek, moddiy madaniyat ham ma`naviy jarayon, ijodiy izlanish, badiiy tafakkur mahsuli sifatida yashaydi

va amal qiladi.

**Uchunchidan**, madaniyat inson tomonidan yaratilibgina qolmay, yaratilish jarayonida insonning “shakllanishi”ga, o`zgarishiga ta`sir ko`rsatadi. Madaniyat boyliklaridan muttasil bahramand bo`lish (kitob mutolaasi, san`at asarlarini o`rganish, ahloqiy fazilatlardan ibrat olish, o`tmish madaniyati yodgorliklarini o`rganish v.b.) insonni komillikka etaklaydi.

**To`rtinchidan**, madaniyatatlilik – tarbiyalilik, ziyolilik, inson komilligining muhim belgisi va sharti bo`lib, u har bir odamni madaniyat boyliklaridan bahramand bo`lishga, ijtimoiy mas`uliyatga, hayotda o`z o`rnini topishga undaydi.

### **Mavzu bo`yicha takrorlash uchun savollar**

1. Madaniyatshunoslik fani nimani o`rganadi?
2. Madaniyatshunoslik fanining asosiy yo`nalishlarini sanang.
3. «Madaniyat» atamasi fanda qachon paydo bo`lgan?
4. «Madaniyat» deganda qanday ma`no va hodisani tushunasiz?
5. «Madaniyat» tushunchasining qanday asosiy talqinlari, tasniflarini bilasiz?
6. Tabiat bilan madaniyat (ikkinchi tabiat)ning qanday farqli tomonlari mavjud?
7. Inson va jamiyat hayotida madaniyatning tutgan o`rnini tushuntiring.
8. Madaniyatning ahamiyati hususida buyuk mutafakkirlarning fikrlarini eslang.
9. Hozirgi zamon madaniyatshunoslik fani bilan bog`liq bilimlarning ahamiyati nimada?

### **Mavzuga oid asosiy tushunchalar izohi:**

**Madaniyat** – inson faoliyati asosida yaratilgan moddiy-ma`naviy boyliklar. U ijtimoiy hodisa sifatida har bir jamiyatda o`ziga xos bo`ladi. Uning rivojlanishi avlodlarni bir – biri bilan bog`laydi, taraqqiyotning vorisligi, uzluksizligini ta`minlaydi;

**Mentalitet** – muayyan, jamiyat, millat, shaxsning tarixan tarkib topgan tafakkur darajasi, tahlil muhofazasi, aqliy salohiyati. U milliy an`anada, rasm - rusumlarda, urf – odatlarda, e`tiqodda gavdalanadi;

**Aksiologiya** – qadriyatlar haqidagi ilm. U aksiologik ong, tuyg`u, aksiologik bilish va yondoshuvlarda ifodalanadi. Madaniyatga aksiologik yondoshuv uni qadriyatlar me`yori sifatida baholashga asos bo`ladi.

**Fenomen** – ko`ga tashlanib turgan aniq holat yoxud kam uchraydigan hodisa.

**Ziyolilik** – bilimlilikni anglatib, ijtimoiy tabaqa sifatida asosan aqliy mehnat bilan shug`ulanadigan xodimlar.

## Ma`ruza – 2. MADANIY TARAQQIYOTNING ASOSIY QONUNIYATLARI

### REJA

5. Moddiy va ma`naviy madaniyat – madaniyatning ikki sohasi. Ularning o`zaro bog`liqligi.
6. Jamiyat hayotida madaniyatning asosiy vazifalari. Madaniyatning asosiy tizimlari.
7. Madaniyat taraqqiyotida qadriyatlarning o`rni.
8. Vorisiylik, tadrijiylik – madaniy taraqqiyotning asosiy qonuniyati.

Madaniy hodisa o`rganish jarayonida shubhasiz, ikki yo`nalishga duch kelamiz. Bu ikki yo`nalish – moddiy va ma`naviy madaniyatdan iboratdir. Madaniyatning bu ikki turi bir–biri bilan o`zaro aloqada bo`lib, bir–biriga ta`sir etadi va bir–birini taqozo qilib, taraqqiy etib boradi. Moddiy madaniyat ma`naviy madaniyatning hosilasi, ayni paytda ma`naviy madaniyat ham moddiy narsalarni – belgi tasvir, buyumlarning insoniyat rivojidagi vazifasini ko`rsatadi. Shuning uchun madaniyatshunosni faqat san`at olami – sur`at, arxitektura yoki haykaltaroshlik qiziqtirib qolmaydi, balki xalq raqslari, ko`ngilochar o`yin shakllari va ommaviy tomoshalar, an`ana va odatlar, ta`lim va fan sohalariga ham e`tibor qaratish lozim bo`ladi. Ana shundagina moddiy va ma`naviy madaniyatning bir–biri bilan o`zaro aloqadorligi va bu azaliy hodisa ekani ayon bo`ladi. Buni yanada yaxshiroq tasavvur qilish uchun tarixga murojaat etaylik.

Insoniyat taraqqiyotining boshlang`ich davrlarida moddiy hayot bilan ma`naviy hayot yaxlit birlikda namoyon bo`lgan. Ibtidoiy tuzum sharoitida har ikki turdag'i madaniy jarayon alohida–alohida rivojlanmagan, bir–biridan ajralmagan edi. Insoniyat hodisalar va buyumlarni bir xil, turg`un holda tushungan. Ibtidoiy davr odamining bu tarzda fikrlash jarayoni ayrim xalqlarni (masalan, italiyaliklarni) “Butun olam bir mamlakatdir” degan tasavvurga olib kelgan. Hodisa va buyumlarning bir xilligi va turg`unligini inson tabiatidagi o`xshashlikda kuzatish mumkin. Ibtidoiy davr sharoitida yashayotgan qabilalar hayotini kuzatayotgan olimlar, barcha yovvoyi qabilalar bir–biriga o`xshaydi, degan xulosaga kelganlar. Masalan, muzey eksponatlaridagi dunyoning istalgan hududidan topilgan mehnat qurollari, insonning yashash sharoitiga xos buyumlar va boshpanalar bu fikrlarni yana bir bor tasdiqlaydi. Dunyoning istalgan muzeyi eksponatlaridan toshdan yasalgan bolta, cho`kich, pichoq, nayza va b. ish qurollarini topish mumkin.

Davrilar o`tib ma`naviy faoliyat moddiy madaniyatdan ajralib chiqdi. Ma`lum bir davrga xos ahloqiy mezonlar shakllandı, din, san`at, xuquq, siyosat, fan paydo bo`ldi, ma`lum doiradagi kishilar bu sohalar bilan shug`ullana boshladi. Qadimda “madaniyat“ termini faqat ma`naviy madaniyatni nazarda tutgan. Zotan, haqiqat, ezgulik, go`zallik hukmron bo`lmog`i lozim, degan qarashlar bo`lgan. Nafaqat O`rta Osiyoda, balki butun Sharqda bu g`oya va aqidalar madaniy hayotning asosi bo`lib xizmat qilgan.

Industrial jamiyat vujudga kelgach, texnika taraqqiyoti va texnologiyalar tezlik bilan almashinadigan bo`ldi. Bu esa insoniyat barcha moddiy madaniyatni o`rganishiga turtki bo`ldi. Insonlarning amaliy qayta o`zgartiruvchilik faoliyati yuzaga keldi. Aslida industrial jamiyat iqtisodiy va siyosiy inqilobning mahsuli. “Iqtisodiy inqilob“ termini ostida Angliyadan kelib chiqqan *buyuk industrial inqilob* nazarda tutiladi. “Siyosiy inqilob“ ostida esa buyuk frantsuz inqilobini nazarda tutamiz. Har ikkalasi ham XVIII asrda paydo bo`ldi. Angliya mashinasozlik ishlab chiqarishida va yangi qonunchilikda peshqadam bo`ldi. Zavod va fabrikalarning kengayishi, ishlab chiqarish sharoitining yaxshilanishi, va odamlarning o`rtacha yoshi uzayishi natijasida industriallashtirish urbanizatsiyada olib keldi, ya`ni odamlar o`z xohish–istiklari bilan qishloqlardan shaharlarga oqib kela boshladilar. Buning natijasida esa shaharlar aholisi ko`paydi, ular qulay yashash sharoitiga, madaniy xizmatlar ko`rsatilishiga, yaxshi ta`lim olishga erishdilar.

Albatta, bu tarzdagi madaniy hayot dunyoning turli mamlakatlarida har xil kechdi. O`rta Osiyo respublikalarida industrial jamiyat madaniyati XIX asr oxiri– XX asr boshlariga to`g`ri keladi. Rossiyada esa industrial jamiyat madaniyati ertaroq boshlandi.

XXI asrga kelib texnologiyaning rivoji natijasida industrial jamiyat madaniyatidan *axborot jamiyat* madaniyatiga o`tish jadal tus oldi. Hozirgi jamiyatda axborot izlash, tahlil qilish va tatbiq etish – taraqqiyotning asosiy omiliga aylandi. Jumladan, AQSh va G`arbiy evropa mamlakatlari “axborot jamiyat”ga misol bo`la oladi. Bu mamlakatlarda ishchi kuchlarining 60 – 80 foizi

bevosita va bilvosita axborot yaratish, qayta ishslash va uzatish bilan band. Axborotning turli–tuman ko`rinishlari – internet, kabel` televideniesi, videodisk va uning bir qancha turlari insoniyatning madaniy hayoti darajasiga katta ijobiy ta`sir ko`rsatyapti. Insoniyat tarixiy taraqqiyot jarayonida asosan, moddiy madaniyatga ko`proq e`tibor qaratgan va madaniyatning bir qancha ko`rinishlarini bosib o`tgan. Moddiy madaniyatning bu ko`rinishlari quyidagilardir:

**Birinchi ko`rinishi** – mehnat qurollari, barcha ishlab chiqarish vositalari, turar joylar, aloqa, texnika qurilmalaridir. Xullas, notabiiy yo`l bilan insoniyat qo`li vositasida yaratilgan buyumlarning barchasi, shuningdek, moddiy madaniyatning ko`rinishi va turlari jamiyat hayotining moddiy texnik asosi deb ataladi. Ishlab chiqarish texnologiyalari, mehnat mahsulotida ishtirok etuvchilarining ijodiy faoliyati, ularning bilim darajasi, ishlab chiqarish madaniyatiga qo`shgan hissasi, ularning jismoniy va ma`naviy imkoniyatlari ishlab chiqarish texnika madaniyatining alohida qismini tashkil etadi.

**Moddiy madaniyatning ikkinchi ko`rinishi** - ijtimoiy hayot va uning barcha sohalarining me`yoriy harakatini ta`minlovchi ijtimoiy institutlar, tashkilot va muassasalar faoliyati bilan bog`liq. Bu singari hokimiyat tuzilmalari va unga munosib boshqaruv shakllari, ijtimoiy tashkilotlar ta`lim, yosh avlodni tarbiyalash va ta`lim berish, sog`liqni saqlash va dam olish, bo`sh vaqt va ko`ngil ochish muassasalari tizimi kabi, amalda jamiyatning madaniyatini taraqqiyotini saqlaydi, o`zgartiradi va qayta shakllantiradi.

**Moddiy madaniyatining uchinchi ko`rinishi** (ishlab chikaruvchi va qayta ishlab chiqaruvchi) shaxs hisoblanadi. Moddiy madaniyatning bu ko`rinishi insonning tabiiy, ya`ni biologik hamda ijtimoiy mavjudlik masalalarini o`z ichiga oladi. Shu bilan birga, avlodlar o`rtasidagi o`zaro madaniy munosabatlar, bundagi muammolar ham shu sohaga taalluqlidir.

Madaniyatning yuqoridagi uch ko`rinishi nisbiydir, madaniyatning barcha ko`rinishlari tarixiy taraqqiyot jarayonida insoniyatning yashash tarzi va faoliyatiga bog`liq ravishda o`zgarib boradi, bir davrdagi madaniy hodisa keyingisi uchun zamin bo`ladi.

## Madaniyat ko`rinishlari<sup>1</sup>

Yozuv paydo bo`lgunga qadar

zamonaviy		tarixiy
sodda		murakkab
ovchilik	polizchilik	sanoat
tirikchilik o`tkazish	chorvachilik	dehqonchilik

Inson ulg`ayib, voyaga etar ekan, turli xil ijtimoiy-demografik guruhlarga mansub bo`ladi. Odamning ma`lum yoshida va muayyan ijtimoiy mavqeida biron madaniyatga mansublik ustuvorlik, qiladi. Ayni paytda u jamiyatdagi, hatto undan tashqaridagi madaniyatning ham sezilarli ta`sirida bo`ladi. Buning natijasida inson ikki, ba`zan undan ham ko`proq madaniyat ta`siri ostida qoladi. Masalan, kechagi talaba bugun mutaxassis bo`lib, katta bir korxonaga injener bo`lib xizmatga o`tadi. Endi u sanoat yoki industrial jamiyat madaniyatiga moslashadi, ishlab chiqarishda yoki xizmat ko`rsatish sohasida faol ishtirok etadi, jamiyatdagi madaniy taraqqiyotda muhim rol` o`ynaydi. Boshqa bir odam xorijga o`qish yo ishga ketadi. Endi u boshqa xalqning muomala madaniyatiga, o`sha jamiyatning qonun–qidalariga rioya qiladi. Natijada madaniyat regional xususiyatga ega bo`la boradi. Endi ular yangi madaniy muhitda, boshqa qadriyat va me`yorlar qurshovida yashaydi.

Inson turli madaniy olamga kirib borar ekan, uning ichki olami va tashqi hatti-harakatlarining mazmuni boyiydi. Ammo ko`p tomonlama, turli madaniy olamga mansublikning ma`lum noijobiy jixatlari ham bor, ya`ni, endigina ulg`ayib kelayotgan yosh avlod boshqa

<sup>1</sup> Bu jadval A. I. Kravchenkoning “Kul’turologiya” kitobidan (61–bet) olindi.

jamiyatga aralashuvi jarayonida tasodifan nosog`lom muhitga tushib qolishi yoxud chetdan kelayotgan begona madaniyatning salbiy oqibatlari ta`siriga tushib qolishi ham mumkin. Yuqorida biz aytgan giyohvandlik, ichkilikbozlik, fohishabozlik ana shunday illatlardan bo`lib, ko`proq yot madaniyatning ta`sirida paydo bo`lishi mumkin. Bu albatta xalqning shakllanayotgan o`zligiga jiddiy ta`sir ko`rsatdi. Shuning uchun o`zga madaniyatning an`anaviy jihatlarining yoki undagi nosog`lom aqidalarining kirib kelishiga hushyor turish lozim bo`ladi. Madaniyaning doimo yangilanish jarayonini ta`minlab borish g`oyat muhimdir.

Moddiy madaniyatning uchinchi ko`rinishi doirasiga inson hayot faoliyatining irsiy, jismoniy, tibbiy-biologik hususiyatlari haqidagi, jamiyatda yuzaga kelgan va tarixiy taraqqiyotning o`ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi madaniy an`analarga, sog`lom odatlarga mos muammolar kiradi. Jumladan, insonning turmush tarzi, ovqatlanishi haqidagi oddiy bilimlari majmui bo`lgan ekologiya masalalari bevosita shu ko`rinishga kiradi.

Moddiy madaniyat tarixiy jarayondir. Har bir davrning moddiy madaniyatni to`g`risidagi tushuncha boshqa bir davr uchun ahamiyatsiz bo`lib qolishi mumkin. Chunki sinfiy jamiyatga o`tganda, axloq va mafkura o`zgardi, yangicha diniy-falsafiy qarashlar paydo bo`ldi. Ijtimoiy hayotning hamma sohalarida jiddiy olg`a bosish paydo bo`ldi. Bunga sharqda 1X asrda paydo bo`lgan muruvvat va futuvvatni misol qilib keltirish mumkin. Hashamatli hayotga nisbatan ixtiyoriy faqirlilikni afzal bilish, boylikka ruju qo`ymamlikka da`vat va hokazo aqidalar moddiy boyliklarga qarashlarni o`zgartirdi, jamiyatdagi ma`lum qatlarni ma`naviy jihatdan ustun bo`lib, hamma qatlamlarga ta`sirini o`tkaza bordi. Bu oqimlar zaminida yuzaga kelgan tasavvufning diniy-falsafiy oqim sifatida uzoq asrlar davomida ma`naviy sog`lomlikni qaror toptirishdagi xizmatini shu o`rinda ta`kidlab o`tish lozim.

Ammo tasavvufdagi ixtiyoriy faqirlilik aqidasidan, moddiy madaniyat ishlab chiqarishga befarq degan xulosaga olib kelmaydi.

Moddiy madaniyat ishlab chiqarish jarayonida ijodiy salohiyat, malaka va g`oya yangidan moddiylashadi, shaxs, jamiyat, xalq, davlat umuminsoniy mazmun kasb etadi.

Moddiy madaniyat muayyan tarixiy davrda jamiyatda mavjud bo`lgan buyumlarni, moddiy ishlab chiqarish faoliyatining barcha sohalarini va natijalarini o`z ichiga oladi.

Ma`naviy madaniyat rivoji insoniyat tarixinining ilk davrida boshlangan. Odamlar ma`naviy madaniyatni belgilashga, uning shakllanish sabablarini aniqlashga, ma`naviy boylik ijodkori va yaratuvchilari qanday sifatlarga ega bo`lishlari kerakligiga va ma`naviy ijodkorlik jarayonini izohlashga uringanlar. Ilgari mavjud bo`lmagan madaniyat hodisasini vujudga keltirishga hizmat qiluvchi ijodiy kuchlar faoliyatida hayolot, fantaziyaga berilish muhim o`rin tutadi. Miflar ana shu ma`naviy madaniyatning ilk ko`rinishi bo`lib, insoniyat dunyonи qanday idrok etganini ana shu miflar ko`rsatadi.

Insondagи qobiliyat qirralari tabiatan mavjud bo`lib, uning shakllanishi insonning paydo bo`lish davridan boshlanadi. Insonning jismoniy va ruhiy jihatlari takomillashib, intelektual va hissiy imkoniyatlari kuchayib borgan. Inson jismoniy, ongli va his qiluvchi mavjudot sifatida ilk davrdanoq o`ziga xos dunyosini yarata boshlagan.

Ma`naviy madaniyatning turli shakllari mavjud bo`lib, ular bir qarashda mustaqil ko`rinadi. Biroq o`sha shakllarning barchasi bir butun ma`naviy jarayonning tarkibiy qismlaridir. Fan, din, falsafa, san`at, axlok, huquq, siyosat, mafkura, milliy o`zlik ma`naviy madaniyatning muayyan shakllari hisoblanadi. Ma`naviyatiing har bir shakli, tarkibiy qismi o`ziga xos tuzilishga va ma`lum bir vazifalarga ega. Ma`naviy madaniyatning ayrim shakllari ma`lum doirada, boshqalari esa barcha sohalarda amal qiladi. Masalan, axloqning shakllanishi va paydo bo`lishida butun jamiyat xizmat qilgan bo`lsa, san`atni noyob qobiliyat egalari yaratadi; kundalik bilim hammaga ozmi - ko`pmi xos bo`lsa, faqat buyuk mutafakkirlargina ilm tufayli daholar darajasiga ko`tarila oladilar.

Madaniyatning asosiy xususiyatlaridan biri shuki, unda hech bir ortiqcha, shunchaki narsa yo`q, barcha madaniy hodisalar kim va nima uchundir zarur. U paydo bo`lib, saqlanib qolib, avloddan-avlodga o`tib kelar ekan, bunda insoniyatning moddiy va ma`naviy ehtiyojlarini qondirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Madaniyatning asosiy vazifalari quyidagilardir:

**1) Olamni o`zlashtirish va qayta o`zgartirish vazifasi.:** inson dunyonи o`z maqsad-manfaatiga mos holda o`rganish ehtiyoji hayotiy talablarni qondirish zarurati bilan bog`liq bo`ladi.

**2) Himoya-moslashuv vazifasi:** jamiyat va tabiat o`rtasidagi muvofiqlikni saqlashdan

iborat. Inson uzoq vaqt qiyin tabiiy sharoitlarda barcha yangi himoya vositalarini ishlab chiqishg majburiyat sezadi, o`zini shunga ko`niktiradi (olov, turar joy, kiyim, dexqonchilikni va h. kashf etadi). Shu tariqa odam omon qolgan. Madaniyatning bu vazifasi zamonlar o`tishi bilan insoniyat ehtiyojiga moslashib boradi. Masalan, keyingi vaqtarda insoniyat oldida turgan muammolardan biri ekologiya bo`lib, inson o`zini himoya qiluvchi vositalarni yaratishga ehiyoj sezadi.

**3) Signifikativ** (belgilash, ko`rsatish) **vazifa**: ma`no, nom, belgilar ko`lamini paydo qilish vositasida dunyoning qiyofasi, vogelikning belgilari tizimini (raqam, yozuv) yaratadi. Sezgilar ham, idrok ham, ong ham yo`nalishni aniqlash tizimini insonga ta`minlab bermaydi. Bu vazifani ma`lumotlarni o`zida saqlamasdan, nazariy modellar va axborotlar bilimini to`plashni vujudga keltirish uchun faqat material bo`lib xizmat qiluvchi mazmun bajaradi.

**4) Axborotlarni yaratish va yig`ish vazifasi** – xabarlarni yig`ish va saqlash, xotira yoki xabarlarni biror buyumlarga yozish (qo`lyozmalar, suratlar, plastinkalar, kitoblar, kinotasmalar, magnit tasmalari yoki raqamli yozuvlar)dan iborat. Har qanday holatda ham axborot yaratish, uning ahamiyati va mazmunini tartibga solish bo`yicha ma`lum usul va belgilar tizimi zarur. Hozirgi davrda keng ko`lamli va o`ta ahamiyatli belgilar tizimi til bo`lib qolmoqda.

**5) Kommunikativ** (aloqa almashuv) **vazifa** - mohiyatni aniqlash uchun bilimlar, fikrlar, ma`naviy omillarni o`zaro almashuvdir. Ijtimoiy hayot doimiy ravishda energiya, axborot, o`zaro amaliy hamkorlikni taqozo qiladi. Zotan, faqat turli tiplarning (an`anaviy, funktional, shaxslararo, ishlab chiqaruvchi, madaniy - ma`rifiy) munosabati jamiyatning mavjudligini va uning keyingi taraqqiyotini ta`minlashga qodir.

**6) Me`yoriy vazifa** – insonlarning axloq mezonlarini yo`lga qo`yish, jamiyatda sog`lom muhit yaratish maqsadida axloqning mohiyatini muvofiqlashtirishdan iboratdir. Me`yor qandaydir xatti-harakatni yoki qandaydir predmetlar, narsalarni yaratish sohasida ishlab chiqilgan va jamiyat tomonidan ma`qullangan aniq qoidadir. Me`yor ma`lum maqsadda joriy qilingan ko`p asrlik an`analarga tayanadi va an`analarni ma`qullab, jamiyatga olib kirishga yo`l beradi yoki majburiy ravishda ko`p asrlik an`analarni taqiqlaydi. Me`yorning mazmuni jamiyatda nosog`lom muhit paydo bo`lmasligi uchun odamlar faoliyatini, xulq-atvorini tartibga solish, aniq chegaralar orqali belgilashdan iborat..

**7) Ruhan mo``tadil muhit yaratish vazifasi** – an`anaviy bayramlar, diniy marosimlar, o`yinlar, tomosha jarayonida ruhiy zo`riqishni bartaraf qilishdan iborat. Qoniqmagan istak, ro`yobga chiqmaydigan niyat, amalda taqiqlanuvchi mojarolar ruhiy zo`riqishlar paydo bo`lishiga olib keladi. Bu nafaqat ma`lum bir shaxs salomatligiga zarar etkazadi, balki ommaviy ravishda tarqalib ketib, jamiyatdagi sog`lom muhitni izdan chiqarishi mumkin.

Xullas, insonlar yaratgan moddiy, ma`naviy qadriyatlar va boyliklar – ularning kobiliyati, munosabatlari va mohiyatini namoyon qilishdan iborat. Inson bu moddiy va ma`naviy qadriyatlarga o`z munosabatini bildirar ekan, ayni vaqtida insonning o`zi ham mukammallahib, o`zgarib turadigan moxiyat sifatida namoyon bo`ladi. Demak, madaniy hodisa buyumlar shaklida, inson faoliyatining tayyor mahsulotlari shaklida va insonning qobiliyati hamda bilimlari shaklida amal qiladi.

Insonlar hayotiy tajriba jarayonida zarur moddiy shart-sharoit va yashash vositalarini yaratish bilangina kifoyalanib qolmay, ayni chog`da ongini ham takomillashtirib boradi. Ular ijtimoiy ong shakllarini (dunyoqarash, axloq, huquq, estetik tafakkur) vujudga keltiradilar yoki ma`naviy yaratish faoliyatni amalga oshiradilar. Bularning majmui ma`naviy madaniyatni tashkil etadi.

**Ma`naviy madaniyat** — aql-zakovatning shunchaki mahsuloti bo`lmay, balki insonlar o`rtasidagi ijodiy faoliyatga turtki beradigan munosabatni ham bildiradi. Shuningdek, ma`naviy madaniyat ta`lim va fan sohasiga oid ilmiy faoliyatni, axloqiy va estetik madaniyatni o`z ichiga oladi. Natijada ma`naviy madaniyat insonning layoqati va faoliyatining buyumlarda moddiylashgan shaklida, insoniyat tomonidan yaratilgan ma`naviy qadriyatlar (ilm, san`at, huquq, axloq qoidalari) shaklida mayjud bo`ladi.

Madaniyatning quyidagi vazifalari bevosita shaxs faoliyati bilan bog`liq:

**Inkul`turatsiya.** Inson, avvalo, o`z millatining, keyin esa umuminsoniy madaniy merosni o`zlashtiradi, ya`ni inson madaniy qoida va mezonlarga moslashadi.

— **Individualizatsiya.** Madaniyat ma`lum shaxslar qobiliyatini, iqtidorini, xususiyatini

jiddiy mukammallashtirishga mo`ljallangan. Shaxs madaniyati qolgan barcha madaniy doirada - (jamiyatda, insoniyat orasida) eng asosiy omil bo`lib, aniq shaxsning barkamollik darajasi, jamiyat bilan yoki butun insoniyat madaniyati bilan bog`liq bo`lishini bildiradi.

Har qanday ma`naviy madaniyat jamiyatning tarkibiy qismi bo`lib, u insonning yashashi, faoliyatini, umuman, jamiyatdagi o`rnini belgilashga yordam beradi. Ma`naviy madaniyat mahsuli bo`lgan madaniy qadriyatlar inson uchun shaxsiy moxiyat va mazmun kasb etib, inson u orqali boshqalar bilan, butun jamiyat bilan munosabat o`rnatadi. Qadriyatlar jamiyatga manzur bo`ladigan axloq mezonlari yaratilishida insonga yordam beradi. Shaxs bilan jamiyatning o`zaro munosabatlari turli tarixiy davrlarda turliche bo`lgan, shunga qaramay, shaxs madaniyati jamiyat madaniyatini belgilaydi, ayni paytda shaxs madaniyati muayyan bir jamiyatning madaniy muhitida shakllanadi. Har bir jamiyat shaxs madaniyatini kamol toptirishda qadriyatlarini me`yorlashtiradi va shaxsning ma`naviy extiyojlarini ta`minlaydi.

Inson ayni paytda ham tarixiy taraqqiyotning maxsuli, ham uning sub`ektidir. Ijtimoiy munosabatlar insonni ijtimoiy mavjudotga aylantiradi, dunyoqarashini shakllantiradi. Inson ishlab chiqaruvchi kuch sifatida faqat buyumlar yaratib qolmay, balki o`zini, o`z shaxsiyatini ham shakllantiradi. Bu jarayonda inson o`zini takror ijd qiladi, shu jihatdan u ijtimoiy mavjudotdir.

Shaxsni jamiyatdan, ijtimoiy munosabatlardan ajratib bo`lmaganidek, jamiyat taraqqiyoti ham insonning amaliy faoliyati bilan uzviy bog`liqdir. Jamiyat bilan shaxs o`rtasidagi munosabat bir-biriga bog`liq, bir-birini taqozo qiladigan munosabatlardir. Ijtimoiy munosabatlar ta`sirida shaxs turmushining turli jihatlari paydo bo`ladi. Har bir shaxsda u mansub bo`lgan jamoaga, millatga, elatga, jamiyatga xos umumiy xususiyatlar va belgilar shakllanadi.

Inson o`zi yashab turgan jamiyatning qonun-qoidalari, tartiblari, axloqiy, huquqiy mezonlariga amal qilmasligi yoxud jamiyatning muammolariga, qiyinchiliklariga befarq qarashi aslo mumkin emas. Har bir mamlakatning Konstitutsiyasida belgilab qo`yilgan qonunlarga amal qilish, boshqa fuqarolarning qadr-qimmatini hurmat qilish, jamiyat manfaatlariga zid va nojo`ya harakatlarga murosasiz bo`lish, Vatanni himoya qilish kabi qator majburiyatlar shaxsning burchi va ma`suliyatidir.

Shaxsning komillikka erishuvini ta`minlashda jamiyatdagi mehnat madaniyatini rivojlantirish, odamlarning siyosiy ongini oshirish, ahloqiy va nafosat tuyg`usini shakllantirish madaniyatning tarkibiy qismlaridir. Shaxs madaniyatining shakllanishida jamiyat madaniyatining quyidagi tizimlari axamiyatlidir:

### **Mavzu bo`yicha takrorlash uchun savollar**

1. Madaniyat qanday sohalarga bo`linadi?
2. Moddiy madaniyatning asosiy belgilar ni malardan iborat?
3. Ma`naviy madaniyatning belgilarini sanang.
4. Moddiy va ma`naviy madaniyatning o`zaro munosabati qanday?
5. Madaniyatning jamiyat hayotidagi vazifalarini aytib bering.
6. Madaniyatni asosiy tizimlarini aytib bering.
7. Shaxs faoliyatida madaniyatni tutgan to`g`risida gapiriing.
8. Madaniy qadriyatlar deganda nimani tushunasiz?
9. Madaniy qadriyatlarning shaxs barkamolligi va jamiyat ravnaqidagi ahamiyatining so`zlab bering.

### **Mavzuga oid asosiy tushunchalar izohi:**

**Inkul`turatsiya** – shaxsni madaniylashuv jarayoni, shaxs tarafidan, milliy va umuminsoniy meros, qadriyatlarni o`zlashtirilishi;

**Individualizatsiya** – ma`lum shaxs qobiliyatini, iqtidorini, xususiyatini jiddiy takomillashtirish bo`yicha olib boriladigan faoliyat.

**Tsivilizatsiya** – jamiyat rivojlanishining muayan bosqichi, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya tizimi, madaniyat rivojida mintaqaviy, geografik joylashuv (m: G`arb tsivilizatsiyasi), diniy, etnik, madaniy birlik – Islom tsivilizatsiyasi, Misr, Bobil tsivilizatsiyasi v.b.

**Qadriyat** – voqelikdagi muayan xodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy – axloqiy, madaniy – ma`naviy ahamiyatini ifodalovchi falsafiy tushuncha. Qadriyatlar (m: axloq, meros) umuminsoniy, mintaqaviy, milliy, shaxsiy bo`lishi mumkin (m: udum, bayramlar).

***Ma`ruza – 3.***  
**MADANIY TARAQQIYOT VA MA`NAVIY MEROS**

Meror, yuqorida ko`rib o`tganimizday, keng qamrovli tushuncha. Shu bois u birinchi navbatda dunyodagi hamma xalqlarning mulki hisoblanadi. «Madaniy meror - deyiladi, «Falsafa» qomusiy lug`atida, - avlodlar tomonidan yaratilgan amaliy tajriba, axloqiy, ilmiy, tafakkuriy, diniy va ruxiy qarashlarda xalq madaniyatini va ijodi kabi moddiy hamda ma`naviy bitiklar majmui<sup>1</sup>».

Madaniyat turli davrlarda rivojlanishi jarayonida o`zgarib, takomillashib borgan. Inson dastlabki hayot tarzida tirikchilikning turli omillarini – ovchilik, ko`chmanchilik, chovachilik, dehqonchilik, xunarmandchilikni paydo qildi, bora–bora shahar va qishloq hayot tarzini paydo qildi. Keyingi avlod ajdodlar yaratgan kundalik ehtiyojga vositalaridan imkoniyatiga ko`ra o`zlashtirib foydalangan. Ehtiyojni qondira olmaganlari unutilgan, ayrimlari mukammallashtirib, saqlangan. Kezi kelib muzeylear bekorga tashkil etilmagan - u erdag'i ko`rgazmalar o`tmish avlodlar hayot va tafakkur tarzini tasavvur etishga imkoniyat beradi.

Bugun biz uchun madaniy meror bo`lib qolgan hodisalar o`tmishda turmushning, hayot kechirishning muhim omiliga aylangan edi. Madaniy merosning ayrim qirralari, yuqorida aytganimizdek, ehtiyojni qondira olmagandan keyin yo`qolishga yuz tutgan bo`lsa, ayrimlari tobora jahonshumul ahamiyat kasb eta borgan. Buyuk ipak yo`li yuzaga keltirgan moddiy va ma`naviy madaniyat buning yorqin namunasidir. Hozirga kelib dunyo madaniyati tarixida “Buyuk ipak yo`li madaniyatii” degan nom paydo bo`ldi. Demak, dastlabki davrda moddiy ehtiyoj vositasi bo`lgan narsa jahonshumul madaniy hodisaga aylandi. Shu bois “Buyuk ipak yo`li madaniyatii” to`g`risida batatsil ma`lumot bermoqchimiz.

Buyuk ipak yo`li Xitoyning o`rta qismidan g`arbga O`rta er dengizi sohillarigacha cho`zilgan va evroosiyoning quruqlik qismini kesib o`tgan. Bu yo`l 7000 kilometrdan oshiqroq. Xitoy – dunyoda ilk bor ipak qurti boqishni ixtiro qilgan mamlakat, Shuningdek, pilla qurti urug`i Xitoy tashqi savdo aloqasida g`arb mamlakatlariga eksport qilingan asosiy tovar turi edi.

Shuni ta`kidlash kerakki, ipak yo`li yakka madaniyat bo`lib shakllanmagan bo`lsa ham, Eron, Hindiston, O`rta Osiyo va Xitoy madaniyatini keskin ravishda o`zgartirgan.

Buyuk ipak yo`lining asosiy qismini O`rta Osiyodan o`tgan. Bu yo`l O`rta Osiyoning tog`tizmalari bo`yicha belgilangan. Kopetdog` Eronning sharqiy qismidagi Xuroson o`lkasi bilan O`rta Osiyoning g`arbiy qismi tekisligini ikkiga bo`lib turadi. Amudaryo va Sirdaryo shu tekislikdan oqib o`tadi.

Sharqiy Eron, Hindiston va Xitoy orasida joylashgan ipak yo`lining asosiy chizig`i g`arb, janub va sharqqa qarab cho`zilgan. Bu yo`llar markazi O`rta Osiyoda tutashgan edi.

Buyuk ipak yo`li bir qator davlatlarning iqtisodiy rivojida muhim rol` o`ynagani shubhasiz. Ammo savdo aloqasi sifatida tashkil topgan bu munosabatning madaniy tarakqqiyotdagi roli qanday bo`ldi? Shubhasiz, Buyuk ipak yo`li iqtisodiy sohada qanchalik rolik o`ynagan bo`lsa, madaniy taraqqiyotda ham muhim olg`a siljishlarni paydo qildi. Avvalo, bir mamlakatdagi dinning boshqa mamlakatga borib, mustahkam o`rnashuvida ko`rinadi.

Ipak yo`lidagi din sohasida rang–barang manzara shakllangan. Shunday bo`lsa–da, diniy e`tiqodning mazmunini bir–biriga o`xshash bo`lmagan ikki turga – milliy din va dunyoviy dinga bo`lish mumkin. Milliy din shu xalq va irq a`zolari orasidagi e`tiqod odatlarini ko`rsatadi. Bu din dunyo bo`yab yoyilgan masihiylik, moniylik, buddaviylik va islom dinlari kabi emas.

Milliy dinning dastlabki namunasi sifatida otashparastlikni aytish mumkin. Bu oqim tarixda “Baqtriya dini” deb ham ataladi<sup>2</sup>. Bu diniy oqim erli odamning e`tiqodi bilan birlashib ketgan edi.

Yunon–Baqtriya davlati (miloddan oldingi 256–75) davrida har xil yunon xalqlari Baqtriya hududiga kirib kelgan. Yunon–Baqtriya davlati hududidan topilgan suratlar shundan dalolat beradi. Bu ilohlarga topinuvchilarining yunon emasligi aniq. Suratdag'i odamlar mahalliy otashparastlar bo`lib, o`zlarining ilohiga – yunon ilohiga qilinganday ibodat qilib topinganlar. Shunday qilib, yunon uslubiga oid timsol yaratgan. Ilohlarning suratini ibodatxonalar devorida

<sup>1</sup> Фалсафа, комусий луғат, 2004 йил, 229-бет

<sup>2</sup> Климент. Қадимги ипак йўли маданияти. – (немис тилидан уйғур таржима). Шинжонг халқ нашриёти, 2003, 134-бет.

tasvirlash bilan cheklanib qolmay, yunon–Baqtriya davlati puliga ham tushirilgan. Natijada savdo–sotiq munosabatlari bilan yunon ilohlari boshqa joylarga ham tarqalgan. Kushon imperiyasida ta`sir qilgan turli madaniyat, jumladan, dirlar shu davrdagi metall pullarda ham aks etgan. Bu metall pullarga but va buddaviylikka oid har xil tasvirlar tushirilgandan tashqari, otashparastlar ilohi, hind shohlari, yunon va rim shohlari tushirilgan. Ilohlarning ismi bu pullarga yunon yozuvida bitilgan.

Otashparastlik e`tiqodidagi shohning ismi Baqtriya otashparastlik dinida saqlanib qolgan. Bu ularning Kushon ibodatxonalaridagi ahamiyati va o`ynagan roli mutlaq holda ortodoksal otashparastlik dinniki bilan o`xshash degani emas, albatta. Taxminan 15 kishilik otashparastlar ilohi Kushon ibodatxonalaridagi eng katta bir guruh ilohini vujudga keltirgan. Ularning ichida “adolat” va “davlat” ilohlari ham bo`lib, ular o`sha olti “obi hayot avliyo”larning ikkitasi, otashparastlik qavmlarida bu olti avliyo “aql–farosat ilohi” bilan zikh birlashtirilgan. Buni shunday tushunish kerakki, xon ochiq–oshkora ibodat qilishiga bu ilohlar sabab bo`lgan. Yoki yana shunday tushunish mumkinki, quyosh ilohi bilan g`oliblik ilohining urushda muvaffaqiyatlari bu xonlikning diniy olamida alohida rol o`ynagan.

Madaniy meros avlodlar osha tarixiy hodisa sifatida saqlanib qolar ekan, shubhasiz, ma`naviy jarayonning ham muhim tarkibiy qismidir. Ayni paytda madaniy merosning har qanday namunasi milliy yoki hududiy qiymatga ega bo`lishi bilan birga, umuminsoniyat madaniy yodgorligi ham bo`lib qoladi.

Yuqorida aytib o`tganimiz diniy qadriyatlar, qadimiy dinlarning bir–biriga aralashuvi faqat bir necha xalqlar, mamlakatlar diniy qadriyati bo`lgani uchun umuminsoniyat madaniy yodgorligi hisoblanmaydi, balki insoniyatning dunyoqarashi, axloqiy tushunchalari, fazilatlari va boshqalar er yuzidagi boshqa hududlar insonlarida kuzatilgani uchun ham umuminsoniyat mulki hisoblanadi. Me`morchilikka oid, o`tmish va bugungi inshootlar, ularning tarxi, farqlari, o`z davri uchun noyob hodisa ekani ham madaniy taraqqiyotning muhim belgilariidir. Masalan, Kushon imperiyasi davriga oid Surx–Qatala ibodatxonasi (Shimoliy Afg`oniston)ning tuzilishi o`ziga xosdir. Bu ibodatxona tog` tepasiga qurilgan bo`lib, Frantsiya arxeologlari tomonidan topilgan. Ibodatxonaning o`ziga xosligi shundaki, tog` tepasidagi bu ibodatxonaning old tarafni daryo sohili, tog` bilan daryo sohili oralig`idagi 55 metr uzunlikdagi ko`prik orqali bu ibodatxonaga chiqilgan. Ibodatxona o`rtasida qurbongoh tokchasi bo`lib, nazr–niyozlar uchun ishlatilgan bo`lishi mumkin.

Mazkur ibodatxonadan bir yarim kilometr narida kichik ibodatxona ham qurilgan. Ehtimol, bu tog` tepasida qurilgan ibodatxonaning bir qismi bo`lsa kerak. Bu ibodatxona ichida uchta budda haykali bo`lib, ko`p zararlangan. Bu haykallar tangalardagi suratlarga o`xshab ketadi. Haykallarda mo`ri shakli bo`lib, unga lovullab yonayotgan alanga shakli tushirilgan. Kushon imperiyasiga oid san`at asarlarida alanga tasviri ko`p uchraydi. Alanga tasviri Buyuk ipak yo`lidagi bir qator budda haykallarining belgisi bo`lib qoldi. Olimlarning aytishlaricha, san`at asarlaridagi alanga tasviri Mesopotamiyadan kirib kelgan.<sup>3</sup>

Ibodatxonada saqlanib qolgan yana bir muhim ashylardan qurilish va bo`yoq asboblari, bir parcha Kushon yozuvida bitilgan Baqtriya adabiyoti obidasidan uch nusxa va yunoncha katta harflar bilan yozilgan yodgorlikning parchasi, yana nomalum yozma obidadan bir parcha, Naqshlar va bir qancha tangalardir. Bularning orasida ibodatxonaga boradigan yo`ldan topilgan yozma yodgorlikdir. Yodgorlik yunon–boxtoriy yozuvida. Yozma yodgorlik mazmuni quyidagicha: “Kanishka ibodatxonasidagi bu qo`rg`onga mana shu ibodatxona egasi – podshoh Kanishkaning ismi qo`yilgan”. Suv manbai bu erda qurib qolgani uchun, odamlar ibodatxonani tark etishga majbur bo`lganlar.

Bu dalillardan ko`rinib turibdiki, o`tmishdan qolgan har bir osori atiqa – u qanday hajmda va qanday ko`rinishda bo`lmasin – insoniyat ijodiy faoliyati tafakkuri samarasidir. Aytish mumkinki, har bir davrning moddiy madaniyati o`sha davrning ma`naviy kamolotini, salohiyatini ko`rsatuvchi omil hamdir. Insoniyatning dunyoqarashi, aqliy jihatdan boyishi ham madaniy merosni qanchalik o`zlashtirishga bog`liq.

Madaniy meros – bu insoniyatning o`tmish bilan chambarchas bog`liqligi demakdir. Madaniyatga vorisiylik, tarixiy xotirani kelajak uchun xizmat qildirish aynan madaniy merosga bo`lgan munosabatga bog`liq. Madaniy merosga nisbatan aksincha holatlar ham bo`lgan. O`tgan

<sup>3</sup> Климгит. Юқоридаги асар, 220–бет.

asning 2—yillarida sobiq Sho`rolar davrida “Proletar madaniyati”ni va o`tgan asrning 80—yillarida Xitoydagi “madaniy inqilob”ni misol tariqasida ko`rsatish mumkin. Yoki Afg`onistonda o`tgan asrning oxirlarida hukumat boshiga kelgan Toliblarning milodiy 1 asrga oid ulkan buddaviylik yodgorligini portlatib, yo`qotib yuborganlarini ham shunday izohlasa bo`ladi.“Madaniyat”ning ana shu ko`rinishlari yomon oqibatlarga olib keldi: O`tmish madaniy yodgoriklaridan voz kechib, yangisini yaratishga urinishlar bo`ldi va o`tmish yodgorliklarining ko`pchiligi yo`q qilindi, ma`naviy qashshoqlik, o`tmishdan tamomila uzilish, mahdudlik yuzaga keldi.

Madaniyat kelgusi avlodlarga meros qilib qoldirilgandagina, u bir maromda uzlusiz rivojlanib boraveradi. Madaniy merosga kelgusi avlodlar voris sifatida haqli bo`lar ekanlar, albatta, til, udum va kundalik turmush an`analari madaniy merosdagi vorisiylikning ko`p tarqalgan ko`rinishlari hisoblanadi. Qadimgi madaniy merosdan keng tarqalib shu kungacha etib kelgan ko`rinishlari ana shulardir. Boshqa madaniy yodgorliklar – pul, inshootlar, qonun–qoidalar va boshqa madaniy meros namunalari davrlar o`tgan sari keskin o`zgarishga uchrashi yoki yo`qolib ketishi mumkin.

Madaniy merosning ikkala turi – moddiy va ma`naviy madaniyat uzviyidir. Ajdodlar yaratga jami boylikka yangi avlod merosxo`r bo`ladi. Madaniy merosning bir turiga ehtiyoj yo`qolgandan keyin uning o`rniga davr va insoniyat ehtiyojiga mos madaniy meros vujudga keladi.

Bir mamlakat madaniy merosining boshqasiga ta`siri o`tmishda ham, hozir ham doimo kuzatiladi. Bu – qonuniy jarayon. Davlatlar o`rtasidagi o`zaro ta`sir yoki turli sabablar bilan davlatlarning birlashuvi shubhasiz birinchi navbatda, madaniy merosda o`zgarishlarni paydo qiladi, o`zlashtirilgan madaniy meros xalqning ma`naviy hayotida burilish yasaydi. Bu holatning jonli namunasini Xuroson–Amudaryo vodiysi madaniyatiga Kushon madaniyatining ta`sirida ko`rish mumkin. Milodiy 1 asrgacha Xuroson–Amudaryo madaniyati o`ziga xosligi, Osiyodagi eng rivojlangan o`lka ekani bilan alohida ajralib turgan. Aleksandr Makedonskiy sharqqa yurish qilganda ham, Xuroson hukmdori Forosmon u bilan do`stona munosabat o`rnatib, siyosiy mustaqillikni saqlab qoldi. Ayniqsa, Xuroson–Amudaryo vodiysi san`ati va binokorlikdagagi o`ziga xoslik shundan dalolat beradi. Dushmanga bas kelish uchun qurilgan mudofaa qo`rg`onlari, So`g`d davlati hududidan topilgan kumush idishlarga chizilgan suratlar buning namunasidir. Yoki Qo`y qirilgan qal`ani ham shunday o`ziga xos madaniyat yodgorligi deb aytish mumkin. Qal`aning atrofini devor o`rab turgan. Devor ham dushmanidan himoyalanish uchun, ham o`troq yashash uchun imkoniyat edi. Qal`a dumaloq shaklda bo`lib, shahar ichida ikki qavatli yoysimon dumaloq inshoot bor edi. Bu yo` podshohning maqbarasi yoki vafot etgan podshohlarni xotirlash qurilgan diniy inshoot bo`lgan.<sup>4</sup>

Milodning 1 asridan keyin Xuroson–Amudaryo madaniyati tanazzulga yuz tutdi. Endi uning atrofidan Baqtriya, Kushon davlatlaridagi san`atning, hunarmandchilikning bu davlat san`atiga kuchli ta`sirini ko`rish mumkin.

Shunisi muhimki, har bir xalqning mustaqil, betakror madaniyati mavjud, ammo siyosiy jarayonlar, shubhasiz, madaniyatga ham o`z ta`sirini o`tkazadi. Yoki bir tarixiy davrdan ikkinchisiga o`tish jarayonida ham madaniyatning har ikki turida – moddiy madaniyatda ham, ma`naviy madaniyatda ham o`zgarishlar yuz beradi. Buning ijobiy va salbiy tomonlari ham bo`lishi mumkin. Masalan, arablar istilosи natijasida islomning kirib kelgani ijobiy hodisa, ammo arablar erli madaniyatni yo`q qildilar, ayniqsa, moddiy madaniyat yodgorliklarini vayron qildilar, Markaziy Osiyoning tub yozuv madaniyatiga barham berdilar. Umuman olganda, ma`naviy madaniyat ham, moddiy madaniyat singari, vorisiylik xususiyatiga ega. O`tmishdan an`anaviy tarzda etib kelgan madaniy yodgorliklar qadriyat sifatida saqlanib qoladi, garchi ularning ko`pchiligi bugungi kun uchun amaliy jihatdan xizmat qilmasa ham. Ammo ma`naviy yodgorlik sifatidagi ahamiyati katta. Aytaylik, qadimiy uy-ro`zg`or buyumlari, san`at va musiqa asboblariga bugungi kunda ehtiyoj bo`lmasligi mumkin, lekin ma`naviy merosi sifatida ahamiyatini saqlab qolaveradi. Ma`lum bir davrdagi xalqning yashash tarzi, dunyoqarashi atrof–muhit haqidagi turli tasavvur–tushunchalari ana shu buyumlarda aks etadi.

O`tmishdan etib kelgan ba`zi madaniy meros namunalari shakl va mazmunini o`zgartirishi mumkin. Jumladan, udumlar, marosimlar, urch–odatlarning zamон va jamiyat talablariga, mahalliy

<sup>4</sup> Қаранг: Климент. Юкоридаги асап, 241–242–бетлар.

xususiyatlarga moslashuvini shu bilan izohlasa bo`ladi. Aytaylik, dafn marosimlari va to`y marosimlaridagi o`zgarishlar mahalliy xususiyatlarga bog`liq bo`lishi bilan birga, jamiyat talablariga ham moslashib boradi.

Umuman olganda, madaniy taraqqiyot o`zgarib, boyib boruvchi hodisa. Ma`lum davrga kelganda, bir buyum yoki mehnat qurollari, ov qurollari va hokazolarning o`z davri uchun muhim bo`lgan ma`naviy ahamiyati susaysa ham, madaniy hodisa sifatida saqlanib qoladi. Zotan, vorisiylik qonuniyati moddiy va ma`naviy merosning asosidir.

Demak, moddiy va ma`naviy meros – tarixiy hodisa. U umumjahon, mintaqaviy, xududiy, milliy, kasbiy qimmatga ega bo`lishi mumkin. Kezi kelib bir davr va millatga mansub man`aviy meros namunalari umuminsoniy qadriyat kasb etsa, bu -tabiiy hol. Jahon mulkiga aylangan ilmiy va diniy qadriyatlar, Sharqona axloqiy fazilat va udumlar, me`morchilik va musavvirlik bisotlari buning isbotidir.

#### **Madaniy merosning mexanizmi quyidagi xususiyatlarga ega:**

**1. Ma`naviy merosning uzviyligi.** Ajodolar yaratgan jami boylikka yangi avlod merosxo`r bo`ladi, tarixiy ahamiyatini yo`qotgan madaniyat o`rnida yana madaniyat vujudga keladi, avvalgilardan ko`p narsalar o`zlashtiriladi. O`tmish tajribasi bugun va kelajak uchun har doim asqotishi mumkin, shuningdek, bugun unutilgan narsalar butunlay yo`qolib ketmaydi. Masalan, V.Shekspir yuz yilcha unutilib, keyingi avlodlar uchun jahon adabiyoti va dramaturgiyasining klassigi sifatida tanildi.

**2. O`tmishdan kelajakka o`tish jarayonida merosning mazmunan o`zgarishi.** Madaniy merosning o`tish davrida xususiyati o`zgarishi mumkin, ya`ni meros mavjud nuqtai nazar va bilimlar talabiga mos keluvchi yangi talqinda mazmun kasb etadi. Mana shunday ko`rinishda u kelajakka meros bo`lib o`tadi. Bizning kunimizgacha Suqrot va Demokrit asarlarining asl nusxasi saqlanib qolmagan, biroq har bir avlod ularning g`oyasini o`zi uchun yangitdan kashf qildi va ularning falsafasini talqin qiluvchi minglab kitoblar yaratildi.

## 4 – MAVZU

### MILLIY MADANIYATLAR RIVOJLANISHINING NAZARIY MASALALARI

Tsivilizatsiyaning hozirgi bosqichida jahon madaniyatining asosiy shakli-milliy madaniyatlardir. Dunyoda uch mingga yaqin millat bo`lib, ular dunyo aholisining 96 % ni tashkil etadi. Ularni har biri o`z madaniyatiga ega, o`z madaniyati belgilari bilan boshqasidan ajralib turadi. Turli mintaqalarda amal qilayotgan milliy madaniyatlar millat sonining ko`p yoki ozligidan qat`iy nazar o`ziga xos rivojlanish yo`lidan bormoqda. Bu o`ziga xoslik ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, xo`jalik tarmoqlarining xilma-xilligi, tabiiy-iqlimi sharoit, geografik va mintaqaviy joylashish, ma`naviy-ahloqiy meros tomirlari kabi omillarga bog`liq. Eng muhimi har bir millat va uning madaniyati rivoji emin-erkin, tabiiy-tarixiy qonuniyatlar asosida kechmog`i lozim. Bu ob`ektiv jarayonga sub`ektiv tarzda zo`rovonlik manfaati bilan yondashmaslik zarur. Tarix guvohki, bunday siyosat hech qachon ijobiy natijalarga olib kelmagan. Buni uzoq bo`lmagan isboti - sobiq ittifoq hududidagi millatlarga «har kim o`z taqdirini o`zi belgilashi» siyosati asosida milliy madaniyatlarni “yagona sovet madaniyatiga aylantirish g`oyasidir. Chukchalar, evenklar, nenetslar, xanti-mansi singari oz sonli millatlar bu andoza oqibatida o`z tili, alifbosи, hatto ismi-shariflaridan ajraladilar (Bosqin, mustamlakachilik davrida barcha mintaqalarda ahvol shunday kechdi.) Millat yashamog`i uchun, uning milliyati, ruhiy olami dahlsiz bo`lmog`i lozim. Ma`naviyati poymol bo`lgan, ma`naviyati kishanlangan millatning istiqboli nursizdir. Binobarin, barcha zamonlarda Yurt, Vatan, Millat mustaqilligi uning madaniyati ravnaqining asosiy sharti bo`lgan.

Oliy Kengashning XVI sessiyasida I.Karimov mustabidlik davrini deputatlarga eslatib, “O`ylab ko`ringlar...o`shanda bizlar kim edik? O`sha yillar umuman qanday davr edi? Taqdirimiz, erkimiz kimlarning qo`lida edi? Ka`ba deb qaerga sig`inar edi? Har tong “Assalom!”... degan madhiya ohanglari ostida kimlarga qulliq qilib uyg`onardik? Tilimiz, dinimiz qay ahvolda edi?...

Milliy g`ururimiz, insonlik sha`nimiz, urf-odatlarimiz qanday tushunchalarga almashtirilgan edi?

“O`zimiz-o`zligimizni bilarmidik?”, kuni kecha emasmidi boshimizni ko`tarmasdan yashaganimiz<sup>1</sup>? degan edilar. Bu ehtirosli, shijoatli so`rovrlarda yurtboshining istiqlol haqidagi ummon tuyg`ulari, ezungulari mujassam.

Yurtimizda Mustaqillik, Milliy uyg`onish, Milliy islohotlarning bosh me`mori bo`lgan I.Karimov milliy madaniyat istiqboli, rivojlanishi kontseptsiyasining bosh muallifi hamdir.

Zero, jamiyatning rivoji – jamiyatning yangilanishi, madaniyatning yangilanishi demak. Ijtimoiy islohotlarda jamiyatning yangilanishi madaniy hayotidan ayro kechmaydi. Aslida jamiyatning ijtimoiy – iqtisodiy hayotida ro`y bergan o`zgarishlar – moddiy madaniyat tizimidagi o`zgarishlarni, boshqarish tizimi siyosiy-huquqiy isloxatlar odamlar tafakkuri, tasavvuridagi o`zgarishlar – ma`naviy madaniyat, uning elementlaridagi o`zgarishlarni anglatadi.

I.Karimovning barcha nutqlari va ma`ruzalari, xususan, “O`zbekistonning o`z istiqbol va taraqqiyot yo`li”, “O`zbekiston - kelajagi buyuk davlat”, “Yangi uy qurmay turib eskisini buzmang”, “Istiqlol va ma`naviyat”, “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz”. “O`zbekiston XXI asrga intilmoqda”, “O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida” asarlarida – O`zbekistonni jahon andozasidagi bozor munosabatlariga o`tish sharoitida - iqtisodiy rivojlanish bosqichlari, xo`jalik yuritishning yangi sharoitidagi tuzilmasi tamoyillari, mustaqillikning siyosiy-huquqiy takomillashishi mehanizmlarini ko`rsatibgina qolmasdan, yangilanishning eng murakkab jarayoni - jamiyatning ma`naviy tiklanishi milliy madaniyat taraqqiyotining negizlari, bosqichlari, vazifalarini ham belgilab berdi. Avvalo ma`naviy merosga munosabat.

Ma`naviy meros – ming yillar mobaynida ajdodlar tomonidan ajratilgan iqtisodiyotni yo`lga qo`yish, jamiyatni oqilona boshqarish, komil inson tarbiyasini amalaga oshirish, oila haqida g`amxo`rlik, mehr-sahovat, imon-insof, hayo-andisha, ota-onalarga ehtirom, halollik va mehnatsevarlik xususidagi rivoyat, hikmat, o`git-nasihat, yozishma va qo`lyozmalardir. Har qanday yangilanish, yaratish – merosga murojaatdir. Uni o`rganish uni tiklashdan boshlanadi. Yurtboshimiz

<sup>1</sup> И.Каримов, Истиқлол ва маънавият, Т., 1994, 17-18-бетлар

Mirzo Ulug`bek tavalludining 600 yilligi munosabati bilan shunday degan edi: «Biz boshqalarni kamsitish niyatidan yiroqmiz. Ammo, bugun ayrim sultanatlar ahli qabila-qabila bo`lib yashagan zamonlarda bizning muborak zaminimizda ilmu-fan barq urib yashnagani, tabiiy ilmlar, xususan, tibbiyot, matematika, astronomiya kabi fanlar madrasalarda o`qitilgani, ilmiy akademiyalar tashkil etilib mag`ribu-mashriqqa nom taratganini eslasak va bundan har qancha g`ururlansak arziydi»<sup>2</sup>. Darhaqiqat, jahon ilmu-fanining benazir siymolari ulug` bobokalonlarimiz bo`lgan, al Jabr va al Farobiyl ilmiga birinchi bo`lib asos solgan Muso al-Xorazmiy, tibbiyot ilmining dahosi Abu Ali ibn Sino, er shar shaklida ekanligini aniqlagan qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy, buyuk matematik va astronom al - Farg`oniy, buyuk turk qavmining piri hisoblangan Xoja Ahmad Yassaviy, samo tilsimini ochgan Mirzo Ulug`bek, Sharq Rafaeli deb nom olgan buyuk musavvir Kamoliddin Behzod, g`azal mulkining sultonı Alisher Navoiy, muqaddas ilmining tengi yo`q namoyondalari imom Ismoil Buxoriy, At-Termiziyy, fikh ilmining sardori al-Marg`iloniy va boshqa ko`plab ulug` zotlar shu qutlug` zaminda tavallud topib, kamolotga erishdilar, umumbashariy madaniyat rivojiga o`zlarining betakror, bebafo ulushlarini qo`shganlar.

Gap bu merosni tiklash, o`rganish-mustaqqillik yo`lida undan foydalanish, amaliyotga tadbiq etishdan iboratdir.

“Bozor iqtisodiyotiga o`tar ekanmiz, degan edi I.Karimov, milliy-tarixiy turmush tarzimizni, xalqimiz urf-odatlarini, an`analarmizni, kishilarning fikrlash tarzini hisobga olamiz”<sup>3</sup>. Bu degan so`z, mavjud voqelik, qaror topayotgan ijtimoiy-siyosiy, ma`naviy muhitni sinchkovlik bilan kuzatish, o`rganish asosida milliy madaniyatning tomirlari, merosni tiklashga e`tiborni qaratish demak. Bu degan so`z, o`tmishda xarobaga aylantirilgan, xaqratlangan me`moriy obidalarning har bir muqaddas g`ishtidan tortib, bobolarimizning mislsiz ilmiy, badiiy merosini o`rganish, xayotga qaytarish, demak. Shunday qilindi ham. Ulug` ajdodlarimizning hoki yotgan manzillar obod qilindi. Ularning ruhi-poki uchun yodgorlik majmualari barpo etildi, Islomiy qadriyatlar tiklandi - Ro`za, Qurbon hayiti, Navro`z elga qaytarildi, Qur`oni karim, Xadisi sharif va allomalarimizning merosi nashr etila boshladi. Bu ma`naviy tiklanish, milliy uyg`onishning boshlanishi edi. Mustaqillik tufayli madaniy merosni va tarixiy haqiqatini tiklash, milliy urf-odatlar va an`analarni rivojlantirish, islam dinini yuksak madaniyat, tarbiya vositasiga aylantirish muhim vazifaga aylandi.

Ikkinchidan, I.Karimov jahon amaliyoti va tafakkuri tahlili asosida, yangi tarixiy sharoit va xo`jalik tizimi sharoitida mutaxassis kadrlarning o`rni, ularni tayyorlash bilan bog`liq tavsiya va xulosalarni ishlab chiqdi. Zero, endilikda jamiyatni eski uslubda, ko`r-ko`rona ma`muriy-buyruqbozlik asosida boshqarish mumkin emas edi, endi yangicha fikrlaydigan, o`zimiz va xorij mamlakatlarining rivojlanish tajribalarini tahlili asosida faoliyat ko`rsatadigan tashkilotchi, malakali mutaxassislar zarur edi. U Sharqona demokratiyaga tayangan milliy davlatchiligidimizning muhim elementi, ifodasi bo`lishi kerak edi. Shu maqsadda Prezident tashabbusi bilan «Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi» tashkil etildi. Bu salohiyatli kadrlarni tayyorlashning eng maqbul va zamonaviy yo`li edi. I.Karimov Akademiya ochilishida bu o`quv yurtining maqsad, faoliyatini belgilab, “Biz oddiy xaqiqatni tushunib etishimiz kerak: bizning davlatimiz, jamiyatimizni birov chetdan kelib ko`rib bermaydi. U hayoti o`z Vatanining kelajagi bilan uzviy bog`liq bo`lgan biz o`zimiz, shu mamlakat farzandlari bunyod etamiz, ...Eng muhim tamoyil-biz barcha islohatlarni xayotga tatbiq etishda o`tishimizni teran his etib, xalqimizning ruhiyatini, uning tarixiy va milliy o`ziga xos jihatlarini, an`ana va urf-odatlarini... to`plagan fazilatlarni... inobatga olgan holda ish tutamiz”<sup>4</sup> deb, ta`kidlagan edilar. Bu ko`rsatma milliy madaniyatimiz rivojlanishining asosiy tamoyili bo`lib qoldi.

Uchinchidan, boshqarish tizimining takomillashishi uchun faqat rahbar xodimlarni tayyorlashning o`zi kifoya emas. Bu jarayon samarali kechmog`i uchun ko`p tarmoqli, yangi xo`jalik tizimiga ko`psonli, malakali mutaxassislar talab etiladi. Shu ma`noda I.Karimovning milliy madaniyatni rivojlantirishdagi yana bir muhim tamoyili bu – uzlusiz ta`lim tizimi kontseptsiyasidir. O`z-o`zidan ravshanki, Ta`limning eski tizimio`zining shakli, mazmuni jihatidan

<sup>2</sup> И.Каримов Ватан саъдагоҳ каби муқаддасидир. Т.: 1995 йил, 112-113 бетлар.

<sup>3</sup> Ўша асар, 13-бет

<sup>4</sup> И.Каримов, Юксак малакали мутахассислар-таракқиёт омили, Т., 1995 й., 164 -бет.

mustaqillik ehtiyojlari va talablariga nomuvofiq kela boshladi. Ta`lim sifatini oshirish uchun uning har bir bosqichi vazifalari, tizimlari, me`yorlarini belgilab olish zarur edi. Bunda ta`lim tizimini milliyashtirish o`quv rejalar, dastur va darsliklarda milliy qadryatlarni singdirishga e`tibor - milliy tarbiyaning o`q ildizini tashkil etmog`i lozim edi. Bu nafaqat ma`naviy merosni tiklash ayni paytda uni yangi sharoitlarda takomillashtirish, tarbiyaning asosiy vositasiga aylantirishni anglatardi. Uni bunga ta`lim – tarbiya tizimini tubdan isloh qilish bilangina erishish mumkin deb ko`rsatti I.A.Karimov “Maqsad uni milliy mustaqillik asosida qaytadan tashkil etish va yangi milliy mazmun bilan boyitishdir”<sup>5</sup>. 1992 yilda qabul qilingan “Ta`lim to`g`risidagi Qonun”, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning mohiyati shunga yo`naltirilgan. Uni amalga oshirishi tufayli-o`rta va oliy ta`limni uzluksizligiga erishildi, uning yangi shakllari - akademik litseylar, kasb-xunar kollejlari faoliyat ko`rsata boshladi (Rossiyada bu tizimga endi o`ta boshlandi), ta`limni barcha bosqichlari, yo`nalishlari bo`yicha chuqurlashtirilgan dasturlar ishlab chiqildi, kadrlar malakasini oshirish, qayta tayyorlashning me`yorlari belgilab olindi. I.A.Karimov tashabbusi bilan boshlangan bu jarayon endilikda milliy madaniyatning tiklanishi, rivojlanishining muhim omili sanaladi. “O`zbekiston Respublikasi xalq o`qituvchisi”, “O`zbekiston Respublikasida xizmat ko`rsatgan yoshlar murabbiysi”, “O`zbekiston Respublikasida xizmat ko`rsatgan xalq ta`limi xodimi”, “O`zbekiston Respublikasi “Oliy ta`lim a`lochi” unvonlarining joriy etishi, “1-oktyabr` - O`qituvchilar va murabbiylar kuni” deb e`lon qilinishi – ta`lim xodimlariga ehtirom, ma`naviy rag`bat - yangi qadriyatlar shakllanishining ifodasi bo`ldi.

**To`rtinchidan** – Milliy madaniyatning muhim timsoli – tarixiy moddiy madaniyat obidalarini asrash, tiklash, ta`mirlash va ular andozasida zamonaviy yodgorlik majmualarini yaratishga yo`naltirilgan me`morchilik falsafasidir.

Bu sohadagi xayrli rejalar asosan ikki yo`nalishda amalga oshirildi. Birinchisi, o`tmishdan qolgan, asrlar silsilasining zug`umli sinovlariga bardosh berib bizgacha etib kelgan obidalarni tiklash va ta`mirlab asl holiga keltirish, ikkinchisi, ulug` vatandoshlarimiz udumlarini davom ettirib – yangi inshootlarni bunyod etish.

Oddiy haqiqat shundaki, Markazi Osiyo mintaqasida saqlangan tarixiy obida, yodgorliklar asosan O`zbekiston xududida joylashgan. Bu ajodolarimiz qadim-qadimdan nafaqat dehqonchilik madaniyati, sug`orish tizimining mukammal namunalarinigina yaratib qolmasdan, qasr, qal`alar, ulug`lar yodi uchun Ahmad Yassaviy, Go`ri Amir, Pahlavon Maximud, Ismoil Samoniy majmualari, Ulug`bek, Sherdor, Kaffol Shoshiy madrasalarini, rasadxonalalarini bunyod etganlar. I.Karimov tavsiyasi, ko`rsatmasi asosida shaharlarimizning zamonaviy talablar asosida qayta qurilishi, - bobolar merosi me`morchilik andozasi asosida Navoiy, Amur Temur, Bobur, Manguberdi yodgorliklarini o`rnatalishi Imom Buxoriy, Naqshbandiy, Marg`iloniy, Farg`oniy majmualari, Milliy bog` va hiyobonlarning tashkil etilishi, Mustaqillik maydoni, Motamsaro ona, Shaxidlar xotira yodgorligi, Milliy teatr, Milliy konservatoriya binolari, yuzlab stadion va ma`muriy binolar - milliy madaniyat timsollari barpo etildi. Bu prezidentimizning milliy madaniyatni rivojlanterish to`g`risidagi xulosasining amaliy ifodasi, milliy ruhiyatni shakllantirish, milliy g`urumi takomillashtirishning muhim vositasidir.

**Beshinchidan**, milliy o`zlikni anglash, uyg`onishning asl tomiri hisoblangan o`zbek tilining maqomati xususida qayg`urish, til mustaqilligi – millatning dil, ruhiyat mustaqilligi to`g`risidagi mulohazalari I.Karimov kontseptsiyasining muhim bandini tashkil etadi. Besh asr muqaddam buyuk Navoiy o`z ijodi, ijtimoiy faoliyati bilan nufuzi jihatdan dunyo miqyosiga ko`targan o`zbek tilini Davlat tiliga aylantirish tarixiy haqiqatni qaror toptirish lozim edi. 1989 yilning 21 oktyabrida Oliy Kengash qarori bilan o`zbek tiliga - davlat tili maqomi berildi. Bu Prezidentimizning Mustaqillik yo`lidagi shijoati, iroda butunligi edi. Keyinroq yangi aliboga o`tildi.

O`zbek tiliga – davlat tili maqomi berilgunga qadar korxona, muassasa va tashkilotlarda faoliyat yuritish, xujjat ishlari majlis, yig`inlar, ularning qarorlari, arizalarni ko`rib chiqish, ilmiy tadqiqot ishlari deyarli rus tilida olib borilganligi bugun g`ayri oddiy ko`rinadi. Ammo haqiqiy holat shunday edi. Endilikda, ahvol tubdan o`zgardi. Millat ma`rifati yo`lida yangi nashriyotlar tashkil etildi. Darslik, qo`llanma va kitoblar asosan ona tilimizda chop etilmoqda. 50 mingga yaqin maqolani o`z ichiga olgan “O`zbekiston Milliy entsiklopediyasi”, “Islom entsiklopediyasi”,

<sup>5</sup> Баркмол авлод орзуси, Т.: 1999 й., 54, 91-б.

“Qur`on”, “Hidoya”, “Hadis”, (To`rt jildli), “O`zbek ismlari izohli lug`ati” va boshqa lug`at va so`zlashgichlar o`zbek tilida nashr etildi. Milliy mentalitetning o`sishida “Tafakkur”, “Muloqat”, “Jahon adabiyoti”, “Jannat makon” jurnallarining tashkil etilishi muhim voqeal bo`ldi. Barcha nashrlar OAVning ko`lami va sifat miqyosi tilimiz o`zligiga qaytganligi, u millat g`ururi, timsoliga aylanganligining dalolatidir. Bu degan so`z taraqqiyotning hozirgi bosqichida o`zbek tili – milliy madaniyat rivojlanishining haqiqiy vositasi bo`lib qolganligining kafolatidir.

**Oltinchidan** – milliy madaniyat istiqboli to`g`risidagi I.Karimov kontseptsiyasining muhim xalqasi – milliy mustaqillikning asosiy sharti – milliy mafkuraning yaratilishi masalasidir.

Odamlar qaysi bir davrda va qaysi jamiyatda yashamasin nimagadir ishonishi, e`tiqod imoni qandaydir bir g`oyaga, mafkuraga tayanishi, faoliyat ko`rsatishi lozim. Dunyodagi har bir jamiyat, har bir davlatning o`ziga mos keladigan, uning uchun xizmat qiladigan, uning tub maqsadlari va manfaatlarini ifodalaydigan mafkurasi bo`ladi va bo`lishi kerak. U butun jamiyat, istiqbol taraqqiyotining o`q ildizini tashkil etadi. U barcha islohotlarning, xususan, madaniy-ma`rifiy yangilanish, ta`lim-tarbiya tizimining asosi, mezonib bo`lmog`i lozim. Shuning uchun ham yurtboshimiz mustaqillikning daslabki yillarda bu xususda shunday degan edi: “Oldimizda turgan eng muhim masala, bu milliy istiqlol mafkurasini yaratish va hayotimizda tadbiq etishdir”<sup>6</sup>. “Mafkura bo`lmasa odam, jamiyat, davlat o`z yo`lini yo`qotishi muqarrar... qaerdaki mafkuraviy bo`shliq vujudga kelsa o`sha erda begona mafkura xukumronlik qilishi tayin”<sup>7</sup>.

Bu fikrlarda milliy g`oya, mafkurani maqsad, mohiyati to`laligicha ko`rsatilgan. Mafkura ommani, jamiyatni yo`naltiruvchi, birlashtiruvchi kuch, odamlar ongi, dunyoqarashi, mentalitetini takomillashtirish negizidagina mafkuraviy immunitetga erishish mumkin. Mafkura bir kunda yoxud bir yilda shakllanmaydi. Bu jarayon. U shakllanadi va shakllantirib boriladi. Uning shakllanishi va amaliyotida ma`naviy merosga murojaat etiladi. O`zligimizni anglash tuyg`usi, asriy ezgu-orzular, insoniy fazilatlarga tayaniladi. Shu negizda jamiyatning ma`naviy-axloqiy poklanishi, milliy madaniyatni tabora takomillashishga erishiladi.

**ettinchidan**, I.Karimov mustaqillik va tsivilizatsiya maqomiga o`tish sharoitida milliy madaniyatlarning muloqati-ularni o`zaro hamkorlik, yaqinlashish, bir-birini ma`naviy jihatdan boyitish tamoyili, xulosasini ilgari surdi. Madaniyatlar muloqoti tarixiy jarayon. U hamma zamon va davrlarda amal qilgan. Ichki rivojlanish, geografik-mintaqaviy joylashish madaniyatlarning milliy xususiyatlarida ifodalangan bo`lsa, u yoki bu milliy madaniyatni o`xshash qirralari, jihatlari, tomonlari ham bo`ladi. Umuminsoniy qadriyatlari - madaniyat rivojinining umumiyy qonuniyatlarini negizida shakllanishiga qaramay, u millat, milliy madaniyat qiyofasida gavdalananadi. Madaniyatlar muloqoti chegara bilmaydi. Ayniqsa, hozirgi texnik taraqqiyot bosqichida. Mintaqaviy muloqot shu hududdagi madaniyatlar rivojlanishi va bir-birini boyitishning muhim shartidir. Qadimdan bir ma`naviy, ruhiy iqlimda yashagan, turmush tarzi, urf-an`analari, dardi ezgulari yaqin bo`lgan xalqlarning oldi-berdisi, bordi-keldisi madaniy aloqaning ifodasidir. Shu ma`noda yurtboshimizni “Ota yurtimiz Turkiston-katta bir uy, buyuk bir ro`zg`or, buyuk bir oila. Bu oila farzandlari qanchalik yaqin va ahil bo`lsa, ro`zg`or ham shunchalik obod va to`kin bo`ladi”<sup>8</sup> deb tarixiy birlik tuyg`usini, “Turkiston-umumiy uyimiz” g`oyasini ilgari surdilar. Bu g`oya nafaqat iqtisodiy hamkorlikda, turli shakllarda kechayotgan madaniy aloqalarda amal qilmoqda. (Milliy madaniyat kunlari, ijodkorlar va san`atkorlarning uchrashuvlari, badiiy asarlarni tarjima va nashri, kinofestivallar o`tkazish v.b) shu niyatda “Markaziy Osiyo madaniyat” gazetasi tashkil qilindi va tarqatilmoqda.

Madaniyatlar muloqoti-jahoniy hodisa. Har bir millat boshqa millatlar madaniyatiga murojaat etar ekan, albatta undan o`ziga yaqin qadriyatlarni topadi, ijod usullari va shakllarini o`zlashtiradi. Antik madaniyat, Uyg`onish davri madaniyati insoniyat mulkiga aylanganligi shundan. Frantsiyada Amir Temur muzeyining borligi, Luvr sahnasida o`zbek katta ashulalari olqishlanganligi, Hind diyori M.Turg`unboeva san`atiga ta`zim etganligi buning oddiy dalilidir.

Bugungi kunda Yaponlarning o`zbek mumtoz musiqasiga, me`morchiligi udumlariga qiziqishi, Boburnoming “Boburnoma”si ikki jilddi izohlari bilan yapon tilida chop etilganligi,

<sup>6</sup> И.Каримов, Ўзбекитсон: Миллий истиқбол иқтисод, сиёсат, мафкура, Т.:1993 й., 168-б.

<sup>7</sup> И.Каримов, жамиятимиз мафкураси халқни - халқ ,миллатни-миллат қилишга хизмат этсин, Т.: 1998 й., 4-б.

<sup>8</sup> И.Каримов, Туркистон умумий уйимиз Т. 1995 й. 16-бет

Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddimat ul-adab” lug`atining nashrga tayyorligi-millatlar bir-biridan o`rganishi yaqinlashuvi tabiiy jarayon ekanligini bildiradi. Yaponianing O`zbekistonida sobiq elchisi Kyoko Nakayama yurtimizga bag`ishlangan “O`zbekiston sakurasi” kitobida: “Yaponlar qalbini topishni istasangiz, uni O`zbekistonliklar qalbida ham topishingiz mumkin”, deb yozgan edi. Mana madaniyatlar muloqoti nima beradi.

### **Globallashuv jarayonining milliy madaniyatlar rivojiga ta`siri. Madaniyat ekologiyasi.**

Ta`kidlanganidek. madaniyat, xususan milliy madaniyatlar rivoji o`bektiw jarayon. Bu jarayon o`z ichki qonuniyatlari asosida kechaveradi, Lekin, bu hodisa jamiyatdagi boshqa hodisalardan ayroholda emas, bog`liqliklidagi, aloqadorlikda ruy beradi. Madaniyat tarraqiyotiga o`z ta`sirini o`tkazayotgan bundan hodisa bugungi kunda globallashuv jarayonidir.

**Globalashuv** (frantsuz Global - eng umumiy) atamasi birinchi bor 1983 yilda amerikalik olim T. Levitt tomonidan «Garvard biznes rev`yu» jurnalida Transmilliy korporatsiyalar (TIK) ishlab chiqaradigan mahsulot bozorlarining birlashuv jarayoni sifatida tilga olingen edi. Bu hodisani **iqtisodchilar-moliyaviy globalashuv, TMK ning shakllanishi, jahon savdo aloqalarining mintaqalashuvi va jadallahuvi, **siyosatchilar-transmilliyashuv jarayonini tezlashuvi dunyo mamlakatlarining o`zaro bog`liqligining kuchayishi sifatida talqin etsalar, **sotsiologlar madaniyatining unversallashuvi ta`sirida turli mamlakat va mintaqqa halqlari turmush tarzini bir xillashuvi**, deb izohlamoqdalar****

**“Falsafa”** qomusiy lug`atida-**globalashuv** - o`z ko`lami, qamrovi jihatidan xilma-xil va butun er shariga, insoniyatga dahldor bo`lgan muammolardir, deb tavsiflanadi.<sup>9</sup> Bu avvallo, tabiat va inson o`rtasidagi munosabatlar muvozanati buzilishi - yadro urushi xavfi, ozon muammosi ekologiya, aholining nazoratisiz migratsiyasi, xomashyo taqchilligi, ishsizlik, bedavo kasalliklarni ko`payishi, texnik falokatlar turli ko`rinishdagi zo`ravonlik va bosqinchilik, jinoyat va giyohvandlik, halqaro terrorizm, ma`naviy – axloqiy tubanlashuv, tanazzul ko`rinishlari. Bu muammolarni har biriga bugun umuminsoniyat, kelajak nazaridan qaramoq, umumi manfaatlar yo`lida ularning echimini topmoq lozim bo`layapti. Keyin kech bo`ladi. O`z vaqtida Orolni qurishiga mintaqqa muammosi, deb qaraldi va unga etarli e`tibor berilmadi. Bugun undan ko`tarilgan tuzlar Antiartidagacha etib bormoqda. Kurrai zamindagi o`rmon, yoqilg`i, ichimlik, suv zahiralari tejamsiz foydalansila qachongacha etadi? Xususan, insoniylik qiyofasidan chiqa boshlagan ma`naviy – axloqiy hayot ko`rinishlari: giyohvandlik, fohishabozlik, bir jinsdagi jinslar nikohi, odam savdosи, behayo va beparda yashash tarzi Odamzod taqdirining o`zini gumonlashtirib qo`ymoqda.

Demak, globalashuv jarayoni – iqtisodiy – texnik taraqqiyot, boshqaruv tizimi, siyosiy – huquqiy qadriyatlar, turmush tarzining barcha jabhalarini qamrab olayotgan texnologik jarayongina emas, turli kuch guruhlar manfaati nazaridan, xilma- xil vositalar yordamida ma`naviy – axloqiy ta`sir, g`oyaviy ustvorlikka erishishga intilish hamdir.

Bir millat, mamlakat erishgan yutuq kashfiyotlarga boshqalari ham kezi kelib erishishi, yohud uni jahoniy kadriyat tarzida o`zlashtirilishi tadrijiy xol. Lekin, u tabiiy, ijtimoiy ehtiyoj mezonida bo`lgani maql va maqsadga muvofiқ. G`azal – Sharq, bobolarimiz mulki bo`lganligi ayon. Ammo, bu bebaho mulk ta`siridan Geyne, Gyote, Pushkin, eseninlar chetda qolmadı. Bobomiz Beruniy, Gomer merosni, lotin falsafasi javohirlarini sanskritdek egalladi. Bu hali globalashuv emas edi.

Ijtimoiy taraqqiyot ko`lamini Misr ehromlariga mengzasak, bugungi avlod uning eng yuqori bosqichlarida turibdi va turli mintaqalardagi xalqlarning siyosiy – huquqiy, ijtimoiy – iqtisodiy, moddiy – texnik, madaniy – ma`naviy jihatlarida tafovutlardan ko`ra umumi belgilar, tomonlar ustvorlik qilmoqda. Bu jarayon cheksiz, chegarasiz tarzda jadallahmoqda. Globalashuv uchun geografik, mintaqaviy, siyosiy – davlat sarhadlari mavjud emas. U rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarni bir yo`sinda o`z girdobiga olaveradi. Biroq, uning oqibatlari, ta`sir ko`lami rivojlanishning turli bosqichlarida turgan mintaqqa, xalqlar uchun bir xil kechmaydi. Dunyoning 70 % xududida dollari aylanayotgan AQSh, yiliga yalpi ichki mahsulotni 11-13 % hajmida berayotgan Xitoy bilan endigina tsivilizatsiya yo`liga o`tgan Afrika, Lotin Amerikasi mamlakatlari uchun uning ta`siri, oqibatlari turlich. Ayniqsa, hali o`zini o`nglab ulgurmagan – rivojlanayotgan

<sup>9</sup> Фалсафа, комусий луғат. Тошкент- 2004 йил, 95 бет

mamlakatlar uchun uning natijasi salbiyligi, shubhasiz. Moddiy – texnik yordam, molyaviy ko`mak, texnika va texnologiya yutuqlari, jahon tajribasidan foydalanish, bu mamlakatlarni rivojlanishiga madad – ijobjiy hodisa. Tor manfaatlar negizidagi moddiy–texnik yordam va bitimlar kichik davlatlarni rivojlanishni oldingi saflarida borayotgan davlatlarga qaramlikka olib kelmasligi lozim. Bir tomonlama iqtisodiy ustunlik, harbiy-siyosiy zo`ravonlik (Afg`oniston va Iroqdagi “demokratik” tartiblar) millat ma`naviyati va madaniyatining emirilishi (Iroqdagi asriy obidalar, kutubxona, muzeylarni vayron etilishi, yodgorliklarni talon – taroj etilishi) tub joy aholi “milliyligi”ning yo`qolishiga olib kelishi mumkin. Afrika, Lotin Amerikasidagi qator malakatlarning teleradio dasturlari, kitob, gazeta nashrlari asosan xorij til va alifbosida yo`lga qo`yilgan. Mazkur yurt odamlari o`z milliy tili, udum – an`analaridan mahrumlik chegarasida. Bu degani – evropa ittifoqimi yohud boshqa biron-bir iqtisodiy – siyosiy uyushma milliyatga daxl etmasligi lozim. Ta`kidlaganidek, iqtisodiy – texnik xamkorlik, invistitsiyalar oz sonli millatlarning umumiyligi rivojiga turki berar, ammo ma`naviy kemtiklikka yuz tutsa bu millatning o`zligini yo`qolishiga olib keladi. Ma`naviy qaramlik ertami – kech har qanday mustaqillikni yo`qqa chiqaradi.

Yaponlarni yapon qilgan - bu o`zlarini tashqi ta`sir, tazyiqdan asray bilgani, **Mustaqillik** negizi deb **milliy ahloqqa** tayanganligi, **yagona millat** – **Vatan tuyg`usidir**. Jahonga dahldor bo`lishiga qaramay, hamon ularda milliy til, milliy ruhiyat, milliy madaniyat rusum–odatlari ustivor. Har qanday qadriyatga ular milliyat, milliy manfaat nazaridan yondashadilar.

Ta`kidlash lozimki, Mustaqill O`zbekistonni dunyo hamjamiyati tan olibgina qolmay, ehtirom bilan uning tajribasidan ham foydalanmoqda. O`z vaqtida boshboshdoqlik bag`rida yashagan Rossiya keyingi yillarda derjavnost`, doston, duxovnost` tushuncha, mezonlari faoliyatga asos qilib olindi. Bu degani, O`zbekistonning kelajagi buyuk davlat, farovonlik, ma`naviy yuksalish yo`li tajribasidir. Yoxud ta`limning sifat tizimi bilan bog`liq islohotlarni ham yurtimiz birinchi bo`lib boshlab berdi. Xatto AQShda bu jarayon bizdan keyin boshlandi. Bugun uni Rossiya hayotga tadbiq etmoqda. Demak, siyosat, o`zaro hamkorlikda bir tomonlama emas, ikki, yohud ko`ptomonlama manfaatlar uyg`unligi bo`lmog`i lozim. Shundagina milliy ma`naviyat, madaniyat rahna ko`rmaydi.

Ma`lumotlarga ko`ra aloqa vositasi sifatida nutq 500 ming yillardan buyon, yozuv 5 ming, kitob nashri 500 yil, teleko`rsatuvalar 60 yil, zamonaviy axborot vositalari 10-20 yildan buyon amal qilishiga qaramay, texnologik jarayon, ularni ta`sir imkoniyati va qamrovi jihatidan oldingi saflarga olib chiqdi.

XX asr oxiri - XXI asr tom ma`noda axborot asri bo`lib qoldi. Aloqaning zamonaviy vositalari, ularning kompyuterlashtirilishi, elektron pochta, elektron kutubxona, internet, kosmik aloqa tizimining texnik imkoniyatlari axborot almashinuvini tig`izlashtirib yubordi. Dunyoning istagan nuqtasidagi u yoki bu voqeani, holatni o`sha zahoti ko`rish, aytilgan gap nihoyalanmay eshitish mumkin bo`lib qoldi. Bu umuman yaxshi. Lekin, bu axborot kim tomonidan, qaysi maqsad va talqin ruhida berilayotibdi, u kimga qaratilgan, mo`ljallangan, qanday qabul qilinadi, bu ham ikkinchi darajali holat emas. Axborotlar ortida muayan xulosa, faoliyat yotadi. Abdulla Qahhor aytganlaridek: “So`rash uchun ham bilish kerak”. Teleradio axborotlari, internet xabarlarini palapartish qabulqilmaslik lozim. Teleekranlarni to`ldirib, ekranidan chiqib ketayotgan zo`ravonlik, fahsh, mehr-muruvvatsizlikka yo`yilgan behayo, yalong`och filmlar, do`konlarda taxlanib yotgan videotasmalar ularga monand yartilayotgan kliplar odamlar ruhiyatiga salbiy ta`sir ko`rsatmasligi mumkin emas.

“Hozir jahoning olis bir burchagida qandaydir bir voqeа sodir bo`lsa, - degan edi I.A.Karimov, - zum o`tmay butun dunyoga ma`lum bo`ladi... Bizdan uzoq -uzoq mamlakatlar hududlarida ro`y berayotgan yaxshi va yomon ishlar, ularning ta`siri ham hayotimizga yashin tezligida bizdan so`rab netib o`tirmasdan kirib kelaveradi. Zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shunchalar tig`iz, shunchalar tezkorki, endi ilgarigidek, ha, bu voqeа bizdan juda olisda yuz berdi. Uning bizga aloqasi yo`q, deb beparvo o`tirib bo`lmaydi”<sup>10</sup>. Demak, globallashuv ob`ektiv jarayon. Uning ta`siri va oqibatlari u yoki bu mamalakatning rivojlanish darajasi,

<sup>10</sup> И.А.Каримов, Жамиятимиз мафкураси халқни-халқ, митллатни-миллат қилишга хизмат этсин, Т.: 1998 й., 9-бет.

mafkuraviy muhofaza imkoniyatlari, imunitetiga bog`liq.

Madaniyat ijtimoiy munosabatlarning tarkibiy qismi sifatida iqtisodiy, siyosiy hayotda kechayotgan o`zgarish, talab, mezonlardan chetda qolmaydi. Bu o`zgarishlar jamiyatning g`oyaviy - siyosiy, diniy - axloqiy, ilmiy - falsafiy, badiiy - musiqiy hayotida, eng muhimi inson tarbiyasida o`z ifodasini topdi.

Rivojlangan mamlakatlarda o`zlarida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari bilan rivojlanayotgan mamlakatlar bozorini to`ldiribgina qolmay, geosiyosat yo`nalishida - bu millat, xalqlar ruhiyati, madaniyatiga ta`sir o`tkazishga, ularning turmush tarzini, ongi - shuuriga, ularning milliy-udum, an`alariga zid “g`oyalar”, “qadriyatlar”ni singdirishga harakat qilmoqda. Ma`lum ma`noda bunga erishmoqda ham.

Vaholanki, har qanday milliy-madaniy taraqqiyotning o`zligi, o`ziga xosligi: tarixiy-vertikal rivojlanishi, meros, milliy qadriyatlarini asrab, uni umuminsoniy madaniyat negizida boyitib, avlodlarga qoldirish sanaladi.

Firklar xulosasi shundaki, globallashuv ijtimoiy-tarixiy hodisa bo`lib: **birinchidan**, u insoniyat taraqqiyotining avvalgi bochqichida ham lokal tarzda (Sharq va G`arb muloqoti: fantexnika yutuqlari, ishlab chiqarish, me`morchilik tajribasi, siyosiy boshqaruv, qonunchilik malakasi, musavvirlik va musiqa v.b) amal qilgan ob`ektiv jarayon: **ikkinchidan**, u evolyutsion-tadrijiy kechadigan holat-insoniyat taraqqiyotining ilgargi bosqichlaridan (vertikal rivojlanish) turli mintaqalardagi (gorizontal muloqat) rivojlanish yutuqlarini davr, zamon ruhiga monand o`zlashtiradi, bu qadriyatlarni takomillashtiradi, boyitadi: **uchinchidan** mohiyatan, globallashuvtabiiy, qonuniy jarayon, lekin muayan kuch (istilochilik), bosqinchilik (mustamlakachilik), zo`ravonlik (fashizm, terrorizm) ko`rinishlarida ham namoyon bo`lishi mumkin: Shubhasiz, bunda u ijobjiy oqibat bilan yakunlanmaydi. I.A.Karimov aytganlaridek: «Haqiqatni anglash uchun dunyoda faqat bitta sinalgan uslub bor. Solishtirish kerak. Qiyoslash kerak».

Shu o`rinda o`quvchi «**Ekologik madaniyat**» bilan “**Madaniyat ekologiyasi**” tushunchalarini chalkashtirmasliklarini istar edik. “**Ekologik madaniyat**” - madaniyat hodisasining muhim elementi, jamiyat va madaniyat rivojlanishining asosiy shartlaridan biri va vositasi. Jamiyat tsivilizatsiya bosqichiga ko`tarilgan paytdan e`tiboran ekologik madaniyatga e`tibor kuchaydi. Inson tabiatni mafaatlari uchun o`zlashtirish va o`zgartirishi yo`lidan borar ekan, bu jarayon hamisha ijobjiy oqibatlarga olib kelavermasligini anglay boshladi. Xomashyo olish, qurilish maqsadlarida tog`, dengiz va o`rmon zamonlaridagi behad o`zgarishlar (sug`orish tizimlari va sun`iy suv havzalarini yaratish, koinotni o`zlashtirish v.b.) salbiy oqibatlarni keltirib chiqara boshladi. Demak, “ekologik madaniyat”-“tabiat-jamiyat-inson” munosabatlarida tabiiy-jug`rofiy muhitni asrash, uning boyliklariga ongli, rejali yondashish, tabiatni axloqiy, huquqiy mezonlar asosida ijtimoiy-insoniy extiyoj nazaridan muhofaza etish, asrashdir.

“Madaniyat ekologiyasi” “ekologik madaniyat”dan kengroq tushuncha. Bu, insoniyat, tsivilizatsiya tomonidan ming yillar mobaynida yaratilgan moddiy, ma`naviy boyliklar, qadriyatlarni tajavuzkor kuch, g`oya, tahdidlardan asrash, keyingi avlodlarga meros tarzda o`tkazishdir. Bu har bir davr, insoniyatni turli bosqichlarida erishilgan milliy mintaqaviy madaniyatlarining rivojlanish xususiyatlari, faoliyat usullarini asrash demakdir. Madaniyatga taxdid, madaniyat tanazuli-insoniyat barqarorligi, mavjudligining fojiasidir.

Jahon madaniyati mohiyati, shakllanishi, rivojlanishi, avloddan avlodga uzatilish jarayoni, funktsional maqsadi inson va uning faoliyati bilan bog`liq. U o`zining ifoda shakllari, tarmoqlari tiplariga qaramay yaxlit, bir butunlikda insoniyat madaniyati sifatida amal qiladi. U quyidan yuqoriga, oddiydan murakkab sari takomillashish jarayonini anglatadi. U makon va zamonda bir zayilda, bir nuqtada, bir maqomda turmaydi. Uning nafaqat mavjudlik elementlari, turlari, tiplari yonma-yon mavjud bo`lishi, yohud almashinishi mumkin. Qadimgi Yunoniston madaniyati bilan bir zamonda yashagan, ammo bir-biridan farqli boshqa mintaqaga madaniyatlarini eslang. Yohud, hozirgi sharoitda dunyoning turli madaniyatlarini ko`z oldingizga keltiring. Bu madaniyatlarini rivojlanish darjasи, miqyosi, ta`sir ko`lami jihatidan yagona shaklga jamlash, bir maqomda baholash mumkin emas.

Hamonki, madaniyat muttasil rivojlanishda ekan, uning tarixiy rivojlanish bosqichlari, davrlari (m: G`arbiy-Janubiy evropa, Shimoliy Afrikaga xos Qadimgi dunyo, O`rta asr madaniyatlarini) barcha mintaqalarga bir xil mos kelavermaydi. Lekin u vaqt e`tibori bilan boshqa

makonda, masalan, evropa yohud Osiyoda albatta o`ziga xos takrorlanadi. Bir-biridan makon va zamonda muayan masofada bo`lgan ayrim xalqlarning tili, axloqi, dinida, madaniyat yaratilishining shakl va uslublarida o`xshash jihatlari ham bo`lishi mumkin.

Demak, madaniyatlar o`z tiplari, shakllaridan qat`iy nazar shakllanishi, rivojlanishining tub tomirlari jihatidan (insonning tabiiy, sotsial ehtiyoji, maqsadga yo`naltirilgan faoliyati, o`zligini anglash) bir butunlikni-jahon madaniyatini, umuminsoniyt madaniy merosini yaratilish, takomillashish jarayonini anglatadi.

Madaniyat taraqqiyoti to`ppa-to`g`ri yo`l emas. Uning tarmoqlari, shakllarida turli davrlarda, bosqichlarda turg`unlik, hatto tanazzul holatlari ham bo`ladi. Madaniyatda shakllanayotgan yangi elementlar eskisiga to`la muvofiq kelmasligi, yohud ma`naviy meros sifatida undan to`laqonli foydalanmasligi mumkin (eski mafkura jamiyatda yot konturkul`turanashavandlik v.b.)

Jahon madaniyatiga xos xususiyat - hamisha tadrijiy holda quyidan yuqoriga rivojlanishdir. Qulay geografik iqlimiylar sharoitga, iqtisodiy tizim ayrim xalq, mintaqalarini sur`atli rivojlanishini belgilasa, boshqa hududlarda aks holat madaniyat rivojini suslashtirishi ham mumkin. (ayniqsa, bu hududlar boshqa tsivilizatsiyalardan uzilib qolsa yohud tabiiy falokat, sotsial zug`um-fojealar girdobida qolsa).

Madaniyatlar rivojlanishida tashqi ta`sir, yordam, boshqa madaniyatlar yutug`idan foydalanish muhim rol o`ynashi mumkin degan mulohazalarga (F.Grebner) L.Morgan, E.Taylor kabi qadimshunosliklar har bir madaniyat o`z ichki impulsi, imkoniyatlari asosida rivojlanadi, degan xulosani qarshi qo`yadilar. Bu ayni to`g`ri xulosa. Aks xolda madaniyatni faqat ayrim tanlangan, elatlar, qavmlar yaratadi va yaratgan degan bir tomonlama qarash yuzaga keladi. Bu esa jahon madaniyati mohiyati va qimmatiga ziddir. Har bir madaniyat jahon madaniyati guldastasida o`z rangi, bo`yiga ega bo`lgan xos madaniyat ( Dezami) u siz bejirim guldastasi bo`lishi mumki emas. Volter, Gerder nazarida jahon tarixi-madaniyatlar tarixi, demak. Yagona tarixsiz yaxlit jahon madaniyati ham bo`lmaydi.

## IKKINCHI BOB JAHON MADANIYATI

### 5 – MAVZU JAHON MADANIYATI BOSQICHLARI

Madaniyat hamma davrda insoniyat jamiyatining moddiy va ma`naviy taraqqiyoti darajasini, insoniyat yaratgan bilimlarni, ishonch-e`tiqodlarni, san`atni, axloqni, qonunlar va odatlarni, shuningdek, inson o`zlashtirgan layoqat va ko`nikmalarning yig`indisini ifodalagan. “Madaniy jarayon” tushunchasi tarixiy kategoriyaga mansub bo`lib, ma`lum bir xalq yoki hudud bilan chegaralanmagan. Shuning uchun mazkur jarayon hamma davrlarga va xalqlarga tegishlidir.

Madaniy taraqqiyotning ma`lum bir davrda paydo bo`lgan o`ziga xos xususiyati va noyob, takrorlanmas jihatlari ham borki, bu xususiyatlar ma`lum hududda madaniy bosqichlarni yuzaga keltiradi. Masalan. ibridoiy madaniyat, antik madaniyat, uyg`onish davri madaniyati, islam madaniyati va boshqalar. Madaniy bosqichlar ma`lum darajada regional – mintaqaviy xususiyatni o`z ichiga qamrab oladi.

Ammo madaniyat universalligi tushunchasi butun insoniyatga mansub bo`lgan madaniy merosni ifodalab, madaniyatning regional xususiyatiga zid kelmaydi, aksincha, uni to`ldiradi. Umuman, madaniyatning universalligi, geografik o`rnidan qat`iy nazar, hamma madaniyatga mansub qadriyatlar, qoida, an`ana va o`ziga xos xususiyatlar, mezon, jamiyatning tarixiy davri va ijtimoiy qurilishidir. 1959 yili Jorj Merdok jamiki madaniyatga mansub 70 dan ortiq universal madaniy kategoriyalarni aniqladi<sup>1</sup>. Bular - sport, kalendar, tozalikka rioya qilish, folbinlik, dekorativ san`at, tushni ta`birlash, mehnat taqsimoti, ta`lim, g`aroyib ravishda shifolashga ishonch, oila, bayramlar, dafn rasm – rusumlari, o`yinlar, tabriklar, til, qonun, merosxo`rlik huquqi, hazil-mutoyiba, tibbiyot, motam, musiqa, mifologiya, raqam, homiladorlarga munosabat, xususiy mulkka egalik huquqi, diniy rasm–rusumlar, bolani ko`krakdan ajratish, ob–havoni kuzatish va b. kategoriyalardir. Biz ham madaniyatning mazkur tarkibiy qismlarini qo`llab-quvvatlagan holda, ko`proq moddiy madaniyat va ma`naviy madaniyatga, jumladan, amaliy va tasviriy san`at asarlariga, ilm-fanga, diniy ta`limotlarga, etnografiyaga, mifologiya, yozuv va boshqa ba`zi jihatlariga e`tibor qaratamiz.

Madaniyatning universalligi shuning uchun paydo bo`ladiki, hamma odamlar, dunyoning qaysi qit`asida yashamasin, jismoniy jihatdan bir xil tuzilgan, hammasida ham bir xil biologik ehtiyoj bor, bir xil muammolarga duch keladilar. Odamlar tug`iladilar, yashaydilar, vafot etadilar, shuning uchun hamma xalqlarda tug`ilish va vafot etish bilan bog`liq odatlar, udumlar bor va h. Madaniyat universalligining paydo bo`lishi to`g`risida so`z ketganda, albatta, gap madaniyatning ibridoiy ko`rinishlariga borib taqaladi.

\* \* \*

Bugungi O`zbekiston hududida eng qadimgi davrlardan boshlab insoniyat istiqomat qilgan. O`lkaning tabiiy sharoiti insoniyat istiqomat qilishi uchun shart – sharoit yaratgan. Arxeologlar bu borada bizga yordam beradi. Bugungi O`zbekiston hududi Markaziy Osiyodagi eng qadimiy insoniyat maskanlaridan biri ekanini arxeologiya fani isbotlamoqda.

Dunyo arxeologiya fani turli davrlarda insoniyatning yashash tarzi, yashash omillari asosida madaniy bosqichlarni ishlab chiqqan. Dunyoning turli joylaridagi madaniy bosqichlar turlicha. Jumladan, Afrikadagi Must`er madaniy bosqichi eng qadimgi deb e`tirof etilgan. Markaziy Osiyodagi eng qadimiy madaniyat bosqichlaridan biri Selengur madaniyati deb nom olgan. Bu madaniy bosqich Markaziy Osiyodagi eng qadimiy insonning hayot tarzini ko`rsatadi. Selengur madaniyati deb nom olgan ob`ekt Farg`ona vodiysining So`x tumanida. Mazkur madaniy ob`ekt insoniyat hayotiga oid ko`plab ma`lumotlarni yig`ishga va o`zgartirishga yordam berdi. O`lkamizda insoniyat hayoti bir million yil narida ekani isbotlandi. Qolaversa, Markaziy Osiyo madaniyatiga oid mavjud an`anaviy tasavvurlarni o`zgartirishga ham Selengur madaniyati turtki berdi.

Tosh davriga oid mazkur obida O`zbekiston hududida tasodif emas edi. Bu topilma Markaziy Osiyo madaniyati tarixida keyingi davrlarda ham davom etdi va keng yoyildi. Selengur

<sup>1</sup> Қаранг: А. И. Кравченко. Культурология. Учебник. — М.: “Проспект”, 2005, 21–бет

madaniyatiga oid ashylar orasida qushning tumshug`iga o`xshash bolta, uy – ro`zg`or buyumlari shulardan namuna bo`lib, keyinchalik Markaziy Osiyoda keng yoyilgan, mustahkam o`rnashgan hayvonot uslubining ilk namunasi edi.

Mazkur madaniy bosqichga oid namunalar O`zbekistonning qadimiy tuprog`idan ko`plab topildi. Quyidagi dalilga murojaat etaylik.

1932 yili akademik A.P.Okladnikov boshchiligidagi Termiz ekspeditsiyasi Boysun tog`idagi Teshiktosh g`oridan Must`er madaniyatiga<sup>2</sup> oid ashylarni topdilar. Topilmalar orasida odamning boshi, tana a`zolari, suyaklari diqqatga sazovor edi. Suyaklar joy – joyiga qo`yib tiklandi. Natijada 9 – 10 yoshli bolaning skeleti hosil bo`ldi. Bu skelet evropa, Osiyo va Afrikadagi Must`er davriga oid neandertal odam toifasiga mansubligi ma`lum bo`ldi.

Ilk insonning yurtimizda yashagani to`g`risidagi ma`lumotlar albatta katta yangilik edi. Yana bir diqqatga sazovor tomoni shu bo`ldiki, qabr ustiga tog` echkisining shoxlari qo`yilgan ekan. Echki shoxlar qabrga bezak uchun qo`yilgan emas, balki o`sha davrga oid odamning dunyoqarashi, fikrlashi tarzini ko`rsatardi. Totemistik fikrlash ayni shu davrdan boshlanganini mazkur yodgorlik dalillaydi. Chunki insoniyat paydo bo`lgandan boshlab atrof – muhitga, tabiiy hodisalarga o`z munosabatini bildirgan. Bu jarayonni ibtidoiy fikrlash tarzi bilan bog`lash lozim: inson tabiat bilan o`zi o`rtasiga chegara qo`ymagan davrning mahsuli sifatida yuzaga kelgan.

O`zbekiston tuprog`idan topilgan mazkur ikki qadimiy obida yurtimizda insoniyat hayoti, ularning yashash tarzi to`g`risida to`laqonli tasavvur hosil qiladi. Dunyoning hamma qit`asida ham bir xildagi madaniy yodgorlik uchrayvermaydi.

Must`er madaniyatiga oid mazkur bosqich Selengur madaniyatidan bir oz keyinroq - tosh davrining 800 - 700 ming yilliklariga oiddir.

Must`er madaniyati kengroq tarqalgan bo`lib, dunyoning boshqa joylarida ham uchraydi. Jumladan, 1952 yili Qrimda Bog`chasarov yonida 1,5 - 2 yoshli bolaning bosh suyagi topildi. Mana shu topilmadan boshlab Must`er madaniyati degan termin madaniy tushuncha sifatida kirib keldi.

O`rta Osiyo mintaqasi hamma davrda ham madaniy obidalarga boyligi jihatidan dunyo madaniyati tarixida alohida ajralib turadi. Madaniy qatlamlardagi uzlusizlik O`rta Osiyo madaniyatida yangi, takrorlanmas obidalarni yaratishga sabab bo`ldi. Insoniyatning badiiy tafakkuri cheksiz imkoniyatlarga egaligini ham aynan O`rta Osiyodan topilgan madaniy obidalarda ko`ramiz. Teshiktoshdagi echki shoxi badiiy tafakkurning ilk namunasidir. Keyinchalik insoniyat tosh va qoyalarga suratlar o`yish orqali o`z qobiliyatini namoyon qildi. Bu suratlar orqali ibtidoiy inson kundalik voqealarni ifodalab qolmagan, balki olamni keng qamrovli, mifologiya orqali anglashni namoyon qilgan. Tosh va qoyalarga o`yilgan suratlarda turli jonzotlar, qushlar, afsonaviy maxluqlar asosiy o`rin egallaydi.

O`zbekistonning janubida - Ko`hitang tog`larida hozirda ham inson oyog`i kam etib borgan joylar mayjud. Mana shunday joylardan biri tog`dagi Zario`tsoy bo`yidagi g`orlardir. Soyning qirg`oqlarida joylashgan g`orlarda insonlarning suratlari ham bor. Bu suratlarning qachon yaratilgani ma`lum emas. Ammo insoniyatning ilk madaniy bosqichlarida yaratilgan deb xulosa chiqarish mumkin. Afsonaviy maxluqlar, boshqa ba`zi tasvirlar shundan dalolat beradi. (rasm)

Zario`tsoy - Oltin o`t darasi deganidir. Soyning o`rta qismida katta “ayvon“ bo`lib, bu joy Zario`t kamar deb aytildi. Bu qismda diqqatga sazovor suratlar bor. Ayniqsa, qushlar va hayvonlarning tasviriga ko`proq e`tibor qaratilgan. Hamma xalqlarning ilk madaniy bosqichida qushlar va hayvonlar tasviri asosiy o`rin egallaydi. Sharqdagi aksariyat ibtidoiy madaniyatda shu jarayonni ko`rish mumkin. San`atning bu turi hayvonot uslubi deb nomlanadi. Miloddan oldingi birinchi ming yilliklarga oid asarlarga nisbatan esa skif - hayvonot uslubi degan nom ham qo`llanadi. San`atning bu turi dunyoning ko`p hududlarida qadimiy san`at turi - amaliy va tasviriy san`atga nisbatan qo`llanadi.

**Skiflar madaniyati.** Skiflar miloddan oldingi VII asrlarda tarix sahnasiga chiqdilar. Skiflar tarixi, ularning turmush tarzi, harbiy san`ati va boshqa ko`plab moddiy va ma`naviy hayotiga oid qarashlar turli-tumandir. Goh Janubiy Rossiya, goh Shimoliy Kavkaz, goh O`rta Osiyoga nisbat berilayotgan skiflarning turmush tarzi bilan bog`liq qarashlar bugungi kunga kelib o`zgarib bormoqda.

<sup>2</sup> 1952 йили А. Фармозов Боғчасарой яқинида ibtidoiy odam яшаган манзил топди. Мустъер маданияти degan nom ўша жойнинг номидан олинган.

Bu xalq to`g`risida yunon tarixchisi Gerodot ba`zi afsonalarni keltiradi. Jumladan, quyidagi afsonaga murojaat etaylik:

*Gerakl Gerionning chorvasini haydab, o`sha paytda inson oyog`i etmagan yurtga borib qolgan ekan. (Hozir bu erlarda skiflar yashaydilar.) Gerion Pontadan uzoqda — Okean orolida, Gerakl Ustunlari ortidagi Gadirda istiqomat qilardi (bu orolni ellinlar Eritiya deb aytishadi).*

*Ellinlar hikoya qilishlaricha, Kun chiqishdan boshlab butun er shari bo`ylab okean oqar ekan. Lekin o`zlar ham buni aniq isbotlay olmaydilar. Shunday qilib, Gerakl hozirda Skiflar mamlakati deb aytildigan joyga o`sha yoqdan kelib qolgan ekan. U erda Gerakl bo`ron, sovuqqa duch kelib qolibdi. U otlarini o`tlatgani qo`yib yuboribdi va o`zi to`ng`iz terisiga o`ranib, uxlاب qolibdi. Bu paytda uning otlari sirli ravishda g`oyib bo`libdi.*

*Gerakl uyg`onib, otlarini izlashga tushibdi va butun mamlakatlarni kezib chiqibdi. Nihoyat, Gilay degan yurtga kelibdi. U erda bir g`or bor ekan. G`orda u yarmi ayol, yarmi ilon bo`lgan allaqanday jonzotga duch kelibdi. U jonzotning sag`risidan yuqori qismi — ayolga, pastki qismi — ilonga o`xshar ekan. Gerakl uni ko`rib, hayron bo`libdi. “Otlarimni yo`qotib qo`ydim, sen ko`rmadingmi?” deb Gerakl undan so`rabdi. Ayol-ilon: “Otlaring menda, men bilan ishqiy aloqa qilmaguningcha, otlaringni bermayman”, — debdi. Gerakl bunday mukofot evaziga o`sha ayol-ilon bilan qovushibdi. Lekin ayol-ilon Geraklni oldida uzoqroq ushlab turishni istab, otlarni qaytarib berishni orqaga suraveribdi. Gerakl esa otlarini olib, tezroq ketishni xohlar ekan. Oxiri, ayol otlarni Geraklga qaytarib beribdi va shunday debdi: “Bu otlar oldimga kelganda sen uchun ehtiyyotlab saqladim. Sen otlaring evaziga menga haqini to`lading. Sendan uchta o`g`il ko`raman. Ayt-chi, bolalar ulg`ayganlarida, nima qilay: shu erda qoldiraymi — axir, bu mamlakatda bir o`zim hukmronlik qilaman — yoki sening yoningga yuboraymi?” Gerakl ayolning savoliga shunday javob beribdi: “O`g`illar ulg`ayganini o`zing bilgанин keyin, yaxshisi, shunday qil: ulardan qaysi biri, senga ko`rsatganimday, kamonimni torta olsa va mana bu kamarni bog`lay olsa, o`shanisini shu erda qoldir. Mening aytganlarimni bajara olmaganlarini chekka joylarga jo`natib yubor. Agar shu aytganlarimni qilsang, ham o`zing xursand bo`lasan, ham mening istagimni bajargan bo`lasan”.*

*Gerakl shu so`zlarni aytib, kamonidan bittasini (u har doim ikkita kamon olib yurar ekan) tortib ko`rsatibdi. So`ngra kamarni qanday bog`lashni ham ko`rsatib, kamon bilan kamarni ayolga beribdi. (Kamarning ilgagiga oltin kosacha osilgan ekan.) So`ng Gerakl o`z yo`liga ketibdi. Bolalar ulg`aygach, onasi ularga ism qo`yibdi. To`ng`ichiga — Agafris, o`rtanchasiga — Gilon, kenjasiga — Iskif deb ism qo`yibdi. So`ngra Geraklning bergen maslahatini amalga oshiribdi. Agafris bilan Gilon shartni bajara olmabdilar. Shuning uchun onasi ularni mamlakatdan chiqarib yuboribdi. Kichigi Skif esa shartni bajaribdi, shuning uchun mamlakatda qoldiribdi. Hamma skif shohlari Geraklning ana shu o`g`li Skifdan paydo bo`lgan ekan. O`sha oltin kosani eslab, iskiflar hozirgacha kamarlarida kosa osib yuradilar.*

Aslida san`atdagi skif - hayvonot uslubining ildizlari ana shu afsonalarda. Gerodot keltirgan mazkur afsonada ko`rinishicha, Gerakl uchrashgan jonzotning belidan yuqori qismi - ayolga, pastki qismi ilonga o`xshar ekan.

Bu tasvir skif - hayvonot uslubi aks etgan afsonalarning bizga ma`lum bo`lgan ilk namunasidir. Ilk afsonalarda inson va hayvонни yaxlit tasavvur qilish natijasida yana yarmi ho`kiz, yarmi odam shaklida ilk inson yuzaga kelgan. Jumladan, mashhur arxeolog S.P.Tolstovning aytishicha, ilk inson Qayumarsning tanasi yarmi inson, yarmi ho`kizdan iborat bo`lgan ekan. Antik davr madaniyatiga oid tasvirlarda uchraydigan jonzotlar - ot, tuya, tog` echkisi, hatto ilon, baliq ham qanotli shaklda tavvirlangan. Qadimgi Sharqda, Kichik Osiyoda bunday san`at namunalari ko`p uchraydi. Qadimgi Sharq xalqlarining badiiy va ilmiy tafakkurini birlashtiradigan omillardan biri ana shu hayvonot uslubidir. Xet, Bobil, Ossuriya, Tadmur kabi Sharqdagi eng qadimiy davlatlarda majusiylik mahsuli sifatida hayvon va qushlar tasvirini yasash udum bo`lgan edi. Bu davlatlarda yashagan aholi turmush tarzini ana shu jonzotlar tasviriga bog`lab izga solganlari qat`iy qoida tusiga kirgan edi.

Ossuriya, Bobil, Urartu davlatlarida shakllangan san`at asarlari bilan Markaziy Osiyodagi san`at asarlari o`rtasida uyg`unlik bor. Bu uyg`unlik tarixiy - madaniy munosabatlar mahsulidir. Miloddan oldingi VII asrda skiflar O`rta Osiyodan Sharqqa yurish qildilar va Urartuni tor - mor qildilar. Midiya va Bobil bilan ittifoq tuzib, Ossuriyani mag`lub qildilar. Skiflar Sharqda 100 yil

davomida hukmronlik qildilar. Sharq hayotining hamma tomonlariga skiflar katta ta'sir ko'rsatdilar. Ba`zi olimlarning tadqiq qilishlaricha, skiflar sultanati yunon davlatiga va fors davlatiga o'xshamaydi. Aniqrog'i, ularning davlat tuzilishi alohida, o'ziga xos bo`lib, bir necha marta Qoradengiz atrofida va Janubiy Rus o'rmonlarida barpo bo`lgan. Xazarlar va Oltin O'rданing madaniy obidalari ham Janubiy Rus o'rmonlaridagi skiflarniki bilan bir xil bo`lgan edi<sup>3</sup>. Gerodotning xabar berishicha, skif vafot etganda, azadorlar quloqlarini, qo'llarini tiladilar, sochlarini qiradilar, peshonalarini, burunlarini shiladilar, chap qo`liga nayza tiqadilar. Skiflar marhumlarni dafn qiladigan joy Gera eri bo`lib, o'sha joyga olib borgunlaricha, yo'l ustidagi boshqa skif qabilasiga marhumning jasadini beradilar. Mazkur qabila ham xuddi oldingi skif qabilasi singari aza marosimini o'tkazadi va bu marosim o'sha Gera eriga borguncha davom etaveradi.

Turkiy qavmlar ota-bobolarining dafn odatlari to`g`risida Xitoy yilnomalarida yozib qoldirganlar. Xunlar ham, skiflar singari, marhum uchun aza tutayotganlarida, qon ko`z yoshlar bilan aralashib oqishi uchun yuzlarini tilganlar. Turk xoqonligida lashkarboshi Kultegin vafot etganda (VIII asr), aza marosimida ishtirok etish uchun Xitoy elchisi Lu Sin boshchiligidagi 500 odam keladi. Ular dafn marosimiga oltin, kumush, xushbo'y tutatqilar olib keladilar. Marhum uchun yig`lab, sochlarini yulganlar, quloqlarini kesganlar, eng yaxshi otlarini qurbanlik qilganlar<sup>4</sup>.

Madaniy bosqichlarning keyingi davrlariga aniqliklar kiritishda ham sharq xalqlarining tarixiy – madaniy munosabatlari muhim ahamiyatga egadir. Sharqda hayvonlarning yakka holdagi tasviri odatda ma`budlar qiyofasini yoki ma`bdurlarning ramzini ifodalagan. Chamasi, skiflar o`zlar bilan birga O`rta Osiyodagi skif – hayvonot uslubini ham G`arbga olib borganlar, u erlarda azaldan mavjud bo`lgan hayvonot uslubidagi tasviriy va amaliy san`at namunalarini takomillashuviga ta'sir ko`rsatgan.

San`atdagi ilk skif – hayvonot uslubining o`ziga xos xususiyati shuki, bu uslubda yaratilgan asarlarda zoomorfik ko`rinish asosiy o`rin egallaydi. Zoomorfik ko`rinishning asosiy belgisi shundan iboratki, san`atda hayvonning u yoki bu a`zosi mustaqil biron hayvon timsolini gavdalantiradi. Buning namunalarini O`zbekiston va Qozog`iston tuprog`idan topilgan osori atiqalarda kuzatish mumkin. So`xdan topilgan bir yodgorlikda buning eng jonli namunasini kuzatish mumkin. **(ikki boshli ilon rasmi)**

Mazkur yodgorlik miloddan oldingi ikkinchi ming yillikka oid bo`lib, ilon shaklidagi tumorni eslatadi. Tumor qora toshdan yasalgan. Tumoring dum qismi ham ilonning kallasi shaklida tasvirlangan. Xuddi shu uslubni Qozog`istonidagi Issiq qo`rg`onidan topilgan amaliy san`at namunalarida kuzatish mumkin **(rasmi)**. Mazkur obidalar miloddan oldingi V-1V asrlarga oiddir. Topilgan ashylar orasida otning dumidan yasalgan qanotli ot diqqatga sazovordir. Otning tog` echkisi shoxi singari shoxi ham bor. Skif – hayvonot uslubiga oid san`at asarlari Shimoliy Qora dengiz bo`ylaridan ham topilgan. Ayniqsa, "Amudaryo xazinasi" deb nom olgan miloddan oldingi V-1V asrlarga oid skif-hayvonot uslubida bajarilgan buyumlar O`rta Osiyo xalqlari madaniyat tarixida katta voqeа bo`lgan edi. Uy-ro`zg`or buyumlari ham skif – hayvonot uslubida bajarilgan. Mazkur buyumlar o'sha erda istiqomat qilgan xalqlarning kundalik turmush tarziga, qanday tirikchilik qilganlariga ishora qiladi. Masalan, bu qo`rg`ondan hayvonot uslubida yasalgan cho`mich, nontaxta, juva, chekich kabi buyumlar o`troqlashgan aholi turmush tarzini ko`rsatish bilan birga, dehqonchilik madaniyatidan ham darak beradi.

Umuman olganda, skif-hayvonot uslubi Markaziy Osiyo va Sharq xalqlarining madaniy taraqqiyotini ko`rsatadigan omillardan biridir. Bir madaniy bosqichdan ikkinchisiga o`tishda bu oqim muhim omil bo`ldi. Ilk tosh davriga taalluqli Selengur madaniyatidagi hayvonot uslubi uzlusiz ravishda davom etib, hatto temir davrigacha keldi. Bu uslub bezak maqsadida emas, balki dunyo xalqlarining diniy - badiiy tafakkurining ramzi sifatida yuzaga keldi. Arxaik davrdagi ramziy timsollar - urug`chilik jamiyatidagi insoniyat hayat tarzining natijasi, olamga diniy va badiiy qarashlarning ifodasi edi. Qolaversa, bu uslub hodisalarning umumiy aloqalari va bir-biriga bog`liqligi to`g`risidagi fikrlarning mantiqiy ifodasi ham bo`ldi.

<sup>3</sup> Бу ҳақда қаранг: Заур Гасанов. Царские скифы. – Нью Йорк, 2002, 256-бет.

<sup>4</sup> Қаранг: Заур Гасанов. Юқоридаги асар, 258-бет.

Ibtidoiy fikrlash bosqichida tasviriy san`atda ramziy timsollar ko`p. Zario`tsoyning o`rtalarda qismida turtib chiqqan “ayvon”dagi suratlar bu jihatdan diqqatga sazovor. Bu erda ov manzarasi tasvirlangan. Bir lavhada ovchilar hayvon terisini yopinib olib, yovvoyi to`ng`izlarni poylab turibdilar. Odamlarning qo`llarida o`q-yoy, bolta, o`roqsimon qurol, palaxmon bor.

“Ayvon”dagi suratlarda magik marosimlar hamda ilk tosh davridan yangi tosh davriga o`tish jarayoni o`z ifodasini topgan. Odamlar ustiga hayvon terisini yopinib olgan tasvir shundan dalolat beradi. Go`yo hayvon terisini yopinib olganda, hayvonni ovlash oson bo`ladi. Ibtidoiy davrdagi bunday fikrlash relikt – urf-odat qoldig`i sifatida davom etaveragan. Jumladan, Amerikadagi ba`zi xalqlarda X1X asrda ham ibtidoiy davrdagi hayvon terisini yopinib ov qilish odati saqlanib qolgan va tasviriy san`atga ko`chgan edi. Bunday tasvirlarda o`q - yoy yo`q. Bu tasvirda o`q - yoy yo`qligi ham tosh davriga oid moddiy mif namunasi ekanini ko`rsatadi. Bunga o`xshash qoyatosh suratlari qadimgi O`zbekistonning boshqa hududlarida ham uchraydi. Samarqand yaqinidagi Ilonsoy, Oqsoy, Toshkent yaqinidagi Xo`jakent, Farg`ona viloyatidagi Takatosh degan joyda topilgan suratlar shular jumlasidandir. Bu suratlarning sanasini aniqlash murakkab, chunki keyingi davrlarda ham o`sha suratlar uslubi davom etgan.

Markaziy Osiyoning boshqa hududlarida, xususan, turkiy qavmlar yashaydigan hududlarda - Mo`g`uliston, Oltoy, Tuva, Xakasiya kabi qator hududlarda ham tarixiy-madaniy jarayonning umumiyligi va uzlusizligini kuzatish mumkin. Bu joylardagi madaniy jarayon Sharq madaniy jarayonidan ajralmagan, barcha ko`hna Sharq madaniyatining xususiyatlarini o`zida mujassamlantiradi. Bu jarayon shuni ko`rsatadiki, Sharq xalqlari madaniyati yaxlit madaniyatdir.

Osiyoning, xususan, Markaziy Osiyoning qadimiy madaniyati ma`lum bir joyga nisbat berilib, shu joyning nomi bilan ataladi. Masalan, Janubiy Sibirdan topilgan madaniy yodgorliklar guruhlanib, o`sha joyning nomi bilan ataladi: *Oldi bel madaniyati*, *Saglin madaniyati*, *Kazilg`on yoki Uyuq madaniyati*, *Shurmak madaniyati* va boshqalar. Mazkur madaniyat bosqichlarida insoniyatning yashash tarzidagi oldinga siljishlar, yashash tarzining o`ziga xosliklari osori atiqalar, topilmalar yordamida aniqlanadi.

**O`rta Osiyo va jahon madaniyati bosqichlari.** O`rta Osiyo hududidagi madaniy jarayon dunyo madaniyatidan ajralmagan holda shakllandi. Yuqorida Selengur madaniyati va Mus`tir madaniyatining O`zbekiston hududida amal qilgani to`g`risida qisqacha aytib o`tdik. O`zbekiston hududida keng tarqalgan va uzoq yashagan madaniy bosqichlardan biri Kaltaminor madaniyatidir.

Kaltaminor madaniyatida madaniy obidalarning o`ziga xosligi aniqroq kuzatiladi. Miloddan oldingi IV - II ming yilliklarga oid Xorazmdan topilgan madaniy yodgorliklar *Kaltaminor madaniyati* deb yuritiladi. (Bu nom arxeologik yodgorlik topilgan joydagи kanalning nomidan olingan.) Insonlar istiqomat qilgan joy Jonbos qal`a deb nom oldi. Jonbos qal`ada yashagan odamlarning hayot tarzi Kaltaminor madaniyati to`g`risida qisman tasavvur beradi. Jonbos qal`adagi hayot to`g`risida mashhur arxeolog olimlar S.P.Tolstov, Ya.Gulomov, I.Jabborov va boshqalar ko`p dalillar keltirganlar.

Jonbos qal`aning hajmiga asoslanib, bu qal`ada 100 – 120 kishidan iborat bir qabila istiqomat qilgan, deb taxmin qilish mumkin. Qal`aning o`rtasida olov yonib turadigan o`choq bo`lgan. Chamasi, o`choqdagi olov hech qachon o`chmagan, bu olov muqaddas hisoblangan. Olov yonida qabila boshlig`i o`tirgan. Muqaddas olov o`troq hayot turmush sharoitini belgilovchi omil bo`lgan. Har bir oilaning ovqat pishiradigan o`chog`i bo`lgan. Oila qurmagan yigitlar uchun ham alohida joy bo`lib, qishda sovuqdan, yozda issiqdan panoh topganlar. Qal`ada suyak va toshdan ishlangan qurollar, marjonlar, boshqa taqinchoqlar, idish – tovoqlar ham topilgan. Bu erdagи insonlarning yashash tarzi, dehqonchilik va ovchilik madaniyati to`g`risida mazkur yodgorliklar ma`lumot beradi.

Jonbos qal`adagi odamlar turli marosimlarni ijro etganlar. Bu marosimlarni ijro etadigan maxsus “o`yin maydonlari“ bo`lgan. Bu joy olovdan uzoqroqda bo`lib, marosim o`yinlar orqali ijro etilgan. Jonbos qal`adan topilgan ashyolarning dilillashicha, bu erda istiqomat qilgan odamlarning asosiy mashg`ulotlaridan biri baliqchilik ham bo`lgan edi.

Kaltaminor madaniyati boshqa hududlardagi madaniyatga ta`sir ko`rsatdi. Neolit va eneolit davriga oid shimoli - sharqiy evropadagi, Ural bo`yi va Janubiy G`arbiy Sibirdagi madaniy yodgorliklar shundan dalolat beradi. Jumladan, Ob daryosining quyi tomonlaridan topilgan qarorgohdagi yodgorliklarning ko`rsatishicha, aholining asosiy mashg`uloti ovchilik va baliqchilik

bo`lgan. Bu turmush tarziga shubhasiz Kaltaminor madaniyati o`z ta`sirini o`tkazgan.

Kaltaminor madaniyati qadimiylar, ayni paytda insoniyatning hayotida katta burlish yasagan, anchagini ilg`or madaniyat edi. Shu bois ham uzoq masofadagi madaniyatga o`z ta`sirini o`tkaza oldi. Ayniqsa, Sharqiy Turkistonning Yorkent daryosi havzalariga tutashib ketgan qumliklardan topilgan ashyolar Kaltaminor madaniyatiga juda yaqin.

Kaltaminor madaniyatining ta`sirini Buxoro vohasining shimolidagi Quljuqtov tog`i etaklaridan topilgan manzilda ham ko`rish mumkin. Xususan, sopol buyumlar bu manzildagi madaniyatni Kaltaminor madaniyati bilan birlashtirib turadigan omillardan biridir. Janubiy Sibirdagi Afanas`ev madaniyati, Turkmanistondagi Anov madaniyatiga ham Kaltaminor madaniyati ta`sir o`tkazgani to`g`risida olimlar bir xulosaga kelganlar. Kaltaminor madaniyatining o`sha madaniy bosqichlarga ta`sirini ko`rsatadigan, ularni birlashtirib turadigan omil - turli sopol buyumlar, ovchilik asbob – uskunalar, naqsh solingan buyumlar va hokazolardir. Umuman, mazkur ashyolar Afanas`ev va Anov madaniyati bilan Kaltaminor madaniyatini birlashtirib turadi.

Dunyoning, qolaversa, O`rta Osiyoning ham turli davrlarida har xil madaniy bosqichlarni kuzatish mumkin. Ammo qaysi madaniy bosqichning qachon mavjudligi emas, balki qaysi madaniy bosqichda inson qanday hayot kechirgani, qay yo`sinda turmush tarzi takomillashib borgani muhim. Shubhasiz, insoniyatning turmush tarzidagi o`zgarish, oldinga siljish dunyoni anglashiga ta`sir ko`rsatadi. Ma`lum bir madaniy bosqichning turli hududlarda umumiyligi (Masalan, skiflar va Kaltaminor madaniyatining Markaziy Osiyo va evropaning ko`p joylarida uchrashi) faqat ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyot darajasining, hayot tarzining umumiyligini belgilab qolmasdan, qabilalarning etnik jihatdan yaqinligini ham belgilaydi. Qozog`istondagi Issiq daryochasi bo`yidan topilgan bir qator ashyolar - yog` och va metalldan qilingan uy - ro`zg`or buyumlar, ayollarning taqinchoqlari, qurol-aslahalar va h.lar bu davrdagi O`rta Osiyo aholisining iqtisodiy, ma`naviy turmush tarzini - qanday hayot kechirganlarini tasavvur qilishga yordam beradi. Bu ashyolar miloddan oldingi V - IV asrlarga oid bo`lib, saklarga tegishlidir. Bu davrdagi soklarning turmush tarziga oid ba`zi ko`rinishlar qadimgi Isroil xalqida ham ko`rinadi. Biz yuqorida saklar mil. aval. VII asrda Urartuni tor - mor qilib, Madiya va Bobil bilan ittifoq tuzib, Ossuriyani mag`lub qilgani to`g`risida aytgan edik. Isroil ham ma`lum vaqt skiflar ta`sirida qolgan edi. Ana shu tarixiy voqealardan madaniy - iqtisodiy jarayonga ta`sir etmasligi mumkin emas edi. (**rasm**)

Umuman olganda, Issiqdan topilgan ashyolar ham O`rta Osiyoda mavjud bo`lgan turli madaniy bosqichlarning davomi bo`lib, eneolit davrining mahsulidir. Yangi metall buyumlar, aniqrog`i, oltindan buyumlar yasash paydo bo`ldi. Sharqda, xususan, Isroilda oltin buyumlar, taqinchoqlardan foydalanish Muso payg`ambar davridan oldin boshlangan edi. Sharq xalqlarining madaniy turmush sohasidagi bir -birlariga ta`sir etish jarayoni o`sha davrlardan boshlangan edi, deb aytish mumkin. Muso payg`ambar o`z qavmini Misrdan olib chiqayotganda tilla buyumlar va taqinchoqlarni yashrin olib ketishlari bejiz emas edi.

Madaniy bosqichlar to`g`risida so`z ketganda, shuni nazarda tutish kerakki, tarixiy davr bilan madaniy bosqichlar bir-biriga bog`liq va doimo bir – birini to`ldiradi. Quyidagi jadval madaniy bosqichlar va tarixiy davrlarning aloqasi to`g`risida to`liq tasavvur hosil qiladi. Mazkur madaniy bosqichlar XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab evropalik Gabriel` Martil`e, Anri Breal`, Edgar P`et kabi olimlar tomonidan ishlab chiqildi.

### Insoniyatning madaniy bosqichlari tasnifi\*

Davrlar	Madaniyat turlari	Zamon
5 Temir	Temir davrining oxirgi madaniy bosqichi	Miloddan keyin V
4	Temir davrining ilk madaniy bosqichi	Milodgacha
3 Bronza	Bronza davri madaniyati	Milodgacha 1200 yil
2 Yangi tosh davri	Eneolit davri madaniyati Rivojlangan neolit davri	Milodgacha 1800 yil Milodgacha 3–2 ming yilliklar
	Ilk neolit davri madaniyati	1V Milodgacha 7–3 ming yilliklar
1 Qadimgi tosh davri	Tardenovoz madaniyati	Milodgacha 10–7 ming yil
<i>Yuqori tosh davri</i>	Azil madaniyati	Milodgacha 16–10 ming yil
	Modlen madaniyati	Milodgacha 28–16 ming yil
	Solyutrey madaniyati	111
	Orinyak madaniyati	Milodgacha 28–45 ming yil
<i>Quyi tosh davri</i>	Must`er madaniyati	Milodgacha 45–75 ming yil
	Ashel` madaniyati	
	Shell` madaniyati	100–75 ming yil
	Doshell` madaniyati	200 –100 ming yil
		11
		200–400 ming yil
		400–800 ming yil
		1

I - maymun odamlar; pitekantroplar – sinantroplar.

II - ibtidoiy odam; neandertallar.

III - ongli inson; yuqori tosh davri odamlari.

IV - neolit va ilk bronza davridagi odam irqlari.

V - hozirgi odam irqlari.

Ammo mazkur madaniyat bosqichlarini oxirga xulosa sifatida qaramaslik kerak. Yangi - yangi arxeologik topilmalar dunyoning turli hududlaridagi madaniyat bosqichlarini yuzaga keltirmoqda yoki ba`zilariga yanada aniqlik kiritmoqda.

## 6 – MAVZU IBTIDOIY DAVR MADANIYATI

Madaniyat tasodifan paydo bo`lgan emas, balki u turli bilimlar majmuidan, ishonch-e`tiqodlardan, san`atning barcha ko`rinishlaridan, jamiyatdagi axloqiy tamoyillar, qonun - qoidalardan, urf - odatlardan tashkil topadi. Shuningdek, inson jamiyat a`zosi sifatida o`zlashtirib olganadolat, burch, mas`uliyat, tenglik, ozodlik, Vatan tuyg`ulari ham madaniyatning paydo bo`lib shakllanishiga ta`sir qilgan. Bir so`z bilan aytganda, madaniyat - insoniyatning butun faoliyatidagi to`g`ri yo`l va natijadir.

Madaniy turmush ancha ilg`or sharoitiga etishgan bosqich ko`pincha “tsivilizatsiya” degan nom bilan ham yuritiladi. Ammo madaniyat va tsivilizatsiya aynan bir-biriga teng tushuncha emas. Madaniyat sinfiy jamiyatgacha bo`lgan davrda ham mavjud edi. Tsivilizatsiya - insonlarning yovvoyi, ibtidoiy hayotdan qabila, millat, xalq bo`lib birlashuvি asosida yuzaga keldi. Keyinchalik har ikkalasi bir-birini to`ldirib bordi. Tsivilizatsiya ko`proq moddiy madaniyatga, mehnat qurollari va ishlab chiqarish unumdorligi, jamiyat va davlatni boshqaruvchi qonunlar rivojiga nisbatan qo`llanadi: evropa tsivilizatsiyasi, antik tsivilizatsiya, xristian tsivilizatsiyasi, musulmon tsivilizatsiyasi, Sharq tsivilizatsiyasi va h. Madaniyat va tsivilizatsiya - o`tmish mahsuli, ayni paytda kelajak uchun, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Madaniyat to`satdan paydo bo`lib qolmagan. U insoniyatning moddiy, aqliy, siyosiy, badiiy faoliyati sifatida yuzaga keldi. Inson yovvoyi hayotdan tsivilizatsiyalashgan hayotga o`tganda, madaniyat taraqqiy eta bordi. Ibtidoiy madaniyat davrini ba`zi olimlar jamiyat davri deb ham ataydilar.

Insoniyat madaniyatni shakllantirib, rivojlantira borar ekan, yakka shaxsnинг va butun jamiyatning axloqiy tamoyillarini, baxt - saodatga erishish yo`l - yo`riqlarini topishga intiladi.

Madaniyat turli mamlakatlarda turlicha shaklda namoyon bo`ladi. Ammo qay shaklda bo`lmasin, inson tsivilizatsiyani tadrijiy ravishda o`rganib, o`zlashtirib borishga moyildir. Masalan, qadimgi Misr, Xindiston, Eron, Yunoniston va Rimda tsivilizatsiya ilk bor madaniyatning shakllanishiga va dunyo madaniyati rivojiga zamin bo`ldi. Nima uchun qadimiyoq Sharq mamlakatlari emas, aynan Yunoniston va Rim davlatlari madaniyat beshigi bo`ldi, aynan boshqa mamlakatlarda emas, degan savol tug`iladi. Chunki aqliy va badiiy tafakkur ilk bor Yunoniston va Rimda shakllandi. Lekin Aflatun, Pifagor, Epikur, Eenon, Empedakl va boshqa yunon donishmandlari Misr va Hindistondagi ustozlardan ta`lim olganlar.

G`arb ulamolari fikricha, faqt Yunon va Rim madaniyati antik madaniyat deb yuritiladi. Antik madaniyat bilan qadimiy (arxaik) madaniyat aynan bir xil emas. Ular orasida ma`lum farqlar bor. Garchi Sharq madaniyati yunon - rim madaniyatidan qadimiy bo`lsa ham, evropaliklar yunon - rim madaniyatini meros qilib oldilar va bu madaniyat evropa madaniyati izchilligini ta`minlagani, evropaliklar uchun yunon - rim jamiyati yagona qadimiy jamiyat bo`lgani uchun “antik” terminini qo`llaganlar. Antik madaniyatning qadimiy madaniyatdan yana bir farqi - yangi madaniyatni, ya`ni evropa madaniyatini yuzaga keltirganidir.

Antik madaniyatda san`at, mifologiya, din va boshqa ijtimoiy hodisalar ilk davrda qorishiq holatdagi ko`rinishga ega bo`lib, birinchi marta yaratildi, dunyoning boshqa joylarida bunday madaniyat hali yo`q edi. Antik madaniyat degan termin ana shu birinchi marta yaratilgan osori atiqalarga, yozma va og`zaki adabiyotga nisbatan qo`llanadi. Soddaroq qilib aystsak, antik davr madaniyatning “tug`ilish” davri, ya`ni evropa madaniyatini paydo qilgan davrdir. Dunyoning boshqa hududlarida antik davrga oid madaniy yodgorliklar Aleksandr Makedonskiy yurishlaridan keyin paydo bo`ldi. Jumladan, O`rta Osiyodagi, xususan, O`zbekiston hududidagi “antik san`at” yoki ellinism madaniyati degan termin aynan mil. avval. IV–III asrlardagi yodgorliklarga nisbatan qo`llanmoqda. Masalan, Yunonistondagi haykaltaroshlikning qadimgi O`zbekiston hududida paydo bo`lgani ana shu tarixiy jarayon bilan bog`lanadi. Haykaltaroshlik tasviriy va amaliy san`atni, mifologiyani, fol`klorni, mafkurani ifoda etadi. Bu davrda tafakkurda ham o`zgarish yuz berdi. Fikrlashda moddiy mavjud narsalarga nisbatan aqlida mavjud narsalar va tushunchalar asosiy o`rin egallay boshlaydi.

Antik davr odami ham jamiki insoniyatning hayot yo`lini bosib o`tgan. Dunyoqarash, tafakkur turli tarixiy davrlarda turli xil kechadi. Lekin Yunoniston va Rim madaniyatini birlashtirib

turadigan ko`p jihatlar bor. Har ikkala mamlakatning ko`p sonli aholisi O`rta er dengizi havzasi atrofiga yoyilib ketgan edi. Ana shu tarqoq aholi **O`rta er dengizi madaniyati** deb atalgan madaniyatdan oziqlandilar. Har ikkala mamlakat ham tosh qurollarni, keyinroq temir buyumlarni o`zlashtirib olishda bir xil surat bilan bordilar. Ularning ishlab chiqarish imkoniyatlari va ijtimoiy tuzilishi, aqliy taraqqiyoti ham juda yaqin edi.

Ammo Yunoniston va Rim madaniyati bora - bora keskin ajralib, har biri o`z yo`lidan ketdi, mustaqil, bir - birini takrorlamaydigan oqimni shakllantirdilar. Yunoniston asosan, Eron, Kichik Osiyo, Afrika va Old Osiyo xalqlari madaniyati bilan uzviy aloqaga kirishdi. O`rta Osiyo misolida ham bu jarayonni kuzatish mumkin.

Aleksandr Makedonskiy (Iskandar) Eron sultanatini, buyuk Axmoniylar sulolasini bosib olgandan keyin (mil. aval. 330 - 327 y.) Yunon va Rim badiiy madaniyati O`rta Osyoning azaliy madaniyatiga kuchli ta`sir etdi. O`zbekiston zaminida antik badiiy madaniyatning eng gullagan davri - mil. aval. 3 mil. - 3 asrlardir<sup>1</sup>.

Rim madaniyati esa qadimiy evropa bilan munosabatni mustahkamladi. Vizantiya madaniyatida milodning IV - XV asrlarida antik Rim madaniyati izlarini ko`rish mumkin. IV - VI asrlarda Vizantiya yuksak iqtisodiyoti, ko`rkam, hashamatli saroylari va ibodatxonalar bilan shuhrat qozondi. Bu davrda Vizantiya ustalari yasagan buyumlar ko`p mamlakatlarda shuhrat qozondi. Har bir shaharning o`z teatri, tsirki, ko`p qavatli uylari, rejali doirasimon maydonlari, keng ko`chalari bor edi.

*Arxaik, ya`ni qadimiy madaniyat* tushunchasi neytral ma`noda ishlatiladi. Shuningdek, bir hududdagi qadimiy madaniyatga oid ashyolar boshqa hududda takrorlanishi mumkin yoki shunga o`xhash hodisa yuz berishi mumkin.

Umuman olganda, arxaik madaniyat insoniyatning ilk davrdagi maishiy va ma`naviy hayoti tarzini bizgacha etkazib kelgan aqliy tafakkur mahsulidir.

**Arxaik davrdagi insonning fikrlash tarzi.** Arxaik davrdagi insoniyatning dunyoqarashi, tafakkur tarzi qay omillar asosida rivojlanishini yuqorida ko`rib o`tdik. Albatta, dunyoqarash va tafakkurning shakllanishiga tabiatdagi hodisalar, tabiiy o`zgarishlar ta`sir ko`rsatadi, dunyoqarash, tafakkur bilan tabiat doimo bir - biriga ta`sir o`tkazib boradi. Natijada ibtidoiy inson atrofida yuz berayotgan voqeа - hodisaga o`z munosabatini bildiradi.

Insonda fikrlash tarzi, ongli fikrlash layoqati birdaniga paydo bo`lib qolmagan, balki bir necha bosqichlarni bosib o`tgani. **Tafakkur va dunyoqarash madaniy jarayonni belgilovchi muhim omillardir.** Ibtidoiy insonning dunyoqarashini miflar belgilaydi. Mif - birlamchi, din esa ikkilamchi hodisadir. Ibtidoiy inson biron hayvon yoki parrandani muqaddaslashtiradi. Yoki urug`boshilarini, ota-bobolari ruhini ulug`laydi, tabiatdagi daraxt, o`simlik, toshni muqaddaslashtirishi mumkin. Ammo bu hali din emas, balki topinish, sig`inish kul`tlardir. Axloqiy madaniyatga ehtiyoj paydo bo`lganda, din kelib chiqadi. Hatto eng ibtidoiy din ham axloqdan tashqari bo`lishi mumkin emas. Axloq qachon paydo bo`ladi? Inson halol bilan xaromni, yaxshi bilan yomonni, to`g`ri bilan noto`g`rini anglab, bu tushunchalar o`rtasidagi ziddiyatlarni tushunib etganda ma`naviyatning muhim qismi – axloqiy madaniyat paydo bo`ladi.

Diniy oqimlar dastlabki paytlarda ijtimoiy - siyosiy g`oyalarni tashishi ham mumkin. Bu bosqichni zardushtiylik va moniylik oqimlarida, buddaviylikda ko`rishimiz mumkin. Bu oqimlar dastlab diniy oqim sifatida paydo bo`lmagan, balki ijtimoiy - siyosiy oqim sifatida paydo bo`lgan.

Mif birlamchi, ya`ni dindan oldingi hodisa ekan, dinga etib kelguncha, bir qancha bosqichlarni bosib o`tadi. Ibtidoiy odamning tasavvuriga ko`ra, olam g`ayri tabiiy mavjudot tomonidan boshqariladi. Bu mavjudotlar insonga rahm - shafqat ko`rsatadi, insonda umidvorlik hissiyotini uyg`otadi. Ayni paytda bu mavjudotlar insonni qo`rquvga solishi ham, boshqa yomon tuyg`ularni boshdan kechirishiga sabab bo`lishi ham mumkin.

Ibtidoiy odam olamni o`z timsoliga o`xshatib tasavvur qiladi. U o`zi bilan tabiat va tabiatdagi buyumlar o`rtasiga chegara qo`ya bilmagan. Buyumlarni o`ziga o`xshatib tasavvur qilgan. Shu sababdan ham ko`p buyumlarni ijod qilgan. Ko`p buyumlarning shaklini ham atrof - muhitdan, fazodan olgan. Masalan, kosa, piyola, stakan va boshqa uy - ro`zg`or buyumlarini uch burchak yoki to`rt burchak shaklida emas, balki dumaloq shaklda tasavvur qilgani uchun, xudda shu

<sup>1</sup> Қаранг: Г.А. Пугаченкова, Л.И. Ремпель. История искусств Узбекистана. М.: 1965, 35–36–бетлар.

shaklda ijod qilgan. Chunki fazoviy jismlarning hammasini ibtidoiy odam dumaloq shaklda ko`rgan. Ibtidoiy odam va olam munosabatida ikki yo`l mavjud edi.

***Birinchi yo`l quyidagicha:***

Ibtidoiy inson o`z kuch - qudratini ojiz deb bildi. Tabiatni va undagi buyumlarni o`zi singari tasavvur qilgani uchun, hamma narsaga ta`sir ko`rsatish qudratiga ega emas, deb bildi. Shu bois u o`z manfaati uchun xudolarga iltijo qilib, goh nazrlar atab, va`da berdi. Insonga xudolar marhamat qilib, “yaxshi ob -havo, yaxshi hosil yuborgan“day bo`ldi.

***Ikkinci yo`l quyidagicha:***

Ibtidoiy inson olamni ruhiy kuchlar bilan to`la holatda tasavvur qildi. Uning nazarida ana shu ruhiy kuchlar doimo insonning atrofida aylanib yurardi. Bu tasavvur natijasida odamning dunyoqarashi quyidagicha o`zgardi: tabiat o`zgarishiga inson ta`sir ko`rsata olmaydi, hodisalar birin - ketin yuz beraveradi.

Insonning tabiat to`g`risidagi tasavvurlarining ilk kurtaklari shunday edi. Bu kurtak sehr - jodu (magiya) orqali ifodalananadigan bo`ldi. Ibtidoiy diniy tasavvurlar ana shu tariqa shakllandi.

Sehr - jodu (magiya) ibtidoiy insonning hayotida muhim rol` o`ynadi. Ayni paytda sehr - jodu asta - sekin ko`p dinlarga ta`sir etdi.

Bu din ko`rinishini alohida ruhiy qudratga ega bo`lgan odamlar emas, qabila boshlig`i, keyinroq shohlar amalga oshirgan. Ular ayni paytda afsungar va ruhoni ham edilar. Masalan, «Bibliya»ning «Qadimgi ahd» yoki «Tavrot» qismida “Ibtido” kitobida hikoya qilinishicha, Elam shohi Kado`rlamar Ibrohimning jiyani Lutni asir qilib olib ketganda, bu voqeadan xabar topgan Ibrohim o`z odamlari bilan Kado`rlamarning ortidan quvib, uni mag`lub qilib, Lutni qutqaradi, ko`p o`ljalar bilan manziliga qaytib keladi. Shunda Salem (Quddus) shohi Malkisidq Ibrohimni kutib olgani peshvoz chiqadi. Malkisidq ayni paytda *ruhoni* ham edi (Ibtido 14: 12–17).

Ruhoniylar o`zlarining iste`dodini ko`pincha sehrgarlik (chernaya magiya) va duoxonlik (belaya magiya) orqali namoyon qilgan. Bu borada katta muvaffaqiyatga erishgandan keyingina kuch - qudratini va hukmronligini mustahkamlashga o`tgan.

Albatta, ibtidoiy fikrlash bosqichiga xos bu jarayon dinlarning keyingi taraqqiyotida katta qarshilikka uchradi. Jumladan, iudaizmda sehr - joduga, afsungarlik va folga ishonish qattiq qoralanadi. Masihiylik, islomda ham sehr -joduga aslo o`rin yo`q. (Islomda faqat umidli fol saqlanib qolgan.)

Ibtidoiy inson har doim insonga yaxshilik qilish tarafdoi. U hayvonlarda ham insonga foydali xususiyatlar bor, deb bildi. Sehr - jodu orqali hayvonlardagi bu xususiyatlarni insonlarga o`tkazishga harakat qildi. Ibtidoiy tafakkur tarzi ba`zi xalqlarda necha ming yillar davom etdi yoki hanuzgacha davom etib keladi. Masalan, XIX asrda yangi Gvineyada ilon ovlovchi oldin bir zaharli ilonni kuydirgan, yonib bo`lgan ilonning kuli bilan oyoqlarini artgan. Shundan keyin, hech qanday ilon menga tegmaydi, degan ishonch bilan o`rmonga ilon ovlagani ketgan.

Bu singari ibtidoiy fikrlash davriga oid ishonch - e`tiqodlar diniy tasavvurlarning paydo bo`lishida ilk bosqichdir. Biz ibtidoiy fikrlash to`g`risida faqat qadimdan etib kelgan ashyolarga, udumlarga, ishonch - e`tiqodlarga tayangan holda hukm yuritamiz. Ayniqsa, dafn odatlarida ibtidoiy fikrlash bosqichlari aniqroq ko`rinadi. Har bir buyum, daraxt, o`simlik, jonzotda inson qiyofasi, ruhi aks etadi degan tasavvur davom etib keladi.

Ayniqsa, uchta qabila ibtidoiy jamiyatdan buyumlarning ruhiga ishonchni saqlab keladi. Bularning birinchisi - Shimoliy Amerikada keng hududga yoyilib ketgan algankin qabilalari, ikkinchisi - Fiji orollaridagi erli aholi, uchinchisi - Birmadagi karan qabilalaridir. Algankin qabilalariga mansub hindularning diniy-e`tiqodiy tasavvurlari o`ziga xos: ular jonni tananing soyasi yoki jonli timsoli deb hisoblaydilar, dunyodagi hamma narsa uning nazarida jonlidir. Algankin qabilalaridan yana biri ojibvalarning e`tiqodiga ko`ra, faqat odamlar va hayvonlargina emas, balki jonsiz buyumlarning, masalan, qozonning ham joni bor. Fiji qabilasining e`tiqodi bo`yicha, hayvon yoki o`simlik nobud bo`lganda, ularning ruhi o`sha zohoti botqoqlikka botib ketadi. Bolta yoki pichoq ishlatilaverGANidan yaroqsiz bo`lib qolganda yoki singanda, bu buyumlarning ruhi tezda xudolarga xizmat qilish uchun ketadi. Karanlarning tushunishlaricha, har bir buyumning alohida xususiyati bor. Pichoq va bolta, daraxt va o`simlik ruhlari ham o`ziga xos “vazifa”ni bajaradi. Karanlardan birontasi vafot etgandan keyin ham, xuddi hayotligidagi singari, boltasi va chopqisi bilan uy qurishda, sholi o`rishda, kundalik yumushlarni bajarishda davom etadi deb tasavvur

qiladilar..

Xuddi shu singari, ko`p qabilalar marhumni dafn qilishda hayvonlarni va odamlarni qurbon qiladilar. Ularning tasavvuricha, qurbon qilingan odam yoki hayvonlarning ruhi marhumga xizmat qiladi. Hayvon va odamlarni marhumlar ruhiga atab qurbon qilish diniy tizimlarning barchasiga xos bo`lgan xususiyatdir. Yakka xudolilik yoki ko`p xudolilik sharoitida ham bu odat bordir. Ibtidoiy fikrlash bosqichiga xos bunday tasavvurlar Markaziy Osiyo xalqlari tarixida ko`p uchraydi.

Qadimgi davrda yuqori lavozimdagi marhum dafn etilayotganda, marhum bilan birga uning quli, oti, uy - ro`zg`or buyumlari ham birga dafn qilingan.

Ilk diniy madaniyat dunyo xalqlarining barchasida umumiyl o`xshashlikka ega. Yuqoridagidek, marhum bilan birga turli buyumlarning qo`shib dafn etilishi qadimgi misrliklar va yunonlar e`tiqodida ham bor edi. Zotan, yunonlar qadimda shomonlikka e`tiqod qilganlar. Marhumlarning qabrlaridan hozirgacha qurbonlikka atalgan xazinalar topilmoqda. Buning sababi - ilk davrdagi tafakkurning o`xshashligidir. Insonni va hayvonni qurbon qilish dunyo xalqlarida turli shakllarda amalga oshirilgan. Ba`zilarida tiriklayin ko`milsa, ba`zilarida kuydirilgan. Har ikki holatda ham qurbonlik xudolarga atalgan. Xudolar esa moddiy yoki ruhiy ko`rinishda tasavvur qilingan. Qadimgi yunon mualliflaridan Evripid «Ifigeniya Avlida mehrobida», Geliodarning «Efiofika» asarlarida begunoh, eng yaxshi insonlarni «xudolar»ga qurbon qilish tasvirlangan.

Dafn marosimlarida qurbonlikning eng vahshiyona ko`rinishini XIII asrdan oldingi mo`g`ullarda uchratamiz. Mo`g`ullarning ijtimoiy tuzumi ana shunday vahshiyona usullarning kelib chiqishiga sabab bo`ldi. Oltin O`rdaga va Mo`g`ul hoqoni Xubilayxon saroyiga (Eronga) sayohat qilgan Marko Poloning yozishicha, Munka xon vafot etganda, uni dafn qilish uchun uyidan qabriga olib borayotib: “Sen ham u dunyoga ravona bo`lib, xoqonimizga xizmat qil!” deb yo`lda duch kelgan yigirma ming odamning boshi olingan.

Yana bir dalil: Eronda mo`g`ul hokimiyatiga asos solgan Xalokuxon (hukmronlik yillari 1256–1265) vafot etganda, uni dafn qilish marosimi to`g`risida Eron tarixchisi Vassofning hikoyasi bor. Uning hikoya qilishicha, Xalokuxonning qabriga turli buyum va qimmatbaho narsalar bilan bir qatorda, chiroqli kiyintirilgan go`zal qizlarni ham birga qo`shib ko`mganlar. Odamlarni tiriklayin dafn qilish, nazr sifatida daryoga odamlarni tiriklay uloqtirish holatlari mo`g`ullar hukmronligi davrida ko`p uchraydi<sup>2</sup>. Bu davrda majusiylik dini bilan jamiyat o`rtasida nomuvofiqlik yuzaga keldi. Avvalgi diniy oqimlar jamiyat talablariga javob bera olmay qoldi. Ibtidoiy fikrlash tarzi o`rtalasrlar uchun maqsadga muvofiq emasligi ayon bo`lib qoldi. Shu bois mo`g`ullar Oltin O`rda madaniyatida islonni qabul qildilar va ma`naviy jihatdan ancha oldinga siljish yuz berdi.

Ibtidoiy fikrlash tarzining o`rtalasrlarda ham uchraganini ilk diniy shakllardan animizm va fetishizmga bog`lash o`rinlidir. Har ikkala din shakli o`z davrida axloqiy qarashlarning ma`lum bir ko`rinishlarini ifodalaydigan bo`ldi.

*Animizm* (lot. anima - ruh, jon) - diniy e`tiqodlarga zamin bo`lib, ruhlarning mavjudligiga ishontiradi, tabiat kuchlarida, hayvonlarda, o`simliklarda, jonsiz buyumlarda ruh bor, deb qaraydi. Animistik tasavvurlarning kurtaklari eng qadimgi davrlarda, hatto totemizmdan ham oldin - ibtidoiy jamiyatda paydo bo`ldi. Diniy tasavvur sifatida totemizm bilan baravar shakllandi. Umuman olganda, animizm insoniyat taraqqiyotining eng quyi bosqichida turgan qabilalarning o`ziga xos diniy tasavvurlarini ifoda etadi.

Animizmga e`tiqod qiluvchilarning qarashicha, odamlarning, avvalo, marhumlarning ruhi aynan tanasiz shaklda mavjud bo`lar ekan. Mana shu tasavvur ommaviy ravishda totemistik va animistik ishonch-e`tiqodlar, urf-odatlar o`rtasida bog`lovchi bo`g`in bo`lib xizmat qildi. Animizm, shubhasiz, ancha keng tarqalgan dinlardan biri shomonlikning paydo bo`lishiga ta`sir etdi.

Ibtidoiy diniy tasavvurlarning saqlanib qolishiga davlatchilik an`anasining yo`qligi, yoki bu tasavvurlarning saqlanib qolishiga yana bir sabab dinlarning murakkab tizim ekani bo`lishi ham mumkin.

Rivojlangan shomonlik esa o`yin bilan ijro etiladi. Shomonlik aqidasi bo`yicha xasta odamlarga, hayvonlarga shifo ato qilinadi, baxtsiz hodisalarning oldini olish uchun kurashadi. Ovchilikda muvaffaqiyatga erishish uchun fol ochadi.

*Fetishizm* (fr. fetichisme-sehrgarlik) ibtidoiy diniy shakllarga asoslardan biri bo`lib, alohida

<sup>2</sup> Б.Д.Греков, А.Ю.Якубовский. Олтин ўрда ва унинг қулаши. Тошкент, 1956, 138–бет

buyumlarda magik kuch bor, deb qarashdan paydo bo`lgan. Magik kuch voqealarning borishiga ta`sir ko`rsatib, kutilgan natijalarga erishtirdi. Fetishizm butlar yaratish - yog`ochlardan, loy va boshqa qattiq materiallardan tumor yasash jarayonida paydo bo`ldi. Bunday buyumlarni ko`pincha afsungar shomonlar ishlatganlar va bular orqali sehr - jodu qilganlar. Umuman, shomonlik ruhga topinish ko`rinishlaridan bo`lib, bu diniy oqimning maqsadi shuki, ruhlarning ko`rinmas olami bilan insonni aloqaga kiritadi, insonlar ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishi uchun ruhlardan madad oladi.

Shomonlikning ilk ko`rinishi mil. av. V asrdan boshlab Yunonistonda amal qila boshlagan. Bugungi kunda Markaziy va Shimoliy Osiyoda, Koreya, Yaponiya, Indoneziya, Tibet, Shimoliy va Janubiy Amerika hamda boshqa joylarda amal qiladi.

\* \* \*

Mifologiya xalq og`zaki ijodining kelib chiqishida ham ilk bosqichdir. Xalq og`zaki ijodi insoniyatning madaniy taraqqiyotida muhim voqeadir. Ilk xalq og`zaki ijodi namunalari ma`lum bir xalqning ilk badiiy tafakkuri, yashash tarzi, orzu - umidlari, dunyoqarashini o`zida mujassamlantiradi. Eng qadimgi xalq og`zaki ijodining namunalari sifatida shumerlarning “Gilgamish” dostonini ko`rsatish mumkin. Shumerlar miloddan oldingi to`rtinchı ming yillikda Mesopotamiyada yashaganlar. “Gilgamish” dostoni sopol lavhalarga mixxatlar bilan yozib qoldirilgan. Doston Gilgamishni va u hukmdorlik qilayotgan Uruk shahrini madhiya qilish bilan boshlanadi. Gilgamish singari kuchli odam hali er yuzida yo`q edi, shuning uchun u odamlarga zulm o`tkazaveradi. Odamlar xudolarga iltijo qiladilar. Xudolar er yuziga buyuk ayol «xudo» Aruruni yuboradilar. Aruru loydan Enkidani yaratadi. U insondan ko`ra, hayvon (arslon) qiyofasiga va qudratiga ega edi. Rejaga ko`ra, Enkida Gilgamishni mag`lub qilishi, bu kurashda unga hayvonlar yordam berishlari kerak edi. Ammo Enkida fohisha ayolning makriga uchadi va hayvonlar undan qochib ketadilar. Fohisha ayol Enkidaga insonlardi ovqat eyishni, ichimlik ichishni va kiyinishni o`rgatadi. Enkida shundan keyin Gilgamish bilan do`stlashib birgalikda er yuziga yovuzlik urug`ini tarqatayotgan keder o`rmonining hukmdori Xuvavni o`ldiradilar. Shundan keyin osmon «xudosi» Anudan samoviy ho`kizni yuborishni so`raydi. Samoviy ho`kiz Gilgamishni o`ldirishi kerak edi. Enkida bilan Gilgamish bu samoviy maxluqni ham o`ldiradilar. Xalq ikkala qahramonni madh qiladi. Xuvavni va samoviy ho`kizni o`ldirganlari uchun «xudolar» Enkidani xastalikka yo`liqtiradilar. Enkida o`n ikki kun kasal bo`lib, o`n uchinchi kuni Gilgamishning ko`z oldida olamdan o`tadi. Gilgamish ham o`lim muqarrar ekanini, abadiy hayot yo`qligini tushunib etadi. Oxiri, Shuruppakning hokimi, solih odam Utnapishtimning maslahati bilan abadiy hayot ato etadigan gul-giyohni dengiz tubidan olib chiqadi. Gilgamish cho`milayotganda, ilon o`sha giyoh o`tni o`g`irlab ketadi. Telba holatga tushib qolgan Gilgamish Urukka qaytib keladi va u erdan boshpana izlaydi, shu erda vafot etadi.

Shumerlar qishloq xo`jaligi, matematika, tibbiyat, pedagogika fanlariga oid yodgorliklar yaratganlar. Bu fanlarga oid parchalar orasida xalq maqollari, hikmatli so`zлari ham bor. Bular shumer xalqining sharqona donoligidan, ijodkorligidan dalolat beradi: “Agar mamlakat yaxshi qurollanmagan bo`lsa, dushman hech qachon darvoza oldidan ketmaydi”, “Yovvoyi ho`kizdan qochib, yovvoyi sigirga duch keldi”. Olti-etti ming yillar ilgari yaratilgan bu hikmatlarga hamohang o`gitlarni bugun ham o`zbek xalqida uchratish mumkin.

**Yozuv madaniyati.** Inson paydo bo`lgandan boshlab hayotining ko`p qismini yozuvsiz o`tkazdi. Xalqlarni yozuvga ega bo`lgan va yozuvsiz deb ikki toifaga bo`lish ko`p tarqalgan atamadir. Bunday bo`linish yozuvning ahamiyati to`g`risida guvohlik beradi.

Yozuv va nutq axborot turlaridir. Bunga imo - ishoralarni, turli signallarni (hushtak, qarsak, do`mbira chalib jangga chorlash va h.) ham qo`shish mumkin. Axborotning bu turlarini sharhlashga hojat yo`q. Ammo axborotning ko`p turlari, jumladan nutq ham, bir lahzalikdir, ular zamon va makonda cheklangan, uzoq muddatli emas.

Bunday axborot turlari davrga nisbatan faol yoki nofaol bo`lishi mumkin. Masalan bugungi kunda yozuv takomillashgan paytda turli ishora va signallar yozuv singari muhim axborot vazifasini bajara olmaydi va bunga ehtiyoj ham yo`q. Inson yozuvsiz yashagan paytda asosiy axborotni yuqoridagi vositalar bajardi. Masalan, ibridoiy jamoa tuzumi paytida qabila boshlig`i qabilaga etarli oziq-ovqat zahirasi, asbob-anjomlar, chorva miqdori, jang qilishga qodir erkaklarning miqdorini va h.larni bilishi kerak edi. Ammo bularning hammasini xotirada saqlab turishga inson xotirasni ojizlik

qiladi. Buning uchun axborotning qandaydir vositasini o`ylab chiqishi lozim edi. U vositalarni topdi: yo turli shakldagi cho`pdan, yoki ranglardan, yoki turli shakllardan foydalanib, miqdor tushunchasini anglatadigan bo`ldi. Bu usul yozuv tarixida ilk bosqich bo`lib, *buyumli yozuv* deb nom oldi.

Insoniyat dastlab buyumlardan eslatuvchi vositalar sifatida foydalandi. Bu vositalar fikrni uzatmas, balki eslatardi, xolos. Biror topshiriq yoki iltimosni bajarishni eslab qolish uchun ro`molning uchini tugish odati shundan qolgan. Bora–bora buyumlarga aniq ma`no beriladigan bo`ldi. Buyumlar endi oldindan kelishib olingan narsalarni bildiradigan o`ziga xos shartli belgilar hisoblandi. Cho`pxatga yoki daraxt tanasiga kertib belgilar o`yish, tugunchalar, tizimchalar, urush e`lon qilish vaqtida kamon o`qidan foydalanish shunday shartli belgi vazifasini o`tadi.

Raqamlarni bildirish uchun inson taxtachalarni kertib belgilar o`yishni o`ylab chiqardi. Xatcho`plardan shartnomalar tuzishda foydalanildi. Shartnomani tuzish paytida xatcho`p qoq o`rtasidan ikkiga bo`linib, yarmi shartlashuvchilarning biriga, ikkinchi yarmi ikkinchi tomonga berilgan. Xatcho`p bo`laklari birlashtirilganda, kertiklar bir - biriga mos kelardi.

To`g`ri hisob - kitob olib borish uchun tizimchalardan foydalandilar. Perulik cho`ponlar, Lotin Amerikasi va Afrikadagi ba`zi xalqlar hozir ham tizimchalardan foydalanadilar. Bir tizimcha - ho`kizlarni, boshqa tizimcha - sigirlarni sanash uchun ishlataladi. Sigirlarni sanashda ishlataladigan tizimcha ham ikki tutamga ajratiladi: bir tutami bilan bo`g`oz sigirlar sanaladi, yana bir tutami bilan buzoqlar sanaladi. Tizimchadagi tugunlar soni shu cho`ponlarning podasida necha bosh mol borligini bildiradi.

Qadimgi xitoylarda hisob - kitob ishlarida tizimchalardan foydalanish keng tarqalgan. Ko`pchilik xalqlarda vaqt hisobi ham tugunchalar orqali olib borilgan.

“Axborot hassalari” ham o`ziga xos buyum maktub vazifasini o`tagan edi. Qabila boshlig`i o`z vakolatini hassani olib borgan elchi orqali tasdiqlagan. Hassaga kertib belgilar va xotira nishonlari tushirilgan. Elchi belgiga qarab o`ziga qancha topshiriq berilganini xotirasiga keltirgan.

Buyumli yozuvning ajoyib namunasiga yana bir misol hozirgi Peruning qadimgi aholisi inkarda uchraydi. Inklar tugunlardan iborat maktublardan foydalanganlar. Mazkur buyumli yozuv bilan bog`liq tarixiy rivoyat ham bor. Rivoyatga ko`ra, XVI asrda inklarining vataniga ispanlar hujum qiladi. Inklarning boyliklari to`g`risidagi afsonalar ispanlarni bu mamlakatga olib kelgan edi. Ispan istilochilar yo`lboshchisi Pissaro inklarining oltinlarini qo`lga kiritish uchun turli yo`llarni qidiradi. U ink shahzodalari aka-uka Ata-valpa bilan Volkar o`rtasidagi taxt uchun kurashdan ustalik bilan foydalanadi. Pissaro Ata–valpani o`z lageriga aldab olib kelib, qamab qo`ydi. Uni qutqarmoqchi bo`lganlardan: “Ata–valpaning evaziga u qamab qo`yilgan xonani (hajmi 70 kub metr - N.R.) qimmatbaho toshlar va oltin bilan to`ldirsalaringiz, ozod qilaman”, deb talab qo`yadi. Ink choparlari mamlakatning turli burchaklariga borib, oltinni bildiruvchi sariq tizimchalardan iborat “maktub” olib keldilar. Tizimchalarda ko`p tugunchalar bo`lib, qaerga qachon, qancha oltin keltirish kerak, degan ma`noni bildirardi. Ammo Ata–valpa o`ldiriladi. U o`limi oldidan “maktub”ini qabiladoshlariga yuborishga ulguradi. “Maktub” buyruq bo`lib, oltin yombiga bog`langan o`n uchta tugundan iborat edi. Inklar Ata–valpadan buyruqni olgan kuniyoq ibodatxonalardagi jamiki oltinu javohirlarni olib ketib, noma`lum joyga yashirishga ulgurdilar.

Yozuvning bu turi bugungi kunda ham keng istifoda etiladi. Kiyim sotuvchi do`kondor o`z tovarini targ`ib qilish uchun og`zaki targ`ibotdan ham, ayni paytda tovari ko`rgazmaga qo`yish orqali ham foydalanadi. Yoki qora rang oilada kimdir vafot etgani to`g`risida xabar beradi, uzuk “Men oilaliman” degan axborotni tashiydi. Harbiylarning pogonidagi yulduzlar ularning unvonini bildirib turadi.

Buyumli yozuvning bugungi ko`rinishlari qo`shimcha axborot bajaradi. Ammo yozuvli davrlarda buyumli yozuv harfli yozuvdan ko`ra muhimroq, ta`sirliroq vazifani bajardi. Mana bu tarixiy voqeа buning yorqin namunasidir.

Gerodotning yozishicha, Eron shohi Doro bilan iskiflar shohi Idanfris o`rtasida jang davom etardi. Idanfris Doro askarlariga kutilmagan joyda qo`qqisdan zarba berib, gangitib qo`yardi. Gerodotning xabar berishicha, Doro qo`shini 700 ming kishidan iborat edi. Shunga qaramay, Doro, iskiflarni mag`lub qilish u yoqda tursin, katta talafot ko`rardi. Nihoyat, Doroning sabr–toqati tugadi, U iskiflar shohi Idanfrisga maktub yo`lladi. Maktubda shunday so`zlar bitilgan edi: “Tentak! Ikki yo`ldan birini tanlash uchun senga imkon boru ammo sen qochib, yurganing - yurgan. Agar menga

qarshi turishga o`zingni qodir hisoblasang, daydib yurishni bas qil, men bilan jang qil. Agar zaifligingni tan olsang, qochib yurib ovora bo`lma. Undan ko`ra er – suvingni sultoningga siylov qilib bering - da, u bilan kelishuv bitimini tuzgin“.

Idanfris javobni kechiktirmadi. “Mening ahvolim bunday, shoh! Men avvallari ham biror kimsadan qo`rqib qochmaganman, hozir ham sendan qo`rqqanimdan qochayotganim yo`q. ... Sen uchun siylov qilib er–suv o`rniga o`zingga loyiq boshqa narsalarni yuboraman. O`zingni mening sultonim, hokimim deb aytganing uchun hali adabingni eysan!”

Idanfars mag`rurona javob berdi. Biroq aytganlari quruq gap emasdi. Doro iskif dashtlarining ichkarisiga kirib borib mushkul ahvolga tushib qoldi. Iskif shohlari Doroga g`alati sovg`a - qush, sichqon, qurbaqa va beshta o`tkir o`q yubordi. Eroniyalar bunday sovg`anining ma`nosini chopardan har qancha so`rasalar ham, u bir xil javobni takrorlayverdi: “Menga “sovg`a”ni topshirish buyurilgan, ma`nosini tushunish o`zlarigizga havola”.

Eroniyalar bu “sovg`a”ning ma`nosini tushunishga ko`p urinib ko`rdilar. Doroning o`zi mug`ombirlik qildimi yoki sovg`anining ma`nosini haqiqatan ham shunday tushundimi, o`z foydasiga, bir yoqlama “o`qib tushuntirib berdi”. Uning “o`qish tamoyili” quyidagicha bo`ldi: “Sichqon erda yashaydi va inson singari erda bitadigan noz-ne`matlardan bahramand bo`ladi. Qurbaqa suvda yashaydi, binobarin, iskiflar o`zlarini suvi va eri bilan birga mening ixtiyorimga topshiradilar. O`qlar esa iskiflarning mening lashkarim oldida quollarini tashlaganini bildiradi”.

Iskiflar ”sovg`a”sini bunday sharhlash hech kimda ishonch hosil qilmadi, sovg`anining ma`nosini echishni Doroning maslahatchisi Gobriy o`z zimmasiga oldi. U sovg`ani juda to`g`ri “sharhladi”. “Sovg`a” iskiflarning sharti bo`lib chiqdi: “Agar siz, eroniylar, qush kabi uchib g`oyib bo`lmasangiz, yo sichqon kabi er tagiga kirib ketmasangiz, yo qurbaqa singari botqoqlikka sho`ng`imasangiz, u holda mana shu o`qlardan shikast eb, shu erlarda qolib ketasiz”.

Gobriy haq bo`lib chiqdi. Eroniyarning kuchi kamayaverdi. Ko`p o`tmay Doro sharmandalarcha orqaga chekindi. Iskiflarning tadbir bilan qilgan hujumlariga bardosh bera olmadi.

Yozuvning keyingi bosqichi *rasmli* yozuvdir. Bu turdag'i yozuv *piktografik* yozuv deb ham yuritiladi. Buyumli yozuv bilan rasmlı yozuv o`rtasidagi chegara noaniq. Insoniyat qaysi davrdan boshlab buyumli yozuvdan rasmlı yozuvga o`tgani aniq emas. Aslida ikkalasining vazifasi ibtidoi davrdagi odam uchun bir xil vazifa bajargan. Ammo yozuv taraqqiyoti uchun rasmlı yozuv katta qadam bo`ldi. Rasmlı yozuv paydo bo`lishi bilan yozuv uchun turli materiallar - tosh, taxta, loy taxtachalar yoki qog`oz parchalari paydo bo`ldi.

Garchi rasmlı yozuv bilan surat o`rtasida chegara yo`q bo`lsa ham, ularni aralashtirmaslik kerak. Suratda aniq, yuz bergen yoki biron kechinmani ifodalaydigan hodisa muhrlangan, ya`ni surat badiiy–estetik tasavvurlar ob`ekti bo`lib xizmat qiladi. Rasmlı yozuv esa axborot tashiydi. Masalan, *ko`z yoshi* - bevani, *bosh suyagi* – o`limni bildiradi.

Ideografik yozuv rasmlı yozuvga uzviy bog`lanib ketgan. Ideografik yozuvning ilk namunasi Markaziy Amerikada istiqomat qilgan atstek xalqidan bolalar tarbiyasiga oid bir “hikoya”si bizgacha etib kelgan. Ispanlar Amerikani bosib olgunlariga qadar atsteklar qudratli davlat qurban edilar. (**rasm**) Rasmida o`n bir doira bo`lib, bolalarning o`n bir yoshini bildiradi, ya`ni ota–ona bolalarini o`n bir yoshgacha boqishi shart. Ikkita katta doira esa “non” degan tushunchani bildiradi. Suratda ota bolasini olov ustida tutib turibdi. Bu - bolani nojo`ya qiliqlari uchun jazolashni bildiradi. Yana pastroqda o`n beshta doiracha bor. Bu doirachalar bolalarning o`n besh yoshgacha ota–ona nazorati ostida qattiq turganini bildiradi. Bolaning o`tirgan odam tomonga ketgan oyoq izlari - o`n besh yoshdan keyin ruhoniy huzuriga ta`lim olish uchun borganini anglatadi.

Ideografik yozuvning rasmlı yozuvdan farqi shuki, ideografik yozuvda har bir belgi bir tushunchani anglatadi.

Ideografik yozuvning eng qadimiy namunasi Misrdan topilgan bo`lib, miloddan oldingi uchinchi ming yillikka mansubdir. Napoleon Misrga yurish qilgan paytda bu yozuv bitilgan mashhur “Rozetta toshi” (tosh topilgan joyning nomi bilan ataldi) topildi. Bu yozuvdagi bir belgi bir buyum nomini yoki harakatni ifodalaganani aniqlandi. Masalan, qanotini yozib turgan qush “uchmoq” harakatini, o`rtasida qora nuqta bor gardish “quyosh” so`zini, qo`lida quroq ushlagan odam “jangchi”, oyoq surati “yurmoq” harakatini ifodalagan. Ideografik yozuvning ko`plab namunalari papiruslarga, ehromlar devorlariga, haykallarga, tosh tobatlarga bitilgan. evropadagi

ko`p sharqshunoslarning Misr yozuv madaniyatini o`rganishiga Rozetta toshi sabab bo`ldi.

Shumerlar yaratgan yozuv bo`g`inli yozuv turi bo`lib, ideografik yozuv bilan harfli–tovushli yozuv o`rtasida turadigan alohida yozuv turi edi. Shumerlar dostonlarni, tarixiy voqealarni, fanlarning turli sohalariga oid kashfiyotlarni yozib olish uchun hozirgi tovushlar singari belgilarni kiritdilar. Yozuv madaniyati taraqqiyotida shumer yozuvi anchagina oldinga siljish bo`ldi.

Jamiyat taraqqiy eta borgan sari, axborotni uzoq masofaga etkazish ehtiyoji tug`ildi. Bugun er yuzida qo`llanayotgan harfli–tovushli yozuv ana shu bosqichlarni bosib o`tdi.

Ilk harfli–tovushli yozuvni finikiylar ijod qilganlar. Finikiy yozuvining paydo bo`lishi yozuv tarixida keskin burlish yasadi. Finikiy yozuvi ta`sirida oromiy yozuvi shaklland. Oromiy yozuvi esa sharqdagi bir qator yozuvlarga manba bo`ldi. Oromiy yozuvining bizgacha etib kelgan qadimgi namunasi miloddan oldingi IX asrga oiddir. Oromiy yozuvi va tili Sharqdaga ko`p mamlakatlarda, xususan, Misrda, Kichik Osiyo va Hindistonda xalqaro yozuv va til darajasiga ko`tarildi. Qadimgi yozuvlardan biri bo`lgan ibroni yozuvi ham oromiy yozuvidan kelib chiqdi.

Xullas, yozuvning har bir turi insoniyatning ehtiyoji tufayli paydo bo`ldi. Yozuv insoniyatning eng buyuk kashfiyotlaridan biridir. Yozuv madaniyati ilk bor Sharqda paydo bo`lib, shaklland.

**Kitob va kitobatchilik.** Kitob madaniy taraqqiyotning ilk bosqichida yuzaga kelgan badiiy va ilmiy tafakkur mahsulidir. Kitobning ilk ko`rinishini bugungi kitob shaklida tasavvur qilib bo`lmaydi.

Kitob yaratish uzoq tarixga ega. Yozish uchun eng qadimgi materialdan biri tosh bo`lib, yozuv asbobi sifatida tosh pichoq ishlatalgan. Bibliyada - “Chiqish” kitobida O`nta Amr to`g`risidagi hikoya bor. Bu hikoyada birinchi marta toshga o`yib yozilgan ilk yozuv to`g`risidagi ma`lumot uchraydi. Ammo bu kitob qachon yozilgani to`g`risida ma`lumotga ega emasmiz.

**Loy taxtachalar.** Bizga etib kelgan kitob namunalari shumerlar yaratgan “loy kitoblar”dir. Bu kitoblar miloddan oldingi to`rtinchi ming yillik o`rtalariga oiddir. Shumerlarning mixxati Yaqin Sharq va Kichik Osiyo mamlakatlarida keng tarqalgan.

XIX asr oxirida amerikalik olimlar qadimgi shumerlarning Nippur shahridan mixxatda bitilgan bir necha mingta lavha topganlar. Nippur taxtachalari 62 xonaga joylashtirilgan ekan. Bu kutubxona kutilmagan kashfiyot bo`ldi. Ammo kutubxona olimlarni tashvishga solib qo`ydi. Chunki lavhalar - taxtachalarning uvalanib ketish xavfi bor edi. Taxtachalarni zax erdan chiqarib olib, quyoshda quritdilar, keyin olovda pishirdilar.

Olimlar shumer kutubxonalarini fan tarmoqlariga ajratib tasnif qildilar. Birinchi turi - qishloq xo`jaligiga oid edi. Ikkinci turi - maktabga tegishli matnlar (maktab o`quvchilari uchun daftar vazifasini bajargan taxtachalar). Bir qism matnlar shoh saroyi xo`jaligiga oid hujjatlar bo`lib, kemani tuzatishga yuborilgan qullar miqdori to`g`risida. Bir qism kitoblar - matematika, tarix fanlariga aloqador edi. Shumer matematiklari teoremalarni isbotlashni bilganlar. Masalan, taxtachalarning birida uchburchak isbotlangan bo`lsa, ikkinchisida - fanda Evklid nazariyasi nomi bilan ma`lum bo`lgan nazariya isbotlangan. Shuningdek, dori tayyorlashga oid retsept yozilgan taxtachalar ham topilgan. Dori tayyorlashda ishlatalidigan o`simliklar, hayvonlar turlari va a`zolari, mineral moddalarni yozib qoldirganlar.

Qadimgi shumerlarning mif va afsonalarini, maqol va matallarini o`z ichiga olgan ko`plab taxtachalar ham bor. Masalan, “Gilgamish” dostoni shular jumlasidandir. Bibliyadagi “To`fon” afsonasi ham aslida “Gilgamish” dostonida bor ekanini olimlar isbotlaganlar.

Nemis musiqashunosi K. Zaks shumer taxtachalari bilan qiziqib qoldi. Unda shumerlarning “Insoniyatning paydo bo`lishi haqida”gi rivoyat bilan birga, “musiqa yozuvi” deb hisoblanadigan mixxat belgilari mavjud ekan. Olimning fikriga ko`ra, bu taxtachada arfa uchun kuy yozilgan bo`lib, rivoyat musiqa jo`rligida ijro o`qilgan.

Ossuriya podshohi Ashshurbannipalning kutuxonasi qadimiy zamonlardan qolgan noyob yodgorlikdir. U o`zi to`g`risida shunday yozadi: “Men, Ashshurbannipal, Nobu donoligiga erishdim, jamiki xattotlik san`atini o`rgandim, barcha ustalarning barcha bilimlarini o`zlashtirdim. Kamon otishni, ot va jang aravasida yurishni o`rgandim, jilov tutishni bildim... Donishmand Adapning hunarini o`rganib, xat yozish san`atining yashirin sirlarini ochdim, men ilohiy va zaminiy koshonalar haqida o`qib, ular xususida fikr yuritdim. Men xattotlarning majlisida qatnashdim... Men tezda tushunish qiyin bo`lgan ko`paytirish va taqsimlashdek murakkab masalalarni echdim”.

Bu parcha, haqiqatan ham, Ashshurbannipalning o`z qo`li bilan ikkita sopol taxtachaga yozilgan. Bu shoh bundan ikki yarim ming yil muqaddam Ossuriya poytaxti Naynavoda benihoya ko`p kitob to`pladi. Ashshurbannipal xattotlarini turli mamlakatlarga yubordi. Xattotlar qadimiylarini qidirib, nusxa ko`chirdilar. Kitoblarning ko`pida nusxaning asliyatga to`g`rilingini isbotlovchi dastxat bor edi: “Qadimiy kitob aslidan ko`chirilgani to`g`ri va solishtirilgan”. Ba`zi asliyat namunalari juda qadimiy bo`lganligi sababli ayrim belgilari o`chib ketgan taqdirda hatto “o`chib ketgan”, ”bilmayman”, deb belgi qo`yan.

Naynavoning taqdiri ma`lum: Bobil va Midyaning birlashgan qo`shinlari shaharni er bilan yakson qilib, shaharga o`t qo`ydi. Shaharda bir necha kun davomida alanga ko`tarilib turdi, o`lganlarning hisobi cheksiz edi. Shahar o`rnida sahro paydo bo`ldi.

O`tgan asr o`rtalarida ingliz arxeologi O.Leyard Naynavo xarobalari o`rnida arxeologik qazuv ishlari olib bordi. Hashamatli saroylar, ehromlar Bobil xalqining yuksak madaniyatidan darak berardi. O.Leyard va uning sadoqatli shogirdi O.Rassam saroy erto`lasidan yong`indan omon qolgan kitoblarni topdilar. Taxtachalar erto`лага ag`nab yong`indan omon qolgan ekan. Taxtacha-kitoblar qutilarga joylanib, Londonga jo`natildi.

Bu kitoblarni o`rganib chiqish uchun ko`p mehnat talab qilindi. Bu ishga turli mamlakat olimlar qo`shildilar.

Ma`lum bo`lishicha, bu erda bir necha tillarda har xil adabiyotlar saqlanib qolgan edi (jumladan, shumer tilida ham): astronomik kuzatuylar natijasi va tabobat haqidagi risola, Ossuriya podshohlarining solnomalari, diniy mazmundagi kitoblar, miflar va h.lar. Xalq og`zaki ijodi namunalarini o`z ichiga olgan “Qalbni larzaga soladigan mungli qo`shiq” ham diqqatga sazovor edi. Bu kitobda yolg`izlik tufayli og`ir musibatni boshidan kechirgan odamning qayg`uli kechinmalari, hissiyotlari kuylangan.

Bobilliklar yozuv uchun yupqa to`rburchak loy taxtachalardan foydalanganlar. So`zlarni uch qirrali usulda yumshoq loy yuzasiga o`yib yozganlar. Keyin taxtachalarni quyoshda quritganlar. Arxeologlar bunday loy taxtachalar “kutubxona”larini topganlar.

Hozirgi Turkiya va Suriyaning shimolida qadimda Xet xalqi yashagan. O`tgan asrning boshlarida (1907 yili) nemis olimi G. Vinkler Bo`g`ozko`ldan olib borilgan qazilma vaqtida 10 mingdan ortiq sopol taxtachalarni topdi. Taxtachalar bobil tilida yozilgan edi. Bu taxtachalar Xet davlati hududidan topildi. Ayniqsa, fir`avn Ramses 11 ning Xet shohiga yozgan maktubi jiddiy voqeа bo`ldi. Taxtachada Misr va Xet davlatlari o`rtasidagi shartnomha haqida so`z yuritilgan edi.

Xet kitoblari diniy aqidalar, matematika, huquqshunoslik, tarix va boshqa fan sohalariga oid edi.

Ko`pincha singan idish parchalariga, sopollarga esdalik uchun belgilari qo`yanlar, hisob-kitoblarni yozib borganlar. Hatto xarid qilinadigan narsalar ro`yxatini tuzganlar.

**Mum surtilgan taxtachalar.** Yozuv uchun taxtachalar yog`ochdan va fil suyagidan taylorlanib, mum surtilardi. Bu taxtachalardan ossuriylar, yunonlar va rimliklar foydalanganlar. Ba`zan xalqalar bilan ikkita taxtacha birlashtirilgan. Uchi o`tkirlangan tayoqchadan yozuv quroli sifatida foydalanilgan.

**Papirus.** Misrliklar piramidalar qurilishi davrlariga qadar qamishdan papirus tayyorlashni o`rganib olgan edilar. Qamishlar Nil daryosi bo`ylaridagi botqoqliklarda o`sib yotardi. Yo`g`on nam qamish poyalarni qator qilib terib, yupqa varaq bo`lguncha yog`och to`qmoq bilan uraverghanlar. Varaqlarni quritganlardan keyin yozish mumkin bo`lgan. Papirus qimmatbaho hisoblangan, undagi yozuvni yuvib yoki artib tashlab, yana o`rniga yozish mumkin bo`lgan. Papirus o`rama kitoblar yaratishga turtki bo`ldi. Misrliklar bizgacha qoldirgan mana shunday o`rama kitoblar qissalar, hisob-kitob yozuvlari, murakkab matematik masalalar, marhumlarga atalgan marsiyalar, lirik she`rlar, astronomik kuzatuvlari, ertaklar, tabobatga oid asarlardan iborat.

Misrda eng qadimiy kutubxona miloddan oldingi 1300 yilda poytaxt shahar Fivning yaqinida bunyod etilgan. Kutubxona Ramses 11 ga qarashli bo`lgan. Kutubxona peshtoqiga: “Qalb darmonxonasi” deb yozib qo`yilgan. Ehromlarda saqlanadigan bu kitoblarga kohinlar boshchilik qilgan. Aksariyat kutubxonalar ta`lim maskani bo`lgan.

Papiruslar fan sohalarini bo`yicha o`ralgan. Bir o`ramda jarrohlikka oid 48 hodisa qayd etilgan.

Misrliklar qamish cho`p bilan yozganlar. Siyohni o`simlik moyida yoki daraxt shirasida

eritilgan qurumdan tayyorlaganlar.

Papirus - balandligi to`rt metrdan ortiq bo`lgan qamishdir. Papiruszorlar Nil daryosi qirg`oqlarini qoplاب olgan, Isroildagi Iordan daryosi qirg`oqlarida ham uchrab turgan.

**Teri.** Qo`y, echki, buzoq va kiyiklarning terisini quritib, qirtishlab, tozalaganlar. Keyin tarang qilib tortib, yozuv uchun yuzasi tekis bo`lsin, deb yog`och to`qmoq bilan urganlar. Pergament deb atalgan material shunday tayyorlangan.

Qamishning bir tomonini o`tkirlab, tekis yozadigan qurolni yasaganlar.

**Qog`oz.** Kitob san`atida qog`oz keng tarqaldi. Xitoyda ilk bor qog`ozdan foydalanilgan. Yunonistonda dastlabki kitoblar ko`chirilganda, bizning hozirgi odatdagи kitoblarimiz hali kashf qilinmagan edi. Odamlar o`rama qog`ozlarga yozganlar. O`rama qog`ozlarni papirus, pergament varaqlaridan yoki yupqa misdan qilganlar. Varaqlar elimlab yoki tikilib birlashtirilgan. Natijada eni o`ttiz santimetr, uzunligi o`n metrgacha bo`lgan lenta hosil bo`lgan. Lentaning ikkala oxirgi tomoni cho`pga o`rab mahkamlangan. O`quvchi bir qo`li bilan cho`pga o`ralgan o`rama qog`ozni oshib, o`qib bo`lgan qismlarini ikkinchi qo`li bilan narigi tomondagi cho`pga o`rayvergan. O`rama qog`ozni o`rab bo`lganlaridan keyin, uni latta matoga o`rab, xum idishlarga solib saqlaganlar. O`rama qog`ozlarni bir joydan ikkinchi joyga olib yurish noqulay edi: uzun o`rama qog`ozdan biror kichkina parchani topish uchun ko`p vaqt talab qilinardi.

Milodiy II asrda Yunonistonda Yangi Ahd bir kitobga jamlangani ma`lum. O`rama qog`ozdan birinchi bo`lib shu paytda balki yunonlar voz kechgan bo`lishlarii mumkin. O`rama qog`ozlar o`rniga bitta daftarga bir necha papirus yoki pergament varaqlarini birlashtirish ularning xayoliga kelib qoldi. Varaqlarni buklab, taxlangan holda tikdilar. Keyin esa daftar orqasiga shunga o`xhash daftarlarni qo`shib boraverdilar. Kitobning bunday ilk shakli “kodeks” deb yuritiladi.

**7 – MAVZU**  
**QADIMGI DAVR MADANIYATI**  
**MISR MADANIYATI**

Ilk tsivilizatsiya Osiyo va Afrikaning quruq tropik hududlaridagi daryo bo`ylarida paydo bo`lgan. Bulardan eng qadimiysi sifatida *qadimgi Misr tsivilizatsiyasi* e`tirof etilgan.

Dastlabki Misr davlati qirqta shahar davlatdan iborat bo`lgan edi. Taxminan mil.ol. III ming yillikda yagona davlat tashkil topdi. Mil.ol. XVI-XV asrlarda qadimgi Misr g`aroyib ravishda gulab-yashnadi. Xozirgi Turkiyadan Efiopiyagacha bo`lgan katta hududni o`z ichiga oldi. Ammo qo`shni davlatlar bilan doimiy ravishda yuz berib turgan doimiy urushlar Misr davlatini tanazzulga olib keldi. Milodgacha V1 asrda Misr Eronga, IV asrda esa Aleksandr Makedonskiyga o`lja bo`lib qoldi. Mil. ol. I asrda esa Misr Rimning bir viloyatiga aylanib qoldi. Rim imperiyasi qulagandan keyin mil. VI asr oxirlarida Misr Vizantiya davlati tarkibiga kirdi. VII asrdan so`ng Misrda arablar hukmron bo`ldi va masihiylik o`rniga islom yoyildi. Bu paytda endi islomiy madaniyat kuchaya bordi. IX asrda Arab xalifaligi qulagach, mamlakat yana mustaqillikni qo`lga kiritdi. XII-XIII asrlarda Misr salib yurishlarini boshdan kechirdi. XVI asrda turk armiyasining hujumlari Misr davlatini qulatdi. XIX asr oxiridan esa Usmonli imperiyasi tarkibiga kirdi. 1922 yili Misr yana mustaqillikni qo`lga kiritdi.

Misr hududida insoniyatning ilk hayoti izlari mil.ol. o`ninchı ming yilliklarga oiddir. Mil. ol. oltinchi - beshinchi ming yilliklarda inson o`troq yashagani kuzatiladi. Tadqiqotchilarining radiouglerod usuli bilan aniqlashlaricha, Fayum vodiysida don saqlaydigan chuqurliklar bo`lib, miloddan oldingi 4600-4300 yillarga oid ekan. Odamlar bu vodiyya cho`chqa, qoramol, qo`y va echki boqqanlar, bug`doy va arpa ekkanlar. Taxminan mil. ol. 3100 yillarda ikkita yirik shohlik – Quyi Misr (Nil daryosi del`tasida) va Yuqori Misr (Nil del`tasidan Elfantingacha bo`lgan joylar) paydo bo`ldi. Inson bu erda ilk bor yozuvni yaratdi, inshootlarni, shaharlarni barpo qildi, dehqonchilikni rivojlantirdi, davlat barqaror bo`la boshladи.

Misrliklar mukammal kalendarni ishlab chikdilar. Ularning kalendari bo`yicha, yil 365 kundan iborat edi. Misrda kalendarning joriy qilingani astronomiyaning rivojlanganidan dalolat beradi. Misrliklarning aytishlaricha, mamlakatning shakliy tuzilishi ma`lum fazoviy qonuniyatlarga asoslangan ekan, qachonlardir xudolar fazoni yaratganlarida, birinchi bo`lib Misrni, keyin olamdagи boshqa mamlakatlarni barpo qilgan ekan.

Odamlarning hayoti ko`p jihatdan Nilga bog`liq edi. Shuning uchun jamiyat hayoti izchil yo`lga qo`yildi, suv omborlari va kanallari rejalashtirilgan holda qurildi, yaxshi saqlandi. er taqsimlanishi, suvgaga egalik huquqi qat`iy boshqaruv asosida olib borildi. Fir`avnning ayonlari yuqori hosil olish uchun zurur ishlarni bajarardilar.

Misrliklar qadimda o`zlarining mamlakatini «qizil va qora» deb aytganlar. Nil daryosi suvi bilan sug`orilgan viloyatlardan hosil mo`l olinardi, shuning uchun **Qora mamlakat** deb nom olgan edi. Bu davrlarda yomg`ir kam yog`ardi. Odamlar faqat Nilga umid bog`lardilar. Ayniqsa, Nil del`tasining botqoq joylarida papirus va nilufar gullar ko`p o`sgan. Mana shu papirus va gullar Misr arxitekturasining shakliy tomoniga katta ta`sir etdi.

**Qizil mamlakat** degan nom hosilsiz jazirama issiq sahroga nisbatan ishlatilardi. Sahro mamlakatning sharqidan g`arbiga tomon hosildor o`lkalarda oppok tasmaga o`xshab ko`rinardi.

Qadimgi Misr madaniyati besh ming yil oldin yaratila boshlagan edi. Faqat keyingi yillardagina Misr madaniyatining asosiy nuqtalari ma`lum bo`la boshladи. Masalan, Misrning murakkab, mavhum dini insoniyatga XX asrning II yarmi choragida ma`lum bo`ldi. Ma`lum bo`lishicha, qadimgi Misrda 4000 xudo bo`lgan ekan. Bu xudolardan yarmi bugungi Misr bo`ylab keng tarqalgan va hamma sajda qilavergan. Qolganlari ma`lum hududdagi odamlar sajda qiladigan xudolar edi. Hamma xudolar bosh xudoning mahsuli yoki uning bir qismi edi. Bosh xudoni ba`zi manbalarda quyosh xodosi Ra deb, ba`zilarida Net`er deb aytadilar.

Garchi Misr madaniyatida xudolar va ularning tasviri birinchi o`rinda turgan bo`lsa ham, dunyoviy san`atga alohida e`tibor berilgan. Me`morlar, haykaltaroshlar, rassomlar yuqori lavozimdagи odamlar hisoblangan. San`at – abadiy hayotni bir avloddan ikkinchisiga o`tkazuvchi vosita deb qaralgan. Fir`avnarning, xudolarning haykallariga san`atda ko`proq e`tibor berilgan, mil. ol. XIX asrgacha Misr haykaltaroshligi eng yuqori cho`qqiga ko`tarildi. Bu san`at asarlari orasida

fir`avn Exnaton va uning xotini Nefertitining haykalchasi diqqatga sazovor. Nefertiti ham toj kiygan holda tasvirlangan bo`lib, bir necha asrlar davomida Misrning ramziy tasviri bo`lgan edi.

Hammaga ma`lumki, dunyoning etti mo``jizasidan biri Misr piramidalariadir. Bizga fir`avnlar Xeops, Xefron va Mikeronos davridagi piramidalar etib kelgan. Xeops davridagi piramida eng kattasi bo`lib, balandligi 150 m.ni tashkil qiladi. Piramidalarning atrofida qabrlar bor. Bu qabrlar shohning qarindosh - urug`lariniki va katta amaldorlarniki edi. Mazkur piramida Xeops (mil. ol.2551-2528 yillarda hukmronlik qilgan) piramidasini deb ataladi. Olam mo``jizalarining o`uyxati boshida, Xitoy devoridan keyin, ana shu piramida turadi. Dunyoda insoniyat qo`li bilan qurilgan eng ulkan inshootlardan biri ana shu piramidalardir. Xeops piramidasining qurilishiga 2,3 millionta tosh bo`laklari ishlatilgan. Har bir tosh bo`laklarining og`irligi 2,5 tonna chiqadi. Xeops davrida piramidalarning sirti maydalangan qumdan qilingan toshlar bilan qoplangan. Bu toshlarga ishlatilishidan oldin jilo berilgan. Xuddi shu toshlardan Qohirada mamluk sultonlarining saroyini qurish uchun ham foylalanilgan. Piramidalar qurilishiga ketgan materiallar hajmi to`g`risida quyidagi dalillar bo`yicha xulosa chiqarish mumkin: ingliz olimlarining hisoblashlariga ko`ra, bitta Xeops piramidasiga ketgan material Angliyadagi jamiki masihiy jamoatxonalarining qurilishiga ishlatilgan materialdan ko`p ekan. Yana shu hisob - kitoblar aniqlangan: Xeops piramidasiga ishlatilgan toshlardan XX asrda Germaniyadagi hamma jamoatxonalarini qurish mumkin bo`ldi.

2002 yili evropa va Misr olimlari robot yordamida Xeops piramidasini ustida tadqiqot o`tkazdilar. Robot Xeops piramidasini ichiga qanday kirib borayotganini butun dunyo televizor orqali tomosha qilib turdi. Arxeologlar texnikaning eng so`nggi yutuqlari yordamida Xeops piramidasining eng muqaddas xonasiga - sirli xonasiga kirib bordilar. To`rt ming yil davomida bu xonaga inson oyog`i tegmagan edi. Ikki soat davomida o`n ikki santimetrali «piramidateshar» 65 metr tunnelni bosib o`tib, maxsus drel` bilan ohaktoshdan qilingan eshikni teshdi. Teshik orqali kichkina telekamerani ham olib o`tdi. Robot u erda yana bir sirli xonaga duch keldi. Xonaning eshigi mahkamlangan ekan. Shunday qilib, xazina topilmadi. Robot yana ilgari yurishi uchun yana bir yil tayyorgarlik kerak bo`ldi.

XXI asrda arxeologlar qazuv ishlarida eng yangi usullarni tatbiq qilib, shuni tushundilarki, qadimgi Misr arxitektori ayyorlik bilan ish tutgan ekanlar: Fir`avnning qabrini har xil noplodamlar bulg`amasin, deb odamlarni chalg`itish uchun yolg`ondakam koridorlar qurgan ekanlar. Ikki frantsuz arxeologi Jak Bordo va Fransin Darmen dastlabki olti sulolaning fir`avnlari qabrlari loyihasiga oid barcha ma`lumotlarni yig`dilar va har bir qabrnning batafsil xaritalarini chizdilar. Tayyorlangan xaritalar asosida piramidalarning ichki er osti yo`llarining bir necha yuz metrini suratga tushirdilar. Xarita va suratlarni solishtirib, shuni aniqladilarki, er osti yo`llaridagi ko`plab tutashgan joylar mahorat bilan qilingan soxta yo`llarga olib borar ekan. Tutashgan joylar toshni o`yib ishlangan bo`lib, suvalgan yoki maydalangan toshga ohak kushib berkitilgan ekan. Shu tariqa gorizontal tutashgan joylar soxta bo`lib chiqdi. Ammo bu qazilma natijasida arxeologlar haqiqiy yo`lakni va haqiqiy tosh devorni topishga muvaffaq bo`ldilar. Bu yo`lak va tosh devor piramidanining yashirin kovaklariga kiradigan joylarini sir saqlardi. O`sha kovaklarni tashqaridan bilish mumkin emas edi, chunki kovak joylar qum bilan berkitilgan edi.

Qadimgi Misrda falsafa maktablari ham shakllangan edi. Maktabning asosiy bahsi «Nima birlamchi – raxmmi yoki moddiy olammi?» degan mavzu edi. Xudo Memfisning ruhoniylari, jamiki buyumlar bosh xudo Ptaxanining tafakkuri va kalomidan yaratilgan, deb hisoblardilar. Xudo Geliopolning ruhoniylari esa moddiy olamning birlamchi ekaniga ishonardilar. Ularning qarashicha, ilk suvlardan xudolar ham, atrof olamdagisi jamiki hodisalar va buyumlar ham kelib chiqqan. Yunon filosoflari Misr ruhoniylaridan o`rganganlari to`g`risida rad qilib bo`lmaydigan dalillar bor. Xususan, Bibliyadagi olamning yaratilishi to`g`risidagi ta`limotni yahudiylar Misrda yashagan paytlarda yaratganlari ehtimoldan xoli emas.

Qadimgi Misr butun qadimgi dunyo, jumladan, yunon va Rim tsivilizatsiyasining shakllanishiga va taraqqiyotiga ta`sir ko`rsatgan. Bironta tsivilizatsiya – na qadimni Rim, na qadimgi yunon, na qadimgi Xitoy tsivilizatsiyasi Misr tsivilizatsiyasi kabi qadimiy va uzoq muddat davom etgan emas. Misr jamiyatini va madaniyatini hech qanday o`zgarishsiz **uch ming yil** davom etgan.

### **Qadimgi Yunoniston madaniyati**

Qadimgi Yunoniston madaniyati tarixi besh davrga bo`lib o`rganiladi:

1. Egey yoki Krit-miken davri (mil.ol. III-II ming yilliklar) madaniyati.
2. Gomer davri (mil.ol. XI-IX asrlar) madaniyati.
3. Arxaik davr (mil.ol. VIII-VI asrlar) madaniyati.
4. Klassik davr (mil. ol. V-IV asrlar) madaniyati.
5. Ellistik davr (mil.ol. I-V asrning II yarmi – mil. ol. I asrning o`rtasi) madaniyati.

Krit - miken davri eng qadimgi tsivilizatsiya davri deb ham yuritiladi. Bundan tashqari, dastlabki uch davr ko`pincha ***klassik davrgacha bo`lgan davr*** degan umumiy nom bilan aytildi. Bunday holda Yunoniston madaniyati uchta asosiy davrga bo`linadi: klassik davrgacha bo`lgan davr, klassik davr, ellistik davr.

### **Egey yoki Krit - miken davri**

XIX asrning 70 - yillarida nemis arxeologi Shliman Egey dengizi qirg`oqlarida qazuv ishlari olib bordi. Qazuv natijasida ettita shaharni aniqladi. Shxarlardan birida Shliman oltin xazinasini topdi. Bu xazina mil. ol. III ming yillikda yashagan shohga tegishli bo`lgan ekan. Bu shoh haqida Gomer «Iliada» dostonida shunday yozgan edi:

Muqaddas Troya halok bo`lar,  
Priamning nayzabardor xalqi  
Troya bilan halokatga uchrar.

Priam shahri oltin xazina egasi bo`lgan shohdan ming yil keyin barpo bo`lgan edi.

Troyadan uchinchi ming yillikning o`rtalariga oid arxeologik qatlamlar topilgan. Shliman bu shahardan katta qabr ham topdi. Qabrga sharqona ko`rinishda, oltin bilan bezatilgan liboslar kiygan erkak va ayolning jasadlari dafn qilingan. Qabrdagi quroq ham bor edi. Antik san`atdan engsiz uzun kiyim (xiton) ma`lum ediyu ammo sharqona liboslar hali uchramagan edi. Bu topilmalardan, Yunonistonda boshqa xalq madaniyati ham bo`lgan, degan xulosa kelib chiqadi. Troyadan Yana qal`a, saroy, qabrlar ham topilgan. Bu singari osori atiqalar Mikendan va Yunonistonning boshqa shaharlaridan ilgari ham topilgan edi.

Yunoniston madaniyati–uzoq taraqqiyot mahsuli bo`lib, Sharq mamlakatlari Bilan Egey dengizi bo`ylarida joylashgan yunon qabilalari bilan Bolqon yarim orollarining janubi, Krit orollarini va boshqa Egey dengizi orollarini, Egey dengizining Osiyo qismi o`zaro munosabatlari natijasida paydo bulgan. Bu joylar Miken davlatlari deb nom olgan. Ikkinchi ming yillik oxirida Miken davlatlari Bolqon yarim orolining shimolidan bu erga kelib o`rnashgan va bu erdagiga qabilalarga qarindosh bo`lgan yunon qabilalari tomonidan tor - mor qilindi.

### **Gomer davri madaniyati**

Gomer davri madaniyati asosan Gomerning va Gesiodning asarlari asosida belgilanadi. Bu davr madaniyatida xudolar haqidagi miflar asosiy rol` o`ynaydi. Yunonlar Gomerni xudolar haqidagi tasavvurlarimizning ijodkori, deb baholagan edilar.

Yunonistonda ko`chish davri (m.o. XI asr) tugashi bilan zodagonlar o`zlarining ijtimoiy-siyosiy tuzilmasini yaratdilar va «Gomer ilohiy davlati»ni barpo qildilar. Bu davlatning tepasiga Zevs tasviri quyilgan bo`lib, bu kul`tni bu erga kelgan bosqinchilar o`zlarini bilan birga olib kelgan edilar. Zevs erli xudolarga duch kelganda, ularning vazifasini o`ziga olib, siqib chiqardi, boshqa xudolar bilan qo`shilib ketdi va ularning nomlarini va sifatlarini o`ziga oldi, Yana boshqa ba`zi xudolar bilan murosa qilib, birga yashadi, shuning uchun oldingi xudolar Zevsning ukalari, singillari, bolalari bo`lib qoldi. Zevs ba`zi xudolar bilan oila qurdi. Ammo Gomerda ham, Gesiodda ham xudolar olamining yaratuvchisi emas, o`sha xudolarning o`zlarini tug`ilganlar. Qachonlardir ular mavjud bo`lmagan edilar.

### **Arxaik davr madaniyati**

Arxaik davrda yunon shahar - davlatlari shakllana boshladi, ilmiy tafakkur, she`riyat rivojlandi, falsafa, teatr paydo bo`ldi, Yunon san`ati taraqqiy qildi. Arxaik davrda sport va musiqaviy - badiiy o`yinlar paydo bo`lib, yunonlar o`zlarining xudolariga bag`ishladilar. Mil. ol. 776 yildan boshlab xudo Zevsga bag`ishlangan sport musobaqalari odatga aylandi. Bu o`yinlar

*Olimpiya o`yinlari* deb nom oldi va to`rt yilda bir marta o`tkaziladigan bo`ldi. Xudo Apollon sharafiga bag`ishlab o`tkaziladigan sport va musiqa musobaqalari Pifiy o`yinlari deb nomlandi. Bu musobaqa ham to`rt yilda bir marta o`tkaziladigan bo`ldi.

Yunonistonning ancha rivojlangan viloyati Ioniya (Kichik Osiyoning g`arbiy qirg`og`ida)da *naturfilosofiya* rivojlandi. Materializm va ob`ektiv qonuniyatlarni izlash bu falsafiy oqim uchun xarakterli edi. *Fales* (mil.ol. 624 – 546) hamma narsalarning ibtidosi va asosi suv degan bo`lsa, *Anaksimen* (taxminan mil.ol. 585– 525) - havo, *Anaksimandr* (taxminan mil.ol. 611–546) - cheksizlik, deb qaragan edilar.

*Pifagor* va uning izdoshlari, butun borliqning asosi miqdor va miqdor munosabatlaridir, deb hisoblab, matematika, astronomiya va musiqa nazariyasi taraqqiyotiga muhim hissa qo`shdilar. Mashhur yunon faylasuflaridan *Geraklit* (taxminan mil.ol. 554 - 483) materiyaning asosi olov, degan xulosaga keldi. Uningcha, tabiatda ham, jamiyatga ham abadiy harakat va kurash ketadi.

Deyarli hamma qadimgi yunon faylasuflari matematik bo`lgan edilar. Bular – Pifagor, Aflatun, Arastu bo`lib, ular olamning miqdoriy tavsifi to`g`risidagi falsafiy ta`limotni rivojlantirdi. Birinchi yunon faylasufi Fales jiddiy astronomik tadqiqotlar yaratdi, quyosh tutilishi to`g`risida bashorat qildi, ayni paytda u savdogar, dengizchi, ko`priksoz, ajoyib injener, davlat arbobi bo`lgan edi.

Arxaik davrdagi adabiyotda epik janrlar etakchi rol` o`ynadi. Gomerning “Iliada”si, “Odisseya”si (mil.ol. VIII asrning oxiri) buning namunasidir. Bu davrda yana Gesiod “Teogoniya” (ya`ni Xudolar shajerasi) va “Mehnat va kunlar” dostonlarini yozdi. Ezopning (mil.ol.VI asr) masallari ham yunon madaniyati taraqqiyotida muhim rol` o`ynadi.

Arxitektura ham rivojlandi. Geometrik jihatdan to`g`ri shakldagi kolonnalar, haykaltaroshlik, kulolchilik rivojlandi. Ayniqsa, Korinflik kulollar idishlarga naqsh solishni o`ylab topdilar. Bu davrda arxitektura va haykaltaroshlikning birlashtirilgani diqqatga sazovordir. Ibodatxonalar tashqi tomondan bo`rtma naqshlar bilan bezatilgan, ichkarisiga esa xudolarning haykalchalari qo`yilgan.

### Klassik davr

Bu davr Perikl, Suqrot, Aflatun, Arastu, Demokrit, Esxil, Sofokl, Evripid va boshqa qator allomalarining nomlari bilan bog`liq. Bu davrda haykaltaroshlik rivojlanib, haykallarning turli shakllari va turlari yaratildi. Marmar bilan birga bronzadan foydalananiladigan bo`ldi.

Mil.ol. V asrda yunon jamiyatining madaniy mezonlari shakllana boshladi. Ovqat va ichimliklarda mo`^tadillik, axloqda tiyqlik, haqiqatgo`ylik, o`z so`ziga sodiqlik, ishda halollik, jismoniy bardoshlik va boshqa qator axloqiy mezonlarga ko`ra jamiyat odamlarga baho bergan. Insonga hurmat shu tariqa shakllana boshladi. Sport rivojlandi, ayniqsa, bolalarni sog`lom tarbiyalashga yunonlar kunning ko`p qismini uydan tashqarida - sport zallarida, stadionlarda o`tkazardilar. Shahar markazidagi bozor maydoni odamlar har kuni yig`iladigan joy edi. Hamma yangiliklarni ular shu erda eshitganlar, Qolaversa, odamlar bu erda bir-birlari bilan uchrashib, shaxsiy ishlarini bitirganlar.

Fidiy, Meron, Poliklet va boshqalar klassik davr *haykaltaroshligiga* asos soldilar. Rassomchilikda *Polignopa* (V asr boshlari) va *Apollodora* (V asrning ikkinchi yarmi) yangicha usullarni, syujetlarni olib kirdilar. Klassik davr adabiyotida *tragediya* va *komediya* janri paydo bo`ldi. Esxil (mil.ol. 525–456), Sofokl (taxminan mil.ol. 496–406) va Evripid (mil.ol.485–406) tragediya janriga asos soldilar. *Tragediya* Dionis sharafiga o`tkaziladigan marosimlardan kelib chiqqan. *Komediya* ham Dionis sharafiga aytilgan satirik qo`shiq va raqslardan paydo bo`ldi. Shu tariqa Yunonistonda dramatik teatr paydo bo`ldi.

Miloddan oldingi V asr ajoyib arxitektura inshootlariga boy. Jamoat binolari sifatida *ibodatxona* ko`p qurilgan edi. IV asrda Yunonistonda iqtisodiy va siyosiy tanazzul kuzatiladi. Ammo madaniyatning turli sohalari rivojlanib boraverdi. *Antik falsafa* ayni shu paytda yuksak cho`qqiga etdi. Uchta faylasuf - Suqrot, Aflatun va Arastu antik falsafani yaratdilar.

### Ellinistik davr

Aleksandr Makedonskiy bosib olgan erlarda yunon madaniyati tarqalgan davr alohida bosqich hisoblanadi. Bu davrdagi madaniyat ellinizim madaniyati deyiladi. Yunon va mahalliy

madaniyatning aloqalari yagona ellistik madaniyat paydo bo`lishiga yordam berdi. Aleksandr Makedonskiy imperiyasi yiqilgandan keyin ham alohida mustaqil davlatlarda ellistik madaniyat saqlanib qolaverdi (Misr, Salavkiylar davlati, Pergam davlati, Baqtriya, Pontiy shohligi va b.).

Bu davrda ilmiy bilimlar taraqqiy qildi. Arximed (taxminan mil.ol. 287-212), Evklid (taxminan 365-300), Aristarx Samosskiy (mil.ol.320-250)larning kashfiyotlari yuzaga keldi. Ilmiy bilimlarning taraqqiyoti yig`ilgan axborotlarni sistemalashtirishni va saqlashni talab qilardi. Bir qator shaharlarda **kutubxonalar** barpo qilindi. Ulardan eng kattasi -Aleksandriyada va Pergamda edi. Filologiyaning grammatika, matn tanqidi, adabiy tanqid sohalari rivojlandi.

### **Qadimgi Rim madaniyati**

Qadimgi Rim madaniyatining shakllanishiga antik dunyodagi ikki buyuk madaniyat - etrusklar va yunonlar madaniyati an`analari ta`sir ko`rsatdi. Rim ibodatxonalarini etrusk ibodatxonalarini namunasi bo`yicha qurildi, lotin alifbosini ham etrusklarning alifbosini asosida yaratildi. Yunonlarning ta`siri mil.ol. III asrdan boshlandi. “Odisseya”ning lotinchaga ta`siri Rim she`riyatiga ta`sir ko`rsatdi. Ammo Rim she`riyati tom ma`noda xalq og`zaki ijodidan o`sib chiqdi.

Qadimgi Rim tarixi uch davrga bo`linadi:

1. Shohlik davri (mil.ol. VIII - VI asr boshlari).
2. Respublika davri (mil.ol. 510 / 509 — 30 / 27 yillar).
3. Imperiya davri (mil.ol. 30/27 – mil. 476 yillar).

Rim tsivilizatsiyasining taraqqiyoti Rim shahrining o`sishiga olib keldi, mil.ol. III—I asrlarda Rim shahri aholisi I milliondan 1,5 millionga etgan edi.

Antik davrga oid Rim me`morchiligining noyob namunalari sifatida **Panteon** (hamma xudolarga bag`ishlangan joy)ni ko`rsatish mumkin. Panteon – ibodatxona bo`lib, imperiyadagi ko`plab xalqlarning birligi g`oyasini gavdalantiradigan barcha xudolar uchun qurilgan.

Amfiteatr (yunon. amphit – atrof va hearron – teatr) tomosha uchun (ko`pincha gladiatorlar jangi uchun) qurilgan inshoot bo`lib, cho`ziq shakldagi maydon bo`lgan va atrofida tomoshabinlar uchun zinapoyalardan iborat o`rindiqlar joylashgan. **Kolizey** eng mashhur amfiteatr bo`lib, 50 ming tomoshabinga mo`ljallangan edi.

Rimda issiq va sovuq suvi bor hammomlar, gimnastika zallari, dam olish xonalari qurilgan. Ko`p shaharlarda 3–6 qavatli uylar qurilgan.

Imperiya davrida Rim shaharlari rejasi anchagina yaxshilangan, chiroyli maydonlarga, yashash uchun qulay bo`lgan uylarga alohida e`tibor berilgan. Neron hukmronligi davrida Rimda yong`in yuz bergen va 14 ta tumandan 10 tasi yonib tugagan. Bu tumanlarda uylar asosan yog`ochdan qurilgan, yo`llar tor edi. Yong`indan keyin imperator shaharni yangi reja bo`yicha - ko`chalari keng, uylarni toshdan, imperator saroyini ham toshdan qilib qurishga farmon berdi.

Imperiya davridagi shaharlarning farqli xususiyatlaridan biri kommunikatsiya vositalarining-tosh ko`prik, vodoprovodlar, kanalizatsiyalarning borligi edi. Imperiya davrida Rimda II ta vodoprovod bo`lib, ikkitasi hozirgacha ishlaydi. O`sha davrlarda qurilgan yo`llar, ko`priklar hozirgacha xizmat qiladi.

Rimda fan va maorif katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Ta`lim uch bosqichdan iborat edi: boshlang`ich ta`lim, grammatika maktabi va ritorika maktabi. Imperatorlar ritorika maktabi uchun katta mablag` ajratardilar. Barcha ta`lim bosqichlarida o`qish, yozish va hisoblash o`rgatilgan. O`rta maktablarda grammatika muallimlari yunon tili va ettita fandani - grammatika, dilektika, ritorika, musiqa, arifmetika, geometriya, astronomiyani o`rgatganlar. Bular qatorida arxitektura va meditsina ham o`qitilgan. Oxirgi bosqich oliy ta`lim bo`lib, notiqlik san`ati va falsafa o`qitilgan. Mansabdor odam bo`lish uchun va siyosatda ritorikani egallash shart bo`lgan.

Rim ta`lim tizimi yunonlardan namuna olgan holda rivojlandi. Birinchi o`rinda huquq, tillar, adabiyot, tarix, ikkinchi o`rinda matematika turgan edi. Oliy ta`limda falsafadan ko`ra, notiqlikka ko`proq e`tibor berilgan.

Rim, Aleksandriya, Afina, Korfagen shaharlari ilmiy markazlar sifatida faoliyat ko`rsatgan edi. I-II asrlarda Rimda geografik bilimlarga, tibbiyot va tarixga e`tibor berilgan. Strabonning (mil.ol. 64/ 63 – mil. 23/24 yillar), Ptolomey (I-II asrlar)ning kitoblari yaratildi. Pliniy (I asr) fizik geografiya, botanika, zoologiya, mineralogiyani o`z ichiga olgan “Tabiiy tarix” qomusini yozdi.

Tibbiyot rivojlandi: Galen (129– 199 yillar) nafas yo`llari, bosh miya bo`yicha tajribalar o`tkazdi, birinchi bo`lib odam a`zolarining anatomik tuzilishini berdi. Vrachlar tayyorlash uchun maktablar ochildi.

Miloddan oldingi III asrda yunonlar ta`siri ostida Rim adabiyoti paydo bo`ldi. Muarrixlar yunon tilida Rim yilnomalarini yozdilar. Jumladan, Tsitseron (mil.ol.106 – 43 yillar) ning publitsistikasi Rim nasrinining eng yaxshi namunalaridandir. Uning 50 dan ortiq nutqlari va notiqlik nazariyasiga oid ishlari saqlanib qolgan. Tsitseronning ijodi Rim adabiyotida “Oltin lotin davri”ni kashf qildi. Bu davrda nasrning go`zal namunalari yaratildi.

Rim *she`riyati* ham mil.ol. I asrda katta muvaffaqiyatga erishdi. Lukretsiy (96–55 yillar) ning “Buyumlarning tabiat haqida” nomli falsafiy poemasi, Goratsiy (65–8 yillar)ning satiralari, qasidalari va boshqa she`riy asarlari, Ovidiy (mil.ol. 43 – mil.18 yillar)ning ishqiy she`rlari va maktublari Rim she`riyatiga asos soldi.

Rim teatr san`ati, haykaltaroshlik yunonlarning ta`siri ostida rivojlandi. Ammo materiallar teatr san`atida Rim jamiyatining hayotidan olindi. Haykaltaroshlikda ham bizgacha etib kelganlari yunonlar ta`siridan xolidir. Haykaltaroshlar insonning ichki olamini ko`rsatishga ko`proq e`tibor qaratganlar.

Rimliklarning diniy e`tiqodi dastlab majusiylikka asoslangan edi. Milodiy IV asrda Rim imperiyasi G`arbiy va Sharqi qismlarga bo`linib ketgandan keyin, masihiylik g`alaba qildi va katolik oqimi hayotga singib bordi.

### Xitoy madaniyati

Xitoy — tsivilizatsiya ilk bor paydo bo`lgan to`rt mamlakatning biri bo`lib, qadimgi Misr, Babil va Hindiston qatorida turadi. Rasmiy ma`lumotlarga qaraganda, mamlakatda besh mingta tarixiy va madaniy yodgorliklar mavjud. Miloddan oldingi uchinchi ming yillikda xitoyliklar qizil, oq, safsar rangli sopollar ishlab chiqarganlar. Sopollarga to`rburchak, to`lqinsimon shakllar solganlar. Xitoy madaniyatidan qolgan eng noyob yodgorlik — alifbodir. Xitoy yozuvni “ieroglif” deb ataladigan belgilardan iborat bo`lib, 50 ming belgidan, ya`ni ierogliflardan iborat. “Ieroglif” termini yunoncha bo`lib, “toshga o`yib yozilgan muqaddas belgi” degan ma`noni bildiradi. Bundan tashqari, 1958 yili xitoy tilining lotinlashgan alifbosi ham qabul qilingan.

Kundalik hayotda 4–6 ming belgi ishlatiladi. Hozirda yaxshi ma`lumoti bor xitoylik 6–8 ming belgini biladi. Gazetani o`qiy olish uchun 3–5 ming belgini bilish kerak bo`ladi.

Alifbo Xitoy madaniyatidan eng noyob merosdir. “Madaniyat” so`zi xitoychada “ven-xua” deb aytilib, “savodli bo`lmoq” ma`nosini bildiradi. Xitoy ierogliflarining xizmati shundaki, millat o`z merosini saqlashga va yoyishga, davlatni markazlashtirib, mustahkamlashga imkon berdi. Xitoy rahbariyati ieroglif yozuvni xitoy millati va madaniyati birligi uchun kafolat sifatida qaraydi. Xitoy ierogliflari yana husnixat estetikasi uchun ham asosdir.

VII–XIII asrlarda xitoyliklar rassomchilikni san`atning muhim ko`rinishlaridan biri sifatida hurmat qilganlar. Bu davrdan saroy devorlariga, ibodatxonalarga solingan suratlar, miniatyuralar saqlangan. Bir necha metrli o`rama qog`ozlarda shahar va saroy hayoti, tabiat, portret, maishiy hayot tasvirlangan. Rassomlar guruchdan qilingan qog`oz va ipakdan foydalanganlar.

Qog`oz bilan birga xitoyliklar birinchi bo`lib choy, chinni, porox, soyabon, muzqaymoq, ipak va gugurtni o`ylab topib, dunyo bo`ylab tarqalgan. Besh ming yil ilgari ilk bor dunyoda beton quyish texnologiyasini ishlab chiqqanlar. Gansu viloyatidagi arxitektura kompleksi shundan dalolat beradi.

Samo ibodatxonasi (1420 yilda qurilgan) Pekinning o`ziga xos ramzidir. Bu ibodatxona dumaloq shaklda qurilgan bo`lib, uch qavatli tomi bor. Aslida bu ibodatxona imperator sayr qiladigan o`rama park bo`lgan edi. Ibodatxona poydevorining diametri 30 metr, balandligi 38 metr. Ibodatxonaning yana bir diqqatga sazovor tomoni shuki, devor aks sado beradi va bir tomondan ikkinchi tomonigacha ovoz yoyiladi.

G`or ibodatxonalar ham Xitoy arxitekturasining e`tiborga loyiq tomonlaridandir. Asosan, tog`larni o`yib g`orlarda barpo qilingan budda ibodatxonalari tarixi 1000 yildan nariga borib taqaladi.

G`or ibodatxonalar orasida Gansu viloyatidagi Dunxuan shahrida barpo qilingan ibodatxona qadimgi Sharq san`atining xazinasi deb nom olgan. Bu ibodatxona Minshaman` shahri etagidagi qoyaga o`yilgan, uzunligi 1600 metr. Bu ibodatxonalar Mogao ibodatxonalari kompleksi deyiladi.

Ibodatxona qurilishi milodiy 360 yilda boshlanib, uzlusiz ravishda 700 yil davom etgan. Buyuk ipak yo`li shu erdan o`tgan. Ibodatxona qurilishida savdogarlar, amaldorlar, oddiy odamlar ishtirok etganlar, nazrlar ataganlar. Ibodatxona kompleksida 735 g`or, 45 ming kvadrat metr devor suratlari, 2415 ta turfa rangdagi haykalchalar saqlangan. Bu yodgorliklar 10 sulola hukmronligi davrida barpo bo`lgan. 1988 yili YuNeSKO qarori bilan mazkur ibodatxona kompleksi jahon madaniy merosi sifatida ro`yxatga olingan.

Xitoy arxitekturasi Yaponiya, Koreya, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari arxitekturasiga kuchli ta`sir etgan. Xitoya *falsafiy* va *diniy oqimlar* asosan miloddan oldingi birinchi ming yillik oxirida shakllanib bo`lgan edi. Birinchi navbatda konfutsiylik va daosizm paydo bo`ldi. Xitoyning ma`naviy madaniyatida buddaviylik katta rol o`ynadi. Buddaviylik Xitoya milodiy I asr o`rtalarida Hindistondan kirib keldi. VIII asrda Xitoy islom ta`limoti bilan tanishdi. Keyinroq katolik missionerlari paydo bo`ldilar. IX asrning o`rtalarida esa mamlakatga masihiylik kirib kela boshladı.

**Konfutsiylik** ijtimoiy munosabatlar bilan bog`liq. Konfutsiyning (mil.ol. 551–479) bu ta`limoti g`ayritabiylizka aslo aloqador emas. Shuning uchun konfutsiylikni dunyoviy ta`limot deb ataydilar. Konfutsiy oila - qarindoshlik aloqalarini ham davlat, ham diniy nuqtai nazardan talqin qildi. “Davlat - bitta oila, hukmdor, ya`ni Osmon o`g`li bir paytning o`zida xalqning otasi va onasidir”, deb baho bergen edi.

**Daosizm** qadimgi miflar, xalq inonch - e`tiqodlari, kul`tlarga asoslangan edi. **Dao** - “yo`l” degan ma`noni bildirib, uning asoschisi lao Tszipidir. U Konfutsiyning zamondoshi bo`lgan edi.

Umuman, Xitoy madaniyati tarixi dunyo madaniyati tarixida muhim rol o`ynadi.

### Hindiston madaniyati

Hindiston qadimgi tsivilizatsiya o`lkalaridan biridir. Qadimgi Hindiston olamga “Moxobxorot”, “Ramayana” kabi epik asarlarni, Kalidasa kabi buyuk ijodkorni, “Panchatatra”ni beragan. Qadimgi Hindiston matematika, astronomiya, tibbiyat sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Hozirgi arifmetikaga asos bo`lgan son tushunchasini ham hindlar yaratgan.

Hindiston mamlakati va madaniyati tarixi quyidagi bosqichlarga bo`linadi:

- Xoropp tsivilizatsiyasi,
- Veda davri,
- Maur davri,
- Guptlar davri,
- Boburiylar imperiyasi,
- Zamonaviy tarix.

**Xoropp madaniyati** mil.ol. 3200– 1300 yillar oraliq`ida yashagan. Xoropp madaniyati Mesopotamiya va Misrdan keyin uchinchi o`rinda turadi. Xoropp madaniyatining eng muhim tomonlaridan biri erga borona bilan ishlov berishning yo`lga qo`yilgani va yozuvning yaratilganidir. Xoropp madaniyatining eng qadimgi markazlari Moxenjo Doro va Xoropp shaharlaridir. Bu va boshqa shaharlardan topilgan arxeologik yodgorliklar bronza davriga oiddir. Xoropp madaniyatida inson evropa irqiga mansub bo`lgan.

Shaharsozlik madaniyati ham bugungi arxitektura talablariga javob beradi. Maxenjo Doro va Xoropp shaharlari bir xil reja asosida qurilgan va keyingi davrlarda ham o`zgartirilmagan. Asosiy ko`chalar to`g`ri to`rt burchak hosil qilib kesishgan va kvartallar hosil qilingan. Bu shaharlarda suv tarmoqlari va kanalizatsiya barpo qilingan. 2–3 qavatli uylar qurilgan.

Topilgan yozuv namunalari 400 pictogramma (rasmli yozuv)dan va bo`g`inli belgilardan iborat. Arxeologlar topgan chizg`ichda o`nlik bo`luv sistemasi qo`llangan. Tarix yana g`or suratlarini, ov sahnasi tavsirini ham saqlagan.

**Veda davri** ikkinchi ming yillikning o`rtasi va birinchi ming yillikning o`rtasiga aloqador bo`lib, boshqa mamlakatlardan Hindistonga kelgan xalqlarning madaniyati bilan bog`liq. Ariylar deb atalgan bu xalqlar chorvachilik bilan shug`ullanganlar. Ammo ularning kelib chiqishi hanuzgacha ma`lum emas. ularning tili hind-evropa tillaridan biri sanskritning qadimgi shakliga mansub.

Miloddan oldingi XV asrda ariylar Shimoliy Hindistonga bostirib kirdilar va bu arning tub aholisi dravidlarni janubga quvdilar. Hindiston aholisning tili asli dravid tilidir. Hind tillari guruhiga kiruvchi tillarning to`rtadan uch qismi ariylarning sanskrit tiliga qarindoshdir.

Ariy qavmlari Hindistonga kelganlardan (ba`zi olimlar O`rta Osiyodan, ba`zilari Janubiy Rus cho`llaridan kelgan deydilar) keyin madaniy taraqqiyotda keskin o`zgarishlar bo`ldi. Vedalar ayni shu davrda yaratilgani uchun Hindiston tarixida *veda davri* deb yuritiladi. Vedalarda garchi bir o`rinda 3399 xudo borligi aytilda ham, 33 xudo to`g`risida so`z yuritiladi. Xudolar *zaminiy*, *samoviy* va *oraliq* kabi uchga bo`lingan. Ariylar ko`p izzat qiladigan xudo yomg`ir va momaqaldiroq xudosi Indra bo`lib, unga 250 madhiya bag`ishlangan. Boshqa xudolarga bag`ishlangan madhiyalarda ham Indra nomi eslanadi.

Vedalarga to`rtta asosiy to`plam - Rigveda (madhiya vedasi), Samoveda (kuylar vedasi), Yajurveda (qurbanlik vedasi), Atxarveda (afsun va sehr-jodular vedasi) dan iborat.

Vedalar o`sha davrdagi turli bilim sohalarini - dehqonchilik, tibbiyat, geometriya, hunarmandchilik, harbiy texnika, astronomiyani qamrab oladi. *Upanishodlar* ham vedalarning oxirgi janrlaridan biridir. "Upanishod" - insonni xudoga (yoki ustozga) yaqinlashtiradigan narsa degan ma`noni bildiradi. Upanishodlar Hindistonning eng qadimgi falsafiy asarlari hisoblanadi. Upanishod buddaviylikka, jaynizmga katta ta`sir etgan. Upanishodning asosiy vazifasi shaxs ruhini koinot ruhi bilan bir xil deb qarashdan va talqin qilishdan iborat edi.

Maur davlati Ganga daryosi bo`yida barpo qilingan bo`lib, bu madaniyat buddaviylikning paydo bo`lishi bilan bog`liq. Maur sulolasasi hukmdorlari buddaviylikdan xalqlarni birlashtirish uchun foydalandilar. Maur davlatidagi madaniy yodgorliklar *Ashok* (mil.ol. 268–232 yillarda hukmronlik qilgan) nomi bilan bog`liq. Ujang bilan boshqa davlatlarni qo`shib oldi, ko`p davlatlar bilan diplomatik munosabatlar o`rnatdi, fan va san`atga e`tibor berdi, shaharlar barpo qildi. Ashok ko`plab budda ibodatxonalar qurdirdi. Dunyoviy adabiyot ham Ashok davrida rivojlandi. Jumladan, "Artaxshastra" nomli siyosiy asar bu davrdagi muhim yodgorliklardan biridir. Asarda saroydagi ziddiyatlar, fitnalar, kimlarningdir sirli o`limi she`riy yo`lda bayon qilingan. Ashok vafotidan keyin Maur davlati tanazzulga yuz tuta boshladi.

**Guptlar imperiyasi.** Bu imperiya (319–540 yillar) davrida mamlakat yana birlashib, qudratli davlatga aylandi. Sanskrit asosiy til bo`lib qoldi. Guptlar sulolasini qadimgi hind madaniyatining "oltin asri" deb ataydilar. Sulolaning ba`zi vakillari, jumladan, Chandrgupta va Skandagupta shoir hamda musiqachi bo`lgan edilar. Buyuk shoir va dramaturg Kalidasa Chandragupta hukmronligi davrida yashagan edi.

Bu davrda moddiy madaniyat rivojlandi: ipakchilik, sun`iy sug`orish rivojlandi. Hunarmandlar qurol va zeb - ziynatlar ishlab chiqarishda katta muvaffaqiyatga erishdilar, ipak va paxtadan nafis matolar to`qidilar. V asrda xunlarning avlodи eftalitlar (oq xunlar) bostirib kirib, Guptlar imperiyasiga zarba berdilar.

**Boburiylar imperiyasidan** Agra shahri yaqinidagi Toj Mahal dunyo arxitekturasida tengsiz inshootdir. Inshoot 1631–1653 yillar oralig`ida Shohjahon hukmronligi davrida barpo qilingan. Qurilish ishlarida Hindiston va O`rta Osiyodan 20 000 odam ishtirot etgan. Saroy kunning turli paytlarida turlicha tovlanadi. Toj Mahal Hindistonda keng tarqalgan shohlar maqbarasiga mansubdir.

Hind madaniyatidagi buddaviylikning ta`siri butun dunyo madaniyatida seziladi. Qadimgi Hindiston tibbiyoti, matematikasi butun dunyoda shuhrat topdi, tilshunoslik, mantiq, psixologiya fanlari yuqori bosqichga ko`tarildi. Hind madaniyatida an`anaga sodiqlik va yangilikka intilish baravar olib borilmoqda.

### Vizantiya madaniyati

Vizantiya o`rta asr madaniyati tarixida alohida o`rin egallaydi. Vizantiya o`rta asr olamiga adabiyot va san`atning eng yuksak namunaalarini berdi. Vizantiya ta`limning yuqori ko`rsatkichi, ma`naviy hayotning faolligi, tasviriy san`atning ta`sir kuchi va chuqr ma`no ifodasi bilan o`rta asr evropa mamlakatlaridan bir necha asrga o`zib ketdi.

Vizantiya davlati hududida chorvachilik, qishloq xo`jaligi rivojlandi. Ayniqsa, antik davrdan qishloq xo`jaligi asosblarini va erga ishlov berish, zaytun moyi ishlab chiqarish, uzumchilikni o`zlashtirib, katta iqtisodiy ko`rsatkichlarga erishdi. Vizantiyada tabiiy boyliklar ham mo`l edi. Teri va teri mahsulotlari etishtirishda ham eng ilg`or davlat edi. Aholining etnik tarkibi turlicha edi: katta qismini yunonlar, ulardan keyin suryoniyalar, yahudiylar, frakiylar, qibtiylar, daxlar, Kichik Osiyodagi erli mayda xalqlar, gruzinlar va armanlar tashkil qilardi. Vizantiyaning ko`p xalqlari,

ayniqsa, sharqiy qismidagi xalqlar o`zlarining turmush tarzini, tili, madaniyati, udumlari, urf-odatlarini saqlab qolishga harakat qildilar. Bora–bora yunonlar har sohada hukmron bo`lib qoldilar. Ilk Vizantiya davlatida jiddiy demografik o`zgarishlar, ommaviy ravishda qabila va elatlarning ko`chib kelishi, bosqinchilarning hujumi va hokazolar elliniizmnning<sup>1</sup> barqarorlashini qiyinlashtirdi.

Vizantiya davlati ikki davr chegarasida - so`nggi antik davrning barham topishi va o`rta asr jamiyatining tug`ilishi chegarasida paydo bo`ldi. Vizantiya tarixining ilk davri dastlabki uch yarim asri qamrab oladi. Bu davrda Vizantiya tarkibiga Rim imperiyasi sharqiy qismidan yarmi kirgan edi. Rimning sharqiy qismi esa Bolqon yarim orollarini, Kichik Osiyon, Suriya va Falastinni, Misrni, Kirenaik (Shimoliy Afrika)ni, Krit va Kipr orollarini, Mesopotamiyaning bir qismini, Armanistonni, Arabistonning ayrim orollarini, Qora dengiz bo`ylarini (jumladan, Qrimdagi Xersonni va Kavkazdagi Lazikni) o`zi ichiga olgan edi. Manbalarning xabar berishicha, bu davrda Vizantiya hududi 750 ming kv. km. dan ortiq edi. Bu degani - yuqori dehqonchilik madaniyati uchun afzalliklar paydo bo`ldi, deganidir. Bu erda azaldan donli ekinlar (bug`doy, arpa, suli) o`stirilardi, zaytunzor va uzumzorlar barpo qilingan edi.

Yunoniston, Kichik Osiyo sohilidagi viloyatlar, Suriya va Falastin bog`-rog`lari, uzumzorlari bilan shuhrat taratdi. Falastin esa xurmolari, pistalari bilan mashhur bo`ldi, Yunoniston va Kichik Osiyoning ichki tumanlari zaytunzorlarning asosiy markaziga aylandi. VI asrdan boshlab Xitoydan Vizantiyaga ipak qurtini ko`paytirish san`ati kirib keldi. Vizantiya imperiyasida ipakchilikning markazi Finikiya bo`ldi. Ilk Vizantiyada yirik shaharlar markazi hali antik shahar qiyofasini saqlab kelayotgan edi. To`g`ri solingen ko`chalar, antik davrga oid haykalchalar bilan bezatilgan maydonlar ilk Vizantianing alohida belgilari edi. Shahar hayotining markazi, oldingiday, chirolyi jamoat binolari bilan o`ralgan maydon bo`lib, bu maydon *agora* (yoki forum) deb atalardi. Har bir shaharda teatr yoki tsirk mavjud edi. Boylarning ikki qavatli uylari shaharning asosiy ko`chasida joylashgandi. Ko`p shaharlarda masihiyalar jamoat binolari o`sib borayotgan bo`lsa ham, hamon majusiylar ibotaxonalari saqlanib qolgan edi.

Vizantianing poytaxti Konstantinopol` bo`lib, VI asrda Yustinian hukmronligi davrida hashamatli saroylari, ibodatxonalari bilan mashhur bo`ldi. Imperiya poytaxti dunyoviy madaniyatning o`chog`i bo`lib qolaverdi. VI asrda yashagan notiq Felistiy Konstantinopolni “ulug`vorlikning g`oyat katta ustaxonasi” deb bekorga aytmagan edi.

Vizantiya madaniyati murakkab sharoitda paydo bo`ldi. Ayrim hollarda ziddiyatlar zaminida qaror topdi. Vizantiya madaniyati g`arbiy evropa madaniyatidan farqli ravishda varvarlar bosqinlari davrida yunon–rim an`analari ta`siri ostida qolaverdi. Ammo Vizantiya madaniyati imperiya hududiga o`rnashgan ko`pchilik xalqlarning tafakkuri mahsuli bo`lgan badiiy an`analarni o`ziga singdirdi. Nafaqat yunonlar, balki suryoniyalar, armanlar, gruzinlar, Kichik Osiyodagi qabilalar, slavyanlar, Qrim xalqlari va lotin xalqi Vizantiya madaniyatining shakllanishiga o`z hissalarini qo`shdilar. Keyin bu xalqlarning madaniy taraqqiyoti *Vizantiya tsivilizatsiyasi* deb yuritiladigan bo`ldi.

Vizantiya madaniyatining ilk davri imperiyada majusiylik, mushriklik va yakka xudolilik, masihiylik g`oyalari kurashi sharoitida shakllanib rivojlandi. Bu davr jamiyatdagi mafkuraning shakllanish davri bo`ldi. Masihiylik dunyoqarashi antik olamning falsafiy, axloqiy va estetik qarashlari bilan keskin kurashda shakllandı. Vizantiya davlatining dastlabki yuz yilliklarini dunyoqarashdagi keskin burilishlari asri deb qarash mumkin. Bu davrda majusiylikka asoslangan ellinizm an`analari o`rnini rasmiy maqomga ega bo`lgan masihiylik egalladi. Mana shu ilk davrdagi kurashlar jarayonida neoplatonizmning<sup>2</sup> spiritual falsafasi qaytadan gullab–yashnadi. Bir qator neoplatonchi faylasuflar etishib chiqdi. Prokl Diadox, Psevdo–Dionisiy Areopagit shular jumlasidandir. Maslagidan qaytgan imperator Yulian, IV asrda yashagan mashhur notiqlar Femistiy

<sup>1</sup> Эллинизм — Македонияли Александр Македонский (мил. авал. 362 –332 й.) истиосидан кейин турли мамлакатларда пайдо бўлган маданият; бу маданиятда юон тили ва юон тафаккури хукмрон бўлган эди. Эллинистик давр Александр Македонский ўлимидан бошлаб масиҳийлик таъlimoti пайдо бўлгунгача даврни камраб олади. Ammo Rim imperiyasi эллинистик маданиятни давом эттириди. Шунинг учун Rim imperiyasi кулагунга қадар, ҳатто ундан кейин ҳам, эллинистик маданият давом этди.

<sup>2</sup> Неоплатонизм — антик фалсафа охирги ва энг узок давом этган давр (милодий III–VI асрлар) бўлиб, руҳий оламни моддий оламга нисбатан бирламчи деб қарайди; бу оқимга кўра, тажриба ва ақл воситасида эмас, балки мистик экстаз ҳолатида фалсафа олий босқичга эришилади.

va Livaniy, muarrixlar Ammian Martsellin va Zosim (IV–V asrlar) majusiylikning oxirgi himoyachilar bo`lib maydonga chiqdilar, ular so`nib borayotgan majusiy g`oyalarni qayta tiklashga harakat qildilar. Ammo neoplatonizm g`oyalarni keng omma qabul qila olmadi, chunki neoplatonizm himoyachilar aqidalarini o`zlashtirish uchun ommadan chuqr bilim talab qilinar edi.

(rasm)

Masihiylik o`sha davrning ko`plab falsafiy va diniy ta`limotini o`zida mujassamlashtirdi. Masihiylik aqidalarining Vizantiya madaniyati tarixida paydo bo`lishida faqat Yaqin Sharqdagi iudaizm, moniylik ta`sir etib qolmadi, balki neoplatonizm ham kuchli ta`sirini o`tkazdi. Neoplatonizmdagi mistik va ilohiy aqidalar, neoplatonchilarning estetik qarashlari masihiylikdagi zohidlik bilan uyg`unlashdi, bu ta`limotlarning bir - biriga yaqinlashishiga yo`l ochdi. Masalan, ilohiy Uchlilik to`g`risidagi aqida-masihiylik ta`limotining asosiy aqidalaridandir. Aslida bu aqida neoplatonchilarning uchlik haqidagi aqidasining qayta talqinidir. Ammo masihiylikda neoplatonizm va moniylik xususiyatlari davom etgan bo`lsa ham, masihiylik moniylik dualizmi va neoplatonchilik monizmidan keskin farq qilardi.

Masihiylik qorishiq diniy ta`limot bo`lib qolmay, balki alohida falsafiy tizim bo`lgan edi. Shu bois antik falsafiy ta`limotlar bilan masihiylik g`oyalari o`rtasida ziddiyatlar keskinlashdi. Hamma qadimiy falsafiy g`oyalarni rad qiladigan ilk masihiylik o`rniga asta-sekin antik va masihiylik dunyoqarashi o`rtasida ma`lum kelishuv paydo bo`ldi.

Umuman, bu davrdagi Vizantiyada madaniy hayot yuqori pog`onaga ko`tarildi. Fanda, adabiyot va san`atda majusiylik va masihiylik g`oyalarni, timsollarini ajoyib ravishda birlashtirish kuzatiladi. Yuqorida biz aytgan mutafakkir, ilohiyotchi va faylasuf Psevdo-Dionisiy Areopagit shulardan biridir. Undan katta adabiy meros qoldi. Shuningdek, bir qator diniy risolalar - “Ilohiy ismlar to`g`risida”, “Samoviy ierarxiya to`g`risida”<sup>3</sup>, “Jamoat ierarxiysi to`g`risida” va boshqa diniy mavzudagi bir necha maktublari bor. Psevdo-Dionisiy Areopagitning katta diniy-falsafiy tizimi neoplatonizm bilan masihiylikni birlashtiradi. Uningcha, Xudo va u sababli mavjud bo`lgan fazo samoviy kuchlar pastga tushadigan ireraxiya ko`rinishida fikr qilinadi. Jamoat bosqichi to`g`risidagi qarashlari shundan iboratki, uningcha, zaminiy jamoatning bosqichlari samoviy jamoat namunasi bo`yicha tuziladi. Uning qarashlari o`cta asr diniy-falsafiy tafakkuri taraqqiyotiga ma`lum darajada o`cta asr madaniyatining badiiy jihatlariga sezilarli ta`sir etdi.

Grigoriy Nazianzin nafaqat ilohiyotchi, balki iste`dodli yozuvchi, shoir ham edi. Uning taqdiri ayanqli, zohidlar singari tanholikda kechdi. U hayotning hamma mashaqqatlariga she`riyatdan tasalli topdi. U she`rlarida zamonning shafqatsizligidan azob chekayotganini, do`stlarning xiyonatidan, hamfikrlarning sotqinligidan, jamoatlar o`rtasidagi ziddiyatlardan noliydi. Mana, uning shu ruhdagi she`rlaridan bir namuna:

Do`stlar - g`anim, xasta tana azob tortadi,  
Olomon toshbo`ron ila meni kutib oladi,  
Qavm shol bo`lgan, ruhiy farzandlar  
Yolg`iz men bilan vidolashganlar.  
Boshqalari shoshilar meni sotgani,  
Oh, bu edi ota-bobolar g`ami!  
Martabalari bo`yicha yig`ilar ular,  
Yovuzlashgan nokaslar, unutgan ular  
Sirli ziyoftni, unutganlar  
Cho`ponlik xizmatida hamma ulushini.  
Kulfatda qolganimda menga tasalli bermas,  
O`giralar ular yolg`izlarga orqasini.

(Nasimxon Rahmon tarjiması)

Ilk Vizantiyaning yana bir yorqin iste`dodlaridan biri shoir Roman Sladkopevetsdir (V asr oxirida tug`ilib, 555 yildan keyin vafot etgan). U Bayrutda tug`ilgan. Roman o`z ijodida suryoniy va yunon an`analarini omuxtalashtirdi. Uning buyuk xizmatlaridan biri jamoatlar yig`inida kuylanadigan madhiyalarda yangicha poetik shakllarni - ibodat poemalarini yaratish bo`ldi. Bu

<sup>3</sup> Иерархия — юононча сўз бўлиб, “хизмат пиллапоялари”, лавозим, унвонларнинг қуидан юқорига кўтарилишини билдиради.

turdagi poemalar **kandak** deb ham yuritilgan. Bora - bora bu janr pravoslav jamoatlarda Xudoni madh qilishda bosh o`rin egalladi. Uning ijodida ijtimoiy hayot, xalqona tafakkur mahsuli bo`lgan she`rlar ham o`rin olgan.

IV-VII asr o`rtalarida Vizantiyada ijtimoiy-siyosiy va g`oyaviy kurash ketdi. Bu kurash Vizantiya muarrixlari asarlarida yorqin aks etdi. Bu davr tarixiy asarlarga boy. Ilk Vizantiya mashhur dunyoviy muarrixlarning asarlarini qoldirdi. Bular - Ammian Martsellin, evlampiy, Olipiodor, Zosim, Kesarli, Prokopiy Menandr Protiktor, Feofilakt Simokatta va boshqalardir. Bular iste`dodi, aqliy qudrati, qizg`in ijodiy dunyoqarashining kengligi jihatidan alohida ajralib turadi.

Feofilakt (VI asrning oxiri - VII asrning birinchi yarmi) Vizantiya istoriografiyasini antik davrdan o`rta asrga olg`a surdi.

Feofilaktning "Tarix" asari bor. U mazkur asarida davlat hokimiyatining siyosiy qarashlarini aniq, izchil bayon qiladi, ideal hukmdorning mukammal qiyofasini chizib beradi. Uningcha, hukmdor o`z faoliyatini yurgizar ekan, uning birinchi fazilati *mulonazakorlik* bo`lishi kerak: "Hukmronliging zo`ravonligini idrok yugani bilan ushla, falsafa ruldir, falsafa yordami bilan esa imperiyang kemasini boshqar". Ikkinci fazilat-kamtarlik bo`lmog`i lozim: "Qo`rquv bilan emas, balki fuqarolaringning mayli bo`yicha xizmat qilishga intil, xushomadgo`y gaplarga yozg`iriqni afzal bil. Yozg`iriq hayotda eng yaxshi ustozdir". Uchinchi fazilat adolat bo`lishi darkor. Imperator ongli tadbir bilan adolat va oliyjanoblikni birlashtirishi kerak: "Beozorlik - g`azabni, qo`rquv - idrokni boshqarsin". Masihga e`tiqod qiluvchi muarrix Feofilakt ideal hukmdordan yana masihiycha solihlik va shafqatni talab qiladi. Feofilakt asarning kirish qismida insoniyat idrokiga yuqori baho beradi va idrok - tarixning eng yaxshi ijodi, deb baholaydi. Ammo tarix u yoki bu voqeanning sababini aniqlamasa, bu fan samarasiz bo`lib qolaveradi, deb hisoblaydi buyuk muarrix.

\* \* \*

VII asr Vizantiya tarixida qiyin davr bo`ldi. Eng dahshatli xavf Sharqdan - Islom xalifaligidan edi. Shu davrda iste`dodli lashkarboshi, imperiyani harbiy va ma`muriy jihatdan isloh qilgan Vizantiya imperatori Irakliy (610 - 641) avvalo Sharqda forslar ustidan g`alaba qildi. Ammo keyin islom lashkarlari uni orqaga uloqtirib tashladi. Irakliyning siyosatidan norozi bo`lgan xalq bosqinchi arablarni qo`llab - quvvatladidi. Hazrat Umar davrida, 634 - 640 yillarda islom qo`shinlari Falastinni, Suriya va Mesopotamiyani bo`ysundirdi. 636 yili musulmonlar Irakliyning armiyasini tor - mor qildi. Keyingi ikki yil davomida Quddus va Antioxiyani bo`ysundirdi.

Bu mamlakatlarning islom lashkarlari bo`ysundirilishi imperiyaga katta zarba bo`ldi. Misr qarshilik ko`rsatmay taslim bo`ldi. 642 yili Vizantianing sharqiy viloyatlari - qadimiy madaniyatga eng boy hududlari qo`ldan ketdi. VII asrning oxirida Sharqiy Rim imperiyasi qudratli O`rta er dengizi davlati sifatida inqirozga uchradi. Uning o`rnini o`rta asr Vizantiya davlati egalladi. Bu davlat hududiy jihatdan kichik bo`lsa ham, etnik birligi tomondan, siyosiy va diniy jihatdan jiplashdi. Yustinian davrida etnik tomondan turlicha bo`lgan imperiya endi yunon davlati bo`lib qoldi. Yunon tili rasmiy tilga aylandi. Vizantiya ijtimoiy tuzumning feodalizm bosqichiga o`tdi. Endi shaharlar qiyofasi o`zgara boshladi. Antik davrdagi to`g`ri ko`chalar, 2-3 qavatli uylar qatorida, o`rta asrning mustahkam inshootlari, ko`plab jamoat (cherkov) binolari yangicha arxitektura uslubida qurildi. Albatta, Vizantiya madaniyatidagi keskin o`zgarish ana shu inshootlarning yangicha uslubidan boshlandi.

VIII asr o`rtalarida Vizantiya madaniyatni va mafkurasi rivojidagi birinchi bosqich nihoyasiga etdi. Bu davrda masihiylik aqidasi mustahkam o`rnashib bo`ldi. Vizantiya jamiyatining estetik qarashlari asosan shakllanishga ulgurdi. Vizantiya tarixinining ilk davridagi tang vaziyat o`rniga ma`lum darajada mafkuraviy xotirjamlik yuzaga keldi, axloqiy tomondan mukammallikkha erishildi, hamma narsa o`z o`rniga tushganday bo`ldi. Ammo bu xotirjamlik vaqtincha edi. VIII asrning bosqlaridan diniy va g`oyaviy bahslar yangidan kuch oldi. Bu davrda endi butparastlikka qarshi kurash boshlandi.

Diniy - falsafiy va estetik qadriyatlarni qayta baholash Vizantianing madaniy taraqqiyotiga sezilarli ta`sir qildi. Butparastlikka qarshi kurashchilar, Xudoni tasvirlab ham, bilib ham bo`lmaydi, degan g`oyani ilgari surdilar. Ularning ta`limoti asosida Uchlik haqidagi masihiylik ta`limoti yotardi. Uchlikni inson aqli tasvirlashga ham, bilishga ham qodir emas. Shu bois inson qiyofasida tasvirlash mumkin emas. Agar musavvir Masihning faqat insoniy tabiatinigina tasvirlaydigan bo`lsa, u bid`atchi bo`ladi. Agar musavvir Masihning faqat ilohiy tabiatinigina tasvirlaydigan bo`lsa

ham bid`at bo`ladi, chunki bunday holatda musavvir insoniy tabiatni ilohiy tabiatga tamomila singdirib yuboradi. Boshqacha aytganda, Masihni har qanday yo`l bilan tasvirlash bid`atga olib boradi.

Butparastlikka qarshi kurash davridagi siyosiy va g`oyaviy kurash shu qadar shafqatsizlikka olib bordiki, har ikki tomon nafaqat bir-birini haqarat qildi, balki g`anim tomon yaratgan narsalarni yo`qotishga harakat qilib, bir-birini ta`qib qilishni avj oldirdilar. Avvalo, butparastlikka qarshi kurashuvchilar mutaassiblarcha ibodatxonalaridagi inson tasvirlarini yo`qotdilar, buning o`rniga xoch tasvirini yoki geometrik tasvirni chizdilar.

Shubhasiz, insoniyat tafakkuri mahsuli bo`lgan yodgorliklarning va san`at asarlarining butparastlikka qarshi kurashuvchilar tomonidan yo`q qilingani Vizantiyaning VIII - IX asrdagi madaniy taraqqiyotiga katta zarar keltirdi. Ammo shu bilan birga, unutmaslik kerakki, butparastlikka qarshi kurash aqidasi va ularning estetik tafakkuri olamni obrazli tasavvur qilishda yangicha badiiy tizimni yaratdi. Bezakli naqsh usuli ana shulardan biridir.

Bundan tashqari, butparastlikka qarshi kurash Vizantiyaning dunyoviy tasviriy san`ati va arxitekturasiga yangicha oqimni olib kirdi. O`sha davrdagi ma`lumotlarga qaraganda, Konstantinopolning dunyoviy san`atida butparastlikka qarshi kurash davrida odamni tasvirlash ta`qilanganmagan. Badiiy ijodning eng sevimli motivi imperatorlar va ularning oilalarining, lashkarboshilarning va Konstantinopol saroyidagi amaldorlarning portretlarini chizish musavvirlarning sevimli mashg`ulotiga aylangancha.

Butparastlikka qarshi kurashuvchilar va butparastlik tarafdorlari o`rtasidagi g`oyaviy kurash, ba`zan harbiy kurashlar davom etaverdi. Ammo Masihni ilohiylashtirish tarafdorlari o`zlarining estetik va falsafiy - diniy aqidalarini mahkam ushладilar. Monaxlar san`ati ular tomonidan rivojlantirildi. Bu san`at turining badiiy xususiyatlari Sharq xalqlarining estetik tasavvurlaridan va xalq inonch - e`tiqodlaridan olindi. San`atdagi bu yo`nalishning yorqin namunasini Koppadokiyadagi masihiylar g`orlarda qurban ibodatxonalarining devor suratlarida ko`rish mumkin. Avliyolar boshlari katta, beso`naqay, harakatlari ham notejis qilib tasvirlangan.

Shunisi qiziqliki, Koppadokiyadagi g`orlarda qurilgan ibodatxonalaridagi san`at namunalarida bir paytning o`zida ikki oqimni ko`rish mumkin: bir tomondan, monaxlar butparastlikni davom ettirib, Masihni, Bibi Maryam va avliyolarni tasvirlashda davom etdilar. Ikkinci tomondan, butparastlikka qarshi kurashuvchilar xochning ramziy tasvirini chizaverdilar. VIII - IX asr boshlarida Kapadokiyada butparastlikka qarshi kurashuvchilar ham bir necha ibodatxonalar barpo qilganlar, ibodatxonalar devorlariga ko`plab xoch tasvirini chizganlar.

Butparastlikka qarshi kurashuvchilarining devorga chizgan suratlari badiiy uslubi jihatidan monaxlarning butparastlik suratlaridan deyarli farq qilmaydi. Har ikkala yo`nalishdagi san`at asarlarining badiiy shakllarini rassomlar mahalliy yunon - sharq an`analaridan oldi, bu an`analar esa xalq dunyoqarashining mahsuli edi. Chamasi, butparastlarning aqidalari devor suratlarida saqlanib qolganiga sabab - ularning chet o`lkalarda, markazdagisi singari, ta`qibga uchramagani bo`lsa kerak. Makedoniyaning poytaxti Salonika shahrida ham xuddi shu xususiyatni - ikki oqim san`atda bir paytning o`zida yashaganini ko`rish mumkin.

Butparastlar va ularga qarshi kurashuvchilar o`rtasidagi g`oyaviy kurash o`sha davrdagi kitob miniatyura san`atida ham aks etdi. IX asr o`rtalarida yaratilgan yunon sanolarida har ikkala tomon kurashchilari o`rtasidagi qaqshatqich kurash voqealariga oid miniatyuralar chizilgan. Mazkur miniatyuralarda butparastlarning safari tasvirlangan. Butparastlikka qarshi kurashuvchilar karikatura tarzida chizilgan, ular muqaddas tasvirlarni haqoratlayotganday qilib talqin qilingan.

VIII-IX asrlardagi g`arbiy evropa miniatyura san`ati, devor suratlariga ham yunon va suryoniy butparastlarining ta`siri kuchli bo`ldi. Butparastlar ta`qibdan qochib evropaga ketganlarida, o`zlarini bilan Konstantinopoldagi xalq san`ati an`analarini ham olib bordilar.

X asrdan boshlab Vizantiya madaniyati tarixida yangi bosqich boshlandi. Fanda erishilgan bilimlar, ilohiyot, falsafa, adabiyotda erishilgan natijalar umumlashtirilib, tasnif qilindi. Chet viloyatlardagi shaharlar rivojlantirildi, hunarmandchilik, savdo o`sdi, siyosiy va intellektual tafakkur barqarorlashib, taraqqiy etdi. Markazlashgan davlatni saqlash yo`lida hukmron sinf qat`iy harakat qildi. Mana shular madaniy taraqqiyotga ta`sir etmasligi mumkin emas edi. Tabiiy fanlar o`sdi, odamlarning er va Koinot to`g`risidagi bilimlari kengaydi. Dengizchilik, savdo, diplomatik munosabatlar, huquqshunoslik, evropa va arab mamlakatlari bilan madaniy aloqalar rivojlandi.

Bular ham Vizantiya madaniyatining boyishiga, Vizantiya jamiyati dunyoqarashida keskin o`zgarishlarga olib keldi.

Vizantiya faylasuflari va ilohiyotchilari ilmiy faoliyatida ratsionalizm<sup>4</sup> yo`nalishi bosh o`rin egalladi. XII–XII asrdagi Vizantiya mutafakkirlari antik davr faylasuflaridan ongga hurmatni o`rgandilar. Obro`-e`tiborga asoslangan ko`r-ko`rona ishonch o`rniga, tabiat va jamiyatdagi hodisalarning sabablarini tadqiq etish asosiy o`rin egalladi. Vizantiya amaliy san`ati namunalari dunyoning boshqa mamlakatlari san`atiga - Italiya, Bolgariya, Serbiya, Rus`, Kavkaz va boshqa mamlakatlar san`atiga kuchli ta`sir etdi. Jumladan, binolar, cherkov binolari arxitekturasi Vizantiya uslubida qurildi. Bu davrda Sharqning Vizantiyaga ta`siri kuchaydi. Ayniqsa, adabiyotda bu yanada yaqqol ko`zga tashlandi. “Kalila va Dimna”ning arabcha tarjimasidan imperator Aleksey I Komninning topshirig`i bilan Semyon Sif degan vizantiyalik vrach tarjima qildi. XII asrda vizantiyalik filolog Mixail Andreopul suryoniy tilidan “Panchatatra” tarkibiga kirgan “Sindbodnom”ni tarjima qildi. Bu asar yunonchada “Sintip kitobi” deb yuritilgan.

Umuman, Vizantiya madaniyatining turli bosqichlarida goh sharqona, goh g`arbona elementlar kuzatiladi. IX asr o`rtalarigacha Vizantiya madaniyatiga Sharqning ta`siri kuchli bo`lsa, keyingi davrlarda g`arbiy evropa, ayniqsa, Italiya madaniyatiga Vizantianing ta`siri kuchli bo`ldi. Vizantiya madaniyati evropaning ma`naviy taraqqiyotida muhim rol` o`ynadi.

Vizantiya imperiyasi XIII asr boshlarida Usmonli Turkiya qo`shinlari tomonidan tor-mor keltirildi. Uning o`rniga Lotin (Romaniya) imperiyasi keldi. Ammo bu imperiya siyosiy jihatdan mustahkam bo`limgani uchun bir necha davlatga parchalanib ketdi. 1453 yili Konstantinopolni Usmonli turklar sultoni Mahmed II Fotih zabit etdi. Buning natijasida Lotin imperiyasi mahsuli bo`lgan va Vizantianing parchalanishi oqibatida barpo bo`lgan kuchli Trabzon imperiyasi ham barham topdi. Ammo Vizantianing madaniy ta`siri imperiyaning o`zidan ham uzun umr kechirdi. Trapzon imperiyasi davrida ham Vizantiya madaniyati davom etaverdi.

<sup>4</sup> Рационализм — билиш назариясидаги бир йўналиш, онг – ҳақиқий билимнинг манбаи ва мезони, деб хисоблайди, тафаккурни хиссий билишдан ажратади

## 8 – MAVZU DUNYOVİY VA DINİY MADANIYAT

O`rta asrlarda feodal munosabatlarning shakllanishi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotda keskin o`zgarishlarni keltirib chiqardi. Ayniqsa diniy aqidalarning rasman tus olib, ko`p xudolilikdan yakka xudolilik - tawhid aqidasiga o`tish jarayoni insoniyatning hayot tarzini o`zgartirdi. Bibliya, Talmud, Qur`oni Karimning paydo bo`lishi nafaqat Sharqda, balki g`arbda ham tafakkurni va hayot tarzini jiddiy o`zgartirdi. Endi insoniyat ma`lum tartibga solingan hayot kechira boshladi.

Yakka xudolilik ilk bor Bibliyada shakllandi. Iudaizm tarixi, nazariyasi qadimgi yahudiylarning hayoti va taqdiri bilan zich bog`langan. Bibliyaning Eski Ahd-Tavrot qismi bu to`g`rida to`liq ma`lumot beradi.

Bibliya tarkibiga kiruvchi Tavrotda (Musoning besh kitobi) iudaizm Sharqdagi ko`p xudolilikka qarshi mafkura sifatida yaratildi. Qadimgi Isroil xalqi ilk bor yakka Xudo Yahvega Ibrohim davrida e`tiqod qila boshlagan. Keyin uning o`g`li Ishoq, (islom tarixida – Ismoil) nabirasi Yoqub va uning o`n ikki o`g`li Yahveni tanho Xudo sifatida e`tirof qildilar. Bibliyaning Eski Ahd qismi ham Muqaddas Kitob shaklida Yahve ta`limoti sifatida - mil. aval. Ikkinchı ming yillikda shakllana boshlandi.

Iudaizm to`g`risida bizga Bibliya va u haqda yozilgan ko`pgina asarlar ma`lumot bera oladi. Isroil xalqi Yoqub payg`ambar (boshqa nomi Isroil) qavmlaridir. Bibliyada hikoya qilinishicha, Muso Yahvyo bilan gaplashishga qodir bo`lgan Isroil xalqi rahnamosi va Yoqubdan keyin Xudo bergen qonunlarni amalga oshiruvchidir. O`nta amrni Xudo Muso orqali Isroil xalqiga bergen. Yahve Muso orqali turli mo`jizalar (Muso a.s.ning fir`avn huzurida hassani ilonga aylantirishi, Qizil dengizdan Isroil xalqini olib o`tishi, qoyaga hassani urib, qoyadan suv chiqarishi) ko`rsatib, Isroil xalqining diniy rahnamosi, iudaizm dinining otasi bo`lib qoldi.

Eski Ahd 39 kitobdan iborat. Bu kitob quydagicha guruhanadi: Musoning beshta kitobi yoki Tavrot. Bular quydagilardir: Ibido, Chiqish, Levilar, Sahroda va Amrlar kitoblaridir. Iudaizmnning asosida ana shu beshala kitobdagi aqidalar yotadi.

Bibliyaning davomi Hakamlar kitobi, Shohlar kitoblari (to`rtta), Payg`ambarlar kitoblari, Dovudning “Zabur”i, Sulaymonning «Hikmatlari” va boshqa kichik hajmli kitoblardan iboratdir. Mazkur kitoblarni iudaizmga e`tiqod qiluvchilargina emas, balki Iso Masih ta`limotiga e`tiqod qiluvchi barcha masihiylar - xristianlar muqaddas kitoblar sifatida o`rganadilar.

Eski Ahdda olamning ibtidosi to`g`risidagi chuqur mushohadalarni, odamlar o`rtasidagi munosabatlarni, axloqiy mezonlarni, ijtimoiy qadriyatlarni va boshqa ko`plab falsafiy g`oyalarni, axloqiy o`gitlarni ko`ramiz. Bir so`z bilan aytganda, Eski Ahd Sharq xalqlari ming yillar davomida amal qilib kelgan axloqiy tizimni va Tanho Xudo to`g`risidagi ta`limotni o`zida mujassamlantiradi.

Monoteistik ta`limotga asoslangan uchta oqim - iudaizm, masihiylik, islom bir-biriga bog`liq. Bularning orasida qadimiysi iudaizmdir.

Miloddan av. uchinchi ming yillikda ilk diniy tizim shakllana boshladi. Tarixda markazlashgan hukmronlik paydo bo`lgan mamlakatlarda, jumladan, Misrda mutlaq hukmronlik va ilohiyashtirilgan hukmdor - fir`avnning daxsizligi monoteizmga olib kelgan edi. Misr fir`avniga qaram mamlakatlar xalqi hukmdor qiyofasida olyi ilohiy ramzni ko`rdilar. Hukmdorning ramzi qaram davlatlarning etnik madaniyatida va ijtimoiy-siyosiy jihatdan o`sib borishida umumiylar jarayonni ifoda qildi. Zaminiy hukmdorlikning bir qo`l ostida to`planishi natijasida shunday qarashlar kelib chiqdi: osmonda, ya`ni g`ayritabiyy kuchlar olamida hokimiyat tizimi zamindagi singari tizimni o`zida zohir etadi. Ayni ana shunday qarashlar, taxminlar monoteizmni - Tanho Xudo to`g`risidagi g`oyaning o`sishiga yordam berishi kerak edi.

Iudaizm - mustaqil diniy tizim. Ayni paytda uning taraqqiyoti ko`p jihatdan qadimdan shakllangan mezonlarga - eski an`analarning ta`sir kuchiga ham bog`liq.

Xristianlik yoki masihiylik - dunyodagi ko`p tarqalgan ijtimoiy, falsafiy, diniy oqimlardan biri bo`lib, Bibliyaning Yangi Ahd qismiga asoslanadi. Yangi Ahd (yoki «Xushxabar») Iso Masih yaratgan ta`limotdan iboratdir. Bu oqim dunyoning hamma mamlakatlarida uchraydi. Ammo evropa, Amerika, Avstraliya qit`alarida asosiy davlat dini rasmiy mafkuradir. Garchi masihiylik bugungi kunda G`arb mamlakatlariga xos oqim bo`lsa-da, aslida Sharq va uning madaniyati bilan

zich bog`langan. U, Sharqning boy mifologik, badiiy va aqidaparastlik imkoniyatlaridan foydalandi. Bu imkoniyatlar masihiylikning paydo bo`lishi uchun bitta imkoniyat va asosdir. Ikkinchisi imkoniyat - Masih ta`limotining yuzaga kelishida iudaizmning muhim asos bo`lganidir. Bitta dalil: insoniyatning gunoh qilishi va gunohlardan forig` bo`lib najot topishi g`oyasi asli Eski Ahdning barcha kitoblarida o`z aksini topgan. Gunoh va insoniyatni gunohlardan xalos bo`lib, najot topish g`oyasi evropa uchun ham, Sharq xalqlari hayot tarzi uchun ham muhim axloqiy mezondir. Insoniyatni halollikka va ortiqcha hashamatlarga, boylikka berilmaslikka da`vat qilish ham masihiylik ta`limotining muhim jihatlaridandir. Quyidagi parcha bunga dalildir: “*Hech biri mulkidan biron narsani meniki demas edi, hamma narsani umumiy deb bilishar edi*” (Havoriylarning faoliyati, 4:32).

Ilk masihiylik, barcha diniy ta`limotlar singari, ijtimoiy-siyosiy g`oyalar mahsuliga, iudaizmga va Rim hokimiyatining sobiq Yahudiya hududidagi hukmronligiga qarshi o`laroq yuzaga keldi. Ochiqroq aytganda, ezilgan, xo`rlangan, azob chekayotgan xalqning ta`limoti sifatida vujudga keldi. Masihiylik ta`limoti ommani kurashga da`vat qilmadi, shu ma`noda bu oqimni aslo inqilobiy deb bo`lmaydi. Aksincha, turli ko`rinishdagi qo`zg`olon va urushlarning, nizolarning oldini olgan oqim sifatida paydo bo`ldi. Quyidagi parcha diqqatga sazovordir: ortodoksal yahudiylar bilan Rim imperiyasi askarlari Isoni o`ldirish rejasini tuzib, uni qo`lga olganlarida, Iso qon to`kilishning oldini oladi: “*Iso bilan birga bo`lganlardan biri qilichini qinidan sug`urib, qulochkashlab olyi ruhoniyning qaroliga dast soldi-da, qulog`ini uzib tashladi. Lekin Iso unga:*

– *Qilichingni joyiga qaytarib qo`y! Qilich ko`targan bari qilichdan halok bo`lur. Yoki o`ylaysanki, Men Otamga iltijo qilolmaymanmi? U Menga hoziroq o`n ikki tumandan ko`proq farishtalarни yuborishi mumkin*” (Matto 26:51).

Masihiylik ta`limoti Sharqning mahsuli bo`lsa-da, evropa madaniyatining yuzaga kelishi va taraqqiyotida katta xizmat qiladi. Shubhasiz, evropaning boy madaniyati ildizlari antik davr falsafasidan, haykaltaroshligidan, arxitekturasi va teatridan oziqlangan bo`lsa ham, Leonardo da-Vinchi, Dona Telo, Jotto, Mikelanjelo, Rafael asarlari masihiylik tafakkuri durdonalaridir. Ammo Masih ta`limoti o`cta asrlarda evropa adabiyoti, Kopernik va Galileyning ilmiy kashfiyotlariga qarshi kurashdi. Bu kurashni Masih ta`limotining bo`linishi mahsuli va o`ziga xos diniy ta`limotning “zo`ravonlik” siyosati deb baholash lozim. Bu fikrimizni dalillash uchun masihiylikning ilk o`cta asrlardagi faoliyatidan boshlab o`cta asrlargacha bo`lgan tarixiga e`tibor qarataylik.

IV asr oxirida Rim imperiyasi G`arbiy va Sharqiy qismlarga bo`linib ketgach, masihiy jamoatlarida ham bo`linish yuz berdi. evropa xalqlarining an`analariga, madaniyati va turmushiga jamoatlarning ta`siri ikki yo`nalishdagi jamoatlarni paydo qildi: g`arbiy (katolik–protestant) va sharqiy (pravoslav) jamoatlari. Bular o`rtasidagi ziddiyat Rim jamoati (cherkovi) hukmronligiga qarshi e`tiroz (protest) sifatida shakllandi. Bu jamoatlar o`rtasidagi sezilarli farqlar evropa mamlakatlari va xalqlari ijtimoiy taraqqiyoti yo`llariga, surati va natijalariga turlicha yordam berdi.

G`arbiy imperiyada imperatorning hukmronligi zaiflashdi. Jamoatlarning (cherkov)larning mavqeい asta–sekin kuchaya boshladi. Beshinchi asrda Rim episkopi Papa deb e`lon qilindi. Papaning qo`li ostida katta hukmronlik bor edi. Rim Papasi: “*Mening hukmronligim Xudo tomonidan berilgan, men gunohsizman*”, deb e`lon qildi. Shu tariqa Rim Papasining obro`–e`tibori, siyosiy mavqeい o`cta asrdagi evropa hukmdorlaridan yuqori bo`ldi. Endi katolik oqimi o`cta asr evropa tarixida o`z hukmronligini zo`rlik bilan o`tkazadigan bo`ldi. Hukmdorlar ham Rim papasining obro`yiga tayandilar, jamoatlarning obro`yidan foydalandilar. “*Rabbiyning qabrini imonsizlardan xalos qilish*” uchun Quddusga qilingan salib yurishlari bu to`g`rida guvohlik beradi.

XIV–XV asrlarga kelib Rim katolik jamoatlarining hukmronligiga qarshi da`vat paydo bo`ldi. Bu da`vat aynan madaniyat sohasida yuz berdi. Chunki katolik jamoatlari xuddi madaniyatga o`z hukmronligini o`tkazgan edi. Uyg`onish davri ana shu da`vat mahsuli sifatida yuzaga keldi. Uyg`onish davri fikr erkinligiga, ilmiy bilishga qarshilik qilib kelgan jamoatlarning hukmronligiga zid o`laroq Dante, Rable, Rafael, Bokkachcho, Kopernik, Galiley va boshqa ko`plab olim va ijodkorlarni etishtirdi. Ular madaniyatning tashqi qatlamiitagina islohot o`tkazdilar. Katolik oqimining zaminiga kuchli zarbani Uyg`onish ortidan kelayotgan Islohotchilik (reformatsiya) harakati berdi. Islohotchilik harakati katolik jamoalarini Uyg`onishga xos hurfikrlilik zarbalaridan saqlab qolish maqsadida va Uyg`onish davri madaniyati elementlarini Islohotchilik

oqimiga olib kirishlarga, ya`ni assimilyatsiyalashuvga qarshi chiqdi. Lyuter, Kalvin, Myuntser va b. Papaning begunohligi to`g`risidagi aqidaga, katoliklar jamoatida Xudoga xizmat qilishga oid dabdabalarga, katoliklar jamoati inson va Xudo o`rtasidagi vositachidir, degan jamoaning rolini haddan tashqari oshirishga qarshi chiqdilar.

Katolik jamoati lotin madaniyatidan oziqlangan bo`lib, antik madaniyatga oid qo`lyozma merosning bir qismi saqlanib qolishiga yordam berdi.

Pravoslav jamoalarining katolik jamoalardan farq qiladigan tomonlari quyidagilar. Pravoslavlар Uchlikni boshqacha talqin qiladilar. Ularning qarashicha, Muqaddas Ruh faqat Ota - Xudodan kelib chiqadi, jannat va do`zax oralig`idagi Arosatni tan olmaydi. Arosat - katoliklarga mansub aqida. Indul`gentsiya (bandalarning gunohi kechirilganligi to`g`risida Rim Papasi tomonidan beriladigan yorliq) protestant jamoalariga tatbiq qilinmaydi, xamirturushli non va sharob tanovul qilish marosimini o`tkazadilar. Pravoslavlар bu farqlarga, ayniqsa, 1054 yilda katoliklar bilan tamomila ayrilganlaridan keyin qat`iy rioya qiladilar.

Masihiylik, xususan, katolik oqimi, o`rta asrdagi o`z taraqqiyotidan xulosa chiqarib, keyingi rivojida jamiyatga va odamlarga tazyiq o`tkazishning har qanday ko`rinishlariga barham berdi.

Masihiylikning evropaliklar fe`l-atvori, madaniyati shakllari, tafakkur tarzi va qadriyatlariga ijobjiy ta`sirini alohida ta`kidlash kerak. Bibliya, Bibliyadagi obraz va syujetlar asrlar davomida tasviriy san`atda va haykaltaroshlikda asosiy mavqeni egalladi. evropa me`morligi yaratgan jamoat (cherkov) arxitekturasi Xudoning va jamoatlarning ulug` vorligini sharaflashga qaratildi. Ma`baddagi musiqa, xuddi jamoat xori singari, evropa xalqlarining musiqa madaniyatiga ta`sir ko`rsatmay qolmadidi. Jamoat musiqasi va qo`shiq xalqona madaniyat bilan zinch aloqadorlikda rivojlandi. Masihiy jamoatlari ta`siri ostida yaratilgan madaniyat evropada Xudoni sharaflash, e`tiqodning mustahkamligi uchun xizmat qildi.

Bir so`z bilan aytganda, asrlar davomida, hatto ming yillar davomida turmush va axloq mezonlari, madaniy an`analar, adabiyot yaratish - bularning hammasi masihiy jamoatlarining kuchli ta`siri ostida shakllandi.

**Islomiy madaniyat.** Masihiylik jamoatining mavqeい evropa, Amerika va boshqa ko`plab qit` alardagi mamlakatlarning ijtimoiy, siyosiy va axloqiy madaniyatida qanchalik rol o`ynagan bo`lsa, islam madaniyati Sharqda shunchalik katta rol o`ynadi. Islom - dunyoda monoteizmga, ya`ni tanho xudolilikka asoslangan uchinchi va oxirgi dindir. Bu din ham Yaqin Sharqda paydo bo`ldi.

Islom faqat arab olamida emas, balki Yaqin Sharq mamlakatlarida, Eron, O`rta Osiyo, Hindiston, Indoneziya, Kavkaz, Volga bo`ylari, Bolqon, Afrikaning katta qismiga yoyilib, bu xalqlarning tarixi va madaniyatida katta rol o`ynadi.

Islomning tarixi, ilk davrdagi faoliyati Muhammad s.a.v. va to`rt xalifa - Abu Bakr (hukmronlik davri 632 - 634 yillar), Umar (hukmronlik davri 634 - 644 yillar), Usmon (hukmronlik davri 644 - 656 yillar) va Ali (hukmronlik davri 656 - 661 yillar) bilan bog`liq.

Islom ilk davrdayoq ikki mazhabga bo`lindi. To`rtinchi xalifa Ali shia mazhabiga asos soldi. Bu mazhab tarafdarlari ham, sunniylar kabi, Kur`onni ilohiy deb e`tirof etadilar, ammo xalifalar davrida uning ayrim qismlari tushirib qoldirilgan, deb hisoblaydilar. Shia tarafdarlari faqat Ali va uning tarafdarlari nomi bilan bog`liq bo`lgan hodisalarni tan olganlar va shunday hodisalardan iborat majmular tuzganlar. Bu to`plamlar Axbor deb atalgan. Shia mazhabida tayhid (Ollohnning yagonaligini e`tirof etish), adl (Ollohnning odilligi), nubuvvat (payg`ambarlik), qiyomat yoki maod (oxirat kunining kelishi va marhumlarning tililishi) asosan sunniylik mazhabi bilan mos keladi. Yana shia mazhabida beshinchi aqida ham borki, ular imomat (imomlar) hokimiyatini e`tirof etadilar. Bu mazhab Ali va uning avlodlaridan iborat o`n ikki imom hokimiyatini tan oladi. Shu munosabat bilan barcha xalifalarni, xususan, dastlabki xalifalar Abu Bakr, Umar va Usmonni hokimiyatni zo`rlik bilan bilan egallab olgan shaxslar sifatida qoralaydi. 874-878 yillar orasida 7-9 yoshida bedarak yo`qolgan o`n ikkinchi imom Muhammad al-Mahdiyni ular “yashiringan” deb hisoblaydilar. Zamona oxir bo`lganda, u qaytib keladi,adolat o`rnatadi, deb kutadilar.

Ummaviylar sulolasи (661-750 yillar) xalifa Ali hukmronligi o`rniga kelgandan keyin, sunniylik mazhabи ham paydo bo`ldi. Sunniylik shialikka qaraganda keng tarqalgan. Sunniylar Qur`on bilan birga, sunnaga ham e`tiqod qiladilar. Sunna - islamda musulmonlar uchun ibrat hisoblangan Muhammad s.a.v.ning so`zlari va amallaridan iborat. Payg`ambarimiz hayot vaqtlarida: “Mening so`zlarimni yozmanglar, faqat Olloh oyatlarini yozib olinglar”, deb buyurgan edilar. Shunday qilindi ham. Albatta, kimlardir o`z tashabbusi bilan u hazratning aytgan gaplari va qilgan

ishlari haqida aniq ma`lumotlarni qayd etib borgan bo`lishi mumkin. Ammo Ollohnning kitobi but bo`lmay, yagona o`zgarmas matn holiga keltirilmay turib, unga boshqa so`zlar aralashib ketish xavfiga yo`l qo`yib bo`lmas edi. Rasulullohning so`zlarini va amallarini yozib olish 651 yili — xalifa Usmon davrida bajarildi. Mushaf tuzilib, undan bir necha nusxa ko`chirilib, ko`paytirildi. Ana shundan so`ng VII asrning II yarmidan boshlab Abu Xurayra (vafoti 676 yil), Anas ibn Molik (vafoti 710 yil), Abdulloh ibn Abbos (619 - 686 yillar), Abdulloh ibn Umar, Jobir ibn Abdulloh kabi ilk roviylardan Rasululloh so`zlarini va amallari xususida minglab hadislar yozib olindi. VIII asr boshlarida Ummaviy xalifalaridan Umar ibn Abdulaziz (717 - 720) noiblariga Muhammad s. a. v. ning hadislarini jamlash haqida farmon berdi. Natijada hadis ilmi rivoj topib, yirik hadis to`plamlari yaratildi. Imom Malik ibn Anas (713 - 795)ning “al-Muvatta”, imom Shofe`iy (767-820) va imom ibn Xanbal (780 - 855)larning “Musnad” nomli hadis to`plamlari bunga misoldir. Dastlab imom A`zam Abu Xanifa an-Nu`mon ibn Sobit (699 - 767) ta`limoti asosida sunniy yo`nalishida Xanafiya mazhabini shakllandi. Keyin uning shogirdlari va izdoshlari imom Malik - Molikiya mazhabini, imom Shofe`iy - Shofe`iya, imom Xanbal - Xanbaliya mazhablarini shakllantirdilar. Shia mazhabida esa payg`ambarimiz avlodidan oltinchi imom Ja`far as-Sodiq (700 - 765) Ja`fariya mazhabini yuzaga keltirdi<sup>1</sup>.

Islom, o`zidan oldingi dinlar kabi, ijtimoiy qayta qurishga da`vat qilmaydi. Aksincha, bu din itoatkorlikka, mo`minlikka o`rgatadi. Qullar xo`jayinlariga itoat etishlari lozim, xo`jayinlar ham o`z qullariga muloyim munosabatda bo`lishlari kerak. Olloh oldida garchi hamma teng bo`lsa ham, hayotda bunday tenglik yo`q. Solih inson ijtimoiy tizim ierarxiyasiga rioya qilmog`i darkor.

Islomiy madaniyatning yana bir muhim jihat shuki, islom zulmni qattiq qoralaydi, zulm kufrlidir: “Olloh zulm qilguvchi qavmni hidoyat qilmaydi” (Ol imron, 86 - oyat).

Axloqiy qonun - qoidalar, jismoniy va ma`naviy tomondan pok hayot kechirishga oid o`gitlar, noplilik uchun beriladigan jazo, maishiy hayotning boshqa tomonlariga oid barcha yo`l - yo`riqlar bilan islom ijtimoiy axloqni takomillashtirishga katta hissa qo`shdi. “Zinokor ayol va zinokor erkak - ulardan har birini yuz darradan uringlar. Agar sizlar Ollohga va oxirat kuniga iymon keltiruvchi bo`lsangizlar, Olloh (bu) hukmida (ya`ni zinokorlarni darralashda) sizlarni ularga nisbatan rahm - shafqat (tuyg`ulari) tutmasin” (Nur surasi, 2-oyat). Ammo mish-mish ham og`ir gunoh ekanligi, mish - mish tarqatgan odam ham, zinokorlar singari, jazoga loyiqidir. Unday toifadagi odamlar fosiqlar deb nom olgan, itoatsiz kimsalardir. “Pokiza ayollarni (zinokorlar deb) badnom qilib, so`ngra (bu davolariga) to`rtta guvoh keltira olmagan kimsalar(ni) - ularni sakson darra uringlar va hech qachon ularning guvohliklarini qabul qilmanglar” (Nur surasi, 4-oyat). Mazkur axloqiy tushunchalar Sharq olamida azaliy va hamma dinlar uchun umumiyo bo`lib, zardushtiylikda, iudaizmda va masihiylikda ham qattiq qoralanadi. Kundalik hayotda axloq va madaniyat uyg`un, doimo biri ikkinchisini talab qilgan, sog`lom ma`naviy, madaniy muhit jamiyatning ilgarilab borishi uchun xizmat qilgan. Islom pok hayot kechirishga oid mavjud aqida va qonun-qoidalarni takomillashtirdi.

Umuman, islomda axloq keng tushuncha, jamiyatning hamma tomonlarini qamrab olib, ma`naviy sog`lom muhit yaratish uchun xizmat qiladi.

Islomda ilm o`rganish tashviqi va targ`iboti alohida ta`kidlanadi. Qur`on ham Muhammad s.a.v.ning ilohiy hikmatlarini anglashga da`vat etdi. Islom ham, yakka xudolilikka asoslangan boshqa dinlar kabi, insoniyatni tuban ketishdan saqlashga, pok hayotga yo`llashga qaratilgan.

Islom qadimiy Sharq, Yunoniston, Eron, Turkiston va qisman Hindistonu Chinning tafakkur mahsulidan yangi madaniyat yuzaga keltirdi. Ilm madaniy bosqichning oliy cho`qqisi ekaniga da`vat qilib, ilm tahsilini musulmon ahliga da`vat etdi. Olim bilan johilning teng bo`lmasligini uqtirdi. Darvoqe, odam ilm egallagandagina, u madaniyatli toifa qatoriga qo`shiladi.

Turkiy qavmlar yashaydigan o`lkalarda islomning tarixi o`ziga xos kechdi. Islom Movarounnahrda qaror topgach, shimolda xazarlar, bulg`orlar orasigacha yoyildi. Turkiy madaniyatning uzlusiz rivojiga islom madaniyati ta`sir etdi. Ayniqsa, o`g`uz va qorluqlar orasida islom dinining yoyilishi nafaqat turkiy xalqlar tarixida, balki jahon tarixida ham ulkan natijalar

<sup>1</sup> М. Имомназаров. Миллий маънавиятимизнинг тақомил босқичлари. “Шарқ” нашриёт матбаа концернининг бош таҳририяти. Тошкент, 1996, 31-бет.

berdi. 960 yilda ikki yuz ming ko`chmanchi o`g`uz va qorluq qabilalari yoppasiga islomni qabul qildi.

Islom va ilmiy bilimlar rivoji. Islomning yoyilishi va O`rta Osiyoda mustahkam qaror topishida arab tili asosiy rolni o`ynadi. “Tarixda favqulodda bo`lgan va biz Uyg`onish deb ataydigan davrni yaratgan kuchlar”<sup>2</sup> xuddi shu davrda yuzaga keldi. Uyg`onish davrining buyuk namoyandalari o`zlarining amaliy faoliyati, tarix, falsafa, mantiq, shuningdek, aniq fanlar sohasidagi kashifiyotlari bilan O`rta Osiyo tarixida chuqur iz qoldirdilar.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (780, Xiva - 850, Bag`dod). Bag`dodga taklif qilingan. Avval xalifa al-Ma`mun (813–833), so`ngra al-Mutasim (833 - 842), al-Vosiq (842 - 847) saroyida ishladi. U Sharqning ilk akademiyasi - “Bayt ul-hikma” (Donolar uyi)da faol mehnat qildi. Bu erda uning rahbarligida Ahmad Farg`oniy, Ahmad ibn Abdulloh Marvaziy kabi O`rta Osiyolik olimlar tardqiqotlar olib borganlar. Xorazmiy “Al-jabr val-muqobala”, “Kitobu surat al-arz” kabi asarlari bilan matematika, astronomiya fanlarining asoschilaridan bo`ldi.

Xorazmiy “Al-jabr” asarida olimlarni uch toifaga bo`ladi: Birinchi toifasi o`zigacha qilinmagan ishlarni qilib, o`sha ishlarni kelajak avlodlarga qoldirib, boshqalardan o`zib ketadilar. Ikkinci toifasi o`tmishdoshlarining mehnatlarini sharhlab beradilar va bu bilan qiyinchiliklarni engillashtiradilar, qulflarni ochadilar, yo`llarni yoritadilar. Bu esa tushunishni engillashtiradi. Uchinchi toifasi ba`zi kitoblardagi nuqsonlarni topadi va uzilgan joylarini ulaydi.

Shu tasnif bo`yicha Xorazmiyning o`zini “Algebra”ning muallifi sifatida birinchi guruhga, “arifmetika”si bilan ikkinchi guruhga kiritish mumkin.

Xorazmiy astronomiya sohasida ham ishlar yaratgan. Bag`dod rasadxonasida o`tkazilgan kuzatishlari va hindlarning astronomiya jadvallarini har tomonlama tanqidiy tahlil qilish asosida yangi “Astronomiya jadvali”ni tuzdi. Bu asar XSh asrda arab tilidan lotin tiliga italyan olimi Adelard Batskiy tomonidan tarjima qilindi.

Xorazmiy “Usturlob haqida risola”, “Quyosh soatlari to`g`risida risola”, “Tarix risolasi”, “Musiqa risolasi” kabi asarlar ham yozganligi to`g`risida ma`lumotlar bor.

Abu Nasr Forobi (873, O`tror - 950, Damashq) Forobda o`qigan, Shoshda bo`lgan, Buxoro, Samarqand, Bag`dodda ta`lim olgan. Halabda, Damashqda yashagan. 160 dan ortiq ishlar yaratgan.

Forobi qomusiy olim sifatida falsafa, mantiq, musiqa, tibbiyot, matematika, astronomiya, tilshunoslik va boshqa bir qator fanlarga oid risolalar bilan Sharq olamida mashhurdir.

Forobi qadimiylarsa bilan tanishar ekan, avvalo Aristotel asarlarini sinchiklab mutolaa qilgan. Zotan, Aristotelning asarlari Sharq tillariga tarjima qilinib, keng ko`lamda o`rganilar edi. Lekin Aristoteldan keyin falsafa sohasida Sharqda Forobi singari zot chiqmadi. U fikr doirasi kengligi uchun Aristoteldan keyingi mutafakkir - “muallimi as-soniy” deb ataladi. Muarrixlarning xabar berishlaricha, Damashqning o`zida Forobiyning o`zidan ta`lim oluvchilarning soni o`n mingga etgan.

Forobi shug`ullangan har bir soha, u yozgan har bir asar o`rta asrlarda olimlar tahniga sazovor bo`lgan. Mantiq ilmining buyuk ustoz, arab olimi Ibn al-Qiftiy (1172 - 1248) Forobiyning “Ihsan al-ulum va at-ta`rif” (Ilm sanog`i va ularning ta`rifi) asariga ta`rif berib: “Bunday asarni yozishda hech kim Abu Nasrdan o`zib keta olmagan”, deydi. Bayhaqiy (vafoti 1169) Forobiyni islomdan keyin o`tgan eng buyuk hakim deb ta`riflaydi: “Hakimlar aslida to`rtta bo`lgan ekan. Ikkitasi islomda oldin chiqqan - Arastu va Iskandar (Afrudusiy) bo`lganlar. Ikkitasi islom davrida etishgan. Ular Abu Nasr bilan Abu Ali ibn Sinodir... Ibn Sino Abu Nasrning kitoblar orqali unga shogird sanalgan”<sup>3</sup>.

Sharqdagi yana bir mashhur tarixchi va bibliograf Ibn Xallikon (1211 - 1282) yozadi: “Abu Nasr Forobi mantiq, musiqa va bu ikkala fandan tashqari yana bir qancha sohalarga oid asarlar muallifi va u musulmonlarning eng yirik faylasufidan sanaladi. Hech kim bu kishichalik ilm-fan darajasiga erisholmagan”<sup>4</sup>. Abu Nasr she`rlar ham yozgani to`g`risida Ibn Abu Usaybiya xabar

<sup>2</sup> Н. Конрад. Алишер Навоий. — “Ўзбек тили ва адабиёти” журнали, 1969, 1-сон, 16-бет.

<sup>3</sup> Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шахри. Тошкент, Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1993, 192-193-бетлар.

<sup>4</sup> Шу асар. 200-201- бетлар

berib, uning she`rlaridan namunalar ham keltiradi<sup>5</sup>.

Forobiy yunon olimlarining asarlarini tarjima qilib, o`sha asarlarga sharh yozgani ham ma`lum. U Epikur, Zenon, Ptolomey, Parfiriy asarlariga sharhlar yozgan, turli falsafiy maktablar-epikurchilar<sup>6</sup>, stoiklar<sup>7</sup>, pifagorchilar<sup>8</sup> maktablarini yaxshi bilgan.

Forobiyning fandagi eng katta xizmatlaridan biri “Aflatun qonunlari mohiyati” va “Aristotel` falsafasi” asarlarini yaratgani bo`ldi. Forobiyning har ikki asari ham Aflatun va Aristotelning asarlariga sharhdir.

Arab tili, qolaversa, fors tili ham, O`rta Osiyo madaniy va ilmiy hayotida katta rol o`ynadi. O`rta Osiyo Sharqdagi ilm-fanning eng muhim markazlaridan biriga aylanishida arab va fors tillari katta omil bo`ldi. Qolaversa, alohida diniy-falsafiy oqim - tasavvufning shakllanib, rivoj topishi ham arab va fors tillaridagi asarlarga bog`liq bo`ldi.

Tasavvuf va madaniyat. Islom va uning vositasi bo`lgan arab tili aniq fanlar rivojida o`rta asrlarda muhim rol o`ynadi. Albatta, ilk o`rta asrlar - keskin burilishlar, ko`tarilishlari davridir. Mafkurani belgilovchi omillardan biri bo`lgan jahon dinlari insoniyat taraqqiyotining muayyan bosqichida yanni ma`naviy-ruhiy zarurat, fikriy va hissiy izlanishlar ehtiyojiga javob tariqasida paydo bo`ldi. Islom Sharqda, Markaziy Osiyoda katta madaniy ko`tarilish paydo qilishi bilan birga, qabilachilik xurofotlariga barham bergani bilan ahamiyatlidir.

Islom madaniyatining eng yuksak qadriyati tawhid e`tiqodidir. Shuningdek, shariat ham islam madaniyatida muhim, har bir musulmon farzandi bajarishi kerak bo`lgan an`anaviy amallar, aqidalardir.

Tawhid e`tiqodi shubhasiz, islomdan oldin ham shakllangan edi. Tawhid tasavvufni vujudga keltirdi. Tasavvuf to`g`risida so`z yuritar ekanmiz, islam tasavvufining shakllanishi o`ziga xos, alohida diniy falsafiy oqim sifatida jaholat va xudbinlikka qarshi o`laroq maydonga chiqqanini ta`kidlash lozim.

Tasavvuf o`rta asrlar ijtimoiy hayotida katta kuch bo`ldi. Bu oqimning shakllanishida aslida kundalik turmushdagi oddiy hayotiy voqealar, tushunchalar ham muhim rol o`ynaganini aytib o`tishimizga to`g`ri keladi. Ana shunday hayotiy tushunchalardan biri - *muruvvatdir*.

Muruvvat - tasavvufning ilk ko`rinishlaridan biri, xudbinlikka qarshi maydonga kelgan *futuvvat* (yoki *javonmardlik*) oqimining ilk ibtidosidir. Muruvvat - birontasiga o`zi uchun, yaqinlari va mol-mulki uchun majburiyat yuklaydi. Muruvvatli odam boshqalarning burchini ham o`z zimmasiga olgach, ularning rohat-farog`ati yo`lida mashaqqatlarga duch keladi. Shu tariqa bu odam futuvvatli insonga aylanadi.

Futuvvat - tariqatning bir bo`lagi, futuvvat asoslari bilan tasavvuf g`oyalari bir-biriga muvofigdir. Futuvvat ham, tasavvuf ham inson axloqini poklash, mehru shafqat, himmat va mardlik ko`rsatishni targ`ib etadi. Sodda qilib aystsak, futuvvatning zohiriya va botiniy ruknlari insoniyatni ma`naviy sog`gom bo`lishga da`vat etadigan, komillikka etaklaydigan, umuman bugungi til bilan aytganda, eng madaniyatli odam, deb ta`rif berishga loyiq inson qilib tarbiyalaydigan tariqatdir.

Futuvvatning zohiriya ruknlari quyidagilar:

*Birinchisi* - g`iybat, yolg`on, bo`hton va behuda so`zlardan tilni tiyish. Zero tilidan xalqqa ozor etmaydigan odamgina futuvvatga da`vo qila oladi. *Ikkinchisi* - nojo`ya, nomaqbul so`zlar, bo`hton, g`iybatdan quloqni berkitish. *Uchinchisi* - ko`rish nojoiz hisoblangan narsalardan ko`zni yumish. *To`rtinchisi* - harom narsalardan, xalq ozoridan qo`lni tortish. *Beshinchisi* - borish man` qilingan noshoistajoylardan oyoqni tortish. Haqorat va gunohga sabab bo`ladigan, gap tashish va ziyan-zahmat, ozorga etaklaydigan ishlarga qadam qo`ymaslik. *Oltinchisi* - harom ovqatlardan og`izni, zinodan a`zoni berkitish. Zino - futuvvat ahdini buzish, haromxo`rlik va futuvvat rishtasini uzishdir.

Botiniy ruknlar mana bulardir: *birinchisi* – saxovat, ya`ni tilamasdan burun o`z mahalida bag`ishlamoq va oqibatini o`ylamaslik, layoqatu qobiliyatni andesha qilmaslik. *Ikkinchisi* – tavoze`,

<sup>5</sup> Шу асар, 211-212-бетлар

<sup>6</sup> эпикурчилар – Эпикур (мил.ол. 241 – 370 йиллар) тарафдорлари; уларнинг қарашича, одам баҳт-саодатга онгли равишида интилади.

<sup>7</sup> стоиклар – буларнинг қарашича, одам онгга итоат этиб, хис-туйгулардан ва майллардан халос бўлиб яшаш керак.

<sup>8</sup> пифагорчилар — табиатдаги ҳамма ҳодисалар миқдор муносабатларига боғлиқ, деб қараш тарафдорлари.

ya`ni boshqalarni o`zidan afzal bilmoq, barchaga kamtar, xoksor munosabatda bo`lish. *Uchinchisi* - qanoat... *To`rtinchisi* - avf va marhamat, ya`ni xalqqa shafqat ko`rgazmoq, kishilar gunohini kechirmoq va iloji boricha ularga yaxshilik, muruvvat bilan muomala qilish... *Beshinchisi* - havobalandlik va g`ururni tark etish, ya`ni qanchalik ma`qul va maqbul ishlarni amalgalash ham mag`rur bo`lmaslik. Zero iblis kibru havo tufayli jannatdan badarg`a bo`ldi. *Oltinchisi* - qurb (iloziyotga yaqinlashish) va vaslat (yo`l) maqomiga butun vujudi, dilu joni bilan intilish<sup>9</sup>.

Futuvvat tariqatiga mansub odamlar jamoa bo`lib uyushib, o`zlarining ezgu maqsadlarini amalga oshirganlar. Xuroson va Mavarounnaharda X asrdan boshlab futuvvat ancha keng yoyila boshladi. Bu tariqatga mansub odamlar muayyan qoida va talablarga rioya etar, ma`naviy va jismoniy etuklikka intilar, nima ish qilsalar ham, mardlik, olivjanoblik namunasini ko`rsatar, zulmga, haqsizlikka qarshi kurashardilar.

Tasavvufning shakllanishida zohidlik harakati ham muhim rol o`ynagan. Kufa, Bog`dod shaharlarida tarkidunyo qilgan zohidlar ko`p edi. Qolaversa, ularning xalq orasida obro`yi ham katta bo`ldi. Chunonchi, Uvays Qoraniy, Hasan Basriy kabi so`fiylar aslida zohid kishilar edilar. Zohidlarning niyati ibodat bilan oxirat mag`firatini qozonish, Qur`onda va`da qilingan jannatning huzur-halovatiga etishish edi. So`fiylar nazarida esa jannat umidida toat-ibodat qilish ham ta`maning bir ko`rinishidir. So`fiy uchun na dunyodan, na oxiratdan ta`ma bo`lmasligi kerak. Ularning yagona istagi - Xudo diyordir, xolos.

Zohidlik tushunchasi va harakatini faqat islom bilan bog`lash biryoqlamadir. Asli zohidlik Buddadan boshlangan. Buddaning hayoti to`g`risidagi rivoyat shundan dalolat beradi.

Budda - haqiqat najotkori demakdir. Uning asl nomi Siddxartxa. Siddxartxaning onasi – shakiylarning hukmdori Mayyaning xotini bir kuni tushida yoniga oq filning kirib yotganini ko`rdi. Ma`lum vaqtidan so`ng u o`g`il tug`di. U boshqa ayollar singari tug`may, qo`ltig`idan tug`di. Uning ovozini koinotdagilhamma xudolar eshitdi. Borliqdagi uqubatlarning oldini oladigan odam keldi, deb xursand bo`ldilar. Dono Asita chaqaloqning buyuk qahramonliklar ko`rsatishi haqida karomat qildi. Chaqaloqqa Siddxartra deb ot qo`ydilar. Bu “topshiriqni bajaruvchi” deganidir.

Otasi o`g`lining diniy ruhda tarbiya topishini istamadi. U hayotning salbiy tomonlarini o`g`lidan yashirib, dabdabali hayotni muhayyo qildi. O`g`liga haqiqiy dunyoviy tarbiya berdi, chiroyli qizga uylantirdi. Xotini o`g`il tug`ib berdi.

Bir kuni Siddxartxa Gautama shahri bo`ylab sayr qilib yurgan edi, qartaygan bir cholni ko`rdi. Uning butun tanasiga yara toshgan, tarki dunyo qilgan, yillar davomida qaddi bukilgan edi. Shu tariqa Siddxartra jonli mavjudotlarning muqarrar azob chekishini bildi. Shu kechasi u hech kimga bildirmay saroyni tark etdi, zohidlikda hayot kechirishni boshladi va azoblardan qutqarish yo`llarini izlay boshladi.

etti yil davomida u azob-uqubat bilan ter to`kib, kohin braxmanlarning muqaddas kitoblarini o`qidi. Ochlikni bas qilib va yolg`on donolikdan voz kechib, uzoq mushohadalardan keyin qutqarishga yo`l ochdi. U “to`rt olivjanob haqiqat”ni fahmladi.

Iso Masihning ta`limoti va faoliyati ham aslida zohidlikning eng mukammal ko`rinishidir. Masihiylik ta`limoti aslida zaminiy boylik va hashamatdan voz kechib, Xudo yo`lida xizmat qilish, jamiki gunohlardan tiyilish va shu orqali Xudo beradigan Samoviy Shohlikka erishishga da`vat qilishdan iboratdir. Masihning eng buyuk aqidalaridan biri- faqirlikni ixtiyor qilish borasida shaxsiy namuna ko`rsatganidir.

Zohidlardan keyingi davr so`fiylari tafakkuriy-shuuriy rivojlanishni - dunyoni va ilohni bilishni, tanishni asosiy maqsad deb hisoblaganlar. Bu davr oriflik davri deb ataladi.

Tasavvufning paydo bo`lishida yana boshqa omillar ham bor. Bular - shia mazhabi, yunon falsafasi, hind falsafiy qarashlari, zardushtiylikdir. Tasavvuf amaliyoti va falsafasida bularning samarali ta`siri bo`ldi.

Tasavvuf tarixi islom tarixi bilan birga rivojlanib, islom madaniyati va ma`rifatiga ulkan hissa bo`lib qo`shildi. Dastlabki paytlarda Kufa, Basra va Bag`dod shaharlarida sanoqli darajada

<sup>9</sup> Ҳусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи сultonий ёхуд жавонмардлик тариёти. — форс-тожик тилидан Нажмиддин Комилов таржимаси. Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти. Тошкент, 1994, 10–11–бетлар.

zohid va so`fiylar yashagan bo`lsalar, bora–bora musulmon olamida shayxu mashoyixlar, so`fiy daveshlar, qalandarlarning soni ko`paydi, o`ziga zos harakatga aylandi. Birgina Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul–uns” kitobida 664 shayx va so`fiylarning nomi zikr etiladi. Bu kitobga kirgan so`fiylar faqat XV asrgacha yashab o`tganlaridir. XV asrdan keyin ham ko`plab avliyolar yashab o`tganlar.

**9 – MAVZU**  
**TEXNOGEN VA ZAMONAVIY MADANIYAT**  
**(XVI-XX ASRLAR)**

Zamonaviy madaniyatni ayrim mutaxassislar texnika, elektron yoki axborot madaniyati deb ataydilar. Bunday munosabat xozirgi madaniyatda fan va texnikaning o`rni muximligini ko`rsatadi. Zamonaviy fan qadimgi yoki o`rta asrlardagi fandan tubdan farq qiladi. Ilgarilari fan dunyoniga qanday bo`lsa shu holida, unga dahil qilmay o`rganar edi. Hozirgi fan bilish, yaratish, ihtiyoj qilish, loyiha tuzish kabi jarayonlarni o`zida mujassamlashtiradi va inson aql-zakovati yordamida hal bo`ladigan muammolarga e'tiborni jalb etadi. Bugungi kunda ilmiy haqiqatni ochish bilan birga insonning ehtiyoj va manfaatlariga mos keladigan imkoniyatlarni topish fanda ustuvor bo`lmoqda.

Fan va madaniyatdagi yangi yo`nalish shakllanishining boshlanishi G`arbda Uyg`onish davri (XIV-XVI asrlar) bilan bog`liq. Uyg`onish davri evropa madaniyati taraqqiyotida muxim davr bo`lib, mutlaqo yangi madaniyat bosqichini boshlab berdi. Shaxarlarning ko`payishi, evropada ichki va tashqi savdoning vujudga kelishi, xunarmandchilikning rivojlanishi evropa madaniyatida yangi yo`nalishlarning paydo bo`lishiga olib keldi. Qisqa vaqt ichida moddiy madaniyat va texnologiyalar o`zgarib, ko`plab muxim ilmiy kashfiyotlar qilindi. Buyuk geografik kashfiyotlar dunyoning diniy manzarasini o`zgartirdi, aqliy va iqtisodiy xududni kengaytirib jahon savdosini vujudga kelishiga sabab bo`ldi. Antik davr merosini o`rganish yangi falsafiy yo`nalishlar paydo bo`lishiga turki bo`lib inson va tabiatning o`zaro munosabatlarda mutlaqo o`zgacha andoza va mezonlar shakllandı.

Yangi davr – fan, texnika taraqqiyoti nafaqat dunyoniga, odamlarni fikr tarzini ham o`zgartiradi.

Jamiyatda «gumanizm» deb nomlanuvchi yangi g`oya shakllandı. Bu nom inson xaqidagi yangi dunyoviy fandan kelib chiqqan bo`lib, ilgarigi «iloziyat xaqidagi fanni» asta-sekin siqib chiqardi. Insonparvarlik g`oyasi quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Tabiat qonunlarini - «tabiiy-muvofiq» tamoyili asosida g`ayri tabiiy kuchlarni qo`shmasdan tushuntirishga asoslanish;
2. Insonni hayot markazi qilib olish (antropotsentrizm) - insonga mavjudot deb emas, tabiatning gul toji sifatida qarash;
3. Aqliy tafakkur (ratsionalizm) - inson idrok va zakovat orqali atrof muxitni, o`z-o`zini biladi deb xisoblash;

Insonparvarlik g`oyalarining rivojlanishi dunyo va insonning diniy kontseptsiyasi buzilishiga va XVIII asrda inson shaxsining o`zini qadrlash xaqidagi ta`limot paydo bo`lishiga olib keldi. Gumanistlar o`z ta`limotining ishonch mezoni deb emprik-tajriba va ratsionallikni xisobladi. Bu xulosa ularni cherkovni Reformatsiya qilish (M. Lyuter, J. Kal`vin), utopik sotsializm (T. Mor, T. Kampanella) va ijtimoiy pragmatizm (N. Makkiavelli) kabi g`oyalarni nazariy asoslashga olib keldi.

Uyg`onish davri gumanistlari dunyo va inson paydo bo`lishidagi iloxiy g`oyalarni butunlay inkor qilmadi, balki olam doimiy va qat`iy qonunlarga muvofiq ravishda bunyodga kelishini tasdiqladilar. Idrok insonga bu qonunlarni tushunib o`z jamiyatini tuzishda qo`llashi uchun berilgan. Shu hayotda baxt-saodat qaror topsa oxirat ham obod bo`lishi mumkin deb takidladilar. Ular nazarida inson tabiat qonunlariga mos ravishda rivojlanuvchi aqliy mavjudot xisoblanib, nafaqat moddiy dunyo markazida turadi, u shuningdek, badiiy ijod va rang tasvirining ob`ekti hamdir.

**Antropotsentrizm, ratsionalizm, stsientizm** – Uyg`onish davri madaniyati yaratgan asosiy qadriyatlar keyingi asrlar evropa madaniyati asosini bslgiladi. Uning keng rivojlanshi natijasida XVII asrda «ilmiy inqilob», XVIII asrda Ma`rifatparvarlik g`oyalarining tarqalishi va sanoat inqilobi boshlanishiga, nioxoyat, XIX-XX asrlar davomida madaniyatning klassik texnikaviy shaklidagi yutuqlarga olib keldi.

XVII asrda fan evropaliklar xayotiga, jamiyat ishlab chiqarishining barcha tizimlarini rivojlantirish va me`yorida faoliyat ko`rsatishining tabiiy va zaruriy sharti bo`lib maxsus ijtimoiy institut sifatida jadal kirib keldi. XVII asrda ilmiy inqilob matematika va mexanikada sodir bo`lib, aniq fanning ikki yo`nalishi, ya`ni, aksiomatik va tajribaviy faoliyatlar birlashdi. Zamonaviy fonda eksperiment (tajriba) bilishning usuli va quroli sifatida nazariy fanning antik va o`rta asrlar shaklidan tubdan farq qiladi. Eksperimentga tayanuvchi olim antik davr donishmand faylasufi yoki

o`rta asrlardagi iloxiyotshunosdan farqli olamga mutlaqo boshqacha munosabatda bo`ladi. U sodir bo`layotgan xodisalarni kuzatish va mushoxada qilishdan tabiatni o`z extiyojiga mos tarzda o`zgartiruvchiga aylandi va o`zining kuchlarini namoyon qildi.

Fanning shakllanishi va sekin-asta jamiyat xayotiga muxim asos bo`lib kirishi yangi davr kishisining turmush tarzi, fikr yo`sini, tafovutli qiyofasi sifatida ratsionalizmning paydo bo`lishga sabab bo`ldi. Ratsionalizmning keng ko`lamda namoyon bo`lishi XVIII asrdagi ma`rifatparvarlik xarakati bilan bog`liq. Barcha baxtsizlik va noxaqlikdan insoniyatning aziyat chekishi bilimsizlikdan ekanligiga, faqat ma`rifatli xalq va uning xukmdori «Ozodlik, Tenglik, Qardoshlikni» o`rnatishga ma`rifatparvarlar ishonganlar. Ma`rifatparvarlar vakili D.Didro va D.Alamber «Fan, san`at va xunarmandchilik entsiklopediyasi»ni nashr qildilar. Bu madaniyatning katta yutug`i bo`ldi. «Entsiklopediya» nafaqat insoniyatning muximi ilmiy yutuqlarini tartibga soldi, balki yangi madaniy qadriyatlar tizimini ham tasdiqladi.

Ma`rifatparvarlarning ratsionalistik yo`nalishi XVIII asrdagi ishlab chiqarishni tashkil qilish, davlatning ichki va tashqi siyosati, xuquq institatlari va siyosiy partiyalarning shakllanishi, san`at taraqqiyotida ko`plab tamoyillarni belgilab berdi. Ma`rifatparvarlar Buyuk Frantsuz inqilobining ideologlari hisoblanib, Uyg`onish davri gumanistlari boshlab bergan madaniy qadriyatlarni ulug`lash jarayonini nixoyasiga etkazdilar. XVIII asrda ilmiy bilim jamiyat ongini butunlay yangi sifat darajasiga ko`tardi. Fan insonning ma`naviy xayotiga chuqur kirib borib uning madaniyatiga mazmun bag`ishladi. Kishilarning tabaqaviy, milliy-irqiy yoki boshqa farqlaridan qat`iy nazar barcha uchun bir xil mohiyat kasb etdi.

evropa va Shimoliy Amerikaning ko`plab mamlakatlarida XIX asrning o`rtalarida industrorashtirish yoki sanoat burilishi niyoyasiga etdi. **Ratsionalizm** va **utilitarizm** (manfaatparastlik)ning madaniyatdagi belgilovchilik o`rni fan va texnika taraqqiyotiga yangi turki berdi. Oddiy to`quv dastgoxi «Jenni» dan J. Uattning bug` mashinasi (1784 yil) va R. Fultonning bug` kemasi, Stef ensonning parovozidan (1814 yil) birinchi er osti temir yuliga (1863 yil) o`tilishi injenerlik fikrining o`sishini ko`rsatdi. Bug` va elektrorashtirish, telefon va telegraf davri, astronomiya, geologiya, biologiya, ximiya soxalarida ajoyib kashfiyotlar bo`lgan vaqt insoniyat madaniyatini yangi bosqichga ko`tardi.

Mashxur sotsiolog P. Sorokinning xulosasi bilan aytganda «faqat birgina XIX asrdagi kashfiyot va yangiliklarning o`zi oldingi asrlardagi kashfiyotlarning hammasini jamlagandan ham ko`pdir».<sup>1</sup> Xususan, bu asrda 24 8527 ta kashfiyot xisobga olingan va bu makon, zamon va materiya ustidan texnika xukmronligining cheksiz o`sganligidan dalolat beradi. Ispan faylasufi X. Ortega Gassetning yozishicha: «Biz xaqiqatdan ham XIX - asrda insoniyat taqdirda ro`y bergen radikal o`zgarishlar oldida turibmiz. Zamonaviy inson uchun ham jismonan, ham ijtimoiy jixatdan mutlaqo yangi manzara, yangi faoliyat yaratildi. Bu yangi dunyoning qiyofasini uchta muxim jixat belgilaydi. Bu demokratiya, eksperimental fan va industrializatsiya. Ikkinchi va uchinchi jixatlarni «texnika» nomi bilan umumrashtirish mumkin»<sup>2</sup>.

Tsivilizatsiyaning o`sishi dastlab makon va zamonga xos kechdi: insonning ma`naviy dunyosi o`tmishning yangi xududi va yangi «qatlami»ni o`zlashtira boshladи. Bilishning maydoni chuqurlashdi va kengaydi. Biroq, shu bilan birga zamon va makonni enguvchi yangi usullar ham paydo bo`ldi: inson yangi texnika vositasida ulkan fazoviy vaqtini qisqa muddatda bosib o`tib, er yuzining xoxlagan joyida bo`lish imkoniyatiga ega bo`ldi. Dunyo yangi qiyofa kasb etdi.

XIX asrda texnotsentrik dunyoqarash keng tarqalib, kishilar o`z xayotini ilmiy asosda ko`rishga urina boshladи. Injenerlik faoliyati tamoyillari tabiat va jamiyat xayotiga keng yoyildi.

Insonning turmush jarayonidagi bunyodkorlik, tirikchilik tashvishlari o`rnini bundan buyon ixtirochilik, texnika ijodkorligi, extiyojlarni qondiruvchi texnika vositalari yaratish egalladi. Tabiat, inson, madaniyat kabi tushunchalar talqini sezilarli o`zgardi. Tabiat material va energiyaning bitmas-tuganmas manbai, universal omborxonaga aylanib qoldi. Xatto, tabiat sirlarini o`ta chuqur anglash ham unga yaqinlashish degani emas, balki, aksincha qandaydir uzok, begonalikni, faqat texnik yondoshuvni bildiradi. Insonning o`z tabiati sirlarini anglashga urinishi shunchalik karamakarshi natijalarga olib keladi. XIX asr insonga «koinot sardori», «barcha narsalar xukmdori»

<sup>1</sup> Сорокин П. Человек, Цивилизация, Объество, М. 1992, с 467 .

<sup>2</sup> Орtega-и- Гасит X. Восстания масс.- Вопросы Философии, №3, 1989, с 127-128 .

yorlig`ini berdi. Inson ko`proq «mexanik agregat», «fizik-kimiyoviy unsurlar majmui», «maymunga turdosh maxluq», «turli mehnat qurollari tayyorlovchi Xomo faber» kabi sifatlar bilan atala boshlandi. Insonning o`zi mexanizm bo`lgani kabi, dunyo ham unga o`xshash ulkan mashina ishlab chiqaruvchi fabrikadir. Insonning o`zi-o`rtacha mehnat unumdarligiga ega bo`lgan madaniyat ijodkori degan fikrlar paydo bo`li. Insonni xayoti, ehtiyojlari va maqsadlarini belgilab beradigan g`oyalar, meyorlar, tartiblar paydo bo`ldi, umumxayotiy andoza, turmush tarzi qonuniylashdi, barchaning xuquqi tenglashdi, ko`p sonli o`rta sinf shakllandı, misli ko`rilmagan muvaffaqiyatlar ilá ozodlikka erishdi, munosabat, did, odatlar yangi andozalarga ko`chdi. Ommaviy madaniyat, xissiz, shaxssiz madaniyatlar davri keldi.

XIX-asrda texnika taraqqiyoti g`ayriqonuniy ravishda madaniyatning butun rivojini bir xil qolipda o`lchashi jamiyat fikrida iqtisodiy omillarning ahamiyati oshuviga olib keldi. Bu esa olamni texnik o`zlashtirish suratlari sezilarli o`sishiga sabab bo`ldi. Oqibatda taraqqiyotning jadval va nazoratsiz o`sishi jarayonida tsivilizatsiya butunlay xalok bo`lishi mumkin degan xavotirlar paydo bo`ldi. (I. Xeyzing). Bu muammolar XX asrda yanada yaqqol ko`zga tashlandi.

XX asrda texnika surati xaddan tashqari o`sdi. Keyingi yuz yilda er yuzida sanoat ishlab chiqarishi 50 martadan oshdi, bu o`sishning 4,5 qismi 1950 yildan keyingi davrga to`g`ri keldi. Xaqli ravishda XX asr insoniyat tarixiga ilmiy-texnika inqilobi asri bo`lib kirdi. Insonlarning xozirgi vaqtdagi ta`sir kuchini tabiatning eng beshafqat kuchlari bilan teng quyish mumkin. Shuning uchun ham xususan XX asrda texnika muammosi va uning madaniyatdagı o`rniga olimlar o`z e`tiborlarini alovida qaratdilar.

Zamonaviy madaniyatda texnikaning o`rni:

**Texnika** so`zining o`zi mahorat, san`atni anglatib, ishlab chiqarishga bog`liq yoki bog`liq bo`limgan faoliyatni amalga oshirish uchun **kishilar yaratgan vositalar yig`indisini bildiradi**. Insonlar jamiyatni paydo bo`lishi bilan amalda texnika paydo bo`ldi, dastlab kishining mexnat faoliyatida yordam beruvchi mexnat quroli sifatida, keyin, xar xil maqsadlarda ishlatiladigan texnikaning boshqa turlari vujudga keldi. **Texnikaning xususiyatlari quydagilar**:

1. Texnika sun`iy ravishda, kishilar tomonidan tabiatni o`zgartirishi natijasida yaratiladi, oldin ongda ideal yaratiladigan loyiha, andozalar moddiylikda mujassamlanadi;
2. Texnikaning ommaviy xususiyati u avvalo, kishilarning amaliy extiyojlari bilan bog`lik bo`lib, shu extiyojlarni qondirishga xizmat qiladi;
3. Texnikaning muxim parametrlaridan biri ratsionallik xisoblanadi, ma`lum jamiyat doirasida u yoki bu texnika qurilmasini ma`lum qadar tezroq ishlab chiqarishga mo`ljallanadi.

**Texnika** madaniyatning muhim xodisasi sifatida jamiyat va tabiat o`rtasidagi munosabatni ta`minlaydi, u ijtimoiy madaniyat jarayonining ajralmas tarkibiy qismidir. Texnika taraqqiyoti insonning tabiat ustidan xukmronlik qilishida uning imkoniyatlarini kengaytirdi, madaniy va ijtimoiy o`zgarishlarni muqarrar amalga oshiradi.

Madaniyatda texnikaning o`rni xususida turlicha qarashlar mavjud. **Texnodeterministik kontseptsiya** texnikani xar doim insonga ijobiy ta`sir ko`rsatishini ishonchli asoslaydi. Ilmiy taraqqiyot va texnika yutuqlari insonga ko`plab sirlarni olib, uni ulkan miqdorda moddiy boylik bilan ta`minlaydi. Ilmiy texnika taraqqiyoti bilan bog`liq barcha muammo va qarama-qarshiliklar, ya`ni texnik vositalarning biosferani xalokatga yaqinlashtiruvchi ta`siri axborot aloqa deb ataluvchi insoniyat taraqqiyotining keyingi bosqichida ijobiy bartaraf qilinishini ta`kidlaydi. Texnikani optimistik baxolashda **texnokratik nazariya** katta ahamiyatga ega. Texnokratiya jamiyatdagı shunday kuchki, u jamiyatning texnik-texnologiya taraqqiyoti istiqboli xususidagi ilmiy bashoratida nufuzli ilmiy xulosalarga tayanadi.

Evropada XVIIIacp oxirlaridanoq texnikaning halokatli ta`siri xaqida xabarlar tarqala boshladи. Turli falsafa maktabining vakillari texnika tsivilizatsiyasi, uning qattiq, «temir sur`ati», beshafqat va axloqsizligini ta`kidlab, xayot, tabiat, insonga xurmatsizligini qattiq tanqid qila boshladilar. Ular jamiyatda texnikaga sig`inish, uni iloxiylashtirish xolati sodir bo`layotganiga, texnika zamонавиy tsivilizatsiyaning ofati bo`lajagiga o`z e`tiborlarini qaratdilar. Texnikaning nazoratsiz taraqqiy etishi ekologik muammolarni tug`diradi, xarbiy sanoat komplekslarining keng rivojlanishiga sabab bo`ladi, oqibatda insonni texnikaning quliga aylantirib qo`yadi.

Nazariyotchilarning bir qismi texnikaga pessimistik nazar bilan qarab, an`anaviy jamiyatga qaytishni yagona yo`l deb, hisoblaydi. Boshqalari esa texnikaning aggressivligi va murosasizligini

ta`qidlab, inson bunday sharoitda faqat bitta usul bilan qarshi turishi mumkin, ya`ni kuchi etganicha texnomadaniyatning parchalanishiga yordam berishi kerak, deb hisoblaydilar.

Biroq, barcha muammo texnikaga emas, balki insonning o`ziga bog`lik. Texnika axloqiy jixatdan mustaqil olam emas, uning o`rni, ahamiyati va kuchi jamiyatning qadriyat tizimiga bog`liq bo`ladi. «Texnika-inson» ziddiyatlarining bartaraf qilinishi yangi tipdagi insonning shakllanishiga bog`lik bo`lib, bu madaniyatdagi biosferik tamoyillarini xisobga oluvchi, tabiat va inson munosabatlarini uyg`unlashtirishga xarakat qiluvchi madaniyatning bosh muammolarni oqilona xal qilishni ta`minlovchi sifatga ega bo`lgan yangi insondir.

Biosferik tamoyil arning evolyutsiyasini umumiy geologik, biogenik, ijtimoiy va madaniy jarayon sifatida qaraydi, planetaning koevolyutsiya asosida tabiiy va sun`iy hamkorlikda rivojlanishi zarurligini ko`rsatadi. Buning uchun omma ongiga «bioetika»ni insonning artof-muxit bilan o`zaro munosabatini butunlik, barqarorlik va go`zallik kabi qadriyatlar asosida belgilash lozim.

Madaniyatdagi biosferik kontseptsiya tarafdrorlari insoniyat madaniyat tasnifini tuzganlar. Unda ta`kidlanishicha, insoniyatning ilk bosqichlarida madaniyatning turli xil biogenik ko`rinishlari mavjud bo`lgan, keyinchalik «tabiat ustidan xukumronlik qilish» shioriga tayangan xolda texnogenik madaniyat yaratildi. Zamonaviy odamlar erdag`i ekologiya qonunlarga asoslanib, turmushlari taqozo qiluvchi noogenik madaniyatga o`tadilar. Ekologik madaniyat xozirgi zamon nivilizatsiyasining ahamiyatga molik belgilaridan biriga aylanib bormoqda. 1980 yillardan e`tiboran zamonamiz ilm-fani tobora ekologiyalashmokada. Dastlabki paytlarda ekologiya xayvonot va o`simlik dunyosining atrof muhit bilan bog`liqlik aloqalarini tadqiq etgan bo`lsa, so`ngirok bir butun tarzda arning ekotizmi, biogenezni, biosferani o`rgana boshladi. 1970 yillardan ekologiya jamiyat xayotidagi jarayonlarni o`rganishga kirishdi. Insoniyat jamiyati bilan uni o`rab turgan tabiiy-iqlimi, sotsial-madaniy muxitning aloqadorligi muammolarini o`rganuvchi sotsial ekologiya shakllandi. Ekologiyaning tabiiy va sotsial muxiti inson, uning genofondi, odamni bugungi olamga moslashish jarayoni xususiyatlarini tadqiq etuvchi mustaqil tarmog`i «inson ekologiyasi» vujudga keldi.

Tabiiy va sotsial, tabiiy va sun`iy jarayonlarning o`zaro aloqadorligini optimallashuvini “ekologik madaniyatni boshlanishi” deb xisoblash mumkin. Bu insoniyat tomonidan tabiiy va sun`iy ikki tizimning teng xuquqligini tan olishi demakdir. Ayniqsa bu qishloq xo`jalik sohasi uchun o`ta ahamiyat kasb etadi. Xozirgi zamon qishloq xo`jaligi uchun maxsuldarlik va tovar ishlab chiqarish xajmi asosiy strategik maqsad emas, gan ekologiya qonuniyatlariga muvofiq tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof muxitini asrashdan iborat. Canoat ishlab chiqarish uchun ekologik qonunlar tabiat resurslariga tejamkorlik asosida yondoshish imkoniyatini beruvchi texnika va texnologiyani yaratishdangina iborat bo`lmay ayni paytda, insonning mavjudligi va yashash muxiti-biosferani asrash, qayta tiklashdan iboratdir.

XX asr o`rtalaridan fan va texnika taraqqiyotining natijasi sifatida katta axborotlar sig`imi, zaxirasi vujudga keldi. Ommaviy axborot vositalari (OAV)- matbuot, kino, radio, televidenie, komp`yuter aloqasi zamonaviy sotsmadaniyat jarayonida salmoqli o`rinni egallay boshladi. OAV yoki buning boshqacha mass melia deb nom olgan turi axborot uzatishdagi kanallarning ko`pligi, tezligi va uzoq ishlashi bilan ulkan xajmdagi axborotlarga ega bo`lmoqda. 1940-50 yillarda G.M. Makmoen asarlarida ommaviy kommunikatsiya birinchi marta madaniyatning yangi tipi va kishilarning ijtimoiy munosabatidagi mutlaqo yangi tip sifatida ta`riflandi. Uning fikricha bu vosita insonlarning axborot olishdagi raqobat kurashida qudratli kuchga aylanadi.

OAV elektron texnika va yo`ldosh aloqalardan foydalanib, kishilarni ijtimoiy xodisalar va madaniy boyliklarni bir vaqtida idrok qilishga undaydi. G.E. Makmoen ta`kidlaganidek «hammabop va omma yoqtiradigan yangi dunyoviy elektron madaniyati» shakllanmoqda. Haqiqatdan ham zamonaviy madaniyatning xolisona tahlil qilinsa, ma`naviy madaniyat ko`proq ommaviylik kasb etib borayotgani ma`lum bo`ladi.

### **Ommaviy madaniyatning qiyofasi quyidagicha:**

1. U millati, yoshi, joyi, ijtimoiy xususiyatlarga bog`liq bo`lman ommaviy iste`molchilarga ega bo`ladi;

2. Bu madaniyat namunalarini yaratish jarayonining o`zi ommaviy xususiyat kasb etib, industriyaning maxsus ko`rinishini o`zida namoyon qiladi, ya`ni unda yuz minglab kishilar band

bo`lib, ularning «matbuot qiroli», - shou tomoshabinlari, kino, TV, estrada yulduzlar bo`ladi.

Ommaviy madaniyat kishilarni xayotni befarq kuzatuvchi tomoshabinga aylantiradi, o`zlar ham mavjud xayotni go`yo sarob kabi tasavvur qiladilar.

Ortega Gasset ommaviy madaniyatning ta`sir doirasini taxlil etib, omma o`ziga, shaxsga o`xshamay qolishi, kimki boshqalarga o`xshamasa, shulardek fikrlamasa taxlikada qolishini aytib, «Omma bu yo`riq-yo`nalishsiz oqim bilan suzayotgan odamlar. Shuning uchun ular qobiliyat imkoniyatlari katta bo`lishiga qaramay, xech narsa yaratmaydi. Ommaviy odam axloqdan maxrum, chunki uning moxiyati, ongi burchiga itoat qiladi», degan edi.

Ommaviy madaniyat umumiy iste`molchilik extiyoji bilan bog`liq. Buning asosida iste`mol talab, tovar sifatida xaridorgir bo`lish extiyoji yotadi. Oqibatda xozirgi zamon madaniyatidagi ma`naviy qadriyatlar tor doiradagi extiyojlarni qondirish vositasiga aylanadi. Madaniyatning chuqr ma`no-moxiyati, xotira cheksizligi “kundalik”, “hammabop” himmatlar bilan ijod avvaldan ma`lum, mavjud namuna asosidagi «asarlar» yaratish va ishlab chiqarish (kinoseriallar, sayoz TV va adabiy asarlar) bilan almashinadi. Shaxs o`zining ijodiy qobiliyati, milliyatidan ayrilib, tayyor «madaniy maxsulotlar» iste`molchisiga aylanib qoladi.

Bugungi globallashuv jarayoni iqtisodiy-texnik taraqqiyot, boshqarish tizimi, siyosiy-xuquqiy munosabatlar, turmush tarzigagina daxldor xodisa emas. Bu zamonaviy texnologiya uskunalarga asoslangan kuch, guruxlar manfaati nazaridan xilma-xil vositalar yordamida boshqa xalq va mamlakatlarga ma`naviy-ahloqiy ta`sir ko`rsatish, mafkuraviy ustivorlikka erishish imkoniyati hamdir. Iqtisodiy, moliyaviy “yordam”, “demokratiya” niqobi ostida ma`naviy-ruxiy ekspansiya uyushtirish, millatlarni mustaqilligi va o`zligiga taxdid ko`rsatish odatiy xolga aylanib bormoqda. Bu hol AQSh lik olim Frencis Fukiyamaning “G`arb tarixining zavol topishi” kitobida amerikalik siyosatchi Patrik Dj. B`yukenenning «G`arb xalokati» (Moskva, 2004 y.) asarida ham ta`kidlangan.

Yoshlar, ularning ma`naviyati va axloqi uchun globallashuv jarayoni va ommaviy madaniyatning salbiy ta`siri va xatarli oqibatlari haqida Islom Karimov: «Dunyoda bir qarashda beozor, siyosatdan xoli bo`lib tuyulgan shunday mafkuraviy ta`sir vositalari ham borki, ularga ko`pda etaricha e`tibor beravermaymiz», televideniya orhalo ko`plab namoyish etilayotgan jangarli filmlar, bepara asarlar yoshlar ruxiyatiga salbiy ta`sir ko`rsatib, ularni o`zligidan, tarixidan, madaniyatidan, iymonidan judo etishga qaratilgan. Har qanday kasallikni oldini olish uchun avvalo kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil klinadi. “Biz ham farzandlarimiz yuragida ona-Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog`gom munosabatni qaror topdirishimiz, ta`bir joiz bo`lsa, ularning **mafkuraviy immunitetini** kuchaytirishimiz zarur<sup>3</sup>», deb ko`rsatadi.

Demak, har bir inson, yosh yigit-qiz ikki yo`ldan birini tanlashi, yo iste`molchi tarzda oqim bilan suzmog`i, yoxud o`ziga, o`zligiga nisbatan talabchan bo`lib bu girdobdan chiqmog`i lozim.

Insoniyat tobora texnika taraqqiyoti va ommaviy kommunikatsiyaning sotsial va ekologik jixatdan nazoratga olish, bugungi odam ma`naviy qiyofasini bir xillashtirish (standartlash)ga qarshi jiddiy to`sinqo`yish zaruriyatini anglamoqda. Ushbu masalani o`ta keskinligiga e`tiborni qaratish, mavjud muammolarning echimlarini belgilashda 1990 yillarda BMT Bosh Assambleyasi e`lon qilgan Madaniyatning umumaxon o`n yilligi muxim bosqich bo`ldi. “O`n yillik”ning asosiy maqsadi-iqtisod va texnika tezkor rivojlanayotgan xozirgi davrda umuminsoniy madaniy qadriyatlarning birinchi darajali ahamiyatini tiklashdan iborat bo`lib, bunda quyidagi vazifalarni xal etish ko`zda tutildi: a) taraqqiyot madaniyatning yuksalishiga xizmat qilishi, moddiy ishlab chiqarish bilan ijodkorlikning aloqadorligi yo`llarini belgilash; b) madaniy o`ziga xoslik va madaniyatlar muloqotini tan olish; v) individual va jamoa timsolida ijodiy potentsial va tashabbuskorlikni qo`llab-quvvatlash, g) xalqaro madaniy hamkorlikni rivojlantirish va boshqalar.

Demak, birinchidan, Texnogen madaniyat – insoniyatni o`n asrlar mobaynida yashash tarzi, olamni tafsir mezoni bo`lib kelgan – **qadimiy madaniyat** (Misr, Yunoniston, Rumo-vizantiya) takomilida shakllangan, vujudga kelgan **yangi davr** – burjua munosabatlari davri-ijtimoiy ishlab chiqarish odamlar hayoti texnika asosiga qurilgan davr madaniyatidir.

**Ikkinchidan**, Texnogen madaniyat-fan amaliyoti, texnikaning yangidan-yangi shakllari,

<sup>3</sup> И. Каримов. Миллий истиқлол мафкураси – халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир, Т, 2000 йил., 24 бет.

ularni ishlata bilish uquvi va mahorati - umuman madaniyat takomillining natijasi bo`lishiga qaramay, u madaniyatning tarkibi, taqdiriga faol ta`sir ko`rsatish vositasidir. (nashr texnikasi, radio, telefon, telegraf, televidenie, kompyuterlashtirish, elektron axborot, kimyoviy elementlarni sun`iy yaratish, inson ruhiyatiga ta`sir v.b.). texnik kashfiyotlarga asoslangan XXI asr madaniyati odamlarning turmush va fikr tarzi, qadriyatlarga, munosabatiga ham ta`sir ko`rsatmoqda. Iрqiy, milliy, kasbiy tafovutni, davlat sarxadlarini bilmaydi. U madaniyat rivojiga makon va zamon tushunchalarini nisbat qilib qo`ydi.

**Uchinchidan**, zamonaviy texnik qurilmalarga asoslangan bugungi jahon madaniyatining muhim belgisi ommaviylikdir. Milliy mazmun va qiyofadan yiroq, shakli rang-barang xajmi engil musiqa tarzdagi san`at asarlari, beandisha klip va reklamalar - saviyasi sayoz mijozlarga mo`ljallangan – **ommaviy madaniyat** namunalaridir. Ommaviy madaniyatni cheklashga intilishni o`zi chekli holat. Bunday muhitda ma`naviyati “butun” odamgina o`zligi, milliy ruxiyatini asrab qoladi.

O`zbekistonda millatlararo totuvlik va ijtimoiy barqarorlikni ta`minlashning asosiy yo`llaridan biri-barcha millat va elatlар madaniyatlarini yanada rivojlantirish, ularning bir-birini boyitishiga imkon yaratishdan iborat. BMT boshchiligidagi o`tkazilgan qator xalqaro dasturlarda jumladan «Umumjaxon madaniy merosi», «Buyuk ipak yo`li» dasturlarida O`zbekistonning bevosita va faol ishtiroki bu yo`ldagi amaliy qadamlardan biridir.

**UCHINCHI BOB**  
**O`ZBEKISTON MADANIYATI TARAQQIYOT BOSQICHLARI**

**10 – MAVZU**  
**MARKAZIY OSIYO XALQLARINING QADIMGI MADANIYATI**

Markaziy Osiyoning Oltoy, Janubiy Sibir`, Mo`g`uliston, O`rta Osiyo hududlaridagi ibtidoiy yashash tarzi deyarli umumiyyidir. Ibtidoiy insonning bu hududlardagi umumiyligini ko`rsatuvchi dalillar birinchi navbatda hayot tarziga-ovchilik, dehqonchilik, hunarmandchilik, chovachilikka asoslanganidir. Shuningdek, mazkur hududlardagi qavmlarning qaysi irqlarga mansubligi ham masalaga ma`lum darajada aniqlik kiritishga yordam beradi. Shuni e`tiborga olish kerakki, mo`g`ullar istilosiga qadar O`rta Osiyodagi turkiy xalqlar qiyofasi mo`g`ul irqiga mansub emas edi. Jumladan, miloddan oldingi uchinchi ming yillikka va ikkinchi ming yillikning boshlariga oid Janubiy Sibirdagi mo`g`ul irqiga mansub aholi G`arbiy Turkiston (O`zbekiston, Qирг`изистон, Qозоғ`истон), Pomir o`lkalariga kelguniga qadar, bu erlarda Oqdengiz irqiga o`xshash dolikosefal<sup>1</sup> irqi borligi aniqlangan.

Farg`onaning tosh davriga oid madaniy yodgorliklarida va Yangiyo`ldagi Qovunchi madaniyatida ham bu irq uchraydi. G`arbiy Turkistonning Anov madaniyatiga oid topilmalarda, Quyi Volga bo`ylarida, O`rta Volga hududida, Proxovok qo`rg`onida ham mazkur irqlarga mansub odamlar suyaklari topilgan. Shuningdek, dolikosefal irqining Tangri tog` xududlariga ham kribborgani to`g`risida ma`lumotlar bor. Janubiy Qozog`iston bilan Volga bo`ylariga mazkur irq butunlay yoyilganini tasavvur qilish mumkin. Biz irqqa oid mazkur qarashlarni 40–50–yillardagi arxeologik topilmalar asosida Turkiston va evropa olimlarining asarlariga tayangan holda aytymiz<sup>2</sup>. Qolaversa, Amudaryo bilan Sirdaryo - bugungi O`zbekiston hududidagi eng qadimiy insonni Turoniq irqqa mansub degan qarashlar ham bor<sup>3</sup>. Umuman olganda, O`rta Osiyoninggina emas, balki butun dunyo xalqlarining ibtidoiy davri har jihatdan, jumladan, madaniy taraqqiyoti jihatidan ham eng kam o`rganilgan davr hisoblanadi, O`zbekiston hududi esa yanada ko`proq o`rganishni talab qiladi. Chunki azaldan o`troqlashgan aholi maskani bo`lgan Farg`ona vodiysi, Janubiy O`zbekiston bizga ko`p madaniy yodgorliklarni qoldirdiki, bularga tayangan holda ko`p masalalarga, jumladan, etnik tarixiga ham aniqlik kiritish mumkin bo`ladi.

**Me`morchilik.** O`zbekistonning azaldan o`troqlashgan aholisi me`morchilik, amaliy hamda tasviriy san`at borasida ko`p meros qoldirdi. Biz yuqorida Xorazmdagi Tuproqqa`l`anining madaniy bosqichi to`g`risida qisqa to`xtalgan edik. O`zbekistonning janubiy hududlari ham, xuddi Xorazmdagi Tuproqqa`l`a singari, qadimgi davr me`morchiliği va san`ati to`g`risida to`laqonli ma`lumot beradi. Jumladan, Termizdagi me`morchilik yodgorliklari, tasviriy va amaliy san`at namunalari shundan dalolat beradi. Madaniy jarayonning bu ko`rinishlari paydo bo`lishiga, shubhasiz, ijtimoiy - siyosiy jarayonlar asosiy sabab bo`ldi.

Miloddan oldingi II asrda Yunon - Baqtriya shohi Demetriy Amudaryo qirg`og`ida shahar barpo qildi. Chunki Amudaryoning kechuvi azaldan aynan shu erda joylashgan edi. Natijada shahar dastlab Dermed nomini oldi va asta - sekin Termizga aylandi (*Dermed-Termed-Termez*). Termiz shahri barpo bo`lgandan buyon ikki ming yildan ko`proq vaqt davomida mazkur hudud har jihatdan rivojlanib bordi. Arxeologik tadqiqotlar bu shaharning Kushon imperiyasi davridagi tuzilishini tasavvur qilishga imkon beradi.

Termiz aynan Kushonlar davrida tezlik bilan rivojlanib bordi. Shaharning umumiyy maydoni 500 gettarni tashkil qildi. Shaharning markazi harbiy qo`rg`on bo`lib xizmat qilgan. Shu qo`rg`ondan boshlab bir tomonda savdo-hunarmandchilik do`konlari, ikkinchi tomonda ibodatxonalar qurila boshlaydi. Mil.av. II asrdan boshlab Hindistondan kirib kelgan buddaviylik bu shahardagi diniy madaniy muhitni belgilab berdi. Chingiztepa, Qoratepadagi budda ibodatxonalar shundan dalolat beradi. Shahar o`rtasidan katta anhor kesib o`tgan. Bu anhor aholini suv bilan

<sup>1</sup> Долихоцефал (фр.) –бошнинг эни узунлигига нисбатан 75 фоиз қиска бўлган одамлар.

<sup>2</sup> Бу қарашлар тўғрисида қаранг: Bahaeeddin Ogal. Islamiyetten onca turk kultur tarihi. (Исломиятдан аввалги туркий маданият тарихи) Ankara, 1991, s. 6.

<sup>3</sup> В.В. Гинзбург. Материал и исследования по археологии, 15, 248–249–бетлар.

ta`minlagan. Termiz savdo yo`li ustida bo`lib, So`g`d, Xitoy Pomirga boradigan karvonlar shu erdan o`tgan. Amudaryoning kechuvi esa Baqtriyaning asosiy shahri Balxga olib borgan.

Dalvarzin tepadagi Chag`oniyon shahri ham me`morchilik jihatdan deyarli ko`hna Termiz shahrining me`morchiligidagi o`xshaydi. Ko`p qirrali harbiy qal`a tepalik ustiga qurilgan. Janub tomondan shahar maydoni tutashadi. Maydon mustahkam devorlar bilan o`ralgan bo`lib, atrofi, xuddi harbiy qal`a atrofida bo`lgani singari, handaq bilan o`ralgan.

Milodiy I-III asrlarda qadimiy O`zbekiston hududida shaharlarning bunchalik tez rivoj topgani va savdo, hunarmandchilik, harbiy - ma`muriy tuzilmaga e`tibor berilgani harbiy me`morchilikni yuzaga keltirdi. Qadimiy inshootlarning qoldiqlari shundan dalolat beradi.

Me`morchilikning rivoj topishi natijasida qurilish materiallari ham takomillashdi. So`g`d, Xorazm, Baqtriyadagi inshootlarda foydalilanigan kvadrat shakldagi g`isht qurilish materiallarining takomillashuviga xizmat qildi va me`morchilik yangi bosqichga ko`tarildi. Yana shunisi diqqatga sazovorki, g`ishtlarning bir qismida tamg`alar bosilgan. Xorazm (Jonbos qal`a, Tuproq qal`a), Baqtriya (Termiz, Ayrat, Xoanaqohtepa), Marg`iyonadagi qurilish g`ishtlarida shunday tamg`alar uchraydi. Olimlarning taxmin qilishlaricha, bu tamg`alar ma`lum bir qabilaga tegishli bo`lib, qabilalar hisob-kitob olib borishlari uchun yoki qaysi hunarmandchilik ustaxonasiga tegishli ekanini ko`rsatish uchun ham foydalanganlar.

O`rta Osiyoning turli hududlaridagi inshootlar me`morchiligi o`ziga xos. Ayniqsa, Xorazmdagi Qo`yqirilgan qal`adagi inshootning (mil. av. III asr) tuzilishi diqqatga sazovor. Bu inshoot dumloq shaklda qurilgan, 42 metrli tsilindr shaklidagi bino o`rtada. Binoning birinchi qavati butun saqlangan. Taxminlarga ko`ra, Qo`yqirilgan qal`a dafn odatlari bilan yo fazoviy jismlar kul`tini o`zida namoyon etadi yoki Xorazm shohlarining sulolalari kul`ti bilan bog`liq muhim siyosiy markazni gavdalantiradi.

Umuman, Qo`yqirilgan qal`a bu erda juda qadimgi vaqtlardayoq me`morchilik yuksak rivojlanganligini ko`rsatadi, shuningdek, katta ibodatxona xo`jaligi manzarasini aks ettiradi. Ibodatxona bilan bir qatorda ustaxonalar, yashash uylari, omborxonalar, ham bor. O`ziga xos kichik "shaharcha" ko`rinishidagi bu qal`ada hayot O`rta Osiyo aholisining yuksak turmush tarzini ko`rsatadi.

**Tasviriy va amaliy san`at.** Bugungi O`zbekiston hududi, umuman, O`rta Osiyo qadimdan insoniyat istiqomat qilgan maskan bo`lganini turli madaniy qatlamlar tasdiqlaydi. Anov madaniyatidagi amaliy va tasviriy san`at namunalari o`troq aholining turmush tarzini tasavvur qilishga imkon beradi. Bu madaniyatga mansub yodgorliklar Ashxobod yaqinidan topilgan va atrof hududlarga, jumladan, O`zbekiston hududiga ham tarqagan. Anov madaniyatini 1904 yili amerikalik olim R. Pyompelli kashf qildi. Anov madaniyatini u neolita davriga mansub deb qaraydi va miloddan oldingi IX ming yillikka borib taqalishini aytadi. Bu madaniyatga oid ashyolar urug`chilik jamiyatiga xos ma`naviy va moddiy yodgorliklardan iborat. Bu davrdagi san`at ibtidoiy san`at ko`rinishini ifoda etadi. Shunga qaramay, sopol idishlarning o`ziga xos ko`rinishi diqqatga sazovor. Sopol idishlarning sirti naqsh bilan bezitilgan va qandaydir uchi o`tkir asbob bilan chizilgan. Anov madaniyatiga mansub idishlarning aksariyati yo geometrik shaklda yoki to`lqinsimon chiziq bilan uchburchak va to`rburchak shaklda bezatilgan. Ba`zi idishlarning chetlarida naqsh bor. Bunday naqshli buyumlar Samarqanddagi Afrosiyob shaharchasidan, qadimgi Marvdan va O`rta Osiyoning turli hududlaridan topilgan. Bu topilmalar qadimgi madaniyatning o`choqlari borligidan guvohlik beradi. Idishlardagi naqshlar va shakllar shunchaki bezak uchun qilinmagan, balki bularda magik tasavvurlar o`z ifodasini topgan: yo fazoni qanday tasavvur qilganlarini ifoda etganlar yoki kundalik hayot bilan bog`liq udumlarni ko`rsatganlar. Umuman, ibtidoiy davrdagi biron shakl yoki surat faqat bezak uchun qilinmagan, balki uning ostida albatta biron mifologik tasavvur yotadi.

Anov madaniyatiga oid muhim topimalardan biri, idishlardan tashqari, ayollar haykalchalari, odam va qush boshli qanoti bor sher tasvirlangan tosh muhrdir. Bu madaniy qatlamni Anov madaniyatiga qadimgi xaldey va yunon madaniyatining ta`siri, deb qarochilar ham bor. Afrosiyob devor suratidagi otlar ham qanotli shaklda tasvirlangan.

Makedoniyalik Iskandar qo`shinlari - ellinlar O`rta Osiyonidagi istilo qilgandan keyin, bu o`lkada yunon madaniyatining izlarini ko`ramiz. O`rta Osiyo Salavkiylar davlati qo`l ostiga kirgach, mil.av. III asrda O`rta Osiyo, Shimoliy Eron va Afg`oniston hududida mustaqil davlatlar-

sharqda Baqtriya davlati, g`arbda Parfiya davlati barpo bo`ldi.

Ayniqsa, Baqtriya davlatida yunon madaniyati kuchli iz qoldirdi. Jumladan, budda haykallarida yunon haykaltaroshligi uslubiga xos unsurlar mavjud. Parfiya madaniyati ancha murakkab. Rim imperiyasiga (mil. av. I asr) raqobat qila oladigan qudratli davlat Parfiya bo`lib, O`rta er dengizi, Kichik Osiyo, Turkmaniston va O`zbekiston hududlari shu davlatga qarashli edi. Bu erda ko`zga tashlanadigan madaniy qatlam - bu o`lkadagi me`morchilik yodgorliklaridir. Mustahkam qal`alar va shaharlar barpo qilishga Parfiya davlati alohida e`tibor berdi. Qolaversa, iqtisodiy yuksalish ham bunga imkon berdi. Yuliy Tsezar bilan bir vaqtida konsul bo`lgan, Spartak qo`zg`olonini bostirgan lashkarboshi Mark Krass Rim – Parfiya urushida engilib, halokatga uchradi. Neron davrida ham Rim legionlari Parfiyadan mag`lubiyatga uchragan.

Qadimiy yozma manbalar O`rta Osiyoning turli hududlarida me`morchilik yodgorliklaridan tashqari, yuksak badiiy hunarmandchilik namunalari borligini tasdiqlaydi. Jumladan, milodiy I asrga oid Xan yilnomasida Xitoy sayyohi o`sha paytda hozirgi O`zbekiston hududini ham o`z ichiga olgan Katta Yuechji va Gibin to`g`risida shunday yozadi: “Xunlar katta yuechjilarni tor–mor keltirgandan keyin, katta yuechji g`arbda Daxiya davlatini bosib oldi (Buxoro ham Daxiya davlati tarkibiga kirgan - N.R.). Osmon o`g`li (ya`ni Xitoy imperatori - N.R.) olgan ma`lumotlarga ko`ra, Dovon, Daxiya va An`sı katta davlatlardir. Bu davlatlarda noyob buyumlar bor. U erda o`troq hayot kechiradilar. Hunarmandchilik buyumlari o`rta shohliklar hunarmandchilik buyumlari bilan o`xshashdir”<sup>4</sup> Gibin - Kobuliston, katta yuechji - massagetlar bo`lib, hozirgi O`zbekiston hududini o`z ichiga olgan.

Faqat shugina emas. er ostidan arxeologlar tosh va sopoldan yasalgan haykallar, devoriy suratlarning qoldiqlari, badiiy bezalgan buyumlarni ko`p topganlar. Yunon istilosigacha ham O`zbekiston hududida an`anaviy tasviriy san`at amalda edi. “Amudaryo xazinasi” deb nom olgan buyumlar amaliy san`atning o`ziga xosligini ko`rsatuvchi dalildir. Yunon muarrixlarining yozishicha, Makedoniyalik Iskandar yurishlari paytida O`rta Osiyodagi ibodatxonalarda, saroylarda, uylda Zariadr va Odatida rivoyati syujetlariga ishlangan tasvirlarni uchratganlar.

Yunon istilosidan keyin O`zbekiston tuprog`iga ellistik madaniyat ta`sirlari kirib kela boshladi. Dastlab o`zgarishsiz holda kirib keldi. Termiz, Samarcand va boshqa shaharlarda topilgan taroqlarda dubulg`a kiygan jangchi tasvirlangan. Taroq toshdan yasalgan. Bu tasvirlarning ko`pchiligidagi Iskandar tasvirlangan. Bu topilmalarning sanasi mil. av. IV–III asrlarga oid. Shuningdek, bu davr tangalaridagi yunon hukmdorlarining tasvirlari ham Yunon–Baqtriya madaniyatining qadimgi O`zbekiston hududida ravnaq topganidan dalolat beradi.

**Buddaviylik davri madaniyati.** Milodiy I asrda Baqtriyaning o`ng tomoniga buddaviylik kirib kela boshladi. Shu davrda buddaviylik e`tiqodiga aloqador inshootlar asosiy o`rin egalladi. g`orlardagi Budda ibodatxonalari Ko`hna Termizdan, Qoratepedan va Chingiztepedan topilgan.

Buddaviylikning Baqtriya davlatiga kirib kelishi Kushonlar imperiyasining davlati chegaralari janubga tomon kengayib borgani bilan bog`liqdir. Xitoy manbalariga ko`ra, Kushonlar imperiyasi dastlab hozirgi Bekobod va Xo`jand o`rtasida barpo etilgan. Bu davlat tezlik bilan kengayib, milodiy I asr oxirlarida (tashkil bo`lgandan keyin taxminan ellik yillar o`tgach), Hindistongacha etib bordi. Shubhasiz, ana shu tarixiy davrda Hindiston bilan Kushonlar imperiyasining madaniy aloqalari rivojlandi. Ana shu madaniy munosabatlarning mahsuli sifatida buddaviylik kirib keldi. Buddaviylik O`rta Osiyoda shunchalik mustahkam o`rnashdiki, qadimgi Vatanimizda ko`plab Budda budda ibodatxonalari barpo bo`ldi. Yozma manbalarning xabar berishicha, shu davrda eftalitlar poytaxti Badaxshonda sirti oltin bilan qoplangan Budda haykali qo`ylgan ibodaxonalar ko`p qurildi. VII asrda Xitoy sayyohi Syuan` - Tszyan Termizda ko`plab Budda ibodatxonalarini, Budda haykalchalarini ko`rganini yozadi. Samarqandda ham bunday ibodatxonalar ko`p bo`lgan edi.

Ko`hna Termizdan Buddanining va bo`lg`usi Budda - Bo`disatvaning toshdan yasalgan haykalchalarini topilgan. Bu haykalchalarning diqqatga sazovor tomoni – yunon-boxtariy san`ati

<sup>4</sup> Н.Я.Бичурин (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. — Том 11, 1950, М.:—Л.: 179, 153—бетлар

uslubi an`analarini davom ettirganidir.

Buddaviylikni targ`ib qilish, omma orasida yoyishning muhim usullaridan biri sifatida yozma matnlar, rivoyatlar, afsonalar, she`rlar ham yaratildi, sanskrit tilidan qadimgi turkiy tilga asarlar tarjima qilindi. Buddaviylikni targ`ib qilishda bu usul amaliy va tasviriy san`at orqali ifodalangan g`oyalarni to`ldirdi. “Oltin yoruq” dostoni (IX asr) shulardan biridir. Bu asarning asl matni sanskrit tilida bo`lib, milodiy I asrda - Kushonlar imperiyasi davrida yaratilgan. Dostonda ilgari surilgan asosiy g`oya – buddaviylikdagi maxayana mazhabini ilgari surish va yoyish bo`lgan.

Buddaviylikning uchta mazhabi mayjud: xinayana, maxayana, vajryana. Bulardan maxyana mazhabi Janubiy O`zbekistonga Kushon imperiyasi hukmdori Kanishka davrida rasmiy diniy oqim sifatida kirib keldi. Maxyana mazhabining mohiyati shundan iboratki, unda najot topish g`oyasi asosiy o`rin egallaydi, Buddha holatiga etishish imkoniyati jamiki jonzotlarga beriladi. Maxayana mazhabida asosiy o`rinni Bo`disatva timsoli egallaydi. Bo`disatva faqat o`zi najot topib qolmaydi, balki jamiki sansara (“turli holatlar orqali o`tish”) holatlaridan najot topishi kerak bo`ladi.

“Oltin yoruq”dagi ikki afsona – “Shahzoda va Bars” bilan “Ku Tay” haqidagi afsonalarni kuzatar ekanmiz<sup>1</sup>, odamzodning vujudi, xulqi, kim bo`lishidan qat`iy nazar, ezgulikdan iborat bo`lmog`i, vujud kimgadir yoki nimagadir yaxshilik uchun xizmat qilmog`i lozim degan g`oya bor. Aksincha, odamlarga xizmat qilmaydigan odam tirik jasad, chirik bir narsa bilan barobar. Mag`astvi - Bo`disatva, ayni maxayana mazhabidagi jonzotlarning najot topishi uchun kurashib, o`z tanasini och ona yo`lbarsga qurban qildi. Aslida maxayana ta`limoti Buddaning najotkorlik aqidasini ifoda etadi. Buddaning asosiy g`oyasi insonlarni va xayvonlarni qutqarishga mo`ljallangan. “Okean suvi bitta ta`mga-sho`r ta`mga ega bo`lganidek, mening ta`limotim ham bir yo`singa - qutqarishga mo`ljallangan, - deydi Buddha. Odamzod bajarishi kerak bo`lgan eng muhim vazifa – atrof-muhitni nafs asirligidan, gunoxlardan qutqarishga erishishdir. Qo`rvuvning yo`qolishi odamzodni ozod qiladi. U ozod bo`lgandagina o`z ozodligini biladi, qayta tirlishdan qutulganligini tushunadi, muqaddaslikka to`liq erishilgan va burchi bajarilgan bo`ladi, odam bu dunyoga qaytib kelmaydi”. Faqat jasad qaytib kelmaydi, bordi-yu, qaytib keladigan bo`lsa, qullikdan qutula olmaydi. Umuman, buddaviylikning asosiy maqsadi faqat odamzodning ozod bo`lishiga yo`l-yo`riq ko`rsatishdangina iborat bo`lmay, balki butun jonli mavjudotlarni qutqarishga mo`ljallangan. Irodaga ega bo`la olish va irodani birdan-bir maqsadga bo`ysundira olish buddaviylikning idealidir.

**“Avesto” davri madaniyati.** “Avesto” O`rta Osiyo tarixidagina emas, balki dunyo madaniyati tarixida muhim voqeadir. “Avesto” to`g`risida so`z ketganda, albatta, Zardusht shaxsi va u yaratgan ta`limot to`g`risida so`z ketadi. Zardushtgacha ham Avesto ta`limoti bor edi. Lekin Zardushtning say`-xarakati bilan “Avesto” qudratli ta`limotga aylanadi.

“Avesto” Zardusht nomi bilan bog`lanar ekan, bu noyob asar bir davrning mahsuli emasligini ham ta`kidlamoq darkor. “Avesto” bir necha asrlar davomida shakllanib, yaxlit asar holiga kelgan. Bu jarayon dunyo madaniyati tarixida sinovlardan o`tgan tajriba bo`lib, “Avesto” ana shu tajribaning ilk mahsullaridan biridir. Sharqda bu jarayonning noyob namunalari kuzatiladi. Qadimgi Xitoydagil falsafiy risolalar, Bibliya ham shakllanganda, ana shu yo`lni - asrlar yo`lini bosib o`tgan. Ayni paytda bu jarayon “Avesto”ning asrlar osha ma`lum va mashhur bo`lganini yana bir bor tasdiqlaydi.

“Avesto”ning ma`lum va mashhurligi Beruniyning “O`tmish asrlardan qolgan yodgorliklar” (XI asr), Tabariyning “Tarixi Tabariy” (X asr) kabi asarlarida ham bayon qilingan. Beruniyning yozishicha, “Avesto”ning qo`lyozmasi o`n ikki ming molning terisiga oltin harflar bilan yozilgan ekan. Iskandar Eronga bostirib kelgach, bu asarning Eron podsholari xazinasida saqlanayotgan eng nodir nuxsalarini olib, tib va astronomiyaga oid qismlarini xattotlarga ko`chirtirib, qolgan qismini katta gulxan yoqib, yondirib yuborgan. Ko`chirtirgan qismlarini yunon tiliga tarjima qildirgan. Sosoniylar sulolasining ilk hukmdori Ardasher Bobak Xirbadan nomli donishmandga ““Avesto”ni

<sup>1</sup> Бу афсоналар ҳакида қаранг: Н, Раҳмонов. Руҳиятдаги нур муроди. — Тошкент, Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 2002, 115-бет

qayta tiklash vazifasini topshiradi. Xirbadan bir qancha zardshutiylikka e`tiqod qiluvchi ulamolar bilan birga asarni qayta yozib olib, qaytadan tartib beradi. Shopur II davrida Ozarvod Mexrosin "Avesto"ning parokanda qismlarini to`plab, asardagi ko`plab nomlar, atamalarni sharhlab, "Zand Avesto" nomli kitob yaratadi. "Zand Avesto"ni bu ulkan asarning sharhi deb aytish mumkin.

"Avesto"ning eng qadimiy qatlami **Gohlarni** Zardushtning o`zi yozgan, deb aytildi. Gohlar (ovrupocha - gatlar) - diniy qasida, munojot demakdir. Asarning eng qadimiy qatlamiga ko`ra shunday xulosa chiqarish mumkinki, zardushtiylik urug`chilik jamiyatida - hukmron tabaqa paydo bo`lgan davrda shakllana boshlagan. Jamiyatning keyingi bosqichlarida yana ham rivoj topdi. Ayniqsa, Sosoniylar (mil. III–VI asrlar) sulolasi davrida yangicha ko`rinishda paydo bo`ldi. Lekin qanday bo`lmasin, Zardushtning ta`limoti o`z mohiyatini saqlab, yanada mukammallahashdi. Yana shuni ta`kidlash kerakki, "Avesto"ning eng qadimiy qatlami Gohlar va Yashtlar notiqlik san`ati bosqichining ilk davrida yuzaga kelgan. Notiqlik san`ati, ayniqsa, g`oyaviy kurashlar mahsuli sifatida yuqori cho`qqiga ko`tarilganini e`tirof etsak, Zardusht o`z davridagi kohinlar harakatiga va eski kul`tlarga qarshi chiqqani, shu asosda o`z ta`limotini yaratgani yanada oydinlashadi. Zotan, g`oyaviy kurash jamiyatdagi ikki qarama-qarshi kuchlar o`rtasidagi kurashning natijasi sifatida yuzaga chiqadi.

**Zardushtiylik ta`limoti.** Zardusht shaxsi to`g`risida turli qarashlar mavjud. Ba`zi ovrupolik olimlarning aytishlaricha, Zardusht o`z davrida ta`qibga uchragan. Lekin u buyuk payg`ambar, insoniyat najotkori deb e`tirof etilgan. Miloddan oldingi VII–VI asrlardagi siyosiy vaziyatda Zardushtning muhim rol o`ynagan faoliyati uni najotkor sifatida talqin qilishga sabab bo`lgan. Kohinlar xalqqa qarashli yaylovlarni tortib olib, xalq jamoa bo`lib sig`inadigan ibodatxonalarini vayron qilib, o`zlarining siyosatini yurgizar edilar. Buning ustiga eski kul`tlarga sig`inish oqibati ham kohinlar va zodagonlarning manfaati uchun mos edi. Mana shunday tarang vaziyatda Zardusht keng ommaning manfaatlarini himoya qilib, o`troq chorvador qabilalarning vakili sifatida maydonga chiqdi va payg`ambar deb e`tirof etildi.

Sosoniylardan besh - olti asr avval o`tgan Axmoniylar davriga oid matnlarda, garchi Zardushtning nomi eslanmasa-da, uning g`oyalari, jumladan, Xurmuzdni sharaflash g`oyasi bosh o`rin tutadi. Aksariyat manbalarda Zardusht miloddan oldingi XIII - VII asrlar oralig`ida yashagan deb e`tirof etiladi. Zardusht ta`qibga uchragani uchun ham, ongli ravishda unutilgan bo`lishi mumkin. Yangilik va yangi g`oyalarning taqdidi har doim ham oson kechavermagan.

Xo`sh, Zardusht yaratgan ta`limot nimadan iborat? U qanday shakl va mazmundagi ta`limot edi? Uning ta`limoti - ezgulik yovuzlik, nur va zulmat ruhiy kuchlari o`rtasidagi kurashdan iborat edi. Zardushtiylik jamiyatdagi mutanosiblikni buzadigan nomutanosiblikka qarshi kurash edi. Zardushtiylik ta`limoti dastlab yaratilgan paytda diniy emas, balki ijtimoiy-siyosiy qarashlarning maajmui sifatida yuzaga kelgan. Zardusht o`z ta`limotini yaratgan paytda ezgulik va yovuzlikni ijtimoiy muammo sifatidagina ilgari surib qolmadi, balki axloqiy qarashlarini fazo bilan, xususan, olamning yaratilishi va tuzilishi bilan bog`ladi. Oqibatda bu qarash asta-sekin ilohiy tus oldi. Uning ta`limoti faqat davrlar sinovidan o`tish bilan birga, jug`rofiy jihatdan ham kengaya bordi. Bizning zaminimizdan tortib Midiya, Fors, Armaniston, Kichik Osiyo, Hindiston (xususan, Panjob) kabi qator mamlakatlarga yoyildi. Barcha diniy oqimlarning vazifasi ma`lum bir hududda madaniy va ma`naviy yuksalishni yuzaga keltirganiday, zardushtiylik ham bu mamlakatlarda madaniyat o`choqlarini barpo qildi.

Zardusht shaxsi asrlar osha shunchalik mashhur bo`lganki, u afsonaviy qahramon kabi dong taratgan. Miloddan oldingi I asrda yashagan Rim tarixchisi Pompey Trog "Filippin tarixi" asarida Zardushtni Baqtriya podshohi deb yozgan.

Zardusht Xo`rmuzddan muhim qonun so`rar ekan: "er yuzida eng yaxshi joy qaerda?" deydi. Xo`rmuzdning Zardushtga bergen javobi shu bo`ldi: "Qaerda solih - Xo`rmuzdning muxlisi erga yaxshi ishlov bersa, chorva tuyoqlarini ko`paytirsa, yaxshi joy o`sha erdir." Zotan, mehnatning bu turlari insonning farovon yashashi uchun kafolat. Ayni paytda Xo`rmuzdning bu javobidan agrotexnika qoidalarining ilk ildizlari to`g`risida xabardor bo`lamiz. Darvoqe, Zardusht Xo`rmuzddan qonun so`ragan edi, Xo`rmuzd qonunning ijrosi sifatida mehnatni berdi. Garchi qonun tushunchasi bugungi kunda o`z mazmuni va mohiyatini o`zgartirgan bo`lsa-da, "Avesto" qonuni va hozirgi qonun tushunchalari o`rtasida faoliyat jihatidan uyg`unlikni ko`ramiz. Hamma davrda ham qonun inson manfaatlariga xizmat qilib, insoniyatni ezgulikka da`vat qilishini,

yovuzlikning har qanday ko`rinishiga zarba berishini xalqlar umid qilganiga e`tiborga olsak, Zardushtning savoliga Xo`rmuzdning bergan javobi ham o`z davrida muhim qonun ekaniga amin bo`lamiz. Xo`rmuzdning quyidagi javobi bu fikrlarni yana bir bor tasdiqlaydi: “*Kimki chap qo`li va o`ng qo`li bilan, o`ng qo`li va chap qo`li bilan erga ishlov bersa, foyda kelimiz. Shunda er solihga aytadi: “Ey inson! Sen menga chap qo`ling va o`ng qo`ling bilan, o`ng qo`ling va chap qo`ling bilan ishlov beryapsan. Darhaqiqat, men toliqmasdan tug`aman. Har turli egulikni, mo`l hosilni etishtiraman.” Kimki chap qo`li va o`ng qo`li bilan, o`ng qo`li va chap qo`li bilan erga ishlov bermasa, unga er aytadi: “Ey inson! Sen menga ishlov bermayapsan, sen shubhasiz tilanchilar orasida bo`lasan, begona eshiklar oldida mung`ayib turasan.”*” Uzoq vaqt ishlov berilmasdan, ekuvsiz qolib ketgan er - turmushga chiqolmay, befarzand o`tgan qariqiz bilan baravardir, degan hikmatli fikr «Avesto» zamonidan bizgacha etib kelgan. Bu esa turli davrlar madaniyatning vorisiyligini va uzlucksizligini ko`rsatdi.

## **11 – MAVZU MARKAZIY OSIYO XALQLARINING V-VIII ASRLARDAGI IJTIMOIY, MADANIY HAYOTI**

Qadimgi O`rta Osiyoning ijtimoiy va madaniy tarixini o`rganishda asosiy mabalar quyidagilardir:

1. O`rxun – Enasoy yodgorliklari:
2. Yunon muarrixlarining asarlari.
3. Qadimgi Xitoy yilnomalari.

Madaniy hayot, birinchi navbatda, ijtimoiy-siyosiy hayot ravnaqi belgisi va ayni paytda uzoq asrlar davomida shakllanadigan jarayon bo`lgani uchun Markaziy Osiyoning ijtimoiy - siyosiy tarixiga qisqacha to`xtalamiz va yuqoridagi manbalarga tayanamiz. Ammo har bir manbaning ma`lum davrdagi madaniyat tarixini o`rganishda o`z ahamiyati va mavqeい bor.

Markaziy Osiyo tarixi miloddan oldingi davrlarda Xitoy yilnomalariga tayangan bo`lsa, Ko`k turk xoqonligi davrida o`z manbalariga ega bo`ldi. Markaziy Osiyo xalqlarining Ko`k turk xoqonligi davridagi tarixi ko`proq To`ba-xun xoqonligi davridan boshlanadi. To`ba-xun davlatida IV asrda yuzaga kelgan siyosiy vaziyat Markaziy Osiyo madaniyati tarixida ham yangi sahifani boshlab berdi. Bu siyosiy vaziyat asosan Xitoy imperiyasining tanazzuli va qayta tiklanishi bilan bog`liq.

Evropadagi to`kilay deb turgan Rimni bo`ysundirgan xalqlarning buyuk ko`chishi Sharqiy Osiyoda 100 yil oldin yuz berdi. Xitoy tarixida “Besh wahshiy qabilalar davri” (304–399 yillar) deb nom olgan davrda Xitoyni xunlar va syanbiylar bosib olgani va oraliq davlatlarga asos solgani aytildi. Bu oraliq davlatlar gotlar, burgundlar va vandallar asos solgan qirolliklarga o`xshab ketardi. Evropada Bolqon yarim orolida Sharqiy Rim imperiyasida nisbatan madaniyat yuksalgan edi. Xitoyda esa Yantszi daryosi qirg`oqlarida barpo bo`lgan Xan imperiyasining merosxo`ri Xitoy imperiyasi hamon mavqeni qo`ldan bermasdi. Zaif, noshud Xan imperatorlari Xuanhe vodiysidagi o`z xalqlarini “vahshiy qabilalar“ga o`lja qilib qoldirib ketdi. Ammo shuncha kulfatlarga, tashqi hujumlarga, ichki urushlarga qaramay, Xitoy xalqi miqdor jihatdan ko`payib boraverdi. V1 asrga kelib Xitoyning tiklanishi uchun sharoit yuzaga keldi.

Biz Xitoy tarixiga shunchaki murojaat etganimiz yo`q, aslida Markaziy Osiyo turkiy qavmlarining tarixi shu davrdagi Xitoy tarixi bilan chambarchas bog`liqdir. Xitoy bilan Markaziy Osiyo sharqidagi turkiy qavmlarning ijtimoiy-tarixiy munosabatlari xuddi shu davrdan aniqroq yuzaga chiqdi. Miloddan avvalga V asrda - Chin-xun davridagi tarixiy munosabatlar alohida tarixiy davrni tashkil qiladi. Xan sulolasi bilan Xun tangriqutligidagi tarixiy, madaniy munosabatlar alohida tarixiy davrni tashkil qiladi va bu alohida mavzu bo`lgani, buning ustiga, bu davrdagi tarixning ma`lum qorong`u sahilalari hali borligi uchun bu haqda fikr yuritish uchun ko`plab dalillarga murojaat etishga to`g`ri keladi.

V-VII asrlardan boshlab Markaziy Osiyoda ijtimoiy - siyosiy voqealar yangicha tus oldi. Xususan, V asr boshlarida tashkil topgan To`ba - xun davlati Markaziy Osiyodagi madaniy muhitga kuchli ta`sir etdi. Bu davlat garchi Xitoydan ko`ra baland mavqe egallagan bo`lsa ham, To`ba aholisi Xitoy madaniyatiga mute bo`lib qoldi. Ular o`z tillaridan voz kechib, faqat xitoycha

gapi radigan bo`ldilar, eski an`analaridan voz kechib, sochlarini qirqdilar. Xullas, Xitoy madaniyati oldida sajda qildilar.

Bu davlatning kelib chiqishi tarixi bor. Milodiy III asrdan boshlab uzoq bir tarixiy davrda xunlar bilan boshqa qabilalarning o`zaro chatishib ketishidan “To`ba-xun” deb nom olgan qavm kelib chiqdi. Tarixda: “Otasi xun, onasi syanbiy”lardan bo`lganlarni shimoldagilar to`ba - xunlar degan nom bilan yuritganlar.

To`ba - xunlarning shahzodalaridan biri Giron Bur bur milodiy 407 yili To`ba - xun davlatini qurdi. Bu davlat Xitoy tarixida Shiyo davlati deb ataladi. Giron Bur bur g`oyat shafqatsiz edi. U Xan sulolası podshohi kuchiga tayanib, doim dushmanlari ustidan g`alaba qilib keldi. Milodiy 410 yili To`ba-xun davlati quadratli davlatga aylandi.

Giron Bur bur vafot etgandan keyin (425 yili) uning o`rniga o`g`illari Giron Jon (425–427), Giron Tin (427–431)lar podshoh bo`ldi. Ularning hukmronligi davrida To`ba - xun davlati bilan Shimoliy Vey imperiyasi (386 - 543) orasida uzluksiz urushlar bo`ldi.

Xullas, IV asr o`rtalariga kelganda, To`ba - xun aholisi Xitoy madaniyatiga sajda qilishi oqibatida avvalgi shon - shuhratini va doimo ularni g`alabaga olib kelgan yakdilligini ham yo`qotdilar.

Milodiy V va VI asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy va madaniy hayot uchun yunon muarrixlarining asarlaridan ko`ra, Xitoy yilnomalaridagi ma`lumotlar ahamiyatliroq ekani to`g`risida XIX asrdayoq evropa olimlari o`z fikrlarini aytganlar.

Lekin miloddan avvalgi asrlardagi O`rta Osiyo tarixi uchun yunon manbalarining ahamiyatini ham ta`kidlash kerak. Ammo urushlarning oqibatlari, qabilalar va xalqlarning bir - biri bilan qorishuvi, davrning ijtimoiy va siyosiy holati, qolaversa, boshqa bir qator sabablar qadimgi davlatlarni parchaladi, asta - sekin qabilalar va tillarning, odatlar va qonunlarning birligini ham parchalab tashladi, natijada hozir bizga etib kelgan ma`lumotlarning mohiyati ham o`zgarishga uchradi. Bularning hammasi tabiiy jarayon edi. Bu jarayonlarning mahsuli sifatida O`rta Osiyoda boshqaruvning udel sistemasi takomillashdi, ya`ni davlat mayda er egaliklariga bo`lindi. Ayni zamonda o`sha mayda davlatlar goh birlashib, goh parchalanib, qaytadan yangi - yangi davlatlar tashkil topardi.

**Miloddan avvalgi davrda O`rta Osiyoda irqlar.** Mayda davlatlarning goh birlashuvi, goh bo`linuvi qabilalarning qorishuviga ham ta`sir ko`rsatdi. Markaziy Osiyoning asosiy aholisi bo`lgan turkiy qavmlarning qaysi irqqa mansubligi ko`p munozaralarga sabab bo`lgan.

Markaziy Osiyo Ko`k turk xoqonligi davrida ham til jihatidan, ham tarixiy nuqtai nazardan turkiy qavmlar uchun muhim ahamiyatga molikligi hech qanday munozaraga sabab bo`lmaydi. Bu o`lkani o`rta, Sharqiy va G`arbiy qismlarga bo`lgan holda o`rganish mumkin. O`rta qism turkiy xalqlar tarixi nuqtai nazaridan eng diqqatga sazovor hududdir. Ko`k turk xoqonligi davrida o`rta qismda asosan turkiy qavmlarning katta bo`lagi qirg`izlar (xakaslar) yashagan. Bu o`lka tosh davrida Sharqiy va G`arbiy Sibir` hamda shimoldagi Tundra madaniyati bilan yaqin munosabatlar o`rnatgan. Antropologlarning tadqiqotlari shuni ko`rsatadi, bu hududdagi xalqlar evropa va mo`g`ul irqlarining bir qismidan paydo bo`lgan ekan. Ayni paytda janubdagagi Oltoy madaniyatidan bu erlarga ba`zi ta`sirlarning ham bo`lgani **mumkindir**.

Qadimgi turk davrida Gobi sahrosi, bugungi Mo`g`uliston muhim hudud bo`lgani ma`lum. Neolit davridagi insonlar sersuv joylarda yashagani ma`lum bo`ldi. O`lkaning neolit davri madaniyati O`rxun daryosi va Baykal ko`li bo`ylaridagi madaniyat bilan o`xshashligi arxeologik topilmalar asosida aniqlandi. Umuman olganda, Markaziy Osiyoning sharqiy hududi madaniyatida o`zaro ta`sir aniqroq ko`zga tashlanadi. Shunday bir madaniyatga turkiylar tarixining so`nggi davrida ham duch kelamiz. Bu holat O`rta Osiyo turkiy qavmlari tarixiga hamohang ravishda bordi.

Irqlar to`g`risida so`z ketar ekan, miloddan oldingi uchinchi ming yillikda Oltoy tog`larida o`g`uz tipidagi qavmning yashagani to`g`risida ma`lumot bor. Bu qavm janubdagagi mamlakatlar bilan, masalan, Orol dengizi sohillaridagi madaniyat bilan, hatto Xitoy bilan aloqada bo`lganini ko`rsatadi. Sibirda ham shu singari irqlar qadimda yashaganini arxeologlar kuzatganlar<sup>1</sup>. Bu davr madaniyati turkiy xalqlar tarixida *Oltoy madaniyati* deb nom olgan. Miloddan avvalgi uchinchi ming yillikda va ikkinchi ming yillik boshlarida hozirgi O`zbekiston va Pomir hududlarida

<sup>1</sup> Қаранг: Bahaeedin Ogel. Islamiyyetan once turk kultur tarihi. –Ankara, 1991, s. 3

Oqdengiz irqiga o`xhash dolixotsefal irqqa mansub odamlar qoldiqlari topilgan. Farg`onaning tosh davriga oid madaniyatida va Toshkent yaqinidagi Qovunchi madaniyatida ham buirq kuzatilgan. Mazkur irq turi yana Anov madaniyatida, Quyi Volga bo`ylarida, Astraxan` atroflarida, O`rta Volga bo`ylarida Proxorov qo`rg`onidan ham topilgan. Bu haqda arxeologlar G.Sergi, V. Ginzburg, L. Osharin, G.A.Trofimova, S. Rudenko kabi ingliz va rus olimlari XX asrda jiddiy kuzatuvlari natijalarini e`lon qilganlar. O`rta Osiyoning brakitsefal<sup>2</sup> irqi yuqorida aytib o`tilgan o`lkalarga ko`p ta`sir etmagan. Faqat bronza davrida O`rta Osiyo braxitsefallari Amudaryo bo`ylariga va Farg`onaning ichki hududlariga qadar ta`sir etgani aniqlangan.

Haqiqatan, Amudaryo bilan Sirdaryo orasidagi xalqlar irq jihatdan Amudaryo janubidagi turkman dashtlarida, Pomir va Afg`onistonda yashagan irqlardan keskin farqlanib chiqqan edi. Bu "turoni" (V.V. Ginzburg) yoki "ikki daryo orasi" (I. Svidetskiy) irqi degan nom olgan bo`lib, braxitsefal kallalarga mansub edi. Shu olimlarning olib borgan kuzatuvlariga ko`ra, Oltoydag'i braxitsefal irqlarga yaqin bo`lgan bu suyaklar keyingi davrlardagi so`g`dlarning ham ota-bobolari bo`lgani tahmin qilinadi.

Miloddan avvalgi 1700 yillardan e`tiboran O`rta Osiyoda ko`chmanchi va jangovar bir qavm madaniyatining asta-sekin hukmron bo`lgani ko`rinadi. Bu irq "Andronovo odami" deb nom olib, Oltoy va Tangri tog`lariga yoyilgan. Mazkur irq Xun davrida ham, Ko`k turk xoqonligi davrida ham davom etgan.

Ammo Ko`kturk xoqonligi davrida O`rta Osiyoda mo`g`ul irqi ko`rina boshladi. Bir tomondan o`g`uz qiyofasiga mansub bo`lgan turkiylar azaliy irqnini davom ettirgan bo`lsa, ikkinchi tomondan, chinakam va aslo aralashmagan mo`g`ul unsurlari ham g`arba siljiy boshladi. Ko`k turk davri boshlang`ichida Oltoy o`lkasining janubi-g`arb va shimoli-sharq hududlarida yashagan o`g`uz qiyofali turkiy qavmlar hamon hukmron edi. Bu davrga oid Tangri - tog`dan topilgan skeletlarda yirik ko`zli odamlar kuzatiladi. Bu haqda rus olimi V. Ginzburg o`tgani asrning 50-yillarida o`z fikrlarini bayon qilgan edi. Ko`k turk davlati barpo bo`lmasdan bir oz oldin va davlat barpo bo`lgandan keyingi davrlarga oid mo`g`ul qiyofali odamlar skeleti topilgan. Ayni paytda Tangri tog`dagi qo`rg`onlarda o`g`uz qiyofasidagi odamlar skeleti ham topilgani ma`lum.

Milodiy VI-VIII asrlarga oid O`rta Osiyoning ayrim hududlaridagi irqlar miloddan oldingi brexitsefal odamlarning davomi ekanini ko`rsatadi. Umuman, O`rta Osiyo irqlari alohida irqqa – Turoni irqqa mansub edi, degan ma`lumotlar o`zini oqlaydi.

**Topilmalar.** Umuman, turk xoqonligi davrigacha Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy, ayniqsa etnik tarixi madaniy hayot uchun zamin hozirladi. Bizgacha etib kelgan tarixiy manbalar - yunon, Rim tarixiy asarlari, Xitoy yilnomalarida Markaziy Osiyoning madaniyatiga oid dalillar shuni ko`rsatadiki, Turk xoqonligi davridagi madaniy hayot uchun uzlusiz zamin hozirlangan edi. Ayniqsa, Farg`ona vodiysi miloddan oldingi O`rta Osiyo madaniyati tarixida muhim rol o`ynagan edi. Miloddan avvalgi 3-2 asrlarga oid Farg`ona topilmalari madaniy jarayonning uzlusizligini, ayni paytda shu davrdagi Xitoy bilan tarixiy munosabatlarni ko`rsatadigan dalillardir. Xitoy manbalari Farg`onaning zotdor, o`sha davrda "samoviy" deb nom olgan otlari to`g`risida ma`lumot beradi. Ana shu tarixiy ma`lumotlarni Farg`ona atroflarida toshlarga chizilgan ot suratlari tasdiqlaydi.

Miloddan oldingi davrlarga oid madaniy yodgorliklar er ostidan topilgan bo`lsa, Ko`kturk xoqonligi davriga oid manbalarning ko`pi er ustida saqlanib qolgan. Bular - yirik toshlarga yoki qattiq jismlarga o`yilgan yozuv yodgorliklari, haykallar, qurbongohlardir.

Ko`kturk xoqonligidan qolgan yodgorliklarning eng diqqatga sazovori bitigtoshlardir. Yirik hajmdagi yodgorliklar - Kul tigin va Bilga xoqon yodgorliklari asli qabr toshlaridir. Tarixiy ma`lumotlarga qaraganda, ko`kturklar qabrlar ustiga inshoot qurbanlar, inshoot devorlariga marhumlarning suratlarini chizganlar. Ko`kturk xoqonligiga Chin xoqonining saroyidagi rassomlar keltirilgani va ular marhum Kul tigin va Bilga xoqon uchun bir inshoot (*baraq*) qurbanlari, uyning ich-toshini suratlar bilan bezaganlari to`g`risida Kul tigin bitigtoshida ma`lumot berilgan. Ammo hozirga kelib o`sha inshootlar, ya`ni baraqlar butun qolmagan, faqat balballar qolgan, xolos. Ba`zi evropa olimlarining fikricha, xoqonlarning qabri boshqa erda, bitigtoshlar boshqa erda bo`lgan

<sup>2</sup> Брахицефал (фр.) – бу иркка мансуб одамлар ҳам бўлиб, уларнинг бошининг эни узунлигига нисбатан 80 фоиз кенг бўлган

bo`lishi mumkin. Bu fikrlar asosli. Kul tigin bitigtoshi topilgan joydan bir yarim kilometr shimolga tomon balballar o`rnatilgan. Balballar tugagan joyda Kul tiginning qabri o`rnatilgan bo`lishi mumkin.

Ko`kturklarda yig`i, ya`ni aza marosimi bo`lgan diqqatga sazovor. Kul tigin bitigtoshida bir qancha xalqlardan dafn marosimiga vakillar kelgani aytildi. Aza xalqning madaniy saviyasi bilan mutanosibdir. Bu haqda yunon manbalar yaxshi ma`lumot bera oladi. II asrda yunon faylasufi Lukian Samosat iskif qavmiga mansub To`qsar bilan yunoniyligi Muisip degan odamlar o`rtasidagi quyidagi suhbatni keltiradi:

*Muisip: - Siz, iskiflar, Orest bilan Piladning jasadlariga qurbanlik qilasizlar va ularni tangri deb hisoblaysizlar. To`qsar, sen bunga nima deysan?*

*To`qsar: - Ha, qurbanlik qilamiz, Muisip, qurbanlik qilamiz. Ammo ularni tangri deb emas, yaxshi insonlar deb hisoblaymiz.*

*Muisip: - Demak, yaxshi insonlar vafot etgandan keyin, sizlar, tangrilarga qilingani kabi, qurbanlik qilasizlar.*

*To`qsar: - Faqat shugina emas, biz ularning sharafiga bayramlar va katta yig`inlar ham qilamiz.*

*Muisip: - Sizlar marhumlardan nima istaysizlar? Ular marhumlardir. Shunisi haqiqatki, ularga hurmat va iltifot ko`rsatish uchun qurbanlik qilasizlarmi?*

*To`qsar: — Marhumlarning bizga hurmat-e`tibori ko`rinib turganda edi, ular hech qachon o`lmagan bo`lardilar. Faqat biz yaxshi insonlar xotirasi uchun foydali deb o`ylaymiz. Shu sababdan marhumlarni hurmat qilamiz. Biz shunday tushunamiz: marhumlarni yodga olsak, ko`plarimiz ular singari o`lnak uchun harakat qilamiz.<sup>3</sup>*

Qadimdagi ikki xalq vakilining suhbatidan ko`rinib turibdiki, Markaziy Osiyoda marhumlarga atab o`tkaziladigan udumlar va urf-odatlar faqat shu hududga xos bo`lgani uchun ham yunoniylar bu udumlarga izoh talab qilganlar. Mana shu kichik lavhaning o`ziyoq ko`k turklar davridagi udumlar va inonch-e`tiqodlar milodiy II asrda Osiyoning ko`p erlariga ma`lum bo`lganini va yoyilganini ko`rsatadi.

**Markaziy Osivo madaniyatining o`ziga xosligi.** Markaziy Osiyoning g`arbiy o`lkalaridagi turkiy qavmlarning madaniy hayoti sharqiy hududdagi o`lkalar hayot tarzidan ba`zi o`zgachaliklarga ega edi. O`rta Osiyodagi etnik jarayonlarning murakkabligi madaniy jarayonga ham ta`sir etmay qolmadi. Shuning uchun bu hududdagi madaniy jarayonda boshqa etnik guruhlarning madaniy jarayoni izlarini ham ko`ramiz. Farg`ona vodiysi bu jihatdan alohida o`lka hisoblanadi.

M.av. III-II asrlarda Tangri tog`idan Farg`onaga ko`chish bo`ldi. Ko`chib kelgan qavmlarning katta qismi yuechjilar va usunlar edi. Yuechjilar ikki qismga bo`lingan: katta yuechjilar va kichik yuechjilar. Botir tangriqut (O`g`uzxon) tor-mor qilgan va Dovonga kelib, daxlarning erlarini bosib olgan qavmlar katta yuechji deb yuritilgan. Zaiflashib, kichik to`p-to`p bo`lib ketgan, janubiy tog`larda o`rnashgan qavmlarni tangutlar kichik yuechji deb ataganlar<sup>4</sup>.

Usun davlati to`g`risida Xitoy yilnomalaridagi ma`lumotlar shuni ko`rsatadiki, Sharqda ularning erlari xunlarning erlariga tutash bo`lgan, shimoli-g`arbda Qangli davlati bilan, g`arbda Dovon davlati bilan chegaralangan.

Shuningdek, boshqa qabilalar O`rta Osiyoga ko`chishi natijasida turli qavmlar madaniyatining bir-biriga qorishganini ko`ramiz. Farg`ona vodiysidagi Isfara, Shirinchoy, Toshkent yaqinidagi Qovunchi madaniyati shundan dalolat beradi. Tangri tog`larida ilgaridan mavjud bo`lgan madaniyat Farg`onada yangi madaniyatning yuzaga kelishiga sabab bo`ldi, jumladan, ordamlarning yashash tarzida, dehqonchilik madaniyatida, ishlab chiqarishda va h. larda o`ziga xosliklar kuzatiladi. Odamlarning turmush tarzi, yashash sharoiti, yasagan buyumlari shundan dalolat beradi.

Ko`k turk davlati tashkil topishi arafasida Farg`ona atroflarida ko`plab otliq ko`chmanchilar yashardi. Bu ko`chmanchilar asta-sekin o`troqlashib, dehqonchilik qila boshladilar. Chig`irchiq,

<sup>3</sup> Иктибос турк олими Абдуходир Ионнинг Tarihte ve bugun Shamanizm (Ankara, 1954, s.190-191) китобидан олинди.

<sup>4</sup> Н. Я. Бичурин (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена, том 11. — М.:—Л.: 1950 стр. 183–184

G`uljadan topilgan ashyolar dehqonchilik madaniyati to`g`risida tasavvur uyg`otadi (**sura**).

Ko`k turk xoqonligi davridan bugungacha etib kelgan eng eng noyob madaniy yodgorlik yozuv madaniyatidir Isfara, Andijon, Pop, Buxoro, Quva va boshqa qator hududlardan topilgan yozuv yodgorliklari qadim O`zbekiston xalqining azaldan salohiyatl bo`lganini ko`rsatadigan alomatlardir<sup>5</sup>.

### Sharq uyg`onish davri madaniyati

Uyg`onish (fr. Renaissane – Renessans) Sharq va g`arb xalqlarining madaniyati tarixida keskin burilishlari davridir. Uyg`onish davri Sharq va G`arbda turlicha davrlashtiriladi. Uyg`onish (ya`ni Renessans) terminini ilk bor italiyalik yozuvchi J. Bokkachcho Jotto ijodiga nisbatan ishlatib: “U antik san`atni uyg`otdi”, deb ta`riflagan edi.

Sharq Uyg`onish madaniyati g`arb uyg`onish madaniyatidan oldin yuzaga kelgani ayon haqiqat. Uyg`onish evropada birinchi marta XIV asrda boshlangan bo`lsa, Sharqda xususan, O`rta Osiyoda uning ildizlari milodning boshlariga qarab keladi.

Agar uyg`onish yuzaga keltirgan mahsulning moddiy va ma`naviy tomonlariga nazar tashlasak, Uyg`onish-tashqi ta`sir yoki ichki madaniy, ilmiy jarayonlar ta`sirida xalqning tafakkuri, dunyoqarashi, yangi, ilg`or madaniy hodisaning yuzaga kelishidir. Uyg`onishni shu jihatdan belgilasak va uning yuzaga kelish omillari ma`lum bir davrda inqilobiy o`zgarish yuzaga keltirganini e`tiborga olsak, Sharqda, xususan, bugungi O`zbekiston hududida Uyg`onish Kushon imperiyasi davridan boshlangan, deb aytish mumkin. Kushon imperiyasi madaniy jarayonni, ijtimoiy muhitni tubdan o`zgartirdi. hozirgi O`zbekistonning Sharq bilan madaniy aloqalari, ayniqsa, buddaviylikning katta madaniy hodisa sifatida karib kelishi va buning natijasida insonning ruhan poklanish jarayoni ayni sha davrda boshlangani Uyg`onishning ildizlariga ishora qiladi, ya`ni yangi hodisa madaniy hayotning, tafakkurni tubdan o`zgartirdi.

Uyg`onish madaniyati – xronologik tomondan keng tushuncha bo`lib, ayni zamonda katta hududdagi madaniy jarayonni o`z ichiga qamrab oladi.

Sharq uyg`onish madaniyatining qadimiyligi to`g`risida so`z ketganda, Xitoyning Uyg`onish madaniyati qadim ekani ham e`tiborga olinadi. Xitoy Uyg`onish madaniyati milodiy VII-VIII asrlarda paydo bo`ldi. Xitoyning shu davrdagi faylasufi Xan Yuy (768-824) insonparvarlikning haqiqiy idealini va`z qildi va nafaqat ilgaridan mavjub bo`lgan “insoniyatga muhabbat” g`oyasini, balki “hammaga muhabbat” g`oyasini ilgari surdi. Ana shu g`oya Xitoy Uyg`onish madaniyatini boshlab berdi. Bu fikrni akademik I.N.Konrad ilgari surgan edi.

Hamma mamlakatlarda - Sharqda ham, G`arbda ham Uyg`onishni belgilab beradigan bitta omil bor. Yana I.N. Konradning aytishicha, bu omil – qishloq madaniyatidan shahar madaniyatiga o`tishdan iboratdir.

Ammo shuni ham hisobga olish kerakki, Sharqdagi Uyg`onishni evropadagi Uyg`onish bilan bir, deb qarab bo`lmaydi. evropada Uyg`onish ijtimoiy-siyosiy sohada keskin burilishni paydo qilgan. XIV asrda Italiyadagi, XV– XVI asrlarda boshqa mamlakatlardagi o`zgarishlar bunga misoldir. Ishlab chiqarishning rivoj topishi ham evropadagi Uyg`onishga kuchli ta`sir ko`rsatgan. Sharqda esa ijtimoiy-siyosiy jarayon o`z oqimi, yo`nalishi va tabiiy holaticha davom etgani uchun, Uyg`onish birinchi navbatda o`z o`tmishi asosiga qurildi. Ikkinchidan, ilm-fan, madaniyat qadimiyl an`ana va Sharq ilm-fanining ta`siri natijasida paydo bo`ldi. Ayni paytda Sharq ilm-fani, madaniyati o`zaro bir-biriga ta`sir etib, bir-birini inkor etmasdan, aksincha boyitganini ham e`tiborga olishimiz kerak.

O`rta Osiyodagi Uyg`onishni uch bosqichga bo`lish mumkin:

1. IX–XIII asrlar Uyg`onish davri.
2. XIV–XV asrlar Uyg`onish davri.
3. XIX asr oxiri – XX asr boshlari Uyg`onish davri.

Qayd etilgan har bir davrda Uyg`onish ma`lum ijtimoiy-siyosiy jarayon mahsulidir. Birinchi davr (IX–XII asrlar) arab istilosidan keyin yuz berdi. Bu davrdagi Uyg`onishning asosiy belgilari quyidagicha:

<sup>5</sup> Батагасил маълумот олиш учун қаранг: Н. Раҳмонов, Б. Матбобоев. Ўзбекистоннинг кўхна туркий-рун ёзувлари. - Тошкент, “Фан”, 2006.

Dunyoviy ilmlarga intilish, bu sohada keskin burilishlar paydo bo`lib, ilm-fan natijalarini inson manfaatlariga xizmat qildirish;

Dunyo miqyosidagi ilmiy kashfiyotlarning yuzaga kelishi va buning uchun zamin yaratilishi;

Diniy-falsafiy aqidalar bilan komil insonni tarbiyalash masalasini uyg`unlashtirish;

Arablar istilosidan oldingi madaniy (til muammozi), siyosiy (xususan davlat qurilishiga oid) an`ana Qoraxoniylar sulolasi hukmronligi davrida yangicha mazmun kasb etdi, bu sulola yangicha tafakkur bilan arablar istilosidan oldingi madaniyatdan foydalandi.

O`rta asrlardagi Uyg`onishning mazkur davri dunyo madaniyati tarixida eng yorqin sahifalarni tashkil etadi. Forobiyning ko`p qirrali ilmiy faoliyati, Beruniyning tabiiy va ijtimoiy fanlarga oid kashfiyotlari, Ibn Sinoning tibbiyot, falsafa va mantiqqa oid ishlari ayni shu davrda yuzaga kelgani bilan emas, balki O`rta Osiyo madaniy hayotida keskin burilish paydo qilgani bilan diqqatga sazovor. Bu davrni ana shu buyuk olimlarning kashfiyotlari O`rta Osiyo Uyg`onishining dastlabki davri sifatida yuzaga keltirdi. Uyg`onish davrining ilmiy, madaniy hayoti, bir tomonidan, inson shaxsini ulug`lagan davr sifatida tarix sahnasiga chiqqan bo`lsa, ikkinchi tomonidan, keyin Uyg`onish bosqichlari uchun zamin bo`lgani bilan ahamiyatlidir.

Ikkinchi bosqich - XIV- XV asrlardagi Uyg`onish mo`g`ullar istilosidan keyingi davrga aloqador. “Bu bosqich aynan Uyg`onish davriga xos qanday xususiyatlarga ega? Shunchaki tarixiy davr deb nomlansa bo`lmaydimi?” degan savol tug`ilishi mumkin.

Bu asrlar tarixiy jihatdan mo`g`ullar istilosi oqibatlari ko`zga tashlanib qolgan davr edi. Ammo mo`g`ullar istilosi faqat salbiy oqibatlari bilan iz qoldirmadi, balki Markaziy Osiyo madaniyati tarixida, xususan, adabiy jarayonda keskin burilishlar, ko`tarilishlar davri hamdir. Mo`g`ullar istilosi Oltin O`rda davlatini yuzaga keltirdi. Shu bilan birga, bu davlatning tarixiy “pasporti” deb atash mumkin bo`lgan takrorlanmas Oltin O`rda madaniyati va adabiyotini yaratdi. O`zbek adabiyoti ayni Oltin O`rda madaniy muhitida ilk bor yuzaga chiqdi, desak xato qilmagan bo`lamiz. Xo`sh, Oltin O`rdadagi madaniy va adabiy muhitni qaysi belgilariga ko`ra Uyg`onish davriga bog`laymiz? Buning uchun g`arb Uyg`onish madaniyatidan qiyosi sifatida foydalanamiz.

Uyg`onishning g`arbiy evropa mamlakatlari madaniyati tarixidagi asosiy belgisi sifatida o`rta asrlardan yangi davrga o`tish mezon qilib olinadi. Xuddi shu ta`rifni mo`g`ullar asos solgan Oltin O`rda madaniyati va adabiyotiga ham tatbiq qilish mumkin. Tom ma`nodagi o`zbek (umuman turkiy) adabiyotini tiklashga, eski o`zbek tilini rivoj toptirishga urinish Oltin O`rdada boshlandi. Fors va arab tillaridagi adabiyotlarni o`zbek tiliga tarjima qilish ishlari Oltin O`rdada rivoj topdi. Oltin O`rda tarkibiga Xorazm, shimoli-sharqda Bulg`or viloyati, shimolda Rus knyazliklari, janubda Qrim va uning dengiz bo`yidagi shaharlari, Darbandgacha cho`zilib ketgan Kavkaz, hatto Bokugacha cho`zilib ketgan joylar, g`arbda Dnestrda boshlangan dashtliklar, sharqda — g`arbiy Sibir` va Sirdaryo etaklarigacha bo`lgan erlar kirgan. Ana shu hududlarning hammasida yagona an`ana amal qilgan edi.

Oltin O`rda turkiy xalqlar hayotida madaniyatning markaziga aylangandan keyin buning ijobiy tomonlaridan biri shu bo`ldiki, madaniy hayot O`rta Osiyodan Oltin O`rdaga ko`chib o`tdi. Albatta bu ko`chish tabiiy, tarix oqimiga hamohang tabiiy jarayon edi.

Oltin O`rda adabiy muhiti shunisi bilan diqqatga sazovorki, musulmon madaniyatini va islom dinini yoyish uchun payg`ambarlar tarixiga oid asarlar o`zbek tilida birinchi marta Oltin O`rdada yaratildi. Nosiruddin Burhoniddin Rabg`uziyning “Qisasi Rabg`uziy” (710|1310 yil), Mahmud ibn Ali as-Saroyining “Nahjul-farodis” (Jannatlarga ochiq yo`l) (761|1361 yil) asarlari buning yorqin namunasidir. “Qisasi Rabg`uziy” singari “Qisasul-anbiyo”larning o`zbek tilidagi ko`plab nusxalari bugungi kunda Turkiya muzeylearida, kutubxonalarida saqlanmoqda. Bu asarlarning bir qismi Oltin O`rdada hukm surgan davrda yaratilgan. Mazkur “Qisasul-anbiyo”larning aksariyati forskadan qilingan tarjimalardir.

Albatta, Uyg`onish, A.F.Losevning aytishicha, odamning zaminda o`zining mavjudligini tasdiqlashga urinishidir. Ammo insonning zaminda mavjudligini tirikchilik o`tkazish, kun kechirish, turli ehtiyojlarini qondirishdir, deb tushunmaslik kerak. Uyg`onish davri madaniyati har qanday maishiy hayotdan ustun turadi. Uyg`onish yuqorida biz ko`rsatgan uch bosqichdan qaysi birida bo`lmasin, birinchi navbatda tafakkurdagi o`zgarishdir. Tafakkurdagi o`zgarish - insonning ma`naviy, ruhan, jismonan, umuman olganda, moddiy tomonidan ozod bo`lishi demakdir.

Uyg`onish estetikasi ayni shuni talab qiladi. Uyg`onish bosqichlari uchun ana shu ko`rsatib o`tganlarimiz asosiy tamoyillardir.

Sharq Uyg`onish madaniyati o`z doirasida qolib ketmadi, balki umuminsoniyatning yutug`iga aylandi. Tarixiy dalillar shuni ko`rsatadiki, Sharq yantuqlarining g`arbgaga yoyilishida Vizantiya madaniy olami ham katta ta`sir ko`rsatdi.

Tashqi va ichki qulay sharoitlar Sharq madaniyatining rivojini ta`minladi. Shu bilan birga, Sharq Uyg`onish madaniyati o`z doirasida qolib ketmadi, balki umuminsoniyat yutug`i bo`ldi. Alisher Navoiy ijodi ikkinchi bosqichdagi Uyg`onish davrini ulkan cho`qqiga ko`tardi. XV asrdagi Uyg`onish davri uning “Xamsa”si, dostonlaridagi ko`tarilgan gumanistik g`oyalar, tarixiy va ilmiy asarlari bilan ajralib turadi. O`zbek adabiyotini yuksak pog`onaga ko`tarish, o`zbek adabiy tilini yaratish, fanning turli sohalari -tarix, falsafa, musiqa, san`atga homiylik bilan u XV asr madaniy muhitini tubdan o`zgartirdi. g`arbiy evropada ham mumtoz adabiyotning xalq tilida yaratilgani Uyg`onish davrining eng buyuk yantuqlaridan biri ekani aytildi<sup>6</sup>. Alisher Navoiy ijodi va faoliyati bilangina XV asr Uyg`onish davri Sharq Uyg`onish tarixida alohida mavqe egallaydi.

Ammo Navoiy davridagi Uyg`onishni, xususan, Navoiy ijodi XV asr Uyg`onish davrini paydo qilganini yuqorida aytiganlar bilan cheklash kifoya qilmaydi. “Xamsa” dostonlari Uyg`onishning eng yorqin mahsuli sifatida yuzaga kelganini ta`kidlash darkor. “Xamsa” asari yozilgani uchun emas, balki Uyg`onish romantizmini Navoiy dostonlariga olib kirgani bilan belgilanadi. Ayniqsa, Farhod obrazida ideal inson tasviri ham Uyg`onish davrining idealidir. U bir talay hunarlarni o`rganadi, otasi taklif qilgan taxtda voz kechadi, Shiringa bo`lgan sevgisi uni qahramonona ishlarga undaydi, Xusrav bilan munozarada ma`naviy jihatdan yuksakligini namoyish etadi va h. Bu fazilatlar Sharqu g`arb adabiyotidagi Uyg`onish davri qahramonlariga xos ideal fazilatlardir. Shuningdek, Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida antik davr mutafakkirlari nomlarini keltiradi. Antik davr yunon mutafakkirlarining salohiyati bilan shahzoda Farhodning iste`dodi solishtiriladi, yunon faylasuflari boshqa davr odamlari uchun boshqacha qiyofada, boshqa zamonlar uchun, boshqa tafakkur tarzi uchun XV asrga qaytadi:

Erur Iskandari Rumiy nigor,  
Jahon ahlig`a oning yodgori  
Ki aylab to`rt yuz dono bilan jahd,  
Alardin har bir Aflatung`a hamahd...  
Erur g`or ichra Suqroti yagona,  
Dema Suqrot, Buqroti zamona...

(“Farhod va Shirin”dan)

Uyg`onish davri Sharq va G`arbda o`ziga xos juz`iy qonuniyatlargaga ega. Shu bois evropa o`rta asr dostonlarining farqini tushunishimizga ham Navoiy dostonlari yordam beradi. Masalan, o`rta asr Germaniyasida “Oshiq Roland”, “Roland haqida qo`shiq” dostonlari bor. Bu dostonlar qahramonlari o`rta asrdagi ritsarlik hayotini aynan aks ettiradi, ya`ni chinakam ritsar` qiyofasi qanday bo`lsa, shundayicha tasvirlangan, o`sha davr nuqtai nazari bo`yicha ritsarning *realistik qiyofasi* chizib berilgan. Uyg`onish davri dostonlari qahramonlari *romantik qiyofada* tasvirlangan. Bu o`z-o`zidan tushunarli: Uyg`onish asrida ritsarlar yo`q edi. Agar ularni qandaydir qiyofada tasvirlash kerak bo`lsa, tasavvurlar xayolotni safarbar qilishi kerak bo`lgan<sup>7</sup>.

Xuddi shu singari, miloddan oldingi IV-II asrlardagi yunon faylasuflarini XV asrda tasvirlash uchun albatta romantik tasvir shart edi. Uyg`onish davrining tafakkur tarzi ayni shuni talab qilardi.

## 12 – MAVZU

<sup>6</sup> В.М.Жирмунский. Сравнительное литературоведение. –Л.: “Наука”, 1979, 178–бет.

<sup>7</sup> Н.И. Конрад. Средневосточное Возрождение Алишер Навои. – Избранные труды. “Наука”, М.: 1978, 94–бет.

## AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI MADANIYATI

Amir Temur va temuriylar davri O`rta Osiyo madaniyati tarixida alohida o`rin tutadi. Bu davrdagi madaniy yutuqlar umumbashariy tsivilizatsiyasi (tamadduni) darajasida bo`lgan. Madaniyat tarixidagi ushbu mumtoz davrda o`zbek madaniyatining shakllanishi, bu davrdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bilan bog`liqdir. Xususan, me`morchilik, ilm-fan, adabiyot, san`at, hunarmandchilik ravnaq topdi. Mamlakat va jumladan yirik shaharlар Samarqand, Shahrisabz, Buxoro, Termiz, Toshkent va Hiroting obodonchiligi, madaniy ravnaqi yo`lida Movarounnahr va O`rta Sharq mamlakatlari, Hindistondan ko`plab fan va san`at ahllari, hunarmand, me`mor va musavvirlar jam bo`lgan. Ularning sa`y-harakati bilan Shohizindadagi, bir guruh me`moriy yodgorliklar, Bibixonim masjidi, Dor us - siyodat (Kesh), Turkistonagi Ahmad Yassaviy maqbarasi kabilar barpo etildi. Shuni alohida ta`kidlash joizki, Amir Temur va temuriylardan Shohruh, Ulug`bek, Boysung`ur Mirzo, Abu Said Mirzo va boshqalar madaniyat, adabiyot, naqqoshlik, me`morlik rivojiga katta e`tibor berdilar va ularga homiylik qildilar.

Sohibqiron davrida sultanatda juda katta **obodonchilik** ishlari olib borilgan. Bunga Samarqand, Shahrisabz va boshqa joylarda qurilgan me`moriy majmualar, Samarqand atrofidagi dunyoning yirik shaharlari nomi bilan atalgan Damashq, Misr, Bag`dod, Sultoniya, Forish, Sheroz kabi qishloqlarni ko`rsatib o`tish joizdir.

Obodonchilik, sug`orma dehqonchilikning rivojlanishi iqtisodiy hayotda muhim soha - hunarmandchilik, savdo va tovar-pul munosabatlarining taraqqiyotiga ijobjiy ta`sir ko`rsatdi. Amir Temur va Mirzo Ulug`bek davrida tog`-kon ishlari yo`lga qo`yilib, turli ma`danlar qazib olinishi tufayli hunarmandchilik yuksak darajada rivojlandi. **Hunarmandchilikka** katta e`tibor tufayli shaharlarda maxsus gilamdo`zlar, sandiqchilar, shishasozlar, egarchilar, zargarlar mahallalari ko`paydi, yangi bozor rastalari, tim va toqlar qurildi. To`qimachilik, kulolchilik, chilangarlik, temirchilik va binokorlik, me`morchilik sohalari asosiy o`rin tutgan. Samarqand, Buxoro, Toshkent, Shohruxiya, Termiz, Shahrisabz, Qarshi shaharlarda yangi hunarmandchilik mahallalari vujudga kelib, bu shaharlар savdo va madaniyat markazlariga aylandi. Ip, jun, kanop tolasidan gazmollar to`qilgan. Ipakdan shoyi gazlamalar - atlas, kimhob, banoras, duxoba, horo, debo kabi gazmollar to`qilgan bo`lib, ular mahalliy va xorijiy savdogarlar tomonidan xarid qilinar edi.

XIV - XV asrda metall buyumlar, uy-ro`zg`or buyumlari, asbob-uskuna, quroq-yarog`lar ko`plab ishlab chiqarilgan. Samarqand qurolsuzlik markaziga aylanib, shaharda maxsus Sovutsozlar mahallasi vujudga kelgan. Shaharlarda mis va jezdan buyumlar va tanga pul zarb qilingan. Amir Temur farmoni bilan usta Izziddin bin Tojiddin Isfahoniy Ahmad Yassaviy maqbarasi uchun yasagan shamdon, Abdulaziz bin Sharofuddin Tabriziy quygan ulkan jez qozon hozirgacha saqlanib qolgan. Misgar va chilangarlar metallni toplash, quyish, sirtiga naqsh solish, oltin va kumush suvi yuritish kabi murakkab ishlarni bajarganlar.

Samarqanddagi Bibixonim masjidi eshiklari etti xil metall qotishma (haftjo`sh)dan tayyorlangan. Zargarlar oltin, kumush va jez qotishmalaridan nafis zeb-ziyнат buyumlar yasaganlar. Oltin va kumush gardishli, qimmatbaho toshlar qadalgan idishlar sirtiga naqsh va yozuvlar ishlangan.

Kulolchilik sertarmoq soha bo`lgan. XIV-XV asrlarda sirli sopol buyumlar yuksak badiiy rang-barang shakli va sifati bilan ajralib turgan. Toshtaroshlikda naqsh, hattotlik keng qo`llanila boshlangan. Binokorlikda g`isht teruvchilar «panno», peshtoq, ravoq hamda toqlarga parchin va chiroq qoplovchi pardozchilar «ustod» deb atalgan.

Samarqandda shishasozlik rivojlanib turli idish va buyumlar yasalgan. Qurilishda rangli oynalardan foydalilanigan. Yog`och o`ymakorligida naqshinkor eshiklar, panjaralar, ustunlar, darvozalar qurilgan va turli buyum, jihozlar yasalgan. Samarqand qog`ozi hatto chet o`lkalarda ham mashhur bo`lgan. Tarixchi Ibn Arabshoh, Shamsiddin Munshiyining xat yozishdagi mahoratini Amir Temur nayzasi tig`ining o`tkirligi bilan tenglashtirar edilar.

Bu davrda hunarmandchilik mollari ishlab chiqaradigan korxona boshlig`i «usta», yordamchi va shogirdni «xalfa» deb yuritilgan. Hunarmandlar shaharning madaniyatli tabaqasiga mansub hisoblangan.

Temuriylar davlati Xitoy, Tibet, Hindiston, Eron, Rusiya, Volga bo`yi, Sibir bilan mutazam savdo-sotiq aloqalari olib borgan. Chet davlatlar bilan savdo aloqalarini kengaytirishda

temuriylarning elchilik aloqalari muhim ahamiyat kasb etgan. Amir Temur yirik shaharlarda savdo rastalari, bozor va yo`llar qurdirdi, savdo yo`llarida karvonsaroylarni ko`paytirdi. Ayniqsa, Samarqand va Buxoroda bozor, chorsu, tim, toq, kappon kabi savdo-hunarmandchilik inshootlari qad rostladi. Samarqandning markaziy qismi bo`ylab o`tgan keng ko`chaning ikki tomoniga savdo do`konlari (rastasi) joylashtirilgan. Samarqand va Buxoro savdo maydonlarining kengligi va ixtisoslashtirilgan bozorlarga egaligi bilan ajralib turgan. Bozor savdo markazi bo`lishi bilan birga hunarmandchilik ishlab chiqarishi joyi ham bo`lgan. Shuningdek, bozorlarda qo`lyozma kitoblar, yozuv qog`ozi sotilgan, ariza yoki maktub yozuvchi mirzalar ham o`tirgan. Savdo rastasi unda sotiluvchi tovar nomi bilan atalgan (Toqi zargaron, Toqi telpakfurushon kabi). Bozorlarda adabiyot, she`riyat, ilm-fan haqida suhbatlar tashkil etilgan, farmonlar e`lon qilingan va aybdorlar jazolangan. Turli tomoshalar shu joyda ko`rsatilgan, masjid, madrasa, hammom bozorga yaqin joyga qurilgan.

Temuriylar davrida karvon yo`llarida elchilar, choparlar va savdo karvonlari uchun dam olish, otlarni almashtirish joylari - yomlar, rabotlar, sardobalar qurilgan.

XIV-XV asr oxirlarida Movarounnahr ko`p mamlakatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy, ba`zan siyosiy va harbiy ahamiyatga ega bo`lgan karvon yo`llari bilan bog`langan edi. Bu yo`llar xalq turmush tarzi, diniy, iqtisodiy, ma`naviy va moddiy madaniyatni jihatidan bir-biridan farqlanuvchi mamlakatlarning o`zaro aloqasini rivojlantirishga imkon yaratdi. Karvon yo`llari savdo, diplomatik munosabatlar borasidagi amaliy vazifasidan tashqari, ayni vaqtida mamlakatlar va xalqlarning o`zaro iqtisodiy va madaniy aloqalarini mustahkamlashga ham xizmat qildi. Dadil aytish mumkinki, bu davrda Buyuk Ipak yo`li tiklanib, mintaqalarning madaniy taraqqiyoti uchun xizmat qildi.

O`rta Osiyo zaminida temuriylar davrida me`morchilik, ilm-fan, adabiyot, san`at sohalari kamolot bosqichiga ko`tarildi. Temuriylar davlatining qudrati ayniqsa **me`morchilikda** namoyon bo`ldi. Oqsaroy peshtoqida bitilgan “Agar bizning quvvat va qudratimizga ishonmasang, bizning imoratlarimizga boq!» degan yozuv Amir Temur saltanatining siyosiy maqsadini ham anglatar edi. Chunki barpo etilayotgan inshootlarning ulug`vorligi siyosiy vazifalardan biri edi. Bu davrda Movarounnahr shaharlari qurilishida mudofaa devorlari, shoh ko`chalarni tartibga solish, me`moriy majmualarni qurish avj olgan. Ilk o`rta asrlardagi shaharning asosiy qismi bo`lgan «shahriston»dan birmuncha farq qiluvchi «hisor» qurilishini Samarqand va Shahrisabzda kuzatish mumkin. Amir Temur davrida Kesh (Shahrisabz) shahar qurilishi yakunlandi. Hisorning janubi - g`arbida hukumat saroyi - Oqsaroy va atrofida rabotlar qurildi, bog`-rog`lar barpo etildi.

Saltanat poytaxti Samarqandni bezatishga Amir Temur alohida e`tibor berdi. Uning farmoni bilan hisor, qal'a, ulug`vor inshootlar va tillakor saroylar bunyod etilgan. Samarqandga kiraverishdagi Ko`hak tepaligidagi Cho`pon ota maqbarasi Mirzo Ulug`bek davrida qurilgan bo`lib, bu inshootdagi ajoyib mutanosiblik, umumi shakl nafisligi, bezaklardagi sipolik o`zaro uyg`unlashib ketgan. Amur Temur davrida Samarqand Afrosiyobdan janubda, mo`g`ullar davridagi ichki va tashqi shahar o`rnida qurila boshladi hamda bu maydon qal'a devori va xandaq bilan o`ralib (1371 y), hisor deb ataldi. Hisor 500 hektar bo`lib devor bilan o`ralgan. Shaharga oltita darvozadan kirilgan.

Shahar mahallalardan iborat bo`lib, bir qanchasi guzarlarga birlashgan. Shaharda me`moriy majmualar shakllanishi Temuriylar davrining eng katta yutug`i bo`ldi. Me`morchilik taraqqiyotning yangi bosqichiga ko`tarildi. Bu jarayon muhandis, me`mor va naqqoshlar zimmasiga yangi vazifalarni qo`ydi. Amir Temur davrida gumbazlar tuzilishida qirralar oralig`i kengaydi. Ikki qavatli gumbazlar qurishda ichkaridan yoysimon qovurg`alarga tayangan tashqi gumbazni ko`tarib turuvchi poygumbazning balandligi oshdi. Mirzo Ulug`bek davrida gumbaz osti tuzilmalarning yangi xillari ishlab chiqildi. Aniq fanlardagi yutuqlar me`morchilik yodgorliklarida ham yaqqol namoyon bo`ldi (Shohizinda, Ahmad Yassaviy, Go`ri Amir maqbaralari, Bibixonim masjidi, Ulug`bek madrasasi). Ularning old tomoni va ichki qiyofasi rejalarini tuzishda me`moriy shakllarning umumiy uyg`unligini belgilovchi handasaviy tuzilmalarning aniq o`zaro mutanosibligi bo`lgan. Bezak va sayqal ishlari ham bino qurilishi jarayonida baravar amalga oshirilgan.

Temuriylar davrigacha va undan keyin ham Movarounnahr hamda Xuroson me`morchiligida bezak va naqsh bu qadar yuksalmagan edi. Amir Temur va Mirzo Ulug`bek davri me`morchiligida bezakda ko`p ranglilik va naqshlar xilma-xilligi kuzatiladi. Epigrafik bitik-kitobalarni hattotlik san`atini mukammal egallagan ustalar binoning maxsus joylariga, olti xil yozuvda yozganlar.

Koshin qoplamlarda tasviriy mavzular kam uchraydi. Oqsaroy peshtoqlarida sher bilan

quyoshning juft tasviri mavjudki, bu ramziy ma`noga ega. Bu davrdagi bino ichining bezagi ham xilma-xil bo`lgan. Devor va shift, hatto gumbaz ham naqsh bilan ziynatlangan. Amir Temur davrida qurilgan binolarda ko`k va zarhal ranglar ustun bo`lib, dabdabali naqshlar ishlangan, Mirzo Ulug`bek davrida esa Xitoy chinnisiga o`xshash oq zamindagi ko`k naqshlar ko`p uchraydi.

Bu davrda **masjid**, **maqbaralar** ko`plab qurildi. Amir Temur Hindiston yurishidan so`ng (1399 y.), Samarqandda jome` masjidini querdirdi. Uning ro`parasida Bibixonim madrasasi va maqbara bunyod ettirdi. Mirzo Ulug`bek Buxoro jome` masjidi (Masjidi Kalon)ni kengaytirib, qayta qurish ishlarini boshlagan edi. Biroq u keyinroq XVI asrga kelib yakuniy qiyofasiga ega bo`ladi.

Amir Temur davrida Saroymulkxonim (Bibixonim) madrasasi va Go`ri Amir majmuasidagi madrasa qurilgan. Mirzo Ulug`bek Samarqand, Buxoro va G`ijduvonda madrasalar bunyod ettirdi. Buxorodagi madrasada «Bilim olmoqqa intilish - har bir muslim va muslima uchun farzdir» degan hadis bitilgan.

XV asrda madrasa me`morchiligi o`zining uzil-kesil shakllangan qiyofasiga ega bo`ldi. Madrasa qurilishi yagona tizim bo`yicha rejalashtirilsa ham, asosiy shakllari, ularning o`zaro nisbatlari va bezaklariga ko`ra har biri o`z qiyofasiga ega edi. Temuriylarning ikki san`at durdonasi - Samarqanddagagi Ulug`bek va Hirotdagi Gavharshodbegim madrasalari yagona tizim rejasি bo`yicha qurilganiga qaramay, bir-biridan farq qiladi.

Temuriylar davrida yaratilgan maqbara, din arbobi va ruhoniylar qabrini o`z ichiga oluvchi panjara-xazira, avliyolar qadamjolari, dahmalar alohida guruhni tashkil qiladi. Samarqandda Amir Temur davrida shayx Burxoniddin Sog`arjiy xilxonasi - Ruhobod maqbarasi va temuriylar xilxonasi - Go`ri Amir mahbarasi, shuningdek, Shohizinda majmuasida peshtoqli maqbaralar guruhi quriladi.

Mirzo Ulug`bek davrida ijodiy izlanishlar samarasи dahmalarning me`moriy ko`rinishiga ham ta`sir o`tkazadi. Shohizinda majmuasida sakkiz qirrali maqbara va hozirgacha Qozizoda Rumiy maqbarasi deb kelinayotgan («Sultonning onasi» uchun qurilgan, asli nomi lum) maqbara quriladi. Mirzo Ulug`bek Buxoro, G`ijduvon, Shahrisabz, Termiz, Toshkentda ham noyob imoratlar qurdirgan. Ammo qurilish miqyosi va bezaklar bo`yicha Samarqanddagagi obidalar ustunlik qilardi. Toshkentda Zangi ota maqbarasi va Shayhontohur majmuasi bo`lib, uning tarkibidagi Qaldirg`ochbiy maqbarasi XV asrning birinchi yarmiga mansub.

Amir Temur davrida tuzilishi va miqyosi bo`yicha ulkan inshoot - Turkiston shahrida Axmad Yassaviy maqbarasi barpo qilindi. Bu maqbara muslimon Sharqining me`moriy yodgorliklari orasida eng noyobidir.

**Qadamjolar me`morchiligi** ham o`ziga xos tuzilishga ega. Amir Temur Buxoroda Chashmai Ayyub yodgorligini qurdiradi (1380 y.) Shuningdek, Sohibqiron Shahrisabzda ziyorat va dafn marosimlari uchun hazira – “Dor ul-Siyodat” (“Sayidlар uyi”) (1379-80 yy.) xilxonasini, o`g`li Jahongir vafot etgach, Shahrisabzda Jahongir Mirzo maqbarasi (Hazrati Imom maqbarasi) qurdirgan. Unda Xorazm me`morchiligi an`analarini ko`rish mumkin. Chunki, Amir Temur Xorazmni Movarounnahr hududiga qayta qo`shib olgach, u erdagи me`mor va ustalarni avval Shahrisabz, so`ngra Samarqandga ko`chirtirilgan.

Samarqanddagagi Ulug`bek rasadxonasi me`moriy san`atning noyob yodgorligidir. Rasadxona diametri 48 metrli aylana shaklda bo`lib, uch qavatlidir. Rasadxonada Ulug`bek bilan birga Jamshid Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi va boshqa allomalar astronomiya ilmiga rivoj berdilar.

Temuriylar davrida qurilgan **saroylar** ikki xil bo`lgan. **Birinchisi**- ma`muriy-siyosiy vazifani bajargan bo`lib, qal`a yoki hisor ichiga qurilgan. **Ikkinchisi** - shahar tashqarisidagi qarorgohlar bo`lib, qabul marosimi, majlislar o`tkazilgan va xordiq chiqarilgan. Shahrisabzdagi Oqsaroy gumbazining diametri 22 metr bo`lib, toqi va ravvoqlari beqiyos darajada katta bo`lgan. Amir Temur va Mirzo Ulug`bekning asosiy qarorgohi Samarqanddagagi Ko`ksaroy va Bo`stonsaroyda bo`lgan. Shuningdek, shahar tashqarisida Amir Temur o`n ikkita bog` bunyod ettirgan bo`lib, ularning har biri o`z nomi, katta-kichikligi, vazifasi, obodonlashtirilganligi bilan alohida ajralib turgan. Bu bog`larda uyushtirilgan qabul marosimlari va to`ylar R.G.Klavixo va Sharafiddin Ali Yazdiylar tomonidan yozib qoldirilgan.

Mirzo Ulug`bek davrida Samarqandning Registon maydoni shakllandı, Masjidi muqatta`, 210 gumbazli Alika Ko`kaldosh jome masjidi qad ko`tardi. Shohizindadagi ayrim maqbaralar, Chilustun va Chinnixona saroylari, Shahrisabzda Ko`kgumbaz masjidi uning davrida qurildi.

XV asrning ikkinchi yarmida Samarqandda Xoja Ahror madrasasi, Ishratxona, Oqsaroy maqbaralari buniyod qilindi.

Temuriylar davrida **tasviriy san`at** turli yo`nalishlar bo`yicha yuksaldi. O`rta Osiyodagi qadimgi devoriy suratlar va umuman tasviriy san`at an`analari Amir Temur davrida yangi shakl va mazmunda tiklandi. Miniaturasi san`atiga ham avvalo naqsh sifatida qaralgan. Samarqanddagagi temuriylarning saroy, qarorgohlarida qabul marosimi, jang voqealari, ov manzaralari, xalq bayramlari tasviri tushirilgan devoriy suratlar bo`lgan. Ularda Amir Temur, o`g`illari, nabiralar, ayollari va kanizaklari tasviri aks ettirilgan. Ulug`bek rasadxonasi devorida ham devoriy suratlar mavzu jihatdan rang-barang bo`lib, uslubiy jihatdan miniaturasi janriga yaqin bo`lgan. Abdurahmon as-So`fiyning falakiyotga oid asariga ishlangan bir suratda Andromeda yulduzlar turkumi chochlik ayol qiyofasida tasvirlanadi. Rasadxonada esa to`qqiz falak ko`rinishi, etti gardish, etti yoritqich yulduz daraja, vaqt bo`limlari, er yuzining etti iqlimi tasvirlangan.

Amir Temur davrida qurilgan Shirinbeka og`a, Bibixonim, Tuman og`a obidalarida naqqoshlik va hattotlik bilan birga tasviriy lavhalar ham mavjuddir. Shirinbeka og`a maqbarasida rangli tasvir ko`p bo`lsa, qolgan ikki bino devorlarida oq va moviy rangdagi islimiy naqshlar tasvirlanadi.

Hattotlik san`ati taraqqiyotiga XV asrda an`anaviy kufiy, nash, devoniy xatlari bilan birga peshtoqlarni bezovchi suls va tezkor-nasta`liq uslublari rivojlandi. Noyob qo`lyozma asarlar ko`chiriladigan maxsus ustaxona kitobatchilikning ravnaqiga ijobji ta`sir ko`rsatdi.

Amir Temur davrida Samarqandda **miniaturasi maktabi** tashkil topdi, bu davrda etakchi rassom Xoja Abdulhay Naqqosh edi. Hozir Turkiya va Berlin kutubxonalarida saqlanayotgan ko`chirilgan xomaki miniaturasi nusxalari XIV-XV asrlarga oid bo`lib, ular alohida shaxslar, daraxtlar, gyllap, kichik kompozitsiyalar, naqshlarda chiziqlar uyg`unligi, harakatlar aniqligi, qiyofalarning o`z o`rnida joylashtirilishi bilan ajralib turadi.

Tarixiy shaxslarning qiyofalari ham miniaturalarida aks etgan. Amir Temur qiyofasi tiriklik vaqtida aks etgan miniaturalar hali topilmagan. Asl holatiga yaqin suratlar «Zafarnoma»ning dastlabki ko`chirilgan nusxalarida uchraydi. Uning bir muncha yorqinroq qiyofasi Hirotda (1467 y.) ko`chirilgan «Zafarnoma»da keltiriladi. Dastlab Mirak Naqqosh boshlagan va Kamoliddin Behzod yakunlagan ushbu miniaturalar tarxining murakkabligi va serjilo ranglarning uyg`unligi bilan ajralib turadi.

Sharq miniaturasining taraqqiyoti badiiy adabiyotning rivoji bilan bog`liq bo`lgan. Musavvirlar ko`pincha Firdavsiy, Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, so`ngra Jomiy va Navoiy asarlariga rasmlar ishlashgan. XIV asrda Rashiduddin Fazlullohning «Jome` ut-tavorix» tarixiy asariga ham miniaturalar ishlangan. Bu an`ana temuriylar davrida ham davom ettirilib, Sharafuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Xotifiyning “Temurnoma” kabi asarlarida jang lavhalari tasvirlanadi. Ayrim hollarda diniy asarlarga ham Makka va Madina kabi muqaddam joylar tasviri tushirilgan. Badiiy asarlarning ba`zilarida Muhammad payg`ambarning (muborak yuzlari niqob bilan to`silgan) odamlar orasida turgan holatlari va me`rojga chiqishlariga oid lavhalar uchraydi.

XV asr miniaturalarining aksariyatida Sharq she`riyatining qahramonlari Layli va Majnun, Xusrav va Shirin, Rustam, Iskandar, Bahrom bilan bog`liq jang lavhalari tasvirlanadi. Umuman miniaturasi san`ati musulmon Sharqining Iroq, Eron, Xuroson, Movarounnahr va Hindistongacha bo`lgan hududida muayyan bir davrning o`ziga xos badiiy - estetik hodisasi edi. Bu san`at temuriylarning homiylik faoliyati bilan bog`lik bo`lib, Isfaxon, Sheroz, Tabriz, Hirotda, Samarqand, Dehli kabi markaziy shaharlarda ilg`or miniaturasi maktablari vujudga keldi.

Samarqand miniaturasi maktabi XIV-XV asrning birinchi yarmida shakllangan bo`lib, turli turkumda yaratilgan bu miniaturalarida Sharqiy Turkiston san`atiga xos bo`lgan turkiy obrazlarda xitoy rassomchiligi ta`siri sezilib turadi.

Samarqanddagagi saroy musavvirlari Xoja Abdulhay Naqqosh va uning shogirdlari Shayx Mahmud Taliliy, Pir Ahmad Bog`i Shamoliy, Muhammad bin Mahmudshoh al - Hayyom, Darvesh Mansurlar ishlagan rasmlar nozik, ranglar ustalik bilan qo`llangan. Ushbu miniaturalar temuriylar davriga xos ov-shikor mavzuida yaratilgan. 1420 yildan keyin Boysung`ur Mirzo Hirotda kutubxona, hattotlik va naqqoshlik ustaxonasini tashkil qilgach, bu rassomlarning ayrimlari (Mahmudshoh al - Hayyom) Hirotda ko`chib o`tadi. Xoja Abdulhayning tarixiy asarlarga (“Zafarnoma”) ishlangan miniaturalarida Amir Temur va temuriylarning qiyofalari aks etsa, ba`zi

badiiy asarlarga ishlagan rasmlarida ham ular turli holatlarda tasvirlanadi. Xalil Sulton davrida ishlangan ayrim miniatyuralar muhim tarixiy xujjat bo`lishi bilan birga, badiiy jihatdan o`ziga xos «siyohi qalam» uslubida ishlangani bilan ajralib turadi. Amir Temur hayotlik davrida uning saroy devorlarida shoh va shahzodalar bor bo`yicha tasvirlangan. Haqiqiy portret janrini Kamoliddin Behzod shakllantirgan.

Amir Temur va temuriylarning qiyofalari tasvirlangan ko`plab miniatyuralar dunyoning turli kutubxonalarida saqlanmoqda. Ularning aksariyatida rasm chizilgan davr yoki rassom, joy, mактаб ко`rsatilmagan. Biroq, bu miniatyuralarda nur sochib turgan quyoshsimon sherning boshi tasvirlangan tug` - Amir Temurning gerbi (ramzi)-uning saroyi peshtoqida, Xalil Sulton va Ulug`bek zarb qilgan tangalarda uchraydi. Shuningdek, tabiat tasvirida to`q yashil va jigarrang ko`pligi, kiyimlar turkiy millatga xos bo`lganligidan bu miniatyuralar Samarqand miniatyura maktabiga mansub deyish mumkin. Chunki, Hirot va Sheroz miniatyuralari qahramonlarining kiyimlari boshqacharoqdir. Samarqand mактabi miniatyurachilar vakillari kompozitsiya yaratish va manzara tasvirida mahoratliroq bo`lishgan.

Mirzo Ulug`bek davrida mashhur bo`lgan xattot va musavvir, obivardlik Sulton Ali Bovardiy miniatyuralari chiziqlarning keskinligi, ranglarning yorqinligi bilan o`ziga xosdir. Samarqand maktabiga xos bo`lgan 18 ta miniatyura Nizomiyning «Xamsa» asariga va 49 ta miniatyura «Shohnoma» asariga ishlangan bo`lib, ular hozir Turkiyaning To`pqopu saroy kutubxonasida saqlanadi. Abdurahmon as-Sufiyning «Siljimas yulduzlar ro`yxati» asariga ishlangan miniatyuralarda xaritalar qizil va qora doiralar bilan katta va kichik yulduzlarning o`rinlari ko`rsatilgan bo`lib, rang bermay, qora siyohda grafik tarzda chizilgan. Yulduz turkumi oddiy xalq vakili qiyofasida tasvir etiladi. Sharq miniatyurachiligidagi oddiy xalq hayoti mavzui aynan temuriylar davrida paydo bo`lgan. Masalan, «Samarqand masjidini qurish», «Iskandar devorini bunyod etish», «Ko`chmanchilar turmushi», «Jamshidning oddiy xalqqa hunar o`rgatishi» mavzuidagi miniatyuralar bunga misoldir.

Temuriylar davrida madaniyatning yuksalishi **badiiy hunarmandchilik**ning turli shakllarida ham namoyon bo`ldi. Ularning ayrimlari me`morchilik bilan, ba`zilari, koshinkorlik kulolchiligi, yog`och va tosh o`ymakorligi bilan ham bog`liq edi. **Qabrtoshlarga** qisman islimiy o`simliksimon, asosan geometrik naqshlarda xattotlik namunalari bilan so`zlar bitilgan. Bu yozuvlar chuqur, quyma o`yiqlarda bitilgan. Qabrtoshlar sag`ana yoki supa shaklida bo`lib, mahalliy xom ashyo-bo`z rangli marmardan, ayrim xollarda o`ta noyob toshlardan ishlangan. **Yog`och o`ymakorligida** Go`ri Amir, Shohizinda, Yassaviy maqbaralari eshiklari, shuningdek XV asrga oid uy ustunlari o`ymakor naqshlar bilan ishlangan. Bu davrda **metall o`ymakorligi** (kandakorlik) taraqqiy etadi. Buyum va idishlar zarhal bronza, latun, qizil misdan ishlangan. Naqshlar o`yiq va bo`rtma usulda, qimmatbaho toshlar qadalib tayyorlangan. Yassaviy maqbarasidagi ulkan shamdonlar, ayniqsa ikki tonnalik qozon bronza quyish san`atining eng yuksak namunasidir.

Amaliy san`atning **kulolchilik** turi uchun yashil, zangori tusdagi yorqin sir ustiga sodda o`simliksimon naqshlarni qora bo`yoqlar bilan tushirish yoki uyurma gullar ishlanishi, bu davrda paydo bo`lgan oppoq sadafdek idishlarga shaffof sir ustidan kobal`t yordamida naqsh berilishi yangilik edi. Sopol buyumlardagi naqshlar mo`yqalamda chizilgan. Oldingi asrlarda sopol buyumlariga naqshlar chizishgan, temuriylar davriga mansub chinnisimon sopol buyumlarda kulol-rassom turli uslubda och havorangdan to lojuvardga qadar ranglarni qo`llaydi. Bu davrning amaliy san`at turlaridan to`qimachilik, gilamdo`zlik, kashtachilik yuksak san`at darajasiga ko`tarildi.

Ilm-fan va madaniyatning butun musulmon olamida yangidan gurkirab rivojlanishi Amir Temur nomi va faoliyati bilan uzviy bog`liqidir. Amir Temurning **ilm-fan** rivojiga g`amxo`rligi tufayli Samarqand dunyoning ilmiy - ma`rifiy markazlaridan biriga aylandi. Sohibqironning sa`y-harakatlari bilan mashhur olimlar Samarqandda jam bo`lgan. Chunonchi, Sayyid Sharif Jurjoniy, Mas`ud Taftazoniy, Jamshid Koshiy, Ali Qushchi, Qozizoda Rumiy, tabib Xusomiddin Kermoniy, falakiyotshunos Mavlono Ahmad, shuningdek, Ulug`bek davrida mahalliy va turli mamlakatlardan kelgan 200 dan ortiq olimlar ilmiy va ijodiy faoliyat ko`rsatgan. Temuriylar zamonida tabiiy va gumanitar fanlar sohasida buyuk olimlar etishib chiqdi va ular jahon fani rivojiga munosib hissa qo`shdilar. Falakiyotshunoslik fanida Mirzo Ulug`bek, Qozizoda Rumiy, G`iyosiddin Jamshid va Ali Qushchilar yangi kashfiyotlar qildi. Tarix ilmida Hofizi Abro`, Sharafiddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond, Xondamir, Zayniddin Vosifiy va boshqalar qimmatli asarlar

yaratdilar. Badiiy ijod va tilshunoslikda Davlatshoh Samarqandiy, Jomiy, Alisher Navoiy, Atouullo Husayniy, Voiz Koshifiy singari ijodkorlar yuksak san`at asarlari bilan mashhur bo`ldilar.

Mirzo Ulug`bek davrida Samarcanda o`ziga xos ilmiy akademiya shakllandi. er kurrasini o`lchash va falakiyotshunoslilik jadvallarini tuzish ishlari amalga oshirildi. Samarcand rasadxonasing qurilishi ulkan madaniy voqeа bo`lib, jihizi va ilmiy yutuqlari jihatidan o`sha vaqtida dunyoda tengi yo`q edi. Mirzo Ulug`bek matematika, geometriya, falakiyotshunoslilikda chuqur bilimlar sohibi edi. Rasadxonada ijod etgan Ali Qushchi, Muhammad Xavofiylar uning sevimli shogirdlari bo`lgan.

Mirzo Ulug`bek «Ziji jadidi Ko`ragoniy» asarida VIII-XI asrlarda boshlangan falakiyot ilmiga oid an`anani davom ettirib, yuqori darajaga ko`taradi. Matematikaga doir «Bir daraja sinusni aniqlash haqida risola», falakiyotshunoslafka oid «Risolai Ulug`bek» va musiqa haqida «Musiqa ilmi haqida risola» kabi asarlar yozdi. Bulardan tashqari Ulug`bek “Tarixi arba` ulus” (“To`rt ulus tarixi”) nomli tarixiy asar ham yozgan.

Bu davrda xalq og`zaki ijodi namunalari yaratildi. **Adabiyot** badiiy uslub jihatidan takomillashdi, adabiyotshunoslilik va tilshunoslilikka oid ilmiy asarlar yaratildi. Turkiy tilda mumtoz “chig`atoj” adabiyoti - o`zbek adabiyoti vujudga keldi. Temuriylar davrida etuk ijodkorlar Qutb Xorazmiy, Sayfi Saroyi, Haydar Xorazmiy, Durbek, Hofiz Xorazmiy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Bobur, Muhammad Solih (“Shayboniynoma” muallifi), Kamoliddin Binoiy va boshqalar yashab ijod qildilar. Ayniqsa Alisher Navoiyning ijodi o`zbek adabiyotini kamolot bosqichiga ko`tardi.

Movarounnahr va Xurosonda o`zbek tili, adabiyoti va madaniyatining mavqeи orta bordi. Xurosondagi turkiyzabon xalqlar va ularning ziyolilari Samarcand, Buxoro, Turkiston va boshqa shaharlardi olimlar, shoirlar va san`atkorlar bilan o`zaro yaqin munosabatda bo`la boshladilar. Qaysi ijodkor o`ziga qaysi mamlakat yoki shaharni qulay deb bilsa, o`sha erda yashab ijod qildi. Masalan, xorazmlik shoirlar Haydar Xorazmiy Sherozga, Ismoil Ota avlodlaridan bo`lgan shoir Shayx Atoiy Turbatdan (Toshkent yaqinidan) Balxga, mavlono Lutfiy ham asli Toshkentdan bo`lib Hirot yaqiniga borib yashab qolganlar.

Temuriy hukmdorlar va shahzodalar adabiyot va san`atga, ilm-fanga yaqin kishilar edi. Ulardan 22 tasi ijodkor-shoir bo`lib, ular o`zlar she`r yozish bilan birga ijodkorlarga homiylik ham qilgan. Xalil Sulton, Husayn Boyqaro devon ham tuzganlar.

Xurosor va Movarounnahrda forsiy va turkiyda ijod qiluvchi shoirlar ko`p bo`lib, adabiy hayot yuksalgan. Sharq mumtoz adabiyoti tarjimalariga ham e`tibor kuchayadi. Badiiy ijodning g`azal, ruboiy, tuyuq kabi turlari rivoj topdi. Adabiy jarayonda shohlar ham, oddiy kosib va hunarmandlar ham, olim va fozillar ham qatnashgan.

Xurosondagi adabiy hayotning rivojida Boysung`ur Mirzo (Shohruhning o`g`li)ning o`mi beqiyos bo`lib, u o`z tashabbusi bilan fanlarning barcha sohalariga va san`at rivojiga katta hissa qo`shgan. Uning rahbarligida Firdavsiy «Shohnoma”sining ko`p qo`lyozmalarini qiyoslash asosida asarini ishonchli ilmiy matni yaratildi. Boysung`urning o`zi ham forsiy va turkiyda she`rlar yozgan. Hattotlik va naqqoshlik san`atini mukammal egallagan. Hirotdagi Gavharshodbegim masjidi bezaklari va kitoblarini shaxsan Boysung`ur Mirzoning o`zi bajargan. Uning kutubxonasida qirqta hattot, etmishta rassom ijod etgan. Alisher Navoiyning yozishicha, hech kim Boysung`ur Mirzo kabi sozanda va naqqosh, hattot ahliga unchalik homiylik qilmagan.

Movarounnahrda Mirzo Ulug`bek davrida ko`plab forsiy va turkiy ijodkorlar to`plandi. Adabiy muhitni bevosita Ulug`bekning o`zi boshqarar, Samarcanda o`sha davrning eng yaxshi shoirlari yig`ilgan edilar. Shoirlarning sardori («Malik ul-kalom») qilib mavlono Kamol Badaxshiy tayinlangan edi. Sakkokiy o`z qasidalaridan birida Mirzo Ulug`bekning she`r yozishini va uning she`r haqidagi tushunchasi yuqori bo`lganligini ta`kidlab o`tgan. Mirzo Ulug`bek mavlono Lutfiy she`rlarini XV asrning mashhur shoiri Salmon Sovajiy asarlari bilan teng ko`rgan. O`zbek mumtoz adabiyoti vakili mavlono Lutfiy aslida so`fiyona she`riyatda Salmondan ustun ekanligini aytish adolatlidir. Chunki Salmon asosan qasidalar o`zgan.

Ulug`bek saroyidagi eng obro`li o`zbek shoiri Sakkokiyning lirik she`rlari bilan birga qasidalar ham bu she`riy janrning sezilarli yutug`i bo`ldi. Alisher Navoiy «Majolis un - nafois» tazkirasida ko`proq xuroslik shoirlar haqida ma`lumotlar bersa, Davlatshoh Samarcandiy «Tazkirat ush-shuar» asarida o`tmishda o`tgan ijodkorlar haqida ma`lumot bergen. Yaqinda (1993y) ma`lum bo`lgan Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziyining o`zbek tilida yozilgan «Funun

ul-balogs`a» (1437 yil) asari temuriylar davrida Mavarounnahr adabiy hayotini o`rganishning yangi imkoniyatlarini ochdi. Shayx Taroziy o`z asarida bizga ma`lum bo`lgan mashhur shoirlardan tashqari, bizga noma`lum bo`lgan Muhammad Temur Bug`oning tuyuqlarini, Shams Qisoriyning «al-matlubul-ba`d» she`riy san`ati namunalarini, Jaloliy degan shoirning ishqiy mazmundagi baytlarini, «mutasalsal» san`atiga oid o`zining g`azalidan namunalar keltiradi.

XV asrning ikkinchi yarmi o`zbek adabiyotining eng rivojlangan davri bo`lib, bu yuksaklik temuriy Sulton Husayn Boyqaro va o`zbek adabiyotining porloq quyoshi Alisher Navoiy nomlari bilan bog`liqdir. Husayn Boyqaro Xuroson xukmdori bo`lgan davr (1469-1506)da adabiyot, san`at va fanning ko`p sohalari rivojiga katta ahamiyat berildi. «Husayniy» taxallusi bilan she`rlar yozgan Sulton Husayn o`z hukmronligi davomida Alisher Navoiyga “Amiri kabir”, «Muqarrabi hazrati sultoniy», (“Sulton hazratlarining eng yaqin kishisi”) mansablarini berib, u bilan birgalikda madaniyatning rivojlanishiga homiylik qildi. Alisher Navoiy ustozи Abdurahmon Jomiy bilan hamkorlikda ma`naviyat taraqqiyotiga rahnamolik qildi. Ular timsolida badiiy adabiyot ulkan yutuqlarga erishdi. Alisher Navoiyning «Hamsa»si va «Xazoyinul-maoniy» devoni, Jomiyning «Haft avrang» va she`riy to`plamlari shu davr adabiyotining eng buyuk namunalari bo`ldi. Sulton Husayn Boyqaro o`z «Risola”sida uning hukmronligi davrida shunday asarlar yaratilganidan cheksiz faxrlangani bejiz emas.

Bu boy adabiy meros o`zbek adabiyotining keyingi taraqqiyotiga ham o`zining chuqur ta`sirini ko`rsatdi. Boburning «Boburnoma» asari shu davr o`zbek adabiyoti va ilmining hayotbaxsh an`analari asosida yuzaga kelgan edi.

Temuriylar davri adabiyoti o`zbek adabiyoti rivojida o`ziga xos alohida bir bosqichni tashkil etadi. Undagi insonparvarlik va xalqchillik, adolatparvarlik va ma`rifatparvarlik g`oyalari hamon o`z tarovatini yo`qotgani yo`q. Bu adabiy meros O`zbekistonda hali asrlar davomida o`zining boy mazmuni bilan, g`oyaviy-mafkuraviy teranligi va ilohiyligi bilan komil insonni tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi.

Mavarounnahr va Xurosonda XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrda ro`y bergen madaniy yuksaklik butun musulmon Sharqidagina emas, evropa mamlakatlarini ham hayratga soldi. Bu yuksaklik Markaziy Osiyoning so`nggi madaniy-ma`naviy rivojinigina belgilab bermay, qo`shni mamlakatlardagi madaniy taraqqiyotga ham katta ta`sir ko`rsatdi..

Bu davrdagi madaniy yuksalishning umumiy omillarini aniqlash shuni ko`rsatadiki, ular o`zaro uzviy bog`langan va yaxlit bir butun holdagina qisqa vaqt ichidagi madaniy-ma`naviy yuksaklikni yuzaga keltira olgan.

Bulardan birinchi navbatda siyosiy-ijtimoiy omilni ko`rsatish mumkin. Ulkan hudud yagona sultanatga birlashtirilib, ijtimoiy yuksalishni ta`minladi.

Ikkinci – iqtisodiy omil - Mavarounnahr va Xurosonda yagona idora tizimining joriy etilishi iqtisodiy osoyishtalik, ishlab chiqarishni jadal rivojlanishiga olib keldi. Davlat tomonidan dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiqning rivojiga e`tibor berilishi va bu sohada qator tadbirlarning amalga oshirilishi mamlakatning ma`naviy-madaniy taraqqiyoti uchun niyoyatda muhim ahamiyat kasb etdi.

Uchinchi - ma`naviy omil - avvalgi madaniy meros, ma`naviy qadriyatlar, boyliklardan keng foydalanish, ular asosida rivojlanishdan iborat bo`ldi. Markaziy Osiyoda avvalgi asrlarda, xususan IX-XIII asrlarda yaratilgan ma`naviy-madaniy boyliklardan, buyuk muhaddislar, allomalar imom Buxoriy, Abu Iso Termiziy, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg`oniy, Forobi, Ibn Sino, Beruniy merosidan; arab, fors va turkiy tillarda yaratilgan Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Rumiy, Tusiy, Attor kabi allomalar merosidan, musulmon Sharqi ma`naviy merosida keng ahamiyat kasb etgan qadimgi yunon ilmiy-ma`naviy boyliklaridan keng foydalanildi. Bu davrda Amir Temur sultanating ta`sirida bo`lgan va bo`limgan boshqa mamlakatlar o`rtasida madaniy aloqalar tez rivojlandiki, bunday aloqalar ma`naviy boyliklarni o`zaro almashinuviga keng yo`l ochib berdi. Xususan, Eron, Arab mamlakatlari, Hindiston, Xitoy kabi mamlakatlar bilan bo`lgan aloqalarda madaniy boyliklar almashinuvi muhim ahamiyat kasb etdi.

To`rtinchı - g`oyaviy omil - bu omil ma`naviy omilning uzviy davomi bo`lsa-da, uning muhim ahamiyatga ega bo`lganligi va o`z davri ma`naviy hayotida katta rol` o`ynaganligi uchun alohida ajratib ko`rsatish maqsadga muvofiqdir. Markaziy Osiyoda Yusuf Hamadoniy, Abdulxoliq G`ijduvoniy, Ahmad Yassaviy ta`limotlarini rivojlantirish asosida shakllangan naqshbandiya

ta`limoti va uning yirik vakillari XIV-XV asrlardagi siyosiy-ijtimoiy hamda madaniy hayotda nihoyatda muhim rol` o`ynadi, ma`naviy o`zgarishlar ma`lum darajada erkinlik uchun g`oyaviy asos, omil bo`lib xizmat qildi. Chunki, Bahouddin Naqshbandning «Dil-ba yor - u, dast-ba kor» “Ko`ngil Xudoda bo`lsinu, qo`l ish bilan band bo`lsin” shiori etakchi tasavvuf namoyondalari bilan birga keng jamoatchilikning hayot tarziga aylangan edi.

XV asrda yashab ijod etgan naqshbandiya ta`limotining yirik vakili Xoja Ahror Valiy nafaqat madaniy hayotda, balki ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotda ham muhim ijobjiy rol` o`ynadi.

Bu omillar Temuriylar davri madaniyati va ma`naviyatining tez va yuksak darajada ko`tarilishiga olib keldiki, uning yutuqlari uzoq asrlar davomida keyingi madaniy rivojlanish uchun asos bo`ldi.

XIV-XV asrlardagi ma`naviy-madaniy rivojlanish islom mafkurasi mustahkamlanib borishi bilan uzviy bog`liq bo`lgan. Islomiy ilmlar madrasayu masjidlarda keng o`qilib, qonun-qoida, odat, an`analar esa shariat asosida olib borilar edi. «Temur tuzuklari»da aziz-avliyolar, shayx, sayid, ulamolar faoliyatini alohida qayd etilib o`tilgan. Bu davrda xalq orasida ayniqsa, ziyorilar, aqliy mehnat bilan shug`ullanuvchi ilm-fan, san`at, madaniyat, tasavvuf ta`limoti keng tarqaldi.

Amir Temur, mutasavvif shoirlar va olimlarga katta hurmat bilan munosabatda bo`lgan. Amir Temurning uch piri bo`lgan: Shamsiddin Kulol, Sayid Baraka va Zayniddin Abubakr Toyobodiy.

Tasavvuf ta`limotining Muhammad Porso, Yoqub Charxiy, Xoja Ahror kabi yirik vakillari naqshbandiya tariqatiga oid qator risolalar yaratish bilan birga, jamiyatning ma`naviy poklanishi va rivojlanishi yo`lida faol xizmat qildilar, davlat arboblari bilan muloqotda bo`lib, ularga ta`sir o`tkazdilar. Bu jihatdan, ayniqsa, Xoja Ahror faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu davrda **tibbiyot ilmi** ham o`zining yirik namoyondalariga ega edi. Samarqandga kelib ijod qilgan tabobat ilmining yirik vakillaridan Burhoniddin Nafis ibn Evaz ibn Hakim al-Kirmoniy, Sulton Ali Xurosoniy, Husayn Jarroh shular jumlasidandir.

XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyoda **mantiq va falsafa fanlari** bilan shug`unlangan yirik olimlar paydo bo`ldi. Bu fanlarning rivoji, asosan ikki yirik mutafakkir Sa`diddin bin Umar Taftazoniy va Mir Sayid Jurjoni nomlari bilan bog`liqdir. Bularidan tashqari, Samarqandda o`sha davrda Abdujabbor Xorazmiy, Shamsiddin Munshiy, Abdulla Lison, Badriddin Ahmad, Nu`moniddin Xorazmiy, Xoja Afzal, Jalol Xokiy va boshqa olimlar yashab ijod etganlar. O`z davrining ilg`or ijtimoiy va axloqiy fikrlari badiiy adabiyotda, tasavvuf she`riyatida, nazm va nasrda, g`azal va ruboilyarda mufassal bayon qilina boshlandi. Sakkoki, Jomiy, Lutfiy, Navoiy, Binoiy, Amir Qocim Anvor va boshqalarning badiiy asarlari boy falsafiy va axloqiy mazmunga egadir.

Bu davrda axloq va ta`lim-tarbiya muammolariga bag`ishlangan maxsus risolalar paydo bo`ldiki, ularning orasida Husayn Voiz Koshifiy va Jaloliddin Davoniylarning merosi alohida o`rin egallaydi.

Bu davrda Movarounnahr va Xurosonning mo`g`ullar zulmidan ozod etilishi tarixini o`rganish va yoritishga katta e`tibor berildi. Nizomiddin Shomiy, G`iyosiddin Ali Yazdiy, Sharafuddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Hofizi Abru, Fasih Ahmad Xavofiy, Muiniddin Natanziy, Mirxon, Xondamir kabi tarixchilarining asarlari hozirda biz uchun o`sha davr madaniy yuksalishini o`rganishda muhim manba bo`lib xizmat qilib kelmoqda.

Ilm-fan va adabiyotning rivoji kitobat san`ati-yangi qo`lyozma asarlarni ko`chirish, xattotlik, musavvirlilik, lavha chizish, muqovasozlik kabi san`atlar taraqqiyotiga ham ijobjiy ta`sir qildi. Nafis kitob va xattotlik XIV-XV asrlarda yangi taraqqiyot bosqichiga ko`tarildi. Xattot Mir Ali Tabriziy nasta`liq xatini kashf qildi. Bu usul Hirotda Sulton Ali Mashhadiy tomonidan yuksak bosqichga ko`tarildi va Abdurahmon Xorazmiy, Sulton Ali Xandon, Mir Ali Qilqalam, Halvoiy, Rafiqiy kabi hattotlar, Mirak Naqqosh, Kamoliddin Behzod, Qosim Ali, Mahmud Muzahhib kabi musavvirlar etishib chiqdilar. Samarqand va Hirotda, Isfaxon va Sherozda temuriylarning saroy kutubxonalari tashkil etildi. Ularda qo`l yozma asarlarni to`plash va saqlash ishlari bajarilgan.

XIV-XV asrlar O`rta Osiyo xalqlarining **musiqa san`ati** taraqqiyotida ham yangi bosqich bo`ldi. Yangi kuy va qo`shiqlar, cholg`u asboblari va musiqa nazariyasiga doir asarlar yaratildi. Mahoratli sozandalar, bastakorlar va hofizlar etishdi. Abduqodir Nayiy, Qulmuhammad Shayxiy, Husayn Udiy, Shohquli G`ijjakiy, Ahmad Qonuniy, Hoja Yusuf Andijoniy, ustod Shodiy,

Najmiddin Kavkabiy kabilar shular jumlasidandir. Mirzo Ulug`bek, Jomiy, Navoiy va Binoiylar musiqa ilmiga oid asarlar yozib yangi kuylar ijod qildilar. IX-XII asrlarda shakllangan 12 maqom bu davrda takomillashdi. Shuningdek, keng ommaga mo`ljallangan teatrlashgan tomoshalar - xalq sayllarida masxarabozlar, qo`g`irchoqbozlar, dorbozlar o`z san`atini namoyish qilgan.

Shunday qilib, O`rtta Osiyoda Temuriylar davrida madaniyat yuksak rivojlandi va kamol topdi. XIV-XV asrlardagi Mavarounnahr va Xurosondagi madaniy taraqqiyotning tamal toshi buyuk sohibqiron Amir Temur tomonidan qo`yildi.

Hozirgi zamon fani Amir Temur va temuriylar davrini haqiqiy Renessans – Uyg`onish davri deb e`tirof etmoqda. Zero, bu davrda o`tmish davrlar tajribalarini ijodiy o`zlashtirishga va yangicha yondashuvlarga, olimlar, me`mor va hunarmandlar, miniyatyrachi rassomlar, shoirlar, musiqachilar, yangi davr tomosha san`ati vakillari oldida turgan masalalarni hal etishda jiddiy yangiliklar kiritishga asoslangan eng yaxshi an`analar tiklandi.

Mustaqil O`zbekistonda bu boy madaniy merosni o`rganishga, uning an`analarini davom ettirishga davlat siyosati darajasida e`tibor berilmoqda.

### 13 – MAVZU

## XVI -XIX ASR BIRINCHI YARMIIDA O`ZBEK MADANIYATINING HOLATI

XV asr oxirida Mavarounnahr taxi uchun temuriy shahzodalar o`rtasidagi tinimsiz kurashlar oqibatida sultanat tanazzulga yuz tutdi. Natijada Mavarounnahrni egallahshni o`z oldiga maqsad qilib qo`ygan Muhammad Shayboniyxon uchun qulay fursat vujudga kelgan. Uning temuriylarga qarshi 1500-1509 yillarda olib borgan shiddatli kurashlari oqibatida Mavarounnahr, Xorazm va Xurosonni o`z ichiga olgan Shayboniylar davlati vujudga keldi va o`zbek davlatchiligi tarixida shayboniylar sulolasi hukmronligi davri boshlandi. Samarqand poytaxt shahar deb belgilandi. Biroq 1510 y. Muhammad Shayboniyxon Eron safaviylari shohi Ismoildan mag`lub bo`lib, qatl etilgach, Xuroson qo`ldan ketgan. Shayboniylar orasida yuz bergen ma`naviy parokandalikdan foydalanib Ismoil Safaviy Mavarounnahr hududini egallaab olmoqchi bo`lgan. Ammo Ubaydulla Sulton boshchiligidagi shayboniy sultonlar bu tazyiqni bartaraf etib, mamlakat hududini saqlab qolishga erishganlar.

Shayboniylar davrida, ayniqsa ulardan Ubaydullaxon (1533-1539) va Abdullaxon II (1583-1598) hukmronlik qilgan yillarda mamlakat iqtisodiy va madaniy hayotida birmuncha o`zgarishlar ro`y berdi. Ubaydullaxon davrida mamlakat poytaxti Buxoroga ko`chirilgach, shayboniylar davlati Buxoro xonligi deb ataladigan bo`ldi.

**Buxoro xonligidagi madaniy hayot. Islom.** O`rtta Osiyo hududida X-XII asrlarda vujudga kelgan so`fiylik tariqatlari bu davrga kelib nafaqat diniy sohada, balki siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotda ham muhim rol` o`ynay boshladilar. Ayniqsa naqshbandiylik tariqati keng quloch yozgan. Siyosiy hokimiyat shayboniylar sulolasi qo`liga o`tishi bilan temuriylar davridagi diniy arboblar o`rnini yangilari egallay boshladi. Xususan, XVI asrning ikkinchi yarmidan Jo`ybor xojalari (shayxlari) nufuzi kuchaydi. Mashhur Maxdumi A`zam Kosoniy (1549 yil vafot etgan)ning shogirdi bo`lgan Jo`ybor xonlaridan Xoja Muhammad Islom va uning o`g`li Xoja Sa`dlar mamlakat ma`naviy, siyosiy – iqtisodiy hayotida etakchi rol o`ynaydilar. Ular XVI asrning ikkinchi yarmida Buxoroning shayxulislomlari, shayboniylar hukmdorlarining pirlari bo`lishgan. Ularning Jo`ybor xojalari nomini olishi Xoja Muhammad Islomning bobosi Xoja Muhammad Yahyo Buxorodagi Jo`ybor degan mavzega ko`chib kelishi bilan bog`liqidir. Jo`ybor xojalari o`zlarini islam dinini targ`ib qilish uchun Makkadan Nishopurga, undan Buxoroga kelgan Imom Ali Murtazo avlodи deb hisoblaganlar.

Xoja Muhammad Islom shayboniylar davlatidagi toj-taxt uchun bo`lgan kurashlarga aralashib, o`z muridi Abdullaxon II ning taxtga chiqishiga yordam bergen. Shu tufayli unga Buxoro yaqinidagi Sumiton qishlog`i in`om etiladi. Jo`ybor xojalarning ota-bobolari Buxoro yaqinidagi Chor bakr mozoriga qo`yilgani uchun XVI asrdan boshlab bu er ziyoratgohga aylantirilgan.

XVI asrdan e`tiboran O`rtta Osiyoda ijtimoiy-falsafiy tafakkur ikki bosqich (XVI-XVII asrlar va XVIII - XIX asrning birinchi yarmi)da rivojlangan. Birinchi bosqichga Mirzajon Sheroyi, Yusuf Qorabog`iy, Muhammad Sharif Buxoriy, Inoyatullo Buxoriy kabi o`z davrining etuk faylasuflarini kiritish mumkin. Ular falsafa, tarix, tilshunoslik bo`yicha ko`plab asarlar mualliflari bo`lishlari bilan birga falsafiy xarakterdagi ko`plab sharhlar va izohlar ham yozishgan.

Masalan, Yusuf Qorabog`iy (1563-1647) o`tmishdagi buyuk faylasuflarning an`analarini davom ettirib, XVI-XVII asrlarda falsafaning O`rta Osiyodagi taraqqiyotiga katta hissa qo`shgan. Uning “Risolai botiniyya” (bu asar “etti jannat” nomi bilan mashhur), “Fi ta`rifi ilm” (“Ilm ta`rifida”), “Mafotih” (“Kalitlar”) va boshqa asarlari ma`lum. Olim, shuningdek, arab tili, mantiq, riyoziyot, lug`atshunoslik va fiqh masalalariga oid qator risolalar, she`rlar ham yozgan.

O`rta Osiyo falsafiy tafakkuri Hindistondagi Boburiylar davlatiga ham yoyilib, hind falsafasi bilan ma`lum darajada uyg`unlashgan. Bunda Bedil falsafasi keng tarqalgan. Bedil inson erkinligi, tafakkuri haqida falsafiy fikrlar bayon etgan. Uning yirik asari “Chor unsur” (“To`rt unsur”, 1703)da to`rt unsur - havo, suv, er, olov to`g`risida; o`simliklar, hayvonlar va odamning paydo bo`lishi haqida so`z yuritiladi. Bedil “Irfon” (“Bilim”, 1711-12; “Komde va Mudan”, “Nukot” asarlari ham shuning tarkibida) dostonida falsafa, tarix, tabiyot, adabiyot va ilohiyotning xilma-xil masalalariga to`xtalgan. Bedilning ijtimoiy masalalarga oid qarashlarida ma`rifatparvarlik, muruvvat va odamiylik asosiy o`rinni egallaydi. Uning asarlari ayniqsa XIX asrdan O`rta Osiyoda keng tarqalgan. Ikkinci bosqichda ayrim sharhlar, falsafiy risolalar yozilgan. Falsafiy tafakkur sohasidagi yirik muallimlari bu davrda uchramaydi, tasavvuf ta`siri kuchaygan, ijtimoiy-siyosiy xarakterdagи she`rlar bitgan shoirlar ijod qilgan.

**Tabiiy fanlar.** XVI-XIX asrlarda o`tgan davrga nisbatan O`rta Osiyo tabiiy fanlar rivojida birmuncha turg`unlik holati vujudga keldi. Bu jamiyat madaniy hayotida va musulmon ruhoniylarining mutaassib qatlamini nufuzi kuchayib ketishi bilan bog`liq edi. Shunga qaramay O`rta Osiyolik olimlar o`tmishdagi buyuk ajdodlari Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug`bek, Jamshid Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi kabi allomalarning asarlariga sharhlar yozdilar, yangi g`oyalarni o`rtaga tashladilar. Bu davr matematik olimlari qatorida Muhammad al-Xodi Toj al-Sayidiy, Latif Muhammad ibn Bobo Samarqandiy (Bobokalon Muftiy nomi bilan shuhrat qozongan), Muhammad Amin al-Mo`minobodiy, Abdusamat ibn Qozi Muhammad Akbarxon (Xon Ulum laqabi bilan mashhur), Tursun az-Zominiy al-Farxizi, Soqi Muhammad ibn Muhammad Amin as-Son Chahoryoqiy, Mirza Bade` devonlarni ko`rsatish mumkin.

Bu olimlardan Latif Muhammad ibn bobo Samarqandiy (XVI asr)ning O`rta Osiyodagi madrasalarda XVII – XIX asrlarda darslik sifatida o`qitilgan. “Risola dar ilmi hisob” (“Hisob ilmi risolasi”), “Vasiyat bar chahor qism” (“To`rt xil vasiyat”) va boshqa asarlari diqqatga sazovor.

Qozizoda Rumiyning nabirasi Mahmud Muhammad Miram Chalabiy **astronomiya** va matematikaga oid bir qancha asarlar yozgan.

Ashtarxoniylardan bo`lgan Buxoro xoni Subxonqulixon ilmi nujum (astronomiya)ga doir “Lubb ul-laviyah ul-qamar fil-ixtiyorot” (“Baxtli soatni aniqlashda oy manzillarining mohiyati”) risolasi muallifi hisoblanadi. Astronomiya ilmi rivojiga, shuningdek Ahmad Donish (1827-1897) ham munosib xissa (“Manozir ul-kavokib”), (“Sayyoralarning joylashishlari” asari) qo`shgan. XVI-XIX asrlarda **geografiya** fani ham birmuncha rivojlandi. Goegrafiyaga doir maxsus asarlardan tashqari memuar xarakterdagи risolalar, sayohatnomalar paydo bo`ldi. Nizomiddin Abduvali al-Birjandi, Bobur, Sulton Muhammad al-Balxiy, Hofiz Tanish al-Buxoriy, Mahmud ibn Vali, Sayid Muhammad Tohir ibn Abdulqosim, Abulg`azi Bahodirxon, Abdulkarim Buxoriy, Xudoyerberdi ibn Qushmuhammad, Abu Toxirxoja Samarqandiy kabilar bu sohaga munosib hissa qo`shganlar. Jumladan, Birjandi (taxminan 1525 yil vafot etgan) “Ajoyib ul-buldon” (“Mamlakatlar ajoyibotlari”) asarida O`rta Osiyoda keng tarqalgan bo`lib, unda etti iqlimdagи dengizlar, tog`lar, daryolar, shuningdek yirik shaharlar – Samarqand, Buxoro va Xorazm haqida qiziqarli ma`lumotlar keltirilgan.

Boburning “Boburnomasi”da Farg`ona vodiysi, Buxoro, Toshkent, Hisor, Xirot, va Qobulning tabiiy sharoitlari keltirilgan hamda boshqa mamlakatlar haqidagi geografik ma`lumotlar, o`simlik va xayvonot dunyosi, aholisi haqida qiziqarli faktlar keltirilgan.

O`rta Osiyo xalqlari o`rtasida **tibbiyotga** doir asarlar keng tarqalgan. Ularning orasida Sharq olimlarining tibbiyotga oid mumtoz asarlarining tarjima qilingan nusxalari, shuningdek mahalliy olimlarning risolalari ham bo`lgan. Yusuf ibn Muhammad ibn Yusuf al-Hiraviyning fors tilida yozilgan “Jome` al-favoid” (“Foydali ma`lumotlar to`plami”) asari (1511y) ko`plab kasalliklarni davolashda qo`llanma bo`lgan. U 1882 yil Mulla Muhammad Zohir al-Xorazmiy tomonidan o`zbek tiliga tarjima qilingan. Shuningdek Nurulloh A`lo al-Hakim, Mulla Muhammad Yusuf Qahhol, Ubaydulloh ibn Yusuf Ali, Muhammad Kozim, Solih ibn Muhammad Solih

Qandahoriy, Ja`farxo`ja ibn Nasriddinxo`ja, Junaydullo ibn Shayx al- Islom, Muhammad Sharif Buxoriy va boshqalar tibbiyat sohasiga oid ko`plab asarlar yozdi. Subhonqulixonning “Ihyo at-tubb Subhoni” asari turli kasalliklarni davolashga bag`ishlagan.

**Adabiy hayot.** XVI asrda Samarcand va Buxoro mamlakatning madaniy va adabiy markazlari hisoblangan. Tarix va tilshunoslik, adabiyotshunoslik va sufiylikka doir XVI asrda yozilgan va bizgacha etib kelgan asarlar o`sha davrdagi adabiy, falsafiy va ijtimoiy qarashlarni o`rganishda katta ahamiyatga ega. Bunday asarlar sirasiga Mas`ud ibn Usmon Ko`histoniyning “Tarixi Abulxayrxoniy”, noma`lum muallifning “Tarixi guzida nusratnoma”, Abdulloh Nasrullohiyning “Zubdat al-osor”, Kamoliddin Binoiy va Muhammad Solhining “Shayboniy nomma”, Fazlullox ibn Ro`zbexonning “Mehmonnomayi Buxoro”, Hofiz Tanish al-Buxoriyning “Abdullanova” Gulbadanbegimning “Humoyunnoma”, Muhammad Xaydarning “Tarixi Rashidiy”, Boburning “Boburnoma”, Zayniddin Vosifiyning “Badoi al-vaqoe”, Ali Safiy ibn Husayn Voiz Koshifiyning “Rashahat ayn ul hayot” kabilarni kiritish mumkin.

Hofiz Ko`hakiy (1490-1584) Ulug`bekning shogirdi Ali Qushchining avlodidan bo`lib, shayboniylar davrining etuk tarixchisi, mantiq, fiqh, kalom ilmidagi olimi bo`lgan. Uning “Tarixi ali Chingiz” (“Chingizzon va uning avlodlari tarixi”), “Sharhi odobul al-munozara” (“Odob va ahloq to`g`risida munozara” kitobiga sharh), “Favoid ziyoiya” (“Munavvar foydalar”) kabi asarlari ma`lum.

XVI asrning ikkinchi yarmida Buxoroda ko`plab adiblar, shoirlar bo`lib, ular orasida forsigo`y shoir Abdurahmon Mushfiqiy ajralib turadi. Hajviy shoir sifatida shuhrat qozongan. Mushfiqiy Abdullaxonning saroy shoiri bo`lgani uchun unga atalgan ko`plab madhiyalari saqlanib qolgan. Shayboniy hukmdorlar, shahzodalarning ko`plari ham shoir bo`lishgan. Shayboniy, Ubaydiy, Xoniy va boshqalarning she`rlari bizgacha etib kelgan. Shu davrda ijod etgan shoirlardan Majlisiyni qayd etib o`tish joiz. Uning “Qissai Sayfulmuluk” dostoni xalq mehrini qozongan. Asardaadolat, yaxshilik va ezgulik madh etilgan, podshohlar adolatga chaqirilgan, xotin-qizlar xuquqlarini himoya qilish g`oyalari ilgari surilgan. Shoир Ibodulla Sayid Podshoxoja ibn Abdulvahhobxoja ham mashhur bo`lib, u Xoja taxallusida ham nasr, ham nazmda ijod qilgan.

Buxoroda bu davrdagi adabiy hayot to`rtta asosiy tazkira-Mutribiyning “Tazkirat ash-shuaro”, Maleho Samarcandiyning “Muzakkir al-ashob”, Mulla Sodiq Samarcandiyning “Riyoz ash-shuaro” va Nurmuhammad Nasafiyning “Mazhar al-musannifin”larni yaratilishi bilan e`tiborga molik.

Turdi Farg`oniy, Mulla Mastiy Oxundiyy va boshqalar shu davr adabiyotida progressiv rol` o`ynadilar. Ularning g`azallarida ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi adolatsizliklar qoralandi. Shuningdek, Sayid Nasafiy ijodi alohida ajralib turadi. Uning “Xayvonotnoma” asari mashhur. Shoир hayvonlar timsoli orqali adolatsizlik, poraxo`rlik, amaldorlarning kirdikorlarini fosh etadi.

Shoир Mujrim Obid o`zbek va tojik tillarida yozilgan she`rlaridan maxsus devon tuzgan. Bulardan tashqari Vola, Shavqiy Kattaqurg`oniy Xiromiy kabi shoirlar ham ijod qilishgan.

**Xiva xonligidagi adabiy hayot.** Xiva xonligining siyosiy va iqtisodiy hayotidagi voqealar madaniy hayotga ham ta`sir etmay qolmadi. Ijtimoiy tafakkurning barcha sohalarida reaktsion va progressiv dunyoqarash o`rtasida kurash olib borildi. Buni biz o`sha davrda yaratilgan tarixshunoslikka oid asarlarda va she`riy to`plamlardan kuzatishimiz mumkin. Abulg`ozzi Bahodirxonning ikki tarixiy asari alohida e`tiborga sazovor.

Abulg`ozzi (1603-1664) nafaqat Xiva xoni, balki turkiy va forsiyda ijod etgan yirik tarixchi olim hamdir. Uning “Shajarayi tarokima” va “Shajarayi turk” asarlari O`rta Osiy xalqlari tarixi bo`yicha qimmatli manba hisoblanadi. Abulg`ozzi tib ilmiga oid “Manofi`ul inson” (“Insonga foydali narsalar”) asarini ham yozgan. Xiva xonligida ijod etgan adiblardan Andalib, Pahlavon Ravnaq, Rahim, Nishotiy, Muhammad Hokisorlarni sanab o`tish mumkin.

XVII – XVIII asrlarda “Go`ro`g`li” dostonlari turkumi va “Tohir va Zuhra”, “Oshiq G`arib va Shohsanam”, “Sayyodxon va Hamro”, “Sanobar”, “Yusufbek va Ahmadbek”, “Bahrom va Dilorom” kabi xalq-fol`klor dostonlari xalq orasida keng tarqaldi. Bu davrda Muhammad Yusuf Rojiy, Bobojon Sanoiy, Xudoybergan Muhrkan, Muhammad Yoqub Devon Xorazmiy, Muhammad Rizo Oxund va boshqa xattotlar ijod etdi.

Munis va Ogahiylarning tarixiy asarlari “Firdavs ul iqbol”, “Riyoz ad-davla”, “Zubdat at-tavorix”, “Gulshani davlat” va boshqalar Xiva xonligi tarixini o`rganishda beqiyos qimmatga ega.

Munisning “Savodi ta`lim” asari yoshlarni xattotlik san`atini o`rganishlariga bag`ishlangan.

Bu davrda Xorazimda ko`plab tarixiy, ilmiy va badiiy asarlar o`zbek, tiliga tarjima qilingan. Xonlikda o`ziga xos tarjima maktabi shakllangan. Ogahiy, Komil, Sanoiy, Dilovar xoja, Muhammad Yoqubxo`ja va boshqalar ko`plab asarlarni tarjima qilishgan.

Komil Xorazmiy (1825-1899) shoir, bastakor, xattot va rassom bo`lgan. U musiqaga oid “Xorazm notasi”ni yozgan.

**Qo`qon xonligidagi adabiy hayot.** Qo`qonlik shoir Abdulkarim Fazliy Namangoniy tomonidan 1821 yilda yozilgan “Majmua ush shuaro” asari XVIII-XIX asr boshlarida Qo`qon xonligidagi adabiy hayot haqida batafsil ma`lumot beruvchi muhim manbadir. Vozehning “Tuhrat ul-ahbob fi tazkirat ul-ashob” tazkirasida 200 ga yaqin shoir va olim haqida ma`lumot to`plangan. XVII asrning ikkinchi yarmi - XVIII asrning birinchi choragida Farg`ona vodiysida yashagan iqtidorli shoir va mutafakkirlardan biri Boborahim Mashrab edi. U adabiyotda progressiv yo`nalish taraqqiyotida katta rol` o`ynadi. Mashrab asarlarining aksariyati chuqur ijtimoiy yo`nalishga ega bo`lib, o`sha davr hayoti, jamiyatdagi voqeа-hodisalar bilan chambarchas bog`liq. Xususan, u ba`zi ruhoniylarning kirdikorlari va xiyakorliklarini fosh etadi, tekinox`rlar, mulkdorlar va johil amaldorlarning zo`ravonliklarini tanqid qiladi. Mashrabning bu tur asarlari qo`ldan qo`lga, og`izdan og`iga o`tib, tez tarqalgan.

XVIII asr o`zbek adabiyotining yana bir yirik namoyondalaridan biri Xuvaydo edi. Uning “Devoni Xuvaydo” kulliyotidagi she`rlarda insonparvarlik g`oyalari, sevgi, sadoqat, ahloqiy poklik tarannum etilgan.

Qo`qon xoni Umarxon va uning xotini, mashhur o`zbek shoirasi Nodirabegim o`zlarini ijodkor bo`lganlari tufayli shoir, tarixchi, adabiyotshunoslarga homiylik qilishgan. Ular atrofida **Qo`qon adabiy muhiti** vujudga kelgan. Bu muhit namoyondalaridan Akmal (Mahmurning otasi), Amiri (amir Umarxon), Boqixon to`ra, Gulxaniy, Yoriy, Zavqiy, Zoriy, Ma`dan, Mahjub, Maxmur, Mushrif, Nizomiy, Nodir, Nozil, G`oziyalarni sanab o`tish mumkin. Qo`qon adabiy muhiti shoirlari o`zbek va tojik tillarida ijod etishgan.

Gulxaniy “Zarbulmasal” asari bilan o`zbek adabiyoti tarixiga masal janrini boyitgan shoir sifatida kirdi. Maxmur “Hapalak” hajviy she`rida Qo`qon xonligidagi xalq tur mush tarzini aks ettirgan. O`zbek mumtoz adabiyoti namoyondalaridan biri bo`lgan Maxmur ijodi merosida hajv san`atining murakkab, ayni zamonda, mahsuldar va yorqin usullaridan biri – o`z-o`zini fosh etish usulida yaratilgan asarlar alohida o`rin tutadi.

Qo`qon adabiy muhitini Jahon otin - Uvaysiy va Mohlaroyim-Nodirabegimlarsiz tasavvur etib bo`lmaydi. Uvaysiy she`riyatida el-yurt dardi, xalq qismati, hasrati bosh mezon bo`lgan. Nodirabegim she`riyati asosini lirik she`rlar tashkil qilgan, ularda muhabbat, sadoqat, mehr-vafo, ayni paytda sharq ayollarining dard-alamlari kuylanadi. Nodirabegim nafaqat ajoyib shoira, ma`rifatparvar, balki etuk davlat arbobi ham bo`lgan. U mamlakatda bunyodkorlik ishlariga ham katta e`tibor bergen. Xususan, bozor va rastalar, masjid va madrasalar, karvonsaroylar qurilishiga boshchilik qilgan. Nodirabeginning adabiy merosi o`z g`oyaviy-badiiy ahamiyati nuqtai nazaridan mumtoz she`riyatining go`zal namunalaridir.

**Badiiy madaniyat.** XVI asrdan boshlab O`rta Osiyo xududida Buxoro, Xiva va keyinchalik Qo`qon xonliklarini barpo etilishi xonlikdagi xalqlar san`atining keyingi taraqqiyotiga o`z ta`sirini ko`rsatdi. Bunda har bir xonlikda san`at mahalliy ijtimoiy, etnik xususiyatlar, geografik muhit, mahalliy mifik yo`nalishida, an`analarga ko`ra rivojlandi. XVIII asr oxiri – XIX asr birinchi yarmida badiiy madaniyat markazlari Movarounnahrda (Buxoro, Samarqand), Xorazmda (Xiva) va Farg`ona vodiysida (Qo`qon, Andijon, Namangan) qaror topdi.

**Me`morchilik.** Me`morchilik taraqqiyotida to`rtta davr ko`zga tashlanadi. **Birinchisi** – XVI asrning boshidan 60-yillarigacha bo`lgan davr. Uning xususiyati shundan iboratki, temuriylar davri an`anasini davom ettrishga harakat qilindi. Xususan, poytaxt Buxoroga ko`chirilishi munosabati bilan uning bosh maydonida Kalon masjidi (1514), uning qarshisida esa Miri Arab madrasasi bunyod etildi. (1535/36). Mahalla guzarlari qo`ynida Xoja Zayniddin xonaqohi va baland masjid qurilgan. **Ikkinchi davr** – XVI asrning 60-yillaridan shu asrning oxirigacha bo`lgan davr. Unda Abdullaxon hukmdorligi vaqtida davlat hokimiyati mustahkamlanishi munosabati bilan qurilish va me`morchilik yuksalgan. Ayniqsa, Buxoro va uning atrofida keng qurilish ishlari olib borilgan. Buxoroda o`z tarkibiga Modarixon madrasasi (1566) va Abdullaxon madrasalari (1588-90)ni

birlashtirgan Qo'sh madrassa majmuasi, Govkushon madrasasi (1570) oldida maydon va Xoja masjidi (1598) qurildi. Shaharning bosh savdo yo'li chetlarida rastalar, markaziy bozor buniyod etildi. Rabodning sharqiy qismida yirik Ko`kaldosh madrasasi (1568-1569), shahar chetidagi Namozgoh masjidi qayta qurildi. Shuningdek, Abdullaxon davrida mamlakatda 1000 dan ortiq rabot va sardoba, ko`plab masjid, madrasa, ko`prik, suv omborlari qurilgan. Xususan, shunday suv ombori qoldiqlaridan biri Nurota tumani markazidan 65 km sharqda, eski Oqchob qishlog'i yaqinidagi Beklarsoy dasasida hozirgacha saqlanib qolgan. XVI asarda ushbu to`g'on yordamida 1,2 ming gektar er maydoni sug`orilgan. Abdullaxon davrida qurilish ishlari nafaqat Buxoro vohasi, balki Samarqand, Toshkent, Balh va boshqa shaharlarda ham keng ko`lamda olib borilgan.

**Uchinchi davr** – XVII asrda yirik me`moriy majmualar qurilishi davom ettirildi. Buxoroda Labihovuz (1619-1622) Nodir devonbegi madrasa va xonaqohi qurilishi yakunlandi. Ayniqsa, Samarqand hokimi Yalangto`shbiy bahodirning obodonchilik, qurilish ishlari sohasidagi faoliyati e`tiborga sazovor. U o`z mablag`lari hisobiga Registon maydonida Sherdor madrasa (1619-36), Ulug`bek davrida buniyod etilgan. Mirzoyi karvonsaroyi o`rnida Tillakori madrasasini qurdirgan (1641-46). Tillakori madrasasidan jome masjidi va madrasa sifatida foydalanilgan. Masjid bezagida boshqa bir obida qurilishiga etadigan miqdorda oltin sarflangani uchun “tillakori” (tilladan ishlov berilgan) deb atalgan.

**To`rtinchi davr** – XVIII asr oxiri - XIX asrlar me`moriy obidalari O`zbekistonning butun hududida saqlanib qolgan. Bu davr o`zidan ajoyib shaharsozlik ansamblı – Xivani qoldirdi. Uning obidalari aynan shu vaqtida buniyod etilgan. Muhammad Amin inoq (1805), Qutlimurod inoq (1809), Sayidboy (1842) madrasalari, Solihbiy masjidi (1842) va boshqalar jumlasidandir. Olloqulxon tomonidan qurilgan Xivadagi Toshhovli qasri (1832-1841) Xorazm me`morchiligining o`ziga xos uslubini o`zida aks ettingan

**Amaliy bezak san`ati.** XVI-XIX asrlar amaliy bezak san`atida ikki asosiy yo`nalish-rasmisi va xalq san`ati mavjud bo`lgan. Xalq san`ati izchil, birmuncha erkin, hayotga yaqinroq bo`lgan. Xalq san`ati ko`p turli an`analarni saqlab qolgan, biroq XVII asr oxiridan e`tiboran uning rivojlanishida turg`unlik holatlari kuzatila boshlandi, buyumlar turi, shakli va bezagi soddalashib borgan.

XVI asr oxiri – XVII asrda amaliy bezak san`ati sekin rivojlandi, bu mujassamot tuzilishidagi bir xillikda, bezakning murakkablashuvi va vazminlashuvida, gullarning maydalashuvi va takomillashuvida, tashqi bezakning kuchayishida o`z ifodasini topdi.

XVIII asrdagi murakkab tarixiy sharoitlarda amaliy bezak san`ati garchi sekin rivojlansada, biroq u o`zining asosiy hayotiylik mazmunini va ip matolar ishlab chiqarish, ipakchilik, gilamchilik, palos to`qish, zargarlik, kulolchilik, charm, tosh, yog`och, metalga badiiy ishlov berish kabi barcha turlarini saqlab qoldi. XVIII asrning oxirida amaliy bezak san`ati taraqqiyotida yuksalish ko`zga tashlanib, u XIX asrning so`nggi choragiga qadar davom etgan. XIX asrning birinchi yarmida qat`iy shakl mujassamotini tuzishga intilish kuzatiladi. Bu xususiyatlar, ayniqsa, badiiy hunarmandchilik (abrli matolar guli, zardo`zlik, kandakorlik)da aniq ko`zga tashlanadi. Naqsh mujassamoti va mavzu shakliga ko`ra bir oz qat`iy, sipo va tashqi ko`rinishi takomillashgan. Xonadonlarda yaratilgan kashtalarda XVIII asr san`ati xususiyatlari (soddalik va go`zallik) uzoqroq saqlangan. Bu davr amaliy bezak san`atining barcha sohalari shakl, rasm va o`ziga xosligini saqlagan.

**Miniatyura.** Movarounnahrda miniatyura san`ati XVI-XVII asrning birinchi yarmida ravnaq topdi. O`rta Osiyo xalqlari orasida miniatyura san`ati “naqshi nigor” nomi bilan ma`lum bo`lgan. Bugungi kunlarimizda jahon muzeylari to`plamlarida O`rta Osiyo musavvirlari tomonidan bezatilgan 60 dan ortiq nodir qo`lyozmalar saqlanadi. Mahalliy va Hirolik ustalarning o`zaro ijodiy hamkorligi tufayli Samarqand va Buxoroda miniatyura maktablari gullab yashnadi. Behzod an`analari bilan bog`liq birinchi yo`nalish qalamtasvirining o`ta nozikligi, manzara va me`moriy tasvirlarga boyligi, jarangdor, tiniq ranglarning uyg`unligi, murakkab mujassamoti bilan diqqatga sazovor. Mahmud Musahhib va Chag`ri Muxassin (Nizomiy asarlariga ishlangan rasmlar, 1537-38 yillar), “Ash`or”ni bezagan noma`lum musavvir (1529 y.) va boshqalar mashhur bo`lgan. Ikkinci yo`nalish qahramonlar sonining cheklanganligi, tasviriy vositaning lo`ndaligi, ixcham mujassamoti, keskin ranglarga boyligi bilan farqlanadi. Jumladan, Shayboniyilar davrida hukmdorlar uchun shajaraviy, tarixiy asarlar ko`plab yaratilib, ular miniatyuralar bilan bezatildi. Xususan, Muhammad Shodining “Fathnoma” (1502-1507), Ma`sud ibn Usmon Qo`histoniyning “Tarixi

Abdulxayrxoniy” va boshqalar shular jumlasidandir. Miniatyuralarda hukmdorlar va ularning turli hayotiy jarayonlardagi tasvirlaridan tashqari, tasavvuf g`oyalari, fol`klor, mehnat va ijod, tabiat, hayvonot dunyosi kabi mavzular aks ettirildi.

XVIII asrda madaniy hayotning keskin pasayishi kuzatiladi. Ammo shunday bo`lsada kitobat san`atining rivojlanishi musavvirlarning faollashuviga olib keldi. XIX asr boshlarida yaratilgan qo`lyozmalardagi suratlarda avvalgi badiiy nafosat ko`rinmaydi. Hindiston, Qashg`or va Eron miniatyura maktablariga taqlid ortdi. Xususan, Navoiyning “Xamsa”siga ishlangan miniatyuralar (1824, Farg`ona qo`lyozmasi) mavzui badiiy talqini o`ta sodda, ranglar majmui tor, ohangi so`niq va yasamaligi bilan ajralib turadi.

**Musiqa.** XVI-XIX asrning birinchi yarmida musiqiy hayot asosan poytaxt va yirik shaharlarda jonlandi. Mohir musiqachilar xuddi avvalgi davrlardagi kabi hukmdorlar saroyida to`plangan. O`tmish an`analariga sadoqat, vorisiylik, mohirona ijrochilik san`ati tufayli Buxoro va Samarqand O`rta Sharqning musiqa markazlariga aylandi.

XVI asr boshida Xurosonning, Hirot va boshqa shaharlaridan Movarounnahrga ko`plab musiqachilar keldi. Buxoroga Husayn Udiy, G`ulom Shodi va boshqa atoqli qo`sinqchilar, sozandalar, musiqa nazariyotchilari ko`chib keldi. Bu ma`lum darajada mahalliy musiqa-ijrochilik va musiqiy-nazariy faoliyatning jonlanishiga olib keladi. XVI-XVIII asrda maqom janri taraqqiy etdi. XVIII asr o`rtasida Buxoro (tojikcha-o`zbekcha) Shashmaqomi shakllandi.

Movarounnahr musiqachilari Hindiston, Turkiya, Eron, Afg`oniston, Xitoy, Rusiya davlati bilan musiqiy aloqalar o`rnatganlar. Ushbu mamlakatlarning musiqachilari va shoirlari ijodi O`rta Osiyo shaharlarining musiqiy hayotini qandaydir ma`noda boyitishga xizmat qildi.

Bu davrning musiqiy hayotida Najmaddin Kavkabiy, Ja`far Qonuniy, Ali Do`st Nayi, Hofiz Mahmud, Hofiz Miraklar mashhur bo`lishgan. Xususan, Najmaddin Kavkabiy musiqashunos, shoir, bastakor bo`lib, musiqa ilmi va amaliyotining turli masalalariga doir ilmiy qismlar yozgan. “Risolai musiqiy” asarida ilmi musiqiy, o`n ikki maqom tizimiga oid nazariy tushunchalar berib, turli zarbusullarining nomini keltirib ta`riflagan, kuyning amaliyotidagi xillari haqida ma`lumot bergen. Kavkabiy maqomlarni kecha-kunduzning qaysi soatlarda ijro etilishi va har xil ruhiy halovatdagi kishilarga ta`siri masalalarini bayon etgan. Ayniqsa Darvish Ali Changiy shuhrat qozongan. Uning “Risolai musiqiy” asarlarida XV asr oxiri – XVII asr boshida Movarounnahrda yashagan, ijod etgan ijrochilar, bastakorlar haqida batatsil ma`lumot to`plangan.

Shunday qilib XVI-XIX asr birinchi yarmida ijtimoiy-iqtisodiy hayotning rivojlanishi bir muncha susaygan bo`lsada, Movarounnahr aholisining madaniy darajasi nisbatan yuqoriligidicha qolgan.

**Teatr.** XVI-XVIII asrlarda masxarabozlik teatri nafaqat poytaxt shaharlar – Buxoro, Xiva, Qo`qonda, balki boshqa shaharlarda ham faoliyat olib borgan. Turli xonliklardagi teatr guruhlari bir-biridan ijro usuli, mahorati, repertuari va taqdim etish shakllari bilan farq qilishgan.

Buxoro vohasida XVIII-XIX asrlarda Sayfulla masxara, Zokir masxara, Ergash masxara va boshqalar o`z spektakllari bilan tomosha ko`rsatganlar.

Qo`qon xonligida XVIII asr boshida qiziqchilik teatri faoliyat yuritgan. Muhammad Solih Bidiyorshum ko`plab og`zaki p`esalar ijro etgan. Bidiyorshum truppasida 30 dan ortiq aktyorlar, qiziqchilar (Bahrom qiziq, Mo`min qiziq, Davlatyor qiziq va boshqalar) bo`lgan. Ular shaxarning Chorsu maydonida, ba`zan xon saroyida qiziqchilik qilganlar.

XVI-XIX asrning birinchi yarmida O`rta Osiyoda qo`g`irchoq teatri keng tarqalgan. Uning “Qo`l qo`g`irchoq`i”, “Chodir xayol” kabi turlari bo`lgan. Ularning har ikkisida bittadan asosiy p`esa – Polvon kachal (“Qo`l qo`g`irchoq”) va “Sarkardalar” – “Amaldorlar” (“Chodir xayol”) bo`lgan. XIX asrda O`zbekiston hududida Shosolih, G`afur, Xalfarang (Qo`qon), Orifjon qo`g`irchoqboz, Azim burun, Doniyor (Toshkent), Jo`ra Qayroq, Hamro qo`g`irchoq boz (Samarqand), Sharif Sayyoh, Qori xoji (Buxoro) va boshqa usta-qo`g`irchoqbozlar o`z maktablarini yaratganlar.

Bu davrda raqs san`ati ham yuksak rivojlangan. Xalq-raqs san`atining Farg`ona maktabi o`z tarkibiga quyidagi raqs turlari va guruhlarini olgan: “Katta o`yin”, “Xonaki o`yin”, “Yalla” va boshqalar. Shulardan “Katta o`yin” murakkab raqs kompozitsiyasiga ega bo`lib, 60 usuldan tashkil topgan.

Xorazmda “Maqom o`yin”, “Lazgi”, “Qayroq o`yin”, “Yalla” va boshqa raqs turlari

tarqalgan.

Buxoroda raqs maktabi ettita katta va kichik shakllardan tashkil topgan: “Maqom o`yin”, “Qayroq o`yin”, “Xonaki o`yin”, “Zang bozi”, “Yalla” va boshqalar.

XVI-XIX asrning birinchi yarmida sayyor tsirk artistlari – dorbozlar, akrobatlar, ko`zboytag`ichlar, jonglyorlar, hayvon o`rgatuvchilar va boshqalar shahar va qishloqlar maydonlarida tomosha ko`rsatib o`zlarining mahoratlarini namoyish etishgan.

XVIII asr oxiri - XIX asr boshida O`rta Osiyo xonliklarida an`anaviy teatr faoliyatida o`ziga xos uslubiy ko`rinishlar paydo bo`ldi. Buxoro amirligida, masalan, masxaraboz, qo`g`irchoqboz, raqqos va boshqalarning uyushmalari vujudga keldi, bu o`z navbatida ularning reperturarları boyishga va ijrochilik mahoratining oshishiga olib bordi. Xorazm an`anaviy teatrida 2 turkum tomoshalar - “To`qma” va “Xatarli” o`yin yaxshi shakllandı. Farg`ona va Toshkentda qiziqchilik va askiya taraqqiy etib, so`z san`atiga alohida e`tibor berildi.

Shunday qilib XVI-XIX asrning birinchi yarmida O`rta Osiyo xonliklari tarixi faqat o`zaro urushlar, ichki nizolardan iborat bo`lib qolmagan. Xatto shunday og`ir kezlarda ham mamlakatda madaniy hayot o`z rivojlanishida davom etgan. Garchi XIV-XV asrlardagi kabi yuksak darajaga erishilmagan bo`sada, uning yutuqlarini saqlab qolishga, uni yangi g`oyalar bilan boyitishga harakat qilingan.

Shunday qilib, XVI-XIX asrning birinchi yarmida O`rta Osiyo jamiyati hayoti notekis rivojlangan; ayrim o`n yilliklarda erishilgan yutuqlar, ko`pincha o`zaro nizolar tufayli yuzaga kelgan navbatdagi tanazul davri bilan almashgan. Biroq ana shunday og`ir damlarda ham o`zbek xalqining ijodkorlik faoliyati to`xtamaganidan faqat faxrlanishimiz mumkin. Qishloq, shaharlar qayta qad ko`targan. Hunarmandchilik turlari rivojlangan. Xalq ustalari tomonidan bunyod etilgan mahobatli me`moriy obidalar butun dunyoga mashhur bo`lgan. Har qanday og`ir, noqulay sharoitlarda ham xalqimizning ijodiy tafakkuri rivojlanishda davom etgan. Ular orasidan ko`plab iqtidorli olimlar, mutafakkirlar, qo`shiqchilar, musiqachilar, rassomlar, me`morlar va quruvchilar etishib chiqdi.

O`zbekiston madaniyatining bir qator arboblarining ismlari insoniyat hayoti solnomasiga abadiy yozib qo`yilgan.

## 14 - MAVZU

### MUSTAMLAKA VA MUSTABID TUZUM SHAROITIDA MADANIYAT

O`rta Osiyo xonliklarining siyosiy-iqtisodiy, xarbiy jihatdan qoloqligi, tarqoqligi, o`zaro adovatidan unumli foydalangan podsho Rossiyasi Turkistonni bosib olishga kirishgan. 1868 y. Buxoro xonligi, 1873 y. Xiva xonligi Rossiya vassaliga aylanib, siyosiy mustaqillikdan mahrum bo`lgan. 1876 y. Qo`qon xonligi tugatilib, 1867 yil tashkil etilgan Turkiston general-gubernatorligi tarkibidagi Farg`ona oblastiga aylantirilgan. Shu tariqa o`lkada chorizmning mustamlakachilik rejimi o`rnatalgan.

Turkiston o`lkasi xalqlari og`ir mustamlaka sharoitida yashashlariga qaramay, ularning ijodkorlik faoliyati to`xtab qolmagan. Buni Xiva xonligi misolida ham ko`rishimiz mumkin, xususan Muhammad Rahimxon II (Feruz) (xonlik davri 1864-1910) davrida Xivada mashhur **kutubxona** tashkil etiladi. Kutubxona dunyoning turli burchaklaridan keltirilgan nodir qo`lyozmalar bilan muttasil boyitib borilgan. O`rta Osiyoda birinchi marta Xivada litografiya tashkil qilinib, noshirlik ishlari yo`lga qo`yiladi. Bu hol ma`naviy-ma`rifiy ishlarni rivojlanirishda, o`lka milliy-madaniy merosini boyitishda katta ahamiyatga ega bo`ldi. Shu o`rinda, Muhammad Rahimxonning o`zi ham shoir va bastakor bo`lib, she`rlarini “Feruz” taxallusi bilan nashr ettingani, shular qatorida zamondosh adibu olimlar asarlarini ham chop qildirganligini alohida ta`kidlab o`tish lozim. Uning Xorazm shoirlari haqidagi “Majmuat ush shuar” tazkirasi juda mashhur edi.

Xivaga kelgan sharqshunos olim A.N.Samoylovich xon kutubxonasini ko`rishga tuyassar

bo`lgan. Rus olimida kutubxonaning boyligi va undagi kitoblarning muayyan tartib va tabaqalar bilan saqlanishi juda katta taassurot qoldiradi. U o`zining “Xiva saroy kutubxonasi va kitob chop etish” nomli maqolasida bu kutubxonaga katta baho beradi<sup>1</sup>.

Bu kutubxonalarda nafaqat O`rta Osiyoda yozilgan, balki xorijiy mamlakatlarda nashr etilgan ko`plab kitoblar ham saqlanar edi. Bu erda arab va fors tillaridan o`zbek tiliga tarjima qilingan asarlar ham mo`l bo`lgan, xonning o`zi saroyga shoir va olimlarni to`plagan. Kutubxona qoshida xattotlar va musavvirlardan iborat katta guruh faoliyat ko`rsatgan.

Kitob, qo`lyozmalarini yig`ib borish, ularni ma`naviy-milliy boylik sifatida e`zozlash va saqlash, kelajak avlodga berish xalqimiz orasida uzoq yillar davomida an`ana va odatga aylangan edi.

Qo`qon qadimdan **hunarmandchilik** markazi bo`lgan. Qo`qonda misgarlik, zargarlik, o`ymakorlik, qurolozlik, kulolchilik, qog`ozgarlik, badiiy to`qimachilik, do`ppichilik, kashtachilik, temirchilik, ko`priksozlik kabilalar rivoj topgan. Qo`qon gazmollari Sharqda va Rossiyada mashhur bo`lgan. Ayniqsa, Qo`qon qog`ozi hunarmandchilikning alohida tarmog`i sifatida nom qozongan va O`rta Osiyoda eng sifatli qog`oz hisoblangan.

XX asr boshiga kelib Qo`qonda 52 madrasa 120 ta eski maktab, o`ndan ortiq jadid maktabi, 3 ta rus-tuzem maktabi, savdo-tijorat maktablari bor edi. “Sadoi Farg`ona”, “Yangi Farg`ona”, “Qo`qon sadosi” gazetalari chop etila boshlagan.

**Chorizmning Turkistonda maorif, fan va madaniyat soxasidagi siyosati.** Turkiston podsho Rossiyasi tomonidan bosib olingach, rus olimlari tomonidan mahalliy xalqlar tarixi, etnografiyasi, arxeologiyasini o`rganishga oid dastlabki ilmiy ishlar yaratildi. Turkistonda muzey ochildi, kutubxona ish boshladi. Bu davrda O`rta Osiyo tarixi, etnografiyasi, iqtisodi, botanikasi, arxeologiyasi va madaniyatiga oid noyob bibliografik asar – “Turkiston to`plami” (594 j.dan iborat) hamda «Turkiston al`bomi» yaratildi. Rus va o`zbek tillarida gazetalar (“Turkestanskie vedomosti”, “Turkiston viloyatining gazeti” va boshqalar) hamda jurnallar chop etildi. Maorif sohasi ham rivojlandi. Ammo bu sohadagi har qanday o`zgarishlar Rossiya imperiyasi mustamlakachilik manfaatlariga bo`ysundirilgan edi.

Mustamlakachilar madaniyat sohasida ruslashtirish siyosatini yurgizzilar. Bu avvalo maorif tizimi-maktab va madrasalardan boshlandi. O`lkada «rus-tuzem» maktablari ochila boshlandi. Dastlabki «rus-tuzem» maktabi 1884 yil 19 dekabrda Toshkentda ochildi. XIX asr oxirida ularni soni yuzdan oshib ketdi. 1917 yilning boshlarida esa 170 taga etgan edi. Bunday maktablarda o`quv jarayoni ikki qismidan iborat bo`lib, birinchi qismda 2 soatlik mashg`ulotni rus o`qituvchisi (o`quv, yozuv, hisob bo`yicha), ikkinchi qismda esa saboqni o`zbek muallimi olib borgan. Uni ochishdan asosiy maqsad – mustamlaka ma`muriyati uchun tarjimon (tilmoch)lar tayyorlash edi. Rus-tuzem maktablari uchun S.M.Gramenitskiyning 3 qismidan iborat ruscha kitoblari, Saidrasul Saidazizovning «Ustodi avval» (1902), Ali Asqar Kalininning «Muallimi soniy» (1903) darsliklari nashr etildi.

Mahalliy aholi turmushiga ma`naviy – ruhiy tazyiq o`tkazish dasturida o`lka xotin-qizlarini va oilalarni ruscha hayot tarziga o`rgatish alohida o`rin egallagan. Buning uchun o`lkada xotin-qizlar ambulatoriyalari ko`paytiriladi.

XIX asr oxiriga kelib jahoning bir qancha mamlakatlarida hayot tarzining yuksakligi, ijtimoiy tartibotlarning inson tabiatiga muvofiqligi, ilm-fan taraqqiyotining yuqoriligi turkistonlik ziylolilarni ham sergaklantirdi. Ta`lim tizimini yaxshilash, uning samaradorligini ko`tarish ehtiyoji paydo bo`ldi. Dastlab, 1884 yilda Qrimning Boqchasarov shahrida Ismoilbek Gaspirali tomonidan birinchi jadid maktabi tashkil etildi. Musulmoncha ta`lim tizimining mohiyatiga dahl qilmagan holda ta`limning mazmunini boyitish, chuqurlashtirish va uni dunyoviy ruh bilan sug`orish, yoshlarni tezkor sur`atlar bilan hayotga tayyorlash, ularni zamонавиј ilm-fanni qiyalmay o`zlashtira olish darajasiga etkazish jadid maktablarining oldidagi asosiy vazifa edi.

Turkiston o`lkasida ham jadid maktablari ochildi. Ushbu maktablar uchun Mahmudxo`ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Xamza, Isoqjon

<sup>1</sup> Самойлович А.Н. О Хивинской придворной библиотеке и книгопечатании // Туркестанские ведомости, 1880, №24.

Ibrat, Saidrasul Saidazizov, Saidahmad Siddiqiy va boshqa jadidchilik namoyandalarining tuzgan darslik va o`quv qo`llanmalari saviyasi jihatidan eng zamonaviy pedagogik asarlar darajasida edi. Podsho ma`muriyati bunday maktablar milliy madaniyatning o'sishiga yordam berishidan cho`chib, ular faoliyatini bo`g`ish uchun turli tadbirlar ko`rdi.

**Teatr.** Rossiya mustamlakachiligi davrida Turkiston o`lkasiga o`z g`oyaviy-estetik xususiyatlari bilan mahalliy an`anaviy teatrda keskin farq qiluvchi rus, keyinroq tatar va ozarbayjon teatr to`dalari kirib kela boshladi. O`zbek madaniyatining ilg`or namoyandalari (Furqat, Ahmad Donish, Behbudiy, Abdulla Avloniy va b.) mahalliy aholini ulardan o`rganishga chaqirdilar. Shu tarzda milliy teatr yaratish harakati yuzaga keldi, unga jadidlar bosh bo`ldi. 1914 yil Samarqanda Behbudiy boschchiligidagi tashkil etilgan birinchi o`zbek havaskorlik teatr guruhi, uning «Padarkush» dramasini sahnalashtirdi. O`sha yil Toshkentda Abdulla Avloniy tuzgan teatr guruhi ham «Padarkush» bilan ochildi. Tadqiqotchilarning ma`lumotiga qaraganda «Padarkush» p`esasidan keyin 1917 yilgacha o`zbek dramalarining soni 40 ga etgan.

**Kitob san`ati.** Turkistonda bosmaxonalar tashkil topishi va ularda gazetalar, jurnallar va kitoblarning chiqishi tasviriy san`at rivojiga ta`sir qildi, mahalliy tillarda kitob, gazeta, ilmiy to`plam va taqvimlar nashr etila boshladi. Bu nashrlarda tasviriy san`atning ilk namunalari yuzaga kela boshladi. Nashr qilinayotgan kitoblarni bezashga mahalliy rassomlar ham jalb etila boshlandi. 1908 yili Toshkentda nashr qilingan «Shohnoma», «Farhod va Shirin» kabi kitoblar suratlar bilan bezatildi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida badiiy hayot birmuncha rivoj topib san`at uslublari evropa san`ati uslublari bilan uyg`unlasha boshladi. Kitob san`atida XX asr evropa san`atida keng tarqala boshlagan «modern» uslubi o`z aksini topa borgan. «O`rta Osiyo al`manaxi» shunday nashrlardan bo`lib, unda geometrik shakl va chiziqlar, ularning murakkab birlashma va hosilalari yaratilgan. XIX asr oxirida xattotlik, qo`lyozmalar tayyorlash bosmaxonalar yordamida kitob yaratish jarayoni juda kengayib ketdi. Bu so`zsiz xattotlik san`atiga bo`lgan talabni ham kamaytirib yubordi. Plakatning turli ko`rinishlari, afisha, reklama, amaliy grafik asarlar bu davrdagi Turkiston badiiy muhitida etakchi o`rinni egallab, ijtimoiy hayotda faol ishtirot etdi.

**Tasviriy san`at.** XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi Turkiston o`lkasi badiiy hayotida qalamtasvir va ayniqsa rangtasvir san`ati etakchi mavqeni egallab, bu san`at turlarida rus ijodkorlari peshqadam bo`ldilar. Bulardan V.Vereshchagin, N.Karazin, V.Veleje, O.Fedchenko va boshqalarni ko`rish mumkin. V.Vereshchagin «Turkiston» asarlari turkumini yaratdi, unda rus quroli, rus shuhrati ko`klarga ko`tarildi, jang manzaralari, mahalliy xalq vakillarini jazolash mavzui etakchilik qildi. S.Yudin manzara janrida san`at muhlislari orasida shuhrat qozongan edi. U 1889-1923 yillarda Turkiston o`lkasi badiiy maktabida ustozlik qildi.

An`anaviy tasviriy san`at Samarqand, Buxoro, Qo`qon naqqosh –musavvirlari (Abdulhaq Maxdum, A.Donish, S.Siddiqiy va b.) ijodida ko`rinadi. Uy-joylardagi (maskovchi boylarning) devoriy rasmlari orasiga daryolarda suzib yurgan paroxod, temir yo`l, hayvonlar tasviri kabi yangi tasviriy ko`rinishlar kiritila boshlandi. Bu esa azaliy an`analarni o`zgarishiga olib keladi.

**Fan.** XIX asrning ikkinchi yarmida O`rta Osiyon Rossiya bosib olganidan so`ng o`lkani ilmiy jihatdan har tomonlama o`rganishga kirishildi. 1867 yil Turkiston harbiy topografiya bo`limi tashkil qilindi. Bu bo`lim o`lkaning topografik xaritasini tuzish bilan shug`ullandi. 1867 yili Toshkentda metereologiya stantsiyasi ochildi. Birin-ketin tabiat, antropologiya va etnografiya havaskorlari jamiyatining Turkiston bo`limi (1870), O`rta Osiyo ilmiy jamiyatasi (1870) va boshqalar tashkil qilindi.

O`lkada ishlayotgan arxeologlar 1895 yilda Turkiston arxeologiya xavaskorlari to`garagiga birlashdilar. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Geografiya jamiyatining Turkiston bo`limi (1895) a`zolari tomonidan Orol dengizi, muzliklar, o`lkaning o`simliklar va hayvonot dunyosi, seysmik jarayonlari tadqiq etildi, foydali qazilma konlari ochildi. Rus olimlarining maxsus ekspeditsiyalari tuproqshunoslik va gidrologiya tadqiqotlari o`tkazdi. 1870 yilda Turkiston ommaviy kutubxonasi, 1876 yilda Toshkent ommaviy muzeyi rus sharqshunoslarning sa`y-harakati bilan tashkil topdi. Bu muassasalar aslida Turkiston ma`naviy boyliklarini chorizm manfaatlari yo`lida o`zlashtirish yo`lida xizmat qilishi kerak edi. Muzeylardagi eng noyob boyliklar markazga - Sankt Peterburg va Moskvaga olib ketilgan.

Samarqand viloyatining Xo`jand tumanida Xoji Yusuf Mirfayozovning ilmiy-madaniy faoliyati ham diqqatga sazovor. Uning uyi Xo`jand madaniy markaziga aylangan. Falakiyotshunos,

matematika, geografiya, tabobat, tarix bo`yicha bilimdon Xoji Yusuf rahbarligida yaratilgan er shari globusi XIX asr ikkinchi yarmidagi ilmiy kashfiyotlardan biri edi. Globusda 1000 dan ortiq geografik nomlar joylashtirilgan. Umuman olganda, XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Sattorxon Abdug`afforov, Saidrasul Saidazizov, Jo`rabek Qalandar qorio`g`li, Shohimardon Mirg`iyos o`g`li va boshqa ma`rifatparvarlar guruhi shakllangan.

**Musiqa san`ati. An`anaviy qo`shiqchilik san`ati.** Ma`lumki o`tmishda mahalliy hukmdorlar musiqa san`ati ahliga homiylik qilib kelgan.

Turkiston Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan so`ng, bu an`analar yo`qqa chiqarildi. Mahalliy xalq orasidagi milliy musiqa san`atiga bo`lgan azaliy qiziqish evropacha musiqa janrlari, ijrochilik va ta`lim tizimini astoydil singdirish yo`li bilan paymol qilindi. Toshkent, Qo`qon, Farg`ona, Buxoro, Samarqand kabi yirik shaxarlarda rus imperatori musiqa jamiyati bo`limlari, uning tarkibida esa «Lira» xor jamiyati (1898), Musiqa va drama (1907), Simfonik va kamer musiqa (1908), Vokal musiqa (1914) singari evropacha musiqa shahobchalari keng faoliyat boshladi.

Bunday sharoitda mahalliy atoqli xonanda, bastakor, sozandalar atrofida muayyan «ustoz-shogird»tarzidagi maktablargina mahalliy an`analarni davom ettirib keldi. Xususan, Buxoroda – «Shashmaqom» ijrochilik maktabi Ota Jalol (1845-1928), Ota G`iyos (1859-1927) va Levi Boboxon (1873-1926)lar, Samarqandda – maqomchilik va bastakorlik Xoji Abdulaziz (1852-1936), Xorazmda – maqomchilik Pahlavon Niyoz Mirzaboshi (Komil Xorazmiy, 1825-1897), Farg`onada – sozandalik Rustam Mehtor (1860-1933), katta ashulachilik Erkaqori (1877-1954), Toshkentda – maqomchilik va ashullachilik To`ychi Hofiz (1868-1943) singari ustozlar atrofida taraqqiy topdi.

Mustamlaka sharoitida bo`lishiga qaramasdan, Turkiston o`lkasida an`anaviy qo`shiqchilik san`ati taraqqiy eta bordi. Ayniqsa, Farg`ona vodiysida yaratilgan kuylar va qo`shiqlar o`sha davrning og`ir kunlarini, ezilgan mehnatkash xalq ommasining orzu umidlarini ifodalaganligi bilan xarakterlanadi.

XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr boshlaridagi murakkab iqtisodiy, siyosiy vaziyatga qaramasdan o`zbek san`atkorlarining nomi boshqa davlatlarga ham tarqalgan. Masalan, Samarqandlik mashhur hofiz Xoji Abdulaziz Rasulov Eron, Afg`oniston, Hindiston, Irog va Yunoniston mamlakatlarda o`z san`atini namoyish qilgan. Toshkentlik Mulla To`ychi Toshmuhammedovning ovozini Yorkent, G`ulja, Chuguchak ahli sevib tinglagan. To`ychi hofizning 25 ga yaqin qo`shig`i Riga «Grammafon» jamiyati tomonidan 1905 yilda yozib olinib, tarqatilgan.

An`anaviy o`zbek qo`shiqchilik madaniyatining rivojlanishida Hamza Hakimzoda Niyoziyning alohida o`rni bor. U o`z she`rlarini xalq kuylariga solib, tanish ashula yoki qo`shiqlar ohangiga mo`ljallab yozilishini ta`minladi va bu bilan ushbu asarlar tezroq xalq orasida yoyildi.

**Me`morchilik. Xalq me`morchiligi.** XIX asrga kelib O`rta Osiyo xonliklarida o`ziga xos me`morlik maktablari shakllandi. Xivada bino bezagiga olgan uch xil rang (ko`k, oq va qora) qo`llanilgan. Masalan, Muhammad Aminxon madrasasi (1851-52), kaltaminor (1885) va boshqalar. Buxoro me`morlik maktabiga xos uslublar Xalifa Niyozqul madrasasi, Sitorai Mohi xosa (XIX asr oxiri)da ko`zga yaqqol tashlanadi. Buxoro Arkidagi uy-joy binolari, atrofdagi guzarlar tarkibi, sinchkori uy-joy va hovlilar me`moriy uslubi, bezaklari yuksak san`ati va mahorati bilan hozirgacha alohida e`tiborni tortadi. Xiva shahrining Ichan qal`asidagi Sherg`ozixon madrasasi, Bog`bonli masjidi, Pahlavon Mahmud maqbarasi majmuoti, Toshhovli saroyi, Olloqulixon karvonsaroyi va timi, Muhammad Aminxon madrasasi, Kaltaminor va atrofidagi uy-joylar Xorazm me`moriy maktabi, mahalliy an`analari yangidan qad ko`tarib, rivojlanganidan darak beradi. Ichan qal`adagi eng baland Islomxo`ja minorasi (1908) Xorazm me`morchiligining eng so`nggi yorqin nidosi desak bo`ladi. Qo`qon maktabidagi me`moriy uslub xususiyatlarini Xo`ja Amir maqbarasi XVIII-XIX asr birinchi yarmida qurilgan Norbo`tabiy madrasasi, Dahmai Shohon va Modarixon dahmalari (1825), Norbo`tabiy va uning avlodlari maqbaralari hamda keyingi davrda bunyod etilgan Xudoyorxon o`rdasi, Andijon, Marg`ilon va Qo`qondagi jome masjid va madrasalar misolida kuzatish mumkin.

Marg`ilondagi Said Ahmadxo`ja madrasasi, Shahrixondagi Ponsod masjidi, Andijondagi Jome madrasa masjidining ichki ko`rinishi Farg`ona me`morigining yuksak badiiy mahorati haqida tasavvur beradigan nodir manzarali bezaklarga boy.

**Xalq me`morchiligining** o`ziga xos tomonlari XX-asr boshlarida qurilgan Ayubboy, Olimxon hoji, Abdurahmon qozi, Sa`dixon qozi, Ahmadbek hoji va boshqa uylarda o`z ifodasini topgan.

Ayubboy uyi ikki hovlili (ichkari va tashqari), poydevori baland qilib qurilgan. Tashqari hovlida mehmonxona, G simon ayvon bo`lib, ayvonda qator o`ymakor ustunlar ishlangan. Mehmonxona ichki devorlaridagi tokchalar atrofi ganchkor turli shakllar hamda arabi yozuvlar uyg`unlashgan naqshlar bilan bezatilgan. Shift bezagida qizil zaminda bosma handasiy naqshlar, islamiy bezaklar, markaziga esa muqarnasli havzak ishlangan.

Olimxon hoji uyi bir qavatli o`zaro mutanosib tarixga ega bo`lib, xom g`ishtdan qurilgan kvadrat dahliz, ikkita to`g`ri burchak tarhli xona va P simon ayvon, mehmonxonadan iborat. Dahliz va sharqiy xona europacha uslubda pardozlangan, shiftlari ganchkor turunjlar bilan bezatilgan va och yashil zaminga naqshlar, deraza va eshiklarga shakldor hoshiyalar ishlangan. Xarbiy xona va ayvon mahalliy ayvonlarga muvofiq holda pardozlangan: qizil zaminda handasiy va islamiy naqshlar bilan bezatilgan.

Sa`dixon qozi uyi ikki hovlili, o`zaro qo`shilib ketgan tashqari va ichkaridan iborat, bu ikki qismning kiriladigan alohida-alohida eshigi bo`lgan. Ko`cha tomon (tashqari) dahlizdag`i molxona va unga taqab qurilgan ayvondan iborat. To`g`ri burchakli ichkari hovlida esa ikkita ayvonli xona va bir necha xo`jalik binolari qad ko`targan. Uning poydevori 2 m, uning birinchi qavati (tagxona)da molxona va omborxona joylashgan. Ayvonga toshdan ishlangan zina orqali chiqilgan. Zina bo`ylab temir panjara, ayvonning to`slnlari orasida toq o`rnatilgan. To`slnlarni salobatli yog`och ustunlar ko`tarib turgan. Ayvonlar tosho`choqlar bilan isitilgan. Xona devorlari tokchali ganchkor naqshlar bilan ishlangan. Shiftiga to`ldirib gul solingen.

Andijonlik savdogar Ahmadbekhojining uyi P simon tarhli, janubga qaratib qurilgan. Uyning ikki qavatli g`arbiy qismi uy egasining idorasini vazifasini o`tagan, qolgan qismi turar joyi bo`lgan. Hovlining tevarak atrofi bo`ylab ayvon qurilgan. Ikkinci qavat yo`lagi qator xonalarni birlashtirgan. Hamma darvoza va eshiklar an`anaviy holda hovli tomonga qaragan. Uyning idora vazifasini o`taydigan qismi europacha usulda pardozlangan-shifti naqshinkor ganch bilan bezatilgan, katta xonalarga naqshinkor sirlangan pechlar qurilgan, devorlar tokchasisiz bo`lib, moybo`yoq bilan pardozlangan, ayvon eshiklarining orasiga Farg`ona turar joylari uchun an`anaviy bo`lgan ko`k rangda islamiy va handasiy naqshlar ishlangan. Yog`och karniz jimjimador qilib o`yilgan.

XIX - asr oxiri XX - asr boshlarida O`zbekistonning yirik shaharlari Toshkent, Samarcand, Buxoro, Qo`qonda rus harbiy muhandis va me`morlari tomonidan eng zamonaviy loyihalari asosida ma`muriy va turar joy binolari qurilgan.

Bu loyixalar modern uslubida evropa me`morlariga taqlidan yaratilgan edi. Bular Toshkentdag`i Romanov saroyi (1880), O`qituvchilar seminariyasi (1881), Erkaklar gimnaziyasi (1883), Marg`ilonda Farg`ona gubernatori qarorgohi (1885) va boshqalarni misol keltirish mumkin.

“Nemis renessans” me`moriy uslubida esa asosan mehmonxonalar, savdo markazlari, qurilgan: XX - asr boshlarida shaxsiy uylarni qurishda rus me`morlari mahalliy me`morlik an`analaridan ham keng foydalandilar – Toshkentdag`i A.L.Polovtsev uyi (1900, hozirgi Xalq amaliy san`at muzeysi) qurilishiga mahalliy xalq me`morlari jalb etilgani uchun arxitektura jihatidan keng omma e`tiborini qozondi.

XIX asrning ikkinchi yarmi o`zbek **amaliy bezak san`atida** hayotni chuqr his etish, san`at turlarining qadimgi, foydalaniladigan materiallarning xilma-xilligi, yuksak mahorat ko`zga tashlanadi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida san`atda soddalashtirishga intilish kuzatildi iqtisodiy va texnika taraqqiyotining yangi sharoitlarida yangi xususiyatlар yuzaga keldi. Bu davrda amaliy bezak san`ati sekin va notekis rivojlandi, unga uslubiy birlikning yo`qligi xos bo`lib, qarama-qarshi an`analar va xususiyatlarni kuzatish mumkin. Mayjud ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar amaliy bezak san`ati badiiy yo`qotishlarga olib keldi.

**Qiziqchilik** - o`zbek an`anaviy teatr turi. Qiziqchilik teatri, asosan Qo`qon xonligi hududida (ayniqsa, Farg`ona vodiysi va Toshkentda) rasm bo`lgan, ijrochisi qiziqchi (qiziq), to`da boshlig`i va ish yurituvchisi korfarmon deb atalgan.

XIX asrda qiziqchilarning truppalari (mas. Bidiyorshum, Zokir Eshon boshchiligidagi

to`dalar) faoliyat ko`rsatgan. Bidiyorshum truppassi XVIII asr oxiri - XIX asr birinchi yarmida Qo`qonda ijod qilgan. Uning repertuari, asosan, hajviya, askiya, musiqa, ashula va raqlardan iborat bo`lgan. XIX asr ikkinchi yarmida Zokirjon qiziq to`dasiga 20 dan ziyod qiziqchi uyushgan bo`lib, yuzga yaqin tanqid, muqallid, kulk-i-hikoyalar va latifalar namoyish etishgan\*.

**Davriy matbuot.** O`zbekiston hududida matbuotning paydo bo`lish jarayoni XIX - asrning 70 - yillariga to`g`ri keldi. Mustamlakachilar mintaqada yashovchi erli xalqlarga o`zlarining siyosatlarini targ`ib va tashviq etish maqsadida 1870 yilda Toshkentda “Turkestanskie vedomosti” va “Turkiston viloyatining gazeti”ni tashkil etgan. Markaziy Osiyoda davriy matbuot shu tariqa paydo bo`ldi. Mazkur gazetalarning har ikkisi ham 1917 yilgacha chop ettirilgani bois Turkiston matbuoti tarixida uzoq muddat davomida uzlusiz faoliyat ko`rsatgan davriy nashrlar sanaladi.

“Turkiston viloyatining gazeti” o`zbek publitsistikasining shakllanishiga yo`l ochdi. Zokirjon Furqat, Sattorxon Abdug`afforov, Ishoqxon Ibrat, Mahmudxo`ja Behbudiy va boshqa ko`plab ziyyolilarning bu gazeta bilan ijodiy hamkorligi natijasida Turkiston o`lkasida jaholatga qarshi kurash, ommani, ayniqsa, yosh avlodni har tomonlama ilm-ma`rifatli qilib tarbiyalashga intilish harakatining kuchayishini ta`minladi. Boshqacha aytganda, mazkur nashr ma`rifatparvarlarning fikr va so`z aytishi uchun ilk minbar vazifasini o`tadi.

XIX asrning 90-yillariga kelib Turkistonda matbuot sohasida o`ziga xos yangilanish jarayonlari kuzatildi. Rus tilidagi dastlabki xususiy gazetalar nashr qilina boshlandi. Dastlab Samarqandda, keyinroq Toshkentda nashr etilgan “Okraina” (1890-1907), Toshkentda chiqqan “Russkiy Turkestan” (1898-1907) gazetalari shular jumlasidandir.

Aynan shu davrda “Sredneaziatskiy vestnik” (1896), “Turkestanskiy skorpion” (1907, hajviy), “Srednyaya Aziya” (1910-11), “Turkestanskiy karakurt” (1911, hajviy) jurnallari Turkiston jurnalchiligining ilk namunalari edi. O`zbek tilida esa “Oyna” (1913-15), “Al-islo” (1915) kabi jurnallar hamda “Al-izoh” (1917) va boshqa al`manaxlar ham o`lkaning tarixini, o`sha kezdagi ahvolini o`rganishga, o`quvchilarning madaniy-ma`rifiy ehtiyojlarini qondirishga ko`maklashdi.

Chorizm mahalliy xalqlar ongi va bilim saviyasining yuksalishidan manfaatdor bo`lmagan. Shu bois hukmron siyosat milliy ongning yuksalishiga xizmat qiladigan vositalarning, jumladan, milliy tildagi davriy nashrlarning yuzaga kelishiga imkon qadar yo`l qo`ymadi. 1906 yilga qadar butun o`lkada yagona “Turkiston viloyatining gazeti”dan bo`lak mahalliy tilda bironta gazeta nashr qilinmagani ham buning isbotidir.

Turkiston jadidlarining etakchi namoyandalari: Mahmudxo`ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniylar demokratik yo`nalishdagi o`zbek matbuotini shakllantirishga katta hissa qo`shdilar. Jadidlar milliy davriy nashrlar faoliyatini tashkil etish va yo`lga qo`yishda mahalliy rus matbuoti hamda Rossiyaning turli hududlarida tatar tilida nashr qilingan gazetalarning, xususan, ma`rifatchi Ismoilbek Gaspirali muharrirligida chiqqan “Tarjumon” gezetasining ish tajribasiga tayandilar.

O`zbekistonda chinakam milliy matbuotning yuzaga kelishi 1906 yil 27 iyundan Toshkentda chiqqa boshlagan jadidlarning “Taraqqiy” gazetasi bilan bog`liq. Uning sahifalarida podsho Rossiyasining mustamlakachilik siyosatini fosh qiluvchi maqola, xabarlar bosilgan. Gazeta materiallaridagi tanqidiy ruh mustamlakachi ma`murlarga yoqmagan. 19 soni chiqqach, gazeta yopib qo`yilgan. Gazetaning ilk soni chiqqan 27 iyun` 1993 yildan buyon mamlakatimizda «Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni» sifatida nishonlanadi.

“Sadoi Turkiston” (Toshkent, 1914-15), “Samarqand” (1913), “Sadoi Farg`ona” (1914) gazetalari hamda “Oyna” (Samarqand, 1913-15) jurnallarini saviyasi, omma ongiga ta`siri jihatidan o`zbek matbuoti tarixidagi eng ibratli nashrlardan deb hisoblash mumkin.

1917 yil Rossiyyadagi fevral` inqilobi Turkistondagi ijtimoiy munosabatlar, shu jumladan, matbuot rivojiga ham ta`sir ko`rsatmay qolmadı. Milliy birlik harakatini avj oldirishga, o`zbek xalqining istiqlolga erishish yo`lidagi ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga 1917 yilda tashkil etilgan “Najot”, “Turk eli”, “Turon”, “Ulug` Turkiston”, “Hurriyat” (Samarqand), “El bayrog`i” (Qo`qon) gazetalari va “Yurt” (Qo`qon), “Chayon” jurnallari o`ziga xos hissa qo`shdi.

\* Зокиржон Эшон (лақаби Зокиров) қарийб ярим аср даврида Кўкон актёрлар гурухига раҳбарлик қилган. Тақлидчилик, маъноли имо-ишора ва ҳаракатлари, маъноли сўз ва оҳангдор товуш унинг асосий бадиий ифода куроли бўлган.

**Madaniyatimizning dunyoga sochilgan durdonalar.** Tarixdan ma'lumki, Turkiston hududi qadimdan turli mamlakatlar uchun o'lja manbai bo'lib kelgan. O'rta Osiyoga turli maqsadlarni ko'zlab kelib-ketgan ilmiy, harbiy ekspeditsiyalar, sayyoohlar, tijorat vakillarini eng avvalo O'rta Osiyoning qimmatbaho, betakror boyliklari qiziqtirgan.

Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoga bosqini nafaqat uning hududini egallash, aholisini talash bilan cheklangan, balki o'zbek xalqining madaniy merosini talon-taroj qilib, tashib ketish va madaniyat yodgorliklarini harob qilish bilan birga sodir etilgan.

Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida Samarqand, Buxoro, Xiva va Qo'qon kabi ko'hna shaharlar xazinasida to`plangan boyliklar maxfiy rejalar asosida ba`zan ochiqchasiga talon-taroj etildi.

Xiva yurishi vaqtida harbiy maslahatchi bo`lgan sharqshunos A.L.Kun turli yo'llar bilan to`plangan 300 kitobdan iborat sharq qo`lyozmalarini 1873 yil Imperator xalq kutubxonasiga topshirgan. A.L.Kun va uning guruhi Xivadan tanga zarb qilishga mo`ljallangan 200 nusxa qolip, muhrlar bog`lami, xon taxti, 172 nusxa Jo`jixon tangalari, Qo`ng`irot sulolasidan bo`lgan Xiva xonlarining 3 nusxa tanga va bir qator etnografik ashyolarini, xususan, ayollar va bolalar kiyimboshlari, ko`plab tilla va kumush bezaklarini<sup>2</sup> olib ketgani.

Qo'qon bosqini vaqtida ham tarix, tibbiyot, huquq va ilohiyotga doir 130 qo`lyozma kitob Rossiyaga olib ketilgan va Imperator xalq kutubxonasiga topshirilgan. Demak, Qo'qon arxivi ham, xuddi Xiva xonlari arxivi kabi bosqinchilar tomonidan zo`ravonlik bilan olib ketilgan.

Turkiston general - gubernatorlarining o`zları Turkistondagi boyliklarning eng birinchi qaroqchilari va shaxsiy kollektivlarning tuzuvchilari edi.

Xulosa qilib aytganda, Turkiston xalqlarining fan va madaniyati mustamlaka tuzumining biqiq tarkibida ham, ruslashtirish siyosatining barcha zug`um sitamlariga qaramay, rivojlanishdan to`xtamadi. Mustamlakachilar xalqimizning ilm-ma`rifatga intilishi, ilg`or g`oyalar va istiqlol istagini bo`g`ib tashlay olmadilar.

Chorizmning madaniyat sohasidagi siyosatining asosiy yo`nalishlarini quyidagicha belgilash mumkin:

- Chor hukumati Turkistonda turg`unlik xolatini saqlash, o`zaro nizo-adovatlar urug`ini sepib turgan xolda ulardagi millatparvarlik, yurtsevarlik va jangovarlik tuyg`ularini o`ldirish.

- O`lka xalqlarini o`z tarixi va madaniyatidan uzoqlashtirish. Bu sohada chorizm juda izchil ish yuritdi. Olimlar, ilmiy jamiyatlar tomonidan Turkiston tarixiga doir moddiy va ma`naviy yodgorliklar yig`ib olindi va Moskva hamda Sankt-Peterburgga jo`natildi. Shunday qilindiki, endilikda o`lka tarixini o`rganish uchun turkistonliklar ana shu markazlarga borishga majbur bo`lishdi.

- Mustamlaka ma`muriyati o`lkadagi tarixiy adabiyotlarning qarovsiz qolib vayron bo`lishiga ataylab yo`l qo`ydi.

- Chorizm xalq maorifi sohasidagi ruslashtirish siyosatini rus-tuzem maktablari tizimini vujudga keltirish va rus tiliga davlat maqomi berish vositasida amalga oshirdi.

### **Mustabid sovet davlati davrida O`zbekiston madaniyati.**

1925 yil SSSR tarkibidagi O`zbekiston SSR tuzilgan. Albatta, bu «o`zbek xalqining milliy davlatchiligi tashkil qilindi» degan fikrni anglatmaydi. Chunki O`zSSR amalda hech qanday suverenitet va mustaqillikka ega emas edi. Rossiya imperiyasi davrida bo`lgani singari sovet davrida ham O`zbekiston markazning chekka mustamlaka o`lkasi bo`lib qolaverdi.

Sovet davlati o`zining dastlabki yillaridayoq madaniyatga nisbatan sinfiylik va partiyaviylik nuqtai nazaridan yondoshib, butun mamlakat bo'yicha "markscha-leninchha metodologiya"ga asoslangan sotsialistik madaniy-ma`rifiy qurilishni amalga oshirishni o`z oldiga maqsad qilib olgan edi.

Mamlakatda ko`plab klublar, madaniyat uylari, saroylari, kinoteatrlar, muzaylar barpo etila boshlandi.

<sup>2</sup> Садқкова Н.С. Музейное дело в Узбекистане. Т., Фан, 1975, С.31.

Bu sohada kommunistik partiya rolini kuchaytirish, siyosiy mafkurani omma ongiga turli yo`llar bilan singdirishga katta e`tibor berildi.

Sho`rolar davrida madaniyat hukmron mafkura, mustabid tuzum tazyiqida G`arb madaniyatiga taqlidan rivojlandi. Ikkinchidan, milliy madaniyatning boy o`tmishi bir yoqlama o`rganilib, uning ko`pgina bebaaho durdonalaridan xalqimiz bebahra bo`lib keldi. Ammo har qanday to`sqliarga qaramay madaniyat sohasida O`zbekistonda bir muncha yutuqlar qo`lga kiritildi.

O`zbekiston ma`naviy-siyosiy hayotida madaniy-ma`rifiy muassasalarning eng sinalgan shakli sifatida **klub** muassasalari ochilib, ularning faoliyati siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy-ma`rifiy, mafkuraviy masalalarni hal qilishga yo`naltirildi.

O`zbekistonda birinchi klublar 1918 yil Toshkent (Turkiston xalq universiteti huzurida) va Samarqand (Qushhovuz mahallasidagi musulmon klubi)da ochildi. 1920 yillarda maxsus madaniy - ma`rifiy muassasalar (klub, xalq uyi, qizil choyxona, qiroatxona va boshqalar) tizimi «mehnatkashlarning kommunistik tarbiysi» va Xalq ma`rifatining asosiy vositalaridan biri sifatida xalq maorif komissarligi tarkibida tashkil topgan. 1924 yili klub muassasalari soni 134 taga etgan bo`lsa, 1978 yili O`zbekistonda 3880 ta madaniyat uyi va saroylari faoliyat ko`rsatdi.

Madaniy-ma`rifiy, siyosiy-mafkuraviy ishlardan tizimida **kutubxona** alohida e`tibor berildi. Ularga partiya va sovet davlatining siyosatini keng omma orasida targ`ib etishning muhim vositasi sifatida qaraldi.

Ushbu kutubxonalar asosan ommanning g`oyaviy-siyosiy ongini oshirish uchun ish olib borar edilar. Shu maqsadda kutubxonalardagi sovet mafkurasiga zid ko`plab nashrlar yo`q qilindi. Natijada, o`zbek milliy madaniyati, tarixi, ma`naviy merosiga oid ko`plab noyob asarlar ilmiybadiiy muomaladan olib tashlandi.

Madaniy - ma`rifiy ishlarda **muzeylarning** rolini oshirishga katta ahamiyat berildi. Muzeylar asosan g`oyaviy-mafkuraviy vazifalarni bajarar edilar\*.

Respublikadagi mavjud muzeylar ish faoliyatini takomillashtirish, ularga yagona markazlashgan rahbarlikni tashkil etish maqsadida 1921 yil 20 mayda Turkiston Respublikasi muzey, qadimiy yodgorliklar, san`at, tabiatni muhofaza qilish qo`mitasi (Turkkomstaris, 1927 yilda Uzkomstaris) tashkil etildi. Qo`mitaga respublikadagi barcha tarixiy yodgorliklarni himoya qilish, hisobga olish va undan foydalanish huquqi berildi. Natijada, shu yilning o`zida 52 ta yirik yodgorliklar hisobga olindi, 114045 ta moddiy va madaniy boyliklar muzeylarga to`plandi. 1975 yilda 34 ta davlat muzeyi mavjud bo`lib, shulardan 4 tasi tarixiy 4 ta memorial, 2 san`at va 15ta o`lkashunoslik muzeylari edi. Xiva (1964), Samarqand (1982), Buxoro (1985)da muzey-qo`riqxonalar tashkil etildi.

Sho`rolar davrida O`zbekiston **adabiyoti** o`ziga xos tarzda, keskin mafkuraviy tazyiqlar ta`siri ostida rivojlandi.

Sovet davlatining izchil mafkuraviy targ`ibot ishlari natijasida kechagi jadid yozuvchilarining bir qismi sho`rolar tomoniga o`tgan, o`tmaganlar esa ta`qib qilina boshlandi. Sovet davlati nazoratidagi «Qizil qalam» adabiy tashkiloti (1926-30), Turkiston yo`qsil yozuvchilari uyushmasi hamda bu uyushma viloyat va shahar bo`limlari (1928-32)ning tashkil etilishi, yozuvchilarining «o`ng», «so`l», «yo`lovchi» kabi turli guruhlarga ajratilishi o`zbek adabiyotining taraqqiyotiga katta zarba berdi. Mustabid tuzumning insoniyat tarixida misli ko`rilmagan qatag`on siyosati natijasida 30-yillarning ikkinchi yarmiga kelib A.Qodiriy, Fitrat, Cho`lpon, Tavallo, Elbek, G`ulom Zafariy, G`ozzi Yunus, Usmon Nosir singari o`nlab shoir va yozuvchilar yo`q qilib yuborildi. 50-yillarning boshlarida esa M.Shayxzoda, Shuxrat, Shukrullo, Said Axmad, M.Ismoilii, Hamid Sulaymon singari yozuvchi va adabiyotshunoslar qatag`on etildi.

20 – yillarda yo`qsil (proletar) adabiyotining barpo etishga qaratilgan sa`y-harakat natijasida shunday nasriy asarlar maydonga keldiki, ular boylar faqat zolimlar, kambag`allar esa yangi jamiyatni barpo etuvchi ilg`or kuchlar sifatida talqin etila boshladi va xalqning bu har ikkala qatlami o`rtasidagi ziddiyat shu davr adabiyotining asosiy konflikti sifatida tasvirlandi.

Sovet yozuvchilarining 1-qurultoyi (Moskva, 1934)da sotsialistik realizm sovet yozuvchilari

\* 1918 йилда князь Романов тўплаган коллекциясидан Ўрта Осиёда биринчи бадиий музей (хозирги Ўзбекистон давлат санъат музейи), 1920-30-йилларда Наманганд, Хива, Бухоро, Кўкон, Андикон, Термиз, Нукус ва бошқа йирик шахарларда ўлкашунослик музейлари очилди.

uchun yagona ijodiy metod deb e`lon qilingan. Bu metodga ko`ra sovet voqeligini «inqilobiy taraqqiyot»da, ya`ni pardozlab ko`rsatish va aksincha, «feodal o`tmish»da ro`y bergan voqeahodisalarni qora bo`yoqlar bilan tasvirlash zarur edi. Ammo shunday davrda ham A.Qodiriyning «O`tgan kunlar» va «Mehrobdan chayon» singari davrning mafkuraviy panjaralarini yorib-parchalab tashlagan romanlari ham yaratildi.

Jadid yozuvchilari boshlab bergan zamona viy o`zbek adabiy tili va uslubini yaratish jarayoni shu davrda, birinchi navbatda, A.Qodiriy va Cho`lpon, shuningdek Oybek, G`ulom, H.Olimjon va boshqa yozuvchilarining ijodiy mehnatlari bilan ma`lum darajada o`z yakunini topdi. Oybekning «Qutlug` qon» romani 20-30 yillarda o`zbek nasrida olib borilgan ijodiy izlanishlarning sintezi sifatida yuzaga keldi.

Ikkinci jahon urushi yillarida adabiyot urush mavzusini yoritishga safarbar etildi. Oybek, G`ulom, H.Olimjon, Shayxzoda, Uyg`un, Mirtemir va boshqa yozuvchi, shoirlar o`z asarları bilan front va front orqasida kurashayotgan armiya va hamda dushmanga nisbatan nafrat va g`azab tuyg`ularini uyg`otuvchi, ularni g`alabaga undovchi urushida qahramonona kurashga rag`batlashtiruvchi asarlar yozdilar. Ayniqsa, Oybekning Navoiy romani bu davrning o`lmas asari bo`lib, adib bu asari bilan o`zbek adabiyotida tarixiy-biografik roman janrini boshlab berdi.

Davlat va partiya urushdan keyingi dastlabki yillarda (1946-48) adabiyot va san`atni tamomila izdan chiqaruvchi, yana 1937-38 yillar qatag`onini yodga soluvchi mafkuraviy qarorlarni chiqardi. Bu qarorlar asosida o`zbek xalq og`zaki ijodining durdonasi - «Alpomish» eposi «feodal davr mafkurasi bilan sug`orilgan», «soviet xalqiga yot asar», deb e`lon qilindi. Aruz vazni she`riyatda sovet davrida ro`y berayotgan «olamshumul o`zgarishlarni ifodalashga qodir bo`lmagan vazn» sifatida quvg`inga uchradi.

Urush va urushdan keyingi mashaqqatli yillar tasviri Sh.Rashidovning «Bo`rondan kuchli», I.Rahimning «Ixlos» (1958) romanlarining g`oyaviy yo`nalishini belgilab berdi.

Shu davrda tarixiy o`tmish mavzuvida yozilgan asarlar orasida atoqli adib M.Osimning «To`maris», «Shiroq», «Temur Malik», «Maxmud Torobiy», «O`tror» qissalari, shuningdek, 20-asrning 20-30 yillarida o`zbek diyorida bo`lib o`tgan murakkab voqealar haqida hikoya qiluvchi M.Ismoiliiyning «Farg`ona tong otguncha» (1959, 1967) dilogiyasi yaratildi.

50 - yillarning oxiri - 60 - yillarning boshlarida adabiy hayotga E. Vohidov, Yu.Shomansur, B.Boyqobulov, X.Saloh, A.Oripov, M.Jalilov, O.Matchon va boshqa o`nlab yosh shoirlar avlodni kirib keldi.

Shu davr o`zbek she`riyatining muhim xususiyatlaridan biri ijtimoiyadolatsizliklar bilan murosa qila olmagan kenja avlod vakillari (A.Oripov, R.Parfi, U.Azim, Sh.Rahmon va b.) o`z asarlarida turli yo`llar bilan millatparvarlik va erkparvarlik g`oyalarini kuyladilar.

80 - yillarda voqelikda ro`y bergan voqe va hodisalar mustabid sovet tuzumining inqirozga yuz tutgani, uning yolg`on ideal va g`oyalarga asoslanganidan darak bera boshladidi. Dramaturglar jamiyatdagi ko`ngilsiz hollarga qarshi kurashda komediya janri imkoniyatlaridan samarali foydalandilar. Istiqlol arafasida Sh.Boshbekov «Temir xotin» asari bilan komediyaning kishilarga shunchalik hordiq beradigan, ularni dunyo tashvishlaridan forig` etadigan janr emas, balki ularni o`ylatadigan, ular orqali jamiyatni haq yo`lga etaklaydigan vosita ekanini to`la asoslab berdi.

O`zbek xalqining ma`naviy - mafkuraviy hayotida **san`at** har doim ham muhim rol` o`ynagan. San`at va uning barcha turlari bilan shug`ullanish, bu borada yangiliklar yaratish, ularning jahon andozalari darajasida yaratilishini ta`minlash o`zbek xalqi uchun yangilik emas edi.

Sovet mustabid tuzumining dastlabki davrida teatr, musiqa, tasviriy san`at va kino san`atida ma`lum ijodiy siljishlar ko`zga tashlandi. Ammo bu san`at turlari kommunistik mafkuraning siyosiy aqidalari tazyiqi asosida «rivoj» topdi. Sovet hukumatining O`zbekistonda san`at turlarini rivojlantirishga bo`lgan intilishini esa ushbu vosita orqali o`z mafkuraviy maqsadlariga erishish ma`nosida tushunish kerak. Shuning uchun ham o`zbek san`atkorlarining u yoki bu san`at turini rivojlantirishga bo`lgan barcha sa`y-harakatlari sovet hukumati tomonidan qo`llab-quvvatlab turildi. Yaratilayotgan asarlarning mezoni esa siyosiy - mafkuraviy qarashlarning darajasi bilan belgilanar edi.

O`zbekiston **teatr** san`atining shakllanish jarayoni juda murakkab sharoitda yuz berdi. Bir tomonidan, milliy san`at arboblari xalq madaniy merosi, o`ziga xos madaniy qadriyatlar asosida sahna asarlarini yaratishga harakat qilgan bo`lsalar, boshqa tomonidan, hukmon siyosiy kuch

«proletar madaniyatini barpo etish» bayrog`i ostida teatr san`atida «sovetslashtirish» ishini kuchaytirib yubordi.

1918 y. Hamza Farg`onada o`lka sayyor siyosiy truppasini tashkil etdi. M.Qoriyoqubov, Y.Egamberdiev, H.Islomov, M.Kuznetsovalar shu teatr qaldirg`ochlari bo`ldi. O`sha yili Mannon Uyg`ur Toshkentda «Turon» jamiyati qoshida teatrni tikladi. Bu to`da keyinchalik O`lka davlat namuna teatriga aylandi. Abror Xidoyatov, Obid Jalilov, Sayfi Olimov, Ziyo Said va boshqalar teatrning birinchi aktyorlari bo`lishgan.

Teatrler soni asta - sekin orta borgan. Andijon (1919), Xivada (1922) teatr tashkil topdi.

20 – yillarda Moskava va Boku shaharlarida tashkil bo`lgan teatr studiyalarida M.Uyg`ur boshchiligidagi artistlar tahsil ko`rib (1924-27) qaytdilar. 1924 y. Samarqandda O`zbek davlat drama teatri barpo etildi. 20 – yillar oxiri Rus yosh tomoshabinlar teatri (1928), O`zbek yosh teletomoshabinlar teatri (1929) tashkil topdi. 30-yillarda Farg`ona (1930), Namangan (1931), Qashqadaryo (1932), Surxondaryo (1955) viloyat teatrлari, o`nlab shaxar va tuman teatrлari tashkil qilindi. Toshkentda M.Gor`kiy nomida Rus drama teatri (1934), Respublika qo`g`irchoq teatri (1939) ochildi. 1939 yil dastlab kinoteatrlar tashkil etilib, bir yildan so`ng Muqimiy nomidagi Respublika musiqali drama va komediya teatriga aylantirildi. Garchi teatrler soni ko`payib borsada, kommunistik mafkura, sinfiylik talabi ko`pgina dramaturqlar va teatr arboblarining qatag`on qilinishiga sabab bo`ldi, sahna san`atining erkin rivojlanishiga to`sinqlik qildi.

Ikkinci jaxon urushi yillarida o`zbek teatri namoyondalari «Muqanna» (H.Olimjon), «Jaloliddin Manguberdi» (M.Shayxzoda), «O`lim bosqinchilarga» (K.Yashin) va b., musiqali dramalardan «Nurxon» va «Oftobxon» (K.Yashin, T.Jalilov) spektakllari shuhrat qozondi.

1968 yili «Yosh gvardiya» (1990 - yillardan Abror Hidoyatov nomidagi o`zbek drama teatri tashkil qilindi). 70 - yillarning birinchi yarmi o`zbek teatrda ziddiyat davri bo`ldi: bir tomondan, turli teatr anjumanlari o`tkazilib, ba`zi rejissyorlarda (B.Yo`ldoshev va b.) milliy meros va an`analarga e`tibor kuchayib, bu ijobjiy natijalar, hatto kashfiyotlarga olib kelgan bo`lsa, ikkinchi tomondan dabdababozlik, ho`jako`rsinga ishslash, haqiqatdan qo`rqib, hayotni xaspo`shlab ko`rsatish teatr san`atining imkoniyatlarini cheklab qo`ydi. Bu davrda o`zbek teatrлari tarixiy mavzuda va mumtoz asarlar talqinida bir muncha yutuqlarga erishdi. Hamza teatrining «Tirik murda» (L.Tolstoy), «Otello» (Shekspir) spektakllari shular jumlasidandir. Ba`zi komediyalar («Oltin devor», «Kelinlar qo`zg`oloni») xalq qadriyatlari ruhida ishlandi. 1986 y. Respublika satira teatri tashkil topdi.

80 - yillar ikkinchi yarmidagi oshkoraliq davrida teatr san`atida ham axvol bir qadar o`zgardi: hayotni haqqoniy aks ettirish, nuqsonlarni ro`y-rost ochish, uslub va janr rang-barangligi kuchayib bordi. Bu davrda Abror Hidoyatov teatri etakchi o`ringa chiqdi. Teatr «Maysaraning ishi», «Paranji sirlari» (Hamza), «Qora kamar», «Ziyofat» (Sh.Xolmirzaev), «Iskandar» (Navoiy dostoni asosida Sh.Rizaev p`esasi) spektakllari bilan tarixiy va zamonaviy mavzularni aks ettirishda milliy vositalarni keng ishlatish, ijroda katta yutuqlarga erishdi.

**Me`morlik.** 1917 yilgi Oktyabr` to`ntarishi va fuqarolar urushi oqibatida o`lka me`morchiligi tamoman tanazzulga uchradi. Sho`ro tuzumi davrida er, suv qatorida, me`morlik ham davlat tasarrufiga o`tdi. Yirik binolar musodara qilindi, masjid va madrasalar berkitildi. 1930-yillardan boshlab esa yangi tipdagи binolar qurila boshladi: kommunal uy, ishchilar shaharchasi, muktab, bolalar bog`chasi, ishchi-yoshlar klub, kinoteatr, muzeylar, istiroxat bog`lari paydo bo`ldi, suv omborlari qurildi. Yangi tartibdagi loyixali shaharlarga asos solindi. Ayniqsa, 1940-yillardan boshlab Yangiyo`l, Chirchiq, Olmaliq, Angren, Bekobod kabi shaharlar tez taraqqiy etdi, yangi tipdagи zavod-fabrikalar qad ko`tara boshladi. Toshkentda urushning eng og`ir yillarida (1943) Muqimiy teatri qurildi. Alisher Navoiy teatri (1947) binosi umuman o`zbek me`morchiligi ijobjiy imkoniyatlarining yorqin namoyishi bo`ldi.

20-asrning ikkinchi yarmida binokorlik tez sur`atlar bilan rivojlandi. Davlatning me`morchilikda ortiqcha bezakdorlik alomatlariga chek qo`yish, binokorlik industriyasini rivojlantirish haqidagi qarori 1950-60 yillarda temir - beton zavodlari tayyorlagan konstruktsiyalar bilan, bir qolipdagи (tipovoy) loyixalar asosida kata - kichik mikrorayonlar qurish odatga aylandi. Qurilishda temir - beton bilan bir qatorda yaxlit yirik oynalardan foydalanildi: San`atshunoslik instituti, ma`muriy binolar, san`at muzeyi va boshqalar. 1960 - yillarning ikkinchi yarmi -70 yillarda sinchli, yirik panelli va yirik blokli, zilzilabardosh binolar qurish avj oldi. Qurilishlar

ko`cha bo`ylab qurilmasdan yangi uslub - mikrorayon qurilishi joriy etildi. Toshkentdagı Chilonzor, Shimoliy-Sharqiy, Yunusobod, Qoraqamish, Qorasuv massivlar qad ko`tardi.

Qishloq bilan shahar orasidagi tafovutni yo`qotish shiori ostida yangi o`zlashtirilayotgan hududlarda, ayniqsa, Mirzacho`lda o`nlab sovxozi shaharchalari qurildi, namuna tarzida ikki qavatli kottejlar dexqonlarga tavsiya etildi, lekin qishloq sharoitida bunday binolar g`ayri tabiiy, begona tarzida aholiga ma`qul bo`lmadi. Qishloqlarda 3-4 qavatli uylar qurilishi butunlay salbiy natija berdi.

Lekin shunday bo`sada, yakka tartibdagi yirik imoratlar me`morchilik ba`zan ijobjiy yutuqlarga erishildi. Toshkentdagı San`at saroyi kinoteatri (1964), Markaziy universal magazini (1964), O`zbekiston tarixi muzeyi (1970), Bosh universal magazin (1972), «O`zbekiston» mehmonxonasi (1974), Toshkent teleminorasi (1981), Xalqlar do`stligi saroyi (1981) kabi imoratlar yangi davr ruxida yaratilgan. Toshkentda metropoliten ochilishi (1977) milliy me`morchilikning yangi imkoniyatlarini namoyish etdi. Metro bekatlarining me`moriy tuzilishi, husnu jamoli esda qoladigan shohona ko`rinish kasb etdi.

**Amaliy bezak san`ati.** 20 - asrning 20-yillaridan keyin o`zbek bezak san`ati qo`shni xalqlar san`ati bilan bir oqimda rivojlandi. G`oyaviy-badiiy jihatdan bu davr tushkunlik an`analarini engib o`tish, o`tmishning yaxshi an`analariga tayangan xolda yangi taraqqiyot yo`llarini izlash davri bo`ldi.

1920-30 yillarda O`zbekistonda maxalliy badiiy san`at vujudga keldi. Badiiy hunarmandchilikning ko`plab sohalari (ipakchilik, kashtachilik, zardo`zlik va boshqalar) tiklandi. 30 - yillarning o`rtalarida amaliy bezak san`atining sanoat taraqqiyoti boshlandi. Badiiy san`atning dastlabki korxonasi – Toshkent to`qimachilik kombinati ishga tushdi (1934), chitga gul bosishning yangi tarmog`i yuzaga keldi.

Ikkinci jahon urushi yillarda to`qimachilik va kulollik taraqqiy etdi. Marg`ilon shoyi to`qish kombinati ishga tushdi (1943-47). Xalq ustalari Usta Shirin Murodov, Mahmud Usmonov, Abdulla Boltaev va b. binolarni bezashda faol qatnashib, milliy ganchkorlik, naqqoshlik va yog`och o`ymakorligining noyob namunalarini yaratdi.

Buyumlarida an`anaviy va zamonaviylik uyg`unlashgan zargarlik sanoati vujudga keldi (Toshkent zargarlik zavodi, 1963). Chinni sanoati yaratildi. Respublikada birinchi chinni zavodi 1953 yilda ochildi.

1960-70 yillardan boshlab O`zbekistonda amaliy bezak san`atining noan`anaviy shakllari yuzaga keldi. Badiiy mato, an`anaviy bo`limgan chinni, shisha, kulollik, zargarlik buyumlari ko`rgazmalarda namoyish etildi.

1970-yillarda badiiy shishasozlik noan`anaviy amaliy bezak san`atining gobelen, batik kabi turlari ham 70 - 80 yillarda paydo bo`ldi. Kashtachilik, gilamchilik, kigizchilik, naqqoshlik bo`yicha ustalar kasabachilik guruhiга birlashgan. 1978 yilda Rassomlar uyushmasi qoshida tuzilgan «Usto» birlashmasi mohir xalq ustalarini birlashtirgan. Bu uyushma tizimida ustaxona ochilib, Ch.Ahmarov boshchiligidagi qadimgi san`at turlaridan bo`yama naqshli buyumlar tayyorlash yo`lga qo`yildi.

Bu davrda ma`muriy - buyruqbozlik tiziminining qattiq tazyiqlariga qaramasdan qo`shiqchilik - **musiqiy san`at** ham rivoj topdi. 1928 yili Samarqandda O`zbekiston xalqlari musiqiy madaniyatini o`rganish bo`yicha maxsus ilmiy - tadqiqot instituti barpo etildi. Bu yillarda ijodkorlarimiz tomonidan «O`zbeklar musiqasi» va «Farg`ona, Buxoro va Xiva qo`shiqlari» nomli turkum tadqiqotlar yaratildi.

20-30-yillarda musiqa ta`limi, ijrochiligi va ilmida ma`lum o`zgarishlar sodir bo`ldi. Toshkentda Turkiston xalq konservatoriysi (1918), musiqa texnikumi (1924, 1936 yildan musiqa bilim yurti), davlat konservatoriysi (1936), ilk o`rta maxsus (1927, keyinchalik R.Glier nomidagi) va boshlang`ich musiqa maktablari kabi evropa tizimidagi muassasalar ochilgan. Samarqanddagı O`zbekiston musiqa va xoreografiya instituti (1928) ham o`quv, ham ilmiy dargoh bo`lgan.

Bu davrda o`zbek ijrochilar chet el gastollarida bo`lishgan: Tamaraxonim va M.Qoriyoqubovlar Parij va Berlin(1925), Tamaraxonim, Usta Olim Komilov, To`xtasin Jalilov va Abduqodir Ismoilovlar London (1935)da katta muvaffaqiyat qozonishgan. O`zbek davlat filarmoniyasining tashkil etilishi (1936) ijrochilik san`atining ma`lum darajada tizimlanishiga asos bo`ldi.

1958 y. O`zdavestrada tarkibida, 1963 yilda esa O`zteleradio qoshida estrada orkestrlari tashkil etilganidan so`ng estrada qo`schiqchiligi jadallahshdi.

1960-80-yillarda an`anaviy mumtoz musiqa ijodining badiiy madaniyatdagi mavzu qayta tiklanib, ko`tarildi. I. Rajabovning milliy musiqa merosiga bag`ishlangan «Maqomlar masalasiga doir» (1963) ilk yirik tadqiqoti chop etildi. Buxoro Shashmaqomi (Yu.Rajabiy, 1966-75), Xorazm maqomlari (M.Yusupov, 1980-87)ning yangi turli nashrlari e`lon qilindi. Maqom ijrochiligi bo`yicha xonanda va sozandalarning respublika tanlovlari (1983 yilda) o`tkazildi.

1970 - yillarda shahar, rayon va qishloq madaniyat uylarida fol`klor – etnografik ansamblar faoliyat ko`rsata boshladи. 1980 yillardan fol`klor – etnografik ansamblari, baxshi- shoirlar va ko`rik-tanlovlarining o`tkazilishi o`zbek xalq musiqa ijodining targ`iboti, tiklanishi, yangi sharoitda rivoji uchun katta ahamiyat kasb etdi.

O`zbek milliy san`ati rivojida **kino san`atining** o`rnii va ahamiyati ham juda katta. Sovet mustabid tuzumi kinoning mafkuraviy kurashdagi o`rnini yaxshi tasavvur etardi. Shuning uchun ham sovet hukumati kino rivoji uchun mablag`ni ayamadi.

Kommunistik partiya va davlat tomonidan kino san`ati omma orasida g`oyaviy - siyosiy tarbiya va mafkura targ`iboti uchun zarur muhim vosita deb qaraldi.

Bu davrda ommaviy axborot vositalarining kuchli tarmog`i sifatida **radio**, radioeshittirishga ham muhim e`tibor qaratildi. Sovet xukumati kommunistik dunyoqarashni shakllantirish, kommunizm g`oyalarini targ`ib etish, ilmiy, siyosiy-mafkuraviy bilimlarni tarqatishda radiodan unumli foydalandi. O`zbekistonda birinchi keng tarmoqli radiostantsiya 1927 yil 11 fevralda Toshkentda faoliyat ko`rsata boshlagan edi.

Xulosa o`rnida shuni ta`kidlash lozimki mustabid tuzum davrda milliy madaniyatimiz zaiflashib, qadriyatlar, an`analar va milliy bayramlarimiz unutila bordi.

Har bir xalqning asrlar davomida vujudga kelgan o`ziga xos madaniyati, nodir qadriyatlar, an`anasi, urf-odatlari mavjud.

Lekin bu davrda tarixan ildiz otgan milliy qadriyatlarimiz oyoq osti qilinib, yet firqa mafkurasi va uning “dohiy”lari esa ulug`landi. Mustabid sho`ro hukumatining milliy madaniyatimizga, qadriyatlarimizga qarshi kurashi «Qizil imperiya»ning parchalanishi davrigacha davom etdi.

Mustabid sho`ro tuzumi davrida (20-30-yillar) “din-afyun” degan shior bayroq qilib olinib barcha dirlar, jumladan Islom dini, u yaratgan bebahо madaniy obidalar, diniy qadriyatlar inkor etildi. Islom madaniyatining zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga qo`shtan hissasi tan olinmadи. Odamlarni go`yo diniy sarqlardan xalos qilish va dahriylik ruhida tarbiyalash maqsadida tashkil qilingan “xudosizlar jamiyati”ning minglab faollari milliy urf-odatlarimiz, udum va marosimlarimizga qarshi tashviqotni avj oldirdilar.

Yangi «madaniy hayot»ga «soviet turmush tarzi»ga tezroq ko`nkitirish uchun ko`p asrlik tarix - ma`naviy merosimiz bitilgan alifbo ham shosha-pisha o`zgartirildi va o`zgartirilib turildi. Arab alifbosida asarlar “diniy” deb turli yo`llar bilan yo`q qilishga harakat qilindi. Hatto “hujumkor ateizm” shiori ostida muqaddas madaniy merosimiz-betakror tarixiy yodgorliklar, obidalar qarovsiz qoldi, ko`plab masjid va madrasalar vayron qilindi.

Sovet mustabid tuzumi sharoitida madaniyatda siyosiy badiiylik o`rniga ustuvorlik o`rnatildi. Badiiy jamoalar, madaniyat maskanlari, ijodiy uyushmalarning mehnat faoliyati faqat bir narsaga, sovet voqeligini madh etish, uning dunyoda eng nufuzli va adolatli tuzum ekanligini isbotlashga qaratildi.

Bu davrda ham turli mafkuraviy tazyiqlarga qaramasdan o`zbek milliy madaniyatida umumiy rivojlanish bo`ldi. Ammo, juda katta intellektual salohiyatga, buyuk madaniy merosga ega bo`lgan o`zbek xalqi bundan ham ko`ra ko`proq yutuqlarga erishishi mumkin edi. Uzoq yillar davomida madaniyatga sinfiylik, g`oyaviylik, partiyaviylik asosida munosabatda bo`lish milliy madaniyatimizga juda katta salbiy ta`sir ko`rsatdi.

## 15 - MAVZU

### MUSTAQILLIK VA MADANIY TARAQQIYOT

Mustamlakachilik va mustabid tuzum davrida madaniyatimiz katta zarar ko`rdi. Ayniqsa kommunistik mafkura maddohlari xalqimiz madaniyatini yo`q qilishga zo`r berdilar. O`zbek xalqi katta yo`qotishlarga qaramasdan o`zligini, o`z milliy madaniyatini saqlab qola bildi. Ma`naviy madaniyati yuksak, uning ildizlari baquvvat xalqning ijtimoiy ongidan shu xalq madaniyatini hech qachon tamomila yo`q qilish mumkin emas. Demak madaniy merosni tiklash, uni yanada yuksak darajaga ko`tarish uchun imkoniyat saqlab qolingen edi.

Mustaqillik davrida milliy adabiyot, san`at, teatr rivoj topdi, madaniy aloqalar kengaydi, madaniy-ma`rifiy muassasalar faoliyatini takomillashdi, muzeylarning ijtimoiy-ma`rifiy ahamiyati oshdi. Zero, yuksak ma`naviyatli jamiyat qurish va jahon hamjamiyatiga kirib borish ko`p jihatdan ma`naviy madaniyatning taraqqiyoti va mustahkamlanishiga bog`liqdir.

O`zbekistonning o`z mustaqilligini qo`lga kiritishi natijasida ma`naviy madaniyatning muhim jabg`asi bo`lgan **musiqa san`ati** ham jadval rivoj topa boshladi, zero tabiatan nozik ta`b, san`atsevar va san`at ahliga talabchan o`zbek xalqining musiqasi keng ko`lamli ma`naviyat ko`zgusidir. Sho`rolar davrida asosan mafkuraviy quroqga aylangan mazkur san`at turi erkinlik yo`liga kirdi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 31 dekabrdagi «Respublikada musiqiy ta`lim, madaniyat va san`at o`quv yurtlarining faoliyatini yaxshilash to`g`risida»gi Farmoniga ko`ra ularga 6,5 mingta musiqa asboblari va turli xil texnik jihozlar ajratilgan. Respublikamiz Prezidentining 1997 yil 8 fevraldagagi «Milliy raqs va xoreografiya san`atini rivojlantirish to`g`risida»gi Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 21 fevraldagagi Qarori «O`zbeknavo» va «O`zbekraqs» birlashmalarining moddiy texnik negizini mustahkamlashga yordam berdi.

O`zbekiston hukumati xalqimizning **milliy qo`shiqchilikka** bo`lgan ijtimoiy ehtiyojini e`tiborga olib milliy ruhdagi, xalqning ko`ngliga yaqin musiqa asarlarini yaratishga bo`lgan qiziqishni doimo rag`batlantirdi.

Istiqlolniig dastlabki kunlaridanoq musiqa san`ati bo`yicha qator ko`rik-tanlovlardan o`tkazila boshlandi. Xususan, 1992 yili Toshkent shahrida tanbur, sato, qo`schnay, surnay va boshqa milliy soz ijrochilarining «Asrlarga tengdosh navolar» deb nomlangan respublika ko`rik tanlovi, aprelyida Toshkent viloyatida havaskor qo`g`irchoq teatrлari jamoalarining ko`rik-tanlovi, shuningdek, mashhur san`atkorlar Jo`raxon Sultonov, Saidjon Kalonov, Komiljon Jabborov, Nabijon Hasanov, Komiljon Otaniyozov, Faxriddin Sodiqov, Janak Shomuratovlarning asarlari ijrochilarining «Boqiy ovozlar» deb nomlangan ko`rik-tanlovlari o`tkazildi. Shu yili Xorazm viloyatida fol`klor jamoalarining, askiya, qiziqchi va masxarabozlarning Qo`qonda o`tkazilgan IX an`anaviy ko`rik tanlovi, lapar, yalla ijrochilarining Toshkent shahrida o`tkazilgan XI an`anaviy ko`rik tanlovi milliy san`atimiz rivojiga katta hissa bo`lib qo`shildi.

Mamlakatimiz hukumati qo`shiqchilik san`atidan mustaqillikning ma`naviy zaminlarini mustahkamlashda ham unumli foydalanishga e`tiborni kuchaytirdi. Shu maqsadda 1995 yil dekabrda «**O`zbekiston - Vatanim manim**» mavzuidagi qo`shiqlar ko`rik-tanlovi e`lon qilindi. Tanlov natijasida yuzlab yangi qo`shiqlar yaratildi, u xalq orasidan chiqqan ko`plab iste`dodli san`atkorlarning paydo bo`lishiga sabab bo`ldi.

«O`zbekiston - Vatanim manim» qo`shiq ko`rik-tanloving 1996 yil mart oyida bo`lib o`tgan birinchi bosqichida 54 mingdan ortiq san`atkorlar ishtirok etdi, 10 mingdan ortiq yangi musiqiy asarlar yaratildi.

Bularning barchasini e`tiborga olib, 1996 yil avgustda «O`zbekiston - Vatanim manim» qo`shiq bayrami xaqida» maxsus farmon qabul qilindi. Farmonda fuqarolar qalbida muqaddas Vatan tuyg`usini tarbiyalovchi yuksak badiiy saviyadagi musiqa asarlari va qo`shiqlarning yaratilishiga keng imkoniyat yaratish maqsadida har yili avgust oyining uchinchi yakshanbasi «O`zbekiston - Vatanim manim» qo`shiq bayrami kuni, deb belgilab qo`yildi. Ayni paytda, xalqimizning qo`shiqchilik san`atiga bo`lgan katta qiziqishini e`tiborga olib, Madaniyat ishlari vazirligi huzurida «O`zbeknavo» gastrol-kontsert birlashmasi tashkil etildi.

Natijada, mazkur ko`rik-tanlov hozirda ommaviy tus oldi, unda nafaqat o`zbek milliy, balki mamlakatimizda istiqomat qilayotgan boshqa barcha xalqlar vakillarining erkin ijod qilishi, o`z

san`atlarini namoyish etish imkoniyati yaratildi. Professional va xalq badiiy ijodiyoti asosida san`atning qo`shiqchilik turiga teng e`tibor berilishi, ularning uyg`un rivojlanishiga sharoit yaratilishi tufayli mazkur san`at turi yanada rivoj topmoqda.

1998 yil 26 martda O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning «O`zbekiston teatr san`atini rivojlantirish to`g`risida»gi Farmoni e`lon qilindi. Unga binoan, O`zbekiston tomosha san`atining ko`p asrlik an`analarini o`rganish, boyitish va targ`ib qilish, teatr san`atini har tomonlama rivojlantirish, uning moddiy bazasini yanada mustahkamlash, mamlakatimizda ma`naviy-ma`rifiy islohotlarni amalga oshirishda teatr arboblarining faol qatnashishini ta`minlash, respublika Madaniyat ishlari vazirligi teatr tashkilotlari negizida va teatr arboblari uyushmasida badiiy zamonaviy sahnabop asarlar yaratish maqsadida Madaniyat ishlari vazirligi tizimida va teatr ijodiy xodimlari uyushmasi qoshida «O`zbekteatr» ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi.

Teatr san`atini rivojlantirish yo`lida 1998 yil noyabr` oyida o`tkazilgan «Xumo» xalqaro yoshlar teatrlarining festivali alohida ahamiyat kasb etdi. Ushbu festivalda O`zbekiston va Isroil davlatlarining eng yaxshi teatr jamoalari ishtirok etdilar. Mazkur festival doirasida 32 ta spektakl namoyish etildi, ularni 20 mingdan ortiq tomoshabin tomosha qildi.

Mustaqillik yillarida O`zbekistonning xalqaro miqyosdagi **madaniy aloqalari** kengayib bordi. Milliy teatr san`atimiz sohasidagi ilg`or yutuqlar chet ellarda namoyish qilib kelinmoqda.

Masalan, faqat 2005 yilda O`zbek Milliy akademik drama teatri san`atkorlari Turkiya, Rossiya mamlakatlarida, O`zbekiston Yoshlari teatri esa Sankt-Peterburg shahrida o`tkazilgan Xalqaro festivallarda ishtirok etishdi.

O`zbekistonda etakchi teatrlardan biri bo`lgan Muqimiyl nomidagi o`zbek davlat musiqiy teatri jamoasi Qohira shahrida (2005) o`tkazilgan Xalqaro teatr san`ati festivalida “To`da” spektakli bilan ishtirok etdi. Spektakl mavzusi hozirgi davrning eng dolzarb muammosi - yoshlar orasida giyohvandlikka ruju qo`yish kabi mudhish xalokatli holatlarni sahnada san`atkorlar mahorat bilan namoyish qila olishdi. Jahonning 50 dan ortiq mamlakat teatr jamoalari orasidan o`zbek teatr san`atining umidli yosh ijrochilari mahorati yuksak baholandi. “Eng dolzarb muammoni ko`tarib chiqqanligi uchun” nomidagi mukofot bilan taqdirlandi.

Hozirgi sharoitda O`zbekistonda faoliyat ko`rsatayotgan 37 ta dramatik, musiqali drama va komediya, opera va balet, qo`g`irchoq teatrlari ana shunday vazifalarni bajardilar.

O`zbekistondagi muhim tarixiy madaniy va badiiy ahamiyatga ega bo`lgan **muzeylarning** to`laqonli ishlashi uchun qator chora tadbirlar ko`rildi. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 23 dekabrdagi «Respublika muzeylarining faoliyatini yaxshilash choralarini to`g`risida»gi Qarori, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 12 yanvardagi «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to`g`risida»gi Farmoni 1999 yil 5 dekabrda esa «Muzeylar faoliyatini qo`llab-quvvatlash masalalari to`g`risida»gi qarori qabul qilinishi bu masalalarga davlat tomonidan alohida e`tibor qaratilayotganligini ko`rsatadi.

Prezidentning 1998 yil 12 yanvardagi Farmoni esa muzeylar ishida tubdan burlish yasadi. Unga binoan barcha turdagи muzeylar faoliyatini muvofiqlashtirish, qo`llab-quvvatlash va ularga zarur ilmiy-uslubiy yordam ko`rsatishni ta`minlash maqsadida Madaniyat ishlari vazirligi qoshida «O`zbekmuzey» jamg`armasi tashkil etildi, o`zbek, ingliz, rus tillarida chop etiladigan ilmiy-amaliy, ma`naviy-ma`rifiy, rangli «Moziydan sado» jurnalini ta`sis etildi<sup>1</sup>.

Respublikamiz mustaqilligining 15 yilligiga Boysunning so`lim joylarining birida qad ko`targan hunarmandchilik markazi va xalq amaliy san`at muzeyi xalq an`anaviy me`morchiligi andozasida ochildi. Bunday muzeylarning ochilishi bir tomonidan davlatimizni an`anaviy qadriyatlarimizga, boy madaniy merosimizga katta e`tiboridan dalolat beradi, xalqning o`z tarixi, madaniyati, san`atiga bo`lgan hurmatini oshiradi. Eng asosiysi o`sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Mo`jizalarga boy yurtimizning chekka tumanida barpo etilgan bu muzey ham o`ziga xos tarbiya o`chog`i, o`tmish bilan bugunni, bugun bilan kelajakni bog`lab turuvchi muhim madaniy vositadir.

Abdulxoliq G`ijduvoniy tavalludining 900 yilligi, Bahouddin Naqshbandning 685 yilligi munosabati bilan Bahouddin Naqshband me`moriy majmuasida joylashgan «Bahouddin Naqshband tarixiy muzeyi» qayta tashkil etildi. Bu moziygoh tasavvuf tarixiga bag`ishlangan

<sup>1</sup> «Гулистан», 1998, №2, 5-бет.

Respublikamizdagi yagona muzeydir. Ekspozitsiya ilmiy xronologiyasi milodning VII asridan hozirga qadar bo`lgan davrni o`z ichiga oladi.

Respublikamizdagi eng yosh **O`zbekiston kino san`ati muzeyi** 2005 yil 22 fevralida ochildi. Keyingi yillarda yig`ila boshlagan kino tarixiga oid ashyolar muzey eksponatlaridan joy oldi. O`zbekiston kino san`atida eksponatlar, fotosuratlar, stsenariylar, montaj varaqalari va boshqa hujjatlar to`planib, 30 mingdan ortiq saqlash birligidan iborat katta xazinaga aylandi. Hozirgi kunda muzey jamg`armasida O`zbekiston kino san`ati tarixini muhrlagan 5000 dan ortiq surat va negativ, o`tgan asrning 20-50 yillarida suratga olingan 48 badiiy fil`m saqlanmoqda. Shulardan 5 tasi YuNeSKO «Oltin jamg`armasi» ro`yxatiga kiritilgan. Ular orasida «Tohir va Zuhra», «Alisher Navoiy» kabi mashhur tasmalar mavjud. O`zbekiston kino san`ati muzeyining tashkil etilishi xalqimiz madaniy taraqqiyoti yo`lida qilingan muhim ishlardan biri bo`lib koladi.

Mustaqillik yillarda Toshkent, Samarqand va Shahrisabzda buyuk Sohibqiron Amir Temur bobomizga, Farg`ona va Quvada al-Farg`oniy, Andijonda Zahiriddin Muhammad Bobur, Xorazmda Jaloliddin Manguberdi, Samarqand hamda Nukusda Mirzo Ulug`bek, Termizda Alpomish, Navoiy shahrida hazrat Alisher Navoiy kabi buyuk ajdodlarimizga bag`ishlab yodgorlik va majmular barpo etildi. Ulug` allomalarimiz yashab o`tgan joylarning hammasi muqaddas qadamjolarga aylantirilmoqda. 2006 yili Qarshi shahrining 2700 yilligi, Xorazm Ma`mun akademiyasi tashkil etilganligining 1000 yilligi tantanalari bo`lib o`tdi. 2007 yilda esa qadim Samarqandning 2750 yilligi hamda Marg`ilon shahrining 2000 yilligi YuNeSKO bilan hamkorlikda keng nishonlanadi.

Xalqimizning boy tarixi, madaniy merosi va yuksak qadriyatlarini mustaqil O`zbekistonning madaniy qiyofasini ko`rsatuvchi omil darajasiga ko`tarish va bu bilan xalqimizni, ajdodlarimiz merosi va ularning mislsiz bunyodkorlik xizmatlarini muzey vositalari bilan namoyish etish orqali fuqarolarimizda istiqlolimizning qadrini yanada chuqur anglash tuyg`ularini shakllantirish muzeylar faoliyatining bugungi kundagi asosiy vazifasi hisoblanadi.

O`zbekiston mustaqillikni qo`lga kiritgandan so`ng **hunarmandchilik** rivojida yangi davr boshlandi, xalq hunarmandchiligi bozor qoidalari qaytadan tiklandi. O`zbekistonda mahalliy sanoat korxonalarining birinchilar qatori xususiylashtirilishi natijasida ular mayda davlat korxonalariga aylantirildi, yangi hunarmandchilik korxonalari ochildi. Hunarmandchilik nafaqat ichki bozorga balki eksportga ham ishlay boshladi. Hunarmandchilikning tashkiliy shakli ham o`zgardi: kichik oilaviy korxona, yakka tartibdagi mehnat faoliyati shaklida rivojlana bordi. 1995yil 24-25 oktyabrda Toshkentda BMTning O`zbekistondagi vakolatxonasi bilan amaliy hamkorlikda xalq ustalari va hunarmandlari 1-Respublika yarmarkasi o`tkazildi. 1997 yilda Respublika xalq amaliy san`ati va hunarmandlari ustalarining “Usto” ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi tashkil topdi. Respublika Prezidentining 1997 yil 31 martidagi “Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san`atini yanada rivojlantirishni davlat yo`li bilan qo`llab-quvvatlash chora-tadbirlari to`g`risida”gi farmoni va boshqa tadbirlar O`zbekistonda hunarmandchilikning tiklanishi va yanada rivojlanishida, uning unutilgan ba`zi turlarini qayta tiklashda muhim ahamiyatga ega bo`ldi. Hunarmandlar maxsus tashkilot – “Hunarmand” Respublika uyushmasiga birlashtirildi; hunarmandchilik sub`ektlari O`zbekistonda tadbirkorlar va fermer xo`jaliklarining har yili o`tkaziladigan “Tashabbus” respublika ko`rik-tanlovida ishtirok eta boshladilar. 1996-2005 yillar mobaynida 10 nafar hunarmand xalq hunarmandchiligidagi erishgan yutuqlari uchun “Tashabbus” tanlovingin g`olibi deb topildi.

Mustaqillik yillarda **tarixiy obidalarni tiklash va ta`mirlash ishlari** katta e`tibor berilmoqda. Xususan, Buxorodagi tarixiy obidalarda tiklanish ishlari amalga oshirildi (Toqi Zargar, Toqi Telpakfurushon, Toqi Sarrofon savdo rastalari, Sarrofon hammomi, Bozori Kord va boshqalar). Bundan tashqari, Somoniylar maqbarasi, Abdullaxon, Nodir Devonbegi madrasalari, Ark majmuasi O`zbekiston ustalari, tajribali mutaxassislar me`morlar, pardozi ustalari jalb etilgan holda tiklandi.

Xivaning 2500 yilligiga bag`ishlab shahardagi bir qator majmualarning to`liq yoki qisman qayta tiklanishi amalga oshirildi (Muhammad Aminxon, Matniyoz Devonbegi madrasalari, Kalta Minor minorasi, Toshhovli saroyi, Pahlavon Mahmud memorial majmuasi, Musa to`ra madrasasi, Nurullaboy saroyi, Juma masjid, Islomxo`ja minorasi, Ark masjidi, Olloqulixon savdo rastasi va boshqalar). Ahmad al-Farg`oniyning 1200 yilligiga bag`ishlab Farg`ona va Quva shaharlarida yodgorliklar o`rnatildi.

**Din.** Barcha sobiq sho`ro respublikalarida 1990 yilgacha RSFSR hukumatining 1929 yil

qabul qilingan “Diniy uyushmalar to`g`risida”gi qarori amalda edi. Mustaqillik qo`lga kiritilgach, O`zbekistonda ob`ektiv ravishda diniy omil kuchaydi.

Masjid va madrasalar, Makka va Madinaga haj va umra qiluvchilar, erkin tarqalayotgan diniy adabiyotlar soni keskin ortdi. 1991 yilda O`zbekiston huquqiy tajribasida bиринчи бор “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to`g`risida” qonun qabul qilindi. Qonunda diniy tashkilotlar faoliyatining yangi sharoitdagi huquqiy asoslari, davlat organlari bilan o`zaro munosabatlari aniq belgilab berilgan.

Ushbu qonun har bir fuqaroga mustaqil, ixtiyoriy ravishda o`zining dinga munosabatini ifoda etish imkonini beradi. Davlat uning organlari diniy tashkilotlar ichki faoliyatiga aralashmaydi, diniy marosimlarni cheklab qo`ymaydi. Barcha diniy tashkilotlar va teng huquqqa egadirlar. Diniy tashkilotlar, o`z navbatida, davlatning sekulyar (dunyoviy) xarakterini e`tirof etadi. Diniy tashkilotlar davlat va maktabdan ajratilgan bo`lsa-da, jamiyatdan, uning ijtimoiy-madaniy va boshqa sohalaridan ajratilgan emas.

Mustaqil O`zbekistonda davlat organlari va diniy tashkilotlar rahbarlari o`rtasida o`zaro hamjihatlik va xayriyohlik munosabatlari qaror topdi. 1992 yildan Ro`za hayiti (Iyd al-Fitr) va Qurbon hayiti (Iyd al-Adho) bayramining bиринчи kunlari dam olish kuni deb e`lon qilindi. Islom ta`limoti va falsafasini keng o`rganish, o`zbek xalqining diniy, tarixiy va madaniy merosini chuqur ilmiy tadqiq etish, yuqori malakali dinshunos, huquqshunos va iqtisodchilarni tayyorlash maqsadida Toshkent islam universiteti ochildi (1999). Universitet huzuridagi gimnaziya, litsey, bakalavriat, magistratura, aspirantura bosqichlarida 1,5 mingga yaqin yoshlar tahsil oladi (2005). Universitet qoshida tadqiqot markazi tashkil etilgan. Markaz respublikada islam tarixi va islamshunoslik bo`yicha olib borilayotgan tadqiqotlarni muvofiqlashtiradi va zarur ilmiy uslubiy tavsiyalar ishlab chiqadi.

2006 yil 1 yanvar` holatiga ko`ra, respublikada 2186 ta diniy tashkilot, jumladan, 1987 ta masjid rasmiy ro`yxatdan o`tgani. Imomlarning 484 nafari (24,4%) oliy, 1194 nafari (60,1%) o`rta maxsus diniy ma`lumotga ega. Respublikada Toshkent islam instituti (Islam ma`had), o`rta maxsus islam bilim yurtlari hamda pravoslav va protestant seminariyalar mavjud. Barcha dindorlar O`zbekistonda va xorijda nashr qilingan diniy adabiyotlardan erkin foydalanmoqdalar. Alouddin Mansur tomonidan Qur`onning o`zbek tilidagi dastlabki izohli tarjimasi “Sharq yulduzi” jurnalining 1990-92 yilgi sonlarida e`lon qilindi, so`ng “Cho`lpon” nashriyotida jamlanib kitob holida nashr etildi. 2001 va 2004 yillarda Toshkent islam universiteti nashriyoti Abdulaziz Mansurning «Qur`oni Karim ma`nolarning tarjimasi va tafsiri»ni chop etdi.

### **Toshkent islam madaniyatি poytaxti.**

Mamlakatimizda mustaqillik sharoitida islam diniga berilayotgan katta e`tibor, xususan mashhur din arboblari Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Abdulholiq G`ijduvoniy, Burhoniddin Marg`inoniy, Xoja Ahror va boshqalarning xotiralarini nishonlanishi, ularga atab me`moriy majmualar bunyod etilishi jahondagi islam mamlakatlari nazaridan chetda qolmadi. Ayniqsa, poytaxtimiz Toshkentda ko`plab masjidlar qurilishi, o`quv yurtlari tashkil etilishi, islam me`moriy obidalarini ta`mirlashga bo`lgan hukumatimizning sa`y-harakatlari xalqaro islam tashkilotlari tomonidan e`tirof etilmoqda.

2007 yil yanvarda Islom konferentsiyasi tashkiloti (IKT) tarkibidagi muassasalardan biri-Ta`lim, fan va madaniyat masalalari bo`yicha Xalqaro islam tashkiloti (AYSeKO) tomonidan Toshkent shahriga “Islom madaniyatি poytaxti”, degan nom berildi. Toshkent bilan bir qatorda Fes (Marokash), Tripoli (Liviya), Dakar (Senegal) shaharlari ham Islom madaniyatining poytaxti, deb e`lon qilindi.

Toshkent shahri “Islom madaniyatি poytaxti” deb e`lon qilinishi yurtimiz ma`naviy-madaniy hayotida juda katta voqeа bo`ldi. Qolaversa bu o`zbek xalqining islam madaniy taraqqiyotiga qo`shgan beqiyos hissasining benazir e`tirofi bo`ldi. Toshkentda bunga javoban ulkan Hazrati Imom majmuasi bunyod etildi.

**Milliy madaniy markazlar** O`zbekistonda yashovchi muayyan bir millat vakillarining milliy madaniy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi jamiyat tashkilotlari bo`lib, dastlab 1989 yilda koreyslar, qozoqlar, yaxudiylar, armanlar tomonidan Respublika viloyatlarida tuzilgan. Hozirda ularning soni 140 dan oshadi.

O`zbekistonda yashovchi turli millat vakillarini Respublika ijtimoiy, ma`naviy-ma`rifiy

hayotida faol ishtirok etishini ta`minlash milliy-madaniy markazlar faoliyatini muhim yo`nalishlaridan biridir. Jumladan, xorijiy mamlakatlardagi turdosh tashkilotlar hamda tarixiy vatanlari bilan do`stlik, hamkorlik, madaniy - ma`rifiy aloqalar o`rnatish va hamdo`stlik aloqalarini rivojlantirish va Respublika baynalmilal madaniyat markazi, manfaatdor vazirliklar, idoralar, davlat va jamoa tashkilotlari hamda ijodiy uyushmalar bilan hamkorlikda mamlakatimizda fuqarolar hamjixatligi va millatlararo totuvlikni mustahkamlashga ko`maklashish markazning asosiy vazifalari bo`lib hisoblanadi. Milliy-madaniy markazlar faoliyatini O`zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 1992 yil 13 yanvardagi qarori bilan tashkil etilgan Respublika baynalmilal madaniyat markazi muvofiqlashtiradi.

Mustaqillikka erishilgach, **o`zbek adabiyoti** tarixining yangi davri boshlandi. Uning o`ziga xos xususiyatlardan biri avvalo sotsialistik realizm metodi o`z kuchini yo`qotganligida bo`ldi. Ikkinchidan, o`zbek tilining sofligi va adabiy til sifatidagi mavqeini tiklash uchun harakat boshlandi. Uchinchidan, sovet davrida qoralanib kelingan tarixiy siymolar (Amir Temur va b.) haqida tarixiy mavzuda asar yozish imkoniyati yaratildi. To`rtinchidan, islom dini g`oyalari va arboblarining obrazlari badiiy ijodda o`z ifodasini topa boshladi. Beshinchidan, yozuvchilar umuman erkin ijod etish huquqiga ega bo`ldilar. Oltinchidan, badiiy ijod biror ijtimoiy guruh, partiya yoki davlatning mafkuraviy quroli emas, balki xalqning adabiyoti, shu xalq hayoti, orzu va umidlarining ifodachisi sifatida maydonga chiqdi. ettinchidan, o`zbek adabiyoti milliy adabiyot sifatida kamol topa boshladi. Bu davr she`riyatida she`rlar sekin-asta yangi voqelikni yuzaki tasvirlashdan uning ichki mohiyatini ochishga, yangi tarixiy - ijtimoiy davrning ma`naviy masalalarini yoritishga o`ta boshladilar (Erkin Voxidov, Ablulla Oripov, Rauf Parfi, Usmon Azim, Shavkat Rahmon, Xalima Xudoyberdieva, M. Yusuf va b.).

Xalq hayoti va tarixiy o`tmishida ro`y bergen voqeа-hodisalarни garchad hikoya va ocherk janrlarida tasvirlash oson va qulay bo`lishiga qaramay, shu davrda yirik nasriy asarlar yaratildi. Bu janrlarda O.Yoqubov va P.Qodirov kabi tajribali romannavislar qatorida X.Shayxov, Muhammad Ali, Sh.Bo`taev, X.Davronlar ham ijod qildilar.

Mustaqillik davri **dramaturgiyasida** Amir Temur, Bobur, Ulug`bek va Jaloliddin Manguberdi singari davlat arboblari obrazini yaratishga alohida e`tibor berildi. A.Oripovning «Sohibqiron» dramasining yaratilishi adabiy hayotda voqeа bo`ldi va bu asar qo`shni mamlakatlar teatrlarida ham saxnalashtirildi. Dramaturg I.Sulton 90 - yillar boshlarida «Qaqnus», «Oydin kecha asirligida» va «Yangi odamlar» kabi p`esalarini yozib, ularda yangi davr qahramoni va shu davrning ijtimoiy-ma`naviy muammolarini sahnaga olib chiqishga urindi.

O`zbek xalqiga xos hazil mutoyiba va kulgiga bo`lgan mayl ko`plab **komediyalarni** paydo bo`lishiga asos bo`ldi. X.Muxammadning «Xotinlar gapidan chiqqan hangoma» komediyasi bilan boshlangan ijodiy jarayon E.Xushvaqtovning «Chimildiq», «Qalliq o`yin», «Andishali kelin» singari o`nlab komediyalari bilan davom ettirildi.

**Me`morlik.** O`zbekiston mustaqilligi sharofati bilan me`morlik ilgarigi cheklovlar iskanjasidan qutildi. Me`morlik ustidan o`rnatilgan davlat monopoliyasi o`z kuchini qisman yo`qotdi, xususiy uy-joy qurilishida yangi sifat va sur`at darajasi tez ko`tarildi. O`zbekiston shaharlari, ayniqsa Toshkent qisqa muddat ichida me`moriy jihatdan juda o`zgarib ketdi (Oliy Majlis, Oqsaroy qarorgohi, Toshkent hokimiyyati, Turkiston saroyi, Milliy bank, Interkontinental`, Markaziy mehmonxonasi, Akvapark va b.). Kasb-hunar kollejlari binolari, saroy inshootlari qurilishga katta e`tibor qaratildi (Toshkentdagi Yunusobod tennis korti, «Jar sport majmuasi va b.»).

O`zbek xalqi tarixiy xotirasini tiklash yo`lida muhim me`moriy tadbirlar amalga oshirildi (Imom Buxoriy majmuasi, Ahmad al-Farg`oniya atab Quva va Farg`onada haykal va sayilgoh bog`lar barpo etildi, Samarqandda Imom Maturidiy me`moriy yodgorligi tiklandi, Marg`ilonda Burxoniddin Marg`inoniy majmuasi, Toshkentda Qaffol Shoshiy nomi bilan bog`liq Hazrati Imom me`moriy majmuasi va b.).

Qadimgi yodgorliklarni ta`mirlashga xalq ustalari jalb etilmoqda. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi yodgorliklarga boy shaharlarimiz me`moriy ko`rik tarzida YuNeSKOning jahon madaniy merosi ro`yxatiga kiritilgani soha mutaxassislari oldida nihoyatda ma`suliyatli vazifalarni ko`ndalang qo`yan.

Mustaqillik yillarida an`anaviy madaniyatga e`tibor kuchaydi. 1997 yil «Xalq badiiy hunarmandchiliklarini va amaliy san`atini yanada rivojlantirishni davlat yo`li bilan qo`llab -

quvvatlash chora-tadbirlari to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori milliy madaniyatni rivojlantirishda **amaliy bezak san`atning** ahamiyatini oshirish, qo`lda ishlanadigan badiiy buyumlarni tayyorlash, asriy an`analarini va o`ziga xos turlarini qayta tiklash, shuningdek, xalq hunarmandlariga davlat tomonidan madad ko`rsatishda muhim ahamiyat kasb etdi. An`anaviy amaliy bezak san`ati mustaqillik davrida tiklanishi va rivojlanishi har yili Navro`zda o`tkaziladigan Amaliy bezak san`ati asarlari ko`rgazmasida namoyon bo`lmoqda. 1997 yil «Musavvir» ilmiy ishlab chiqarish markazi qoshida «Hunarmand» assotsiatsiyasi tashkil qilinib, respublikada ijod qilib kelayotgan ustalar birlashtirildi. Bugungi kunda an`anaviy hunarmandchilikni yo`q bo`lib ketgan turlarini, mahalliy markazlarini tiklash jarayoni ketayapti.

**Tasviriy san`atning** turli sohalarini rivojlanishida 1997 yilda O`zbekiston Badiiy Akademiyasi (BA)ning tashkil etilishi katta ahamiyatga ega bo`ldi. Milliy Rassomlik va dizayn instituti, Respublika badiiy kolleji va litsey-internati, barcha viloyatlar va Qoraqalpog`istonda tasviriy va amaliy san`at o`quv yurtlaridan iborat tarmoq qujudga keldi. BA tashkil bo`lgandan so`ng ko`rgazmalar faoliyati jadallahdi, o`zbek rassomlari turli respublika va xalqaro ko`rgazma, tanlov, festivallarda ishtirok etishdi.

O`zbekistonning mustaqilligi natijasida badiiy ijod, tasviriy san`atga e`tibor davlat siyosati darajasiga ko`tarildi. Sharqning buyuk musavviri Kamoliddin Behzod tavalludining 540 va 550 yilligi keng nishonlandi. Behzod nomidagi muzeyga asos solindi Yubileyлari xalqaro miqyosda nishonlangan Alpomish, Ahmad al-Farg`oniy, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Mirzo Ulug`bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburlarga haykallar o`rnatildi, ularga bag`ishlangan rasmlar ijod qilindi. Ushbu davrning mahobatli rangtasvir sohasida B.Jalolov, J.Umarbekov, A.Aliqulov va boshqa rassomlar yorqin asarlar yaratishdi. Xaykaltaroshlik sohasida I.Jabborov, R.Mirtojiev, A.Rahmatullaev va boshqalar ulug` ajdodlarimiz qiyofalarini aks ettirdilar. Manzara janrida R.Ahmedov, N.Qo`ziboev, R.Choriev, M.Saidov va boshqalar ijod qildilar. Grafika sohasida M.Kagarov, V.Apuxtin, P.Annenkov, G.Boymatov, A.Mamajonov va boshqalarning ijodiy izlanishlari ahamiyatga sazovor bo`ldi.

So`nggi yillarda qurilgan binolar – O`zbekiston konservatoriysi, Senat, O`zbek kiyimlari muzeyini bezashda rassomlar faol ishtirok etishdi. O`zbekiston tasviriy san`at galereysi (2004), Qoraqalpog`iston davlat san`at muzeyining zamonaviy yangi binosi qurib bitkazilishi (2002), Samarqanddagi Registon majmuasida «Chorsu» kartinalar galereyasining tashkil etilishi san`atning barcha sohalariga samarali ta`sir etdi, ijodiy izlanishlar doirasining kengayishiga turtki bo`ldi.

Mustaqillik yillarda o`zbek **an`anaviy musiqa** san`ati rivojiga e`tibor yanada kuchaydi. Xususan, shu davrda oilaviy ansambllar, fol`klor-etnografik ansambllar, to`y marosim qo`shiqlari, katta ashula, baxshi-shoirlar, maqom ijrochiligi bo`yicha ko`rik-tanlovlari bilan birga «Alla» (1991 yildan), «Sharq taronalari» (1997 y. Samarqand) Ma`murjon Uzoqov va Jo`raxon Sultonov nomidagi (1997 yildan, Marg`ilon), Xojiabdulaziz Abdurasulov nomidagi (1997 yildan, Samarqand), Komiljon Otaniyozov nomidagi (2001 yildan, Urganch), «Boysun bahori» (2003 yildan, Boysun) va boshqa yangi tashkil etilgan respublika va xalqaro musiqa festival` va tanlovlari o`tkazildi. Ayni paytda an`anaviy musiqa ijrochiligini o`rganish barcha musiqa kollejlari hamda ko`pgina bolalar musiqa maktablarida joriy etildi.

O`zbek mumtoz musiqa ijodiyoti va ijrochiligi sohasida keksa, etuk hamda yosh avlodga mansub o`nlab san`atkorlar-hofiz, sozanda va bastakorlar (T.Alimatov, G.Hoqiqulov, Q.Iskandarov, X.Rajabiy, O.Xudoyshukurov, A.Ismoilov, F.Umarov, O.Rasulov, Q.Rahimov, Sh.Jo`raev, O.Xotamov, F.Mamadaliev) sermaxsul ijod qilishdi.

Maxsus musiqa ta`limi tizimi O`zR Madaniyat va sport ishlari vazirligi tasarrufida bo`lib, 300 dan ziyod 7 yillik bolalar musiqa maktabları, 5 o`rta maxsus musiqa maktab (internat) va litseylari, 14 musiqa (san`at) kollejlari va O`zbekiston davlat konservatoriyasida amalga oshiriladi.

O`zbekiston mustaqilligi davrida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida bo`lganidek **teatr** sohasida ham tub o`zgarishlar ro`y berdi. Teatr san`atining ahamiyati oshdi: u endi mustaqillik g`oyasiga xizmat qilishi, buyuk ajdodlarimiz merosining, necha ming yillik o`ziga xos noyob madaniyatining vorisi ekanligini anglashga yordam berishi, ushbu boylikni asrash va umuminsoniy qadriyatlar, jahon taraqqiyoti yutuqlari asosida ko`paytirishga ko`maklashishi, o`sib kelayotgan yosh avlodni undan bahramand qilib, har tomonlama kamol topgan, qat`iy iroda va e`tiqodga ega kishilar qilib tarbiyalashi lozim edi.

Teatrlar nafaqat ijodiy, balki tashkiliy va iqtisodiy ishlarni ham mustaqil hal qila boshladilar.

Teatrlar repertuarida barcha mavzu yo`nalishlarini, ijodda shu kunda mayjud bo`lgan barcha uslub va vositalarni kuzatish mumkin. Tarixiy mavzularni ijodiy o`zlashtirishda mamlakat teatrлari katta yutuqlarni qo`lga kiritdi.

O`zbek teatrлari va san`atkorlarining dunyo sahnasiga chiqishi uchun keng yo`l ochildi. Milliy teatrimiz 1997 yil ilk marotaba Qohira shahrida o`tadigan xalqaro festivalda o`zining «Chimildiq» spektakli bilan qatnashdi.

Davlat teatrлari asosan O`zbekiston madaniyat va sport ishlari vazirligi tasarrufidagi «O`zbekteatr» ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi tomonidan boshqariladi. Teatrlar uchun mutaxassis kadrlar M.Uyg`ur nomidagi Toshkent davlat san`at instituti, madaniyat va san`at kollejlарida tayyorlanadi. «Teatr» jurnali ta`sis etilgan (1998).

Mustaqillik yillarda **kino va televidenie** sohada ham muhim o`zgarishlar sodir bo`ldi. Kino san`atida badiiy fil`mlar mavzular va qahramonlar bilan boyidi, kinoda ma`muriy tashkiliy ishlarni qayta tashkil etilishi sodir bo`ldi. 90-yillar oxiri - XXI asr boshlari fil`mlarida kinoning adabiyot, teatr bilan hamkorligining kuchayishi, haqiqiy hayot borligicha tasvirlanishi, mavzu, janrlar xilmassilligi, o`ziga xos ijod, yuqoriy tasviriy madaniyat, mualliflik fil`mlarining paydo bo`lishi ko`zga tashlanadi. («Otamdan qolgan dalalar», rej.Sh.Abbosov, «Voiz», «O`rtoq Boykenjaev», rej. Yu.Roziqov, «Buyuk Amir Temur», I.Ergashev, «Alpomish», H. Fayziev va b.)

O`zbekiston Respublikasi prezidentining 2004 y. 16 martdagи farmoniga ko`ra «O`zbekkino» davlat aktsionerlik kompaniyasi «O`zbekkino» Milliy agnetligiga aylantirildi. Televidenyada ko`rsatuvlarning asosiy qismi sho`rolar davrida Markaz teledasturlaridan iborat bo`lib, to`g`ridan-to`g`ri efirga uzatilardi. Istiqlol davrida mahalliy ko`rsatuvlar hajmi oshdi, o`zbek tilidagi ko`rsatuvlar ko`paytirildi.

1992 yil 11 martda O`zbekiston Respublikasi Televilenie va radioeshittirish davlat komiteti O`zbekiston Davlat teleradioeshittirish kompaniyasiga aylantirilishi munosabati bilan 4 ta telekanal tashkil etildi. O`zR Vazirlar Mahkamasining 2003 yili 4 noyabrdagi «Ommaviy sport targ`ibotini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi qarori asosida «Sport» telekanali tashkil etildi.

Televidenie qoshida «O`zbektelefil`m» 2005 yildan teleradiokompaniya tarkibida badiiy, musiqiy va hujjatli fil`mlar yaratuvchi davlat korxonasiaga aylantirildi.

Mustaqillik yillarda O`zbekiston milliy telekompaniyasining xalqaro aloqalari mustahkamlanib, boshqa mamlakatlar bilan o`zaro teledastur va videofil`mlar ayriboshlash sohasiga hamkorlikka keng yo`l ochilmoqda.

Mustaqillik yillarda mamlakatda **jismoniy tarbiya va sportni** rivojlantirish davlat ahamiyatiga molik vazifa etib belgilandi. Vazirlar Mahkamasining sportning alohida turlari (futbol, tennis, kurash)ni rivojlantirishga oid qarorlari bu borada muhim ahamiyatga ega bo`ldi. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «O`zbekistonda futbolni rivojlantirishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida»gi qarori (2006 y. 1 may) mamlakatda professional futbol klublari tashkil etishga yo`l ochdi.

Istiqlol davrida O`zbekiston sportchilarining xalqaro musobaqlarda muntazam ishtiroti etishi ta`minlandi. 1996 yil 6 fevralda sog`lom avlodni tarbiyalash, jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, olimpiya g`oyalarini rivojlantirishdagi beqiyos xizmatlari uchun O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Lozanna (Shveytsariya)da Xalqaro Olimpiada qo`mitasining oltin ordeni topshirildi. Bu orden namunasi 1996 yilda Toshkentda ochilgan Olimpiya shon-shuhrati muzeyidan joy oldi.

1996 yildan O`zbekistonda professional sport ham rasm bo`la boshladi. Ayniqsa, bokschilar yutug`i xalqimizni xursand etib kelmoqda. Artur Grigoryan, Muhammadqodir Abdullaev, Ruslan Chagaev va boshqalar bu sohada ulkan yutuqlarni qo`lga kiritdi. Rustam Qosimjonov shaxmat bo`yicha jahon championi bo`ldi (2004).

1998 yil 6 sentyabrda Toshkentda 28 davlat vakillari Kurash xalqaro assotsiatsiya (KXA)ga asos solishdi. 2005 yil unga 88 ta mamlakat a`zo bo`lgan.

O`zbekistonda o`quvchi va talaba yoshlari o`rtasida 3 bo`g`inli ommaviy sport musobaqlari o`tkaziladi. Umumiy o`rta ta`lim maktablari o`quvchilari o`rtasida «Umid nihollari», akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o`quvchilari o`rtasida «Barkamol avlod» hamda Oliy o`quv yurtlari talabalari o`rtasida «Universiada» sport musobaqlarini o`tkazish ta`lim-tarbiya tizimiga kiritilgan.

Xullas, O`zbekiston mustaqillikka erishgach, madaniy hayot ulkan sur`atlar bilan rivojlanishda davom etmoqda. Mamlakatimizda buyuk bonyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda.